

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**“BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI**

**YADGAROVA MALIKA LUTFULLAYEVNA**

**“BANK AUDITI” fanidan**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**



**TOSHKENT-2019**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**“BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” KAFEDRASI**

**YADGAROVA MALIKA LUTFULLAYEVNA**

**“BANK AUDITI” fanidan**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Bilim sohasi:** 200000 - Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq  
**Ta'lim sohasi:** 230000 - Iqtisod.  
**Ta'lim yo'nalishlari:** 5230700 - Bank ishi

**Yadgarova M.L, “Bank auditi” fanidan o’quv-uslubiy majmua.  
– T.: TMI, 2019.**

Ushbu o’quv-uslubiy majmua Toshkent Moliya instituti Kengashining 2019-yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Pul va banklar” fanning o’quv dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**

- Yadgarova M.L. – TMI, “Banklarda buxgalteriya hislbi va audit” kafedrası katta o’qituvchisi  
Qurbonov R – TMI, “Banklarda buxgalteriya hislbi va audit” kafedrası katta o’qituvchisi

**Taqrizchilar:**

- Ortiqov.U.D – TMI, “Bank hislbi va audit” kafedrası dotsenti;  
Karimov N.G. – TDIU, “Bank ishi” kafedrası professori (*turdosh OTMdan.*);

Fanning o’quv-uslubiy majmuasi kafedraning 2019-yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_ sonli yig’ilishi muxokaasidag o’tkazilgan va Kredit-iqtisod fakultet Kengashida ko’rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri**

**Umarov.Z**

Fanning o’quv uslubiy majmuasi Kredit-iqtisod fakulteti Kengashi muxokamasidan o’tkazilgan va institut o’quv-uslubiy kengashida ko’rib chiqish uchun tavsiya etilgan (2019-yil “\_\_” \_\_\_\_\_sonli qaror).

**Fakultet dekani**

**R.Saidov**

Kelishildi:

**O’quv-uslubiy bo’lim boshlig’i**

**T.Baymurotov**

**O’quv ishlari bo’yicha prorektor**

**I.Qo’ziev**

Fanning o’quv-uslubiy majmuasi institut o’quv-uslubiy Kengashining 2019-yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_-sonli yig’ilishda ko’rib chiqilgan va tasdiqlash uchun tavsiya qilingan.

Fanning o’quv-uslubiy majmuasi institut Kengashining 2019-yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_-sonli majlisi bayoni bilan ma’qullangan.

Fanning ishchi o’quv dasturi O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi 2019 yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_-sonli buyrug’i (buyruqning ilovasi) bilan tasdiqlangan “Bank auditi” fani dasturi asosida tayyorlangan.

## KIRISH

Respublikamiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida auditorlik faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. «Bank auditi» fanini chuqur o'rganish moliya, soliq, bank ishi, sug'urta va boshqa sohalar muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

“Bank auditi” fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni tijorat banklarida audit o'tkazish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlar to'g'risida bilimga ega bo'lishi, xususan, bank auditini tashkil qilishning yuridik asoslari va tartibi, banklarni audit o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlarni Markaziy bank tomonidan ro'yxatdan o'tkazish tartibi kabi masalalarini o'rgatish hamda egallagan bilimlari, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Insoniyat tarixiga bir nazar solsak, jamiyat rivojlana borishi bilan birga jamiyatda bo'layotgan xodisa va voqealarning kelib chikish sabablari, kutilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni o'rganuvchi bir qator tabiiy, iqtisodiy va gumanitar fanlar shakllana boshladi. Bu fanlar bilan birga iqtisodiyot fani ham jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy hodisalarni o'rganish, ularni tahlil qilish hamda jamiyatdagi moddiy ne'matlar yaratishdan tortib, uni iste'moli bilan bog'liq muammolarni o'rgana boshladi.

Butun dunyoda jamiyatning tuzilishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning a'zolari insonlar o'zlarining ehtiyojlarini qondirish va hayotlari uchun zarur bo'lgan noz-ne'matlarni yaratish ustida izlanishlar olib boradilar. Bu izlanishlar natijasida jamiyat rivojlanishi shakllana boshlaydi. Shu bilan birga jamiyat a'zolari ya'ni kishilar, guruhlar, tashkilotlar va mamlakatlar o'rtasida o'zlarida mavjud bo'lgan resurslardan foydalanib yukori daromad olishga erishish va olingan daromaddan samarali foydalanish orqali barqaror turmush tarzini yaratishga bo'lgan intilish kishilar o'rtasida iqtisodiy raqobat kurashini keltirib chikaradi.

# O'QUV MATERIALLARI

## MA'RUZA MATNLARI

### **1-mavzu. Bank auditi fanining predmeti, metodi va vazifalari**

#### **Reja:**

- 1. Bank auditi faning predmeti va uni shakllanishi**
- 2. Bank auditini tashkil etishning huquqiy asoslari**
- 3. Bank auditi metodlari**

Insoniyat tarixiga bir nazar solsak, jamiyat rivojlana borishi bilan birga jamiyatda bo'layotgan xodisa va voqealarning kelib chikish sabablari, kutilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni o'rganuvchi bir qator tabiiy, iqtisodiy va gumanitar fanlar shakllana boshladi. Bu fanlar bilan birga iqtisodiyot fani ham jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy hodisalarni o'rganish, ularni tahlil qilish hamda jamiyatdagi moddiy ne'matlar yaratishdan tortib, uni iste'moli bilan bog'liq muammolarni o'rgana boshladi.

Butun dunyoda jamiyatning tuzilishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning a'zolari insonlar o'zlarining ehtiyojlarini qondirish va hayotlari uchun zarur bo'lgan noz-ne'matlarni yaratish ustida izlanishlar olib boradilar. Bu izlanishlar natijasida jamiyat rivojlanishi shakllana boshlaydi. Shu bilan birga jamiyat a'zolari ya'ni kishilar, guruhlar, tashkilotlar va mamlakatlar o'rtasida o'zlarida mavjud bo'lgan resurslardan foydalanib yukori daromad olishga erishish va olingan daromaddan samarali foydalanish orqali barqaror turmush tarzini yaratishga bo'lgan intilish kishilar o'rtasida iqtisodiy raqobat kurashini keltirib chikaradi.

Bu raqobat kurashi jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishiga ko'rinmas kuch sifatida doimo turtki beradi va iqtisodiyot va jamiyat shu raqobat kurashi orqali rivojlanadi.

Audit faninig shakllanishiga bir nazar solsak, auditning tarixiy vatani Angliya bo'lib, 18 asrning o'rtalaridan boshlab Angliyada auditorlik tashkilotlari to'g'risida bir qator qonunlar qabul qilingan. Ushbu auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunlarga muvofiq aktsiyadorlik tashkilotlarda tijorat bank va tashkilotlarning boshqaruvchilari zimmasiga bir yilda kamida bir marta buxgalteriya xisob varaqlarini tekshirish va aktsiyadorlar oldida hisobot berish uchun maxsus odam taklif qilish vazifasi yuklatilgan edi.

Audit to'g'risidagi qonun Angliyada 1862 yilda chiqqan. Xuddi shunday qonun 1867 yilda Frantsiyada ham qabul qilingan. Amerika Qo'shma Shtatlarida auditning iqtisodiyot uchun zarur ekanligi 1937 yilga kelib tan olindi va tegishli qonun xujjatlari qabul qilindi.

Auditorlik faoliyati bizning mamlakatimizda yangi faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda audit 90-yillarning boshida – mustaqillikka erishilgandan so'ng va bozor iqtisodiga o'tishi bilan rivojlana boshladi. Nodavlat sektorida tijorat banklar vujudga kelishi bilan auditorlik faoliyati xizmatiga talab yuzaga keldi, chunki bozor strukturalari o'zlarining faoliyatlariga mustakil baho berilishiga ehtiyoj sezilar.

O'zbekistonda auditni rivojlanishiga kadrlarni tayyorlash va normalar ishlab chikish faoliyati bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar Assotsiatsiyasi katta hissa qo'shdi. Auditni rivojlanishida auditorlarning professional tayyorgarliklari muhim rol o'ynaydi.

Shunga asosan yurtimiz tomonidan auditorlik tekshiruvlarini rivojlanishi hamda talab darajasida xizmat ko'rsatishi maqsadida 1992 yil dekabrda qabul qilingan va 2000 yil 26 mayda yangi tahrir asosida ishlab chiqilgan «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonun ishlab chiqildi.

Jamiyat rivojlana borishi bilan birga jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni o'rganish, qilingan ishlarni sarhisob qilish, natijalarni oydinlashtirish, oldindan amalga oshirmoqchi bo'lgan imkoniyatlarni chamalash, kelgusi ishlarni rejalashtirish, faoliyatni sarhisob qilish va faoliyatga baxo berish tizimlari o'z-o'zidan jamiyat uchun zarurat sifatida asta sekin shakllana boshladi. Shunday faoliyat turlaridan biri bu auditorlik faoliyatidir.

Ma'lumki, tijorat banklari faoliyatiga real baho berish va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlarida audit tekshirishlari muhim ahamiyatga egadir.

Auditorlik faoliyatini o'rganuvchi va uning asosini tashkil qiluvchi audit fani tijorat banklarni ta'sis etishdan tortib uni boshkarish jarayoni, tijorat bankning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlash va tijorat bank faoliyatini tahlil qilishni uslubiy tomonlarini o'rgatadi.

Xususan, tijorat bank rivojlanishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, foydalanilayotgan resurslar zaxirasini kengaytirish, ularni ishlab chikarishga jalb etish, tijorat bank raqobatbardoshligi darajasini oshirish, xujalik faoliyatiga hamda tijorat bankning iqtisodiy salohiyatiga to'g'ri baho berish kabilar uslubiy tomonlar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari audit, tijorat banklarda buxgalteriya hisobotini tashkil etish, mavjud resurslardan foydalanish, samaradorlikka erishish yo'llarini aniqlash, tadbirkor va ishbilarmonlar faoliyatiga baho berish kabi masalalar echimini ham o'rgatadi.

Jamiyatdagi munosabatlarda auditning zaruriyati xisobot berish kontseptsiyasi talablari bajarilishi yuzasidan kelib chiqadi. Bu bir tomon ikkinchi bir tomonga hisobot berish va majburiyat bajarilishini nazorat qilishni e'tirof etadi va bu

nazorat ma'lum bir ma'lumot, tushuntirish yoki hisobot olishni nazarda tutadi. Xisobot berish quyi bo'g'in boshqaruvchilari yuqori bug'in boshqaruvchilarning aktsiyadorlarga xisobot berishi kerakligidan kelib chiqadi. Shuning uchun audit nazoratning mexanizmi sifatida yuzaga keladi va hisobot berishning bajarilishiga va ularning oydinlashtirilishiga yordam beradi.

Audit orqali vositachilik shartnomalari amalga oshadi, chunki bunda vositachining faoliyati nazorat qilinadi. To'g'ri ma'lumotlar olishda, berilayotgan axborotdagi noaniqlikni aniqlashda audit yana ham zarurdir. Audit qabul qilinayotgan qarorlar sifatini va tijorat bank aktivlarini taqsimlanishini yaxshilashga ham yordam beradi. Yana auditga sug'urta kafolati bajarilishini ta'minlaydigan chora sifatida qaraladi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishini va iqtisodiyotni erkinlashtirish natijasida auditorlik faoliyati tez sur'atlar bilan rivojlanib taftish tushunchasini siqib chiqarmoqda.

Audit va taftish tushunchalari keng ma'noda xo'jalik yurituvchi sub'ktlar bilan moliya-xo'jalik faoliyati ustidan o'rnatiladigan iqtisodiy nazoratni tashkil etish usullari hisoblanadi. Audit o'tkazishda hujjatli va haqiqiy taftishning ayrim amallari, ayrim xisob obektlarini taftish qilish usullaridan foydalaniladi.

Audit tijorat bankining ommaviy moliyaviy hisobotini to'g'riligini, to'liqligini, buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlar to'g'risidagi qonun va talablarga javob berishini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan mustaqil ekspertiza va taxlilni bildiradi. Bundan tashqari audit yana boshqa nazorat ishlarini o'z ichiga oladi.

Auditning asosiy faoliyati sub'ektning iqtisodiy ahvoriga bog'liq faktlarni yig'ish va baholashdir. Yuqoridagilarni hisobga olib auditning asosiy faoliyat turlarini ko'rishimiz mumkin.

Birinchiidan, har qanday auditorlik faoliyatini yuritishning majburiy sharti bo'lib uning chegarasi hisoblanadi. Bunday chegaralar muayyan iqtisodiy sub'ektning o'lchamlari yoki tarmoq auditida ma'lumot tizimini tekshirish bilan aniqlanadi.

Ikkinchiidan, auditor audit ob'ekti va uni o'tkazilishidan manfaatdor bo'lganlar o'rtasidagi «axborot bo'shligini» to'ldirishga harakat qiladi. Bu asosan hisobotlarda ayrim ma'lumotlarni etishmasligi yoki hisobotdagi ma'lumotlar ishonchliligi bilan baholash qaror qabul qilish uchun foydalanish mumkin bo'lmagan holda.

Uchinchiidan, audit o'tkazayotgan shaxslarning malakasi asosiy shartlardan hisoblanadi. Auditor kerakli ma'lumotlarni yig'ish va o'lchovlarni tushunish orqali ma'lumotlarni baholashni yaxshi bilishi kerak. Bundan tashqari, auditoridan muomala me'yorlariga rioya qilish talab qilinadi, ya'ni u o'zini mustaqilligini

saqlash va tashqi hamda ichki ta'sirlarga qarshi tura olishi kerak.

Shuningdek O'zbekistondagi auditorlik faoliyati oldida turgan muhim vazifalardan biri xorijlik xamkorlar tan oladigan auditorlik xulosasini berish qobiliyatiga ega, sertarmoq va professional darajadagi umummilliy auditorlik kompaniyalari tashkil etish xisoblanadi.

O'zbekistonda auditning tarkib topishi misilsiz tarixiy o'zgarish bozor io'tisodiyotiga o'tish bilan izohlanadi. Chunki bozor io'tisodiyotida tadbirkorlik sub'ektini boshqarish vazifasi professional menejerlar qo'liga o'tdi, natijada tashkilot moliyaviy holatini mustaqil nazorat qilishga ehtiyoj tug'ildi. Kapitallarni jamlashda aktsiyalashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi, korporativ boshqaruv tizimining yo'lga qo'yilishi mustaqil moliyaviy ekspertiza natijalari oshkoraligini ta'minlash zaruratini tug'diradi. Chunki moliyaviy hisobotlar tashkilot bilan aloqada bo'lgan barchani, ya'ni rahbarlar, xodimlar, mijozlar, mulkdorlar, kreditorlar, investorlar, davlat va hokimiyat organlarini mustaqil auditorlar tasdiqlaydigan axborotlar qiziqtiradi, hisobotlar boshqa tashkilotlarning banklar bilan hamkorlik qilishi uchun ishonch uyg'otadi. Binobarin mamlakatimizda audit turli guruhlarining qiziqishi va talablariga javob tariqasida paydo bo'ldi. Shuning uchun xam Prezidentimiz tomonidan ham ushbu sohani rivojlantirish va talab darajasida amalga oshirilishini ta'minlash, xamda respublikamizda audit sohasini rivojlanishi va takomillashishi uchun barcha choralarni ko'rib bormoqda.

Bank auditining ob'ekti bo'lib, mamlakatimiz tijorat banklarida o'tkaziladigan audit tekshiruvlari va bu jarayondagi amallar hisoblanadi. Bank auditi faninning pedmeti bu Respublikamiz tijorat banklari faoliyati hisoblanadi. Bank auditining metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari, tijorat banklari ma'lumotlari, davriy nashrlar va internet ma'lumotlari, amaldagi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi prezidenti qarorlari va boshqa me'yoriy- huquqiy hujjatlar tashkil qiladi.

## **2. Bank auditini tashkil etishning huquqiy asoslari**

Ma'lumki, tijorat banklari faoliyatiga real baho berish va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlarida audit tekshirishlari muhim ahamiyatga egadir.

Audit tushunchasi – tijorat banklari faoliyatining yakunlarini xolisona baholash bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liqdir. Chunki rejali xo'jalik yuritish usulida to'la mustaqil bo'lmagan tijorat banklarni audit qilishga zaruriyat yo'q bo'lib, ularni taftish qilish kerak edi. Shuning uchun barcha davlat vazirliklarida taftish boshqarmasi mavjud bo'lib, bu boshqarmalar rejali xo'jalik yuritishda muhim rol o'ynagan.

Audit atamasi lotincha «**audit**» eshitmoq so'zidan olingan bo'lib, turli mulk



shaklidagi tijorat bank va tashkilotlarning buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tekshirish jarayonini anglatadi.

Audit mustaqil nazorat qiluvchi tadbirkorlik sub'ekti sifatida tijorat banklari tomonidan berilayotgan moliyaviy axborotlarning haqiqiylikini tasdiqlaydi. Undan kutilayotgan maqsad tijorat banklari faoliyatining barcha qirralari bo'yicha faktlarni yig'ish va baholash, hisobotlarni tekshirish, ularning me'yoriy hujjatlarga mos ravishda bajarilgan yoki bajarilmaganligini tekshirishdan iborat.

Audit olib borish tartibi hukumat qarorlari va idoraviy yo'l-yo'riqlar bilan tartibga solinadi yoki yo'naltiriladi, faoliyatning muayyan qirralaridagi og'ishlarni vaqti-vaqti bilan nazorat qilib turadi. Asl hujjatlar va buxgalteriya qaydlari, naqd pul vositalari, material-xomashyo qiymatini diqqat va e'tibor bilan kompleks ravishda o'rganadi. Moliyaviy hisobotning haqqoniyligi bo'yicha o'z fikrini bildiradi. Moliya xo'jalik faoliyatini tahlil qiladi, aktiv va passivlarini baholaydi. Mijozning moliyaviy holatini yaxshilash, investorlar, kreditorlarni jalb etishga yordam beradi, moliya, soliq va boshqa sohalarga maslaxat beradi. Audit xulosasi barcha jismoniy va yuridik shaxslar uchun, hokimiyat va sud idoralari uchun huquqiy hujjat hisoblanadi. Bu xulosa matbuotda ham e'lon qilinishi mumkin. Auditning taftishdan asosiy farqi ham mana shunda. Rejali xo'jalik yuritish usulida iqtisodiy - moliyaviy jihatdan to'la mustaqil bo'lmagan tijorat banklarni audit tekshiruvlardan o'tkazishga zarurat tug'ilmas edi. Chunki, ularni taftish qilishning o'zi etarli edi. Shuning uchun barcha vazirlik, idoralarda taftish boshqarmalari faoliyat yuritardi.

Bank auditi bu davlat va nodavlat organlarning belgilangan me'yor va qonuniy vakolatlar doirasida amalga oshiriluvchi harakatlar to'plamidir. Ushbu ta'rif bank auditi mohiyatini belgilaydi.

Ya'ni bank auditi har bir davlatda o'z xususiyatlaridan kelib chiqib davlat organlarini biriga yoki bir nechtasiga topshiriladi. Albatta ularning nazorat yondashuv usullari turlicha, lekin ularning maqsadi bir xildir.

Demak, bank auditini asosiy moxiyati bank tizimini bir maromda faoliyat ko'rsatishini, kreditorlar, omonatchilar va mijozlar manfaatini ximoya qilish shu bilan birga sog'lom bank faoliyatini tashkil qilishda nazorat organlari mamlakatni ichki va tashqi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyatlarini tashkil etishdan iboratdir.

Bank auditini zaruriyligi banklarning bankrotlik riskiga juda yaqinlik bilan belgilanadi, bunda bitta bankning bankrotligi bir necha soha sub'ektlari bo'lmish kreditorlar va mijozlarning bankrotligiga olib kelishi yoki boshqa banklar faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Chunki iqtisodiyotda barcha soha sub'ektlari o'zaro zanjirli bog'liq hisoblanadi.

Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilish asosan hukumat qarori Markziy

Bank monetar siyosati yo'nalishlari, qonun hujjatlari, Markaziy Bank yo'riqnomalari asosida olib boriladi. Huquqiy-iqtisodiy me'yorlarni o'rnatilishi banklarni bankrotlik chegarasidan ogoh etib turadi. Bu esa, sifatsiz yoki yomon boshqaruvga ega banklar faoliyatini tartibga solish uchun juda muhim. Bank faoliyatini xuquqiy bazasini mustahkam emasligi banklarning bankrot bo'lishiga hamda butun bank sferasini inqirozga olib kelishi mumkin. Bank tizimini ishonchli va samarali tartibga solib turuvchi huquqiy me'yorlar majmuasi yaratilishi va barcha banklarga bir xil qo'llanilishi lozim. Aks holda ayrim banklar erkin raqobat muhitidan chetda qolib ketadi.

Tijorat banklarida o'tkazilayotgan auditorlik tekshirishlari sifati va ta'sirchanligini oshirish, tashqi audit faoliyatini takomillashtirish, auditorlik firmalari o'rtasida erkin va sog'lom raqobat munosabatlarini kuchaytirish hamda aholi va sarmoyadorlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish maqsadida 1996 yil 24 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank audit tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan edi.

Mazkur farmon talablarini bajarilishini ta'minlash va Respublikada bank auditini mustahkamlash maqsadida o'tgan davr mobaynida Markaziy Bank tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi bank tizimiga kiruvchi tijorat banklari auditini o'tkazish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida tijorat banklariga litsenziyalar berish va ular faoliyatini tartibga solish departamenti tarkibida "Auditni muvofiqlashtirish bo'limi" tashkil etildi.

Shuningdek, mazkur Farmonga muvofiq tijorat banklarida audit tekshiruvlarini o'tkazish, auditorlik firmalari va auditorlarga banklarda audit o'tkazishga ruxsat berishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida Markaziy Bank tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining bank auditini o'tkazishga qo'yadigan talablari to'g'risida"gi, "Bank auditini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatni berish, bekor qilish va auditorlarni malaka attestatsiyasidan o'tkazish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi bank auditini o'tkazish uchun sertifikat berish va auditorlarni malaka attestatsiyasidan o'tkazish komissiyasi to'g'risida"gi Nizomlar ishlab chiqildi.

Farmonning 1-bandi 3-xat boshisiga asosan Respublika hududida ish yurituvchi auditor firmalari va auditorlarga tijorat banklarida auditorlik tekshirishlarini o'tkazish huquqini beruvchi 6 ta sertifikatlar hamda 10 ta malaka sertifikatlar berildi.

Farmondan keyin "O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bank auditini o'tkazish uchun sertifikat berish va auditorlarni malakasi bo'yicha atestatsiya komissiyasi" tamonidan quyidagi xalqaro auditorlik konsalting firmalariga bank

auditini o'tkazish huquqini Bbruvchi tegishli sertifikatlar berilgan:

1. "Kupers end Laybrand" (2-sonli sertifikat (litsenziya) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1996 yil 14 noyabrda berilgan);
2. AOZT "Deloyt end Tush" (3-sonli sertifikat (litsenziya) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1996 yil 14 noyabrda berilgan);
3. "Artur Andersen" (4-sonli sertifikat (litsenziya) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1996 yil 14 noyabrda berilgan);
4. "Ernest end yang" (5-sonli sertifikat (litsenziya) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1996 yil 30 dekabrda berilgan);
5. "Key Pi EM Dji" (6-sonli sertifikat (litsenziya) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1996 yil 30 dekabrda berilgan);

Ushbu auditorlik firmalari bank va moliya sohasida konsalting xizmatlari ko'rsatish va audit o'tkazish bo'yicha dunyoda etakchi o'rinlarni egallaydi.

Bundan tashqari "O'zbankaudit" aksionerlik jamiyatiga 1996 yil 3 oktyabrda bank auditini o'tkazish huquqini beruvchi 1-sonli sertifikat (litsenziya) va 4 ta auditorga malaka setifikati berilgan.

Tijorat banklarida audit tekshiruvlari o'tkazish uchun jahon banki mutaxassislari bilan birgalikda texnik topshiriqlar ishlab chiqilgan edi va bu texnik vazifalar Markaziy Bank boshqaruvida 1997 yil 10 mayda tasdiqlangan edi.

Markaziy Bank boshqaruvi topshirig'iga muvofiq mutaxassislar tomonidan bank auditini o'tkazish xususida tuziladigan shartnomalarning namunasi ishlab chiqildi va 1996 yil 16 dekabrda 416-sonli farmoyishiga asosan auditorlik firmalari bilan tijorat banklarida audit o'tkazish uchun shartnomalar tuzish komissiyasi tuzildi. chunki Prezident Farmonlariga muvofiq tijorat banklarini xalqaro auditdan o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlar Markaziy Bank hisobidan amalga oshirilishi kerak edi.

Prezident farmonini bajarish borasida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarini guruhlariga, auditor Firmalariga taqsimlash, hamda ularda operatsion audit o'tkazish uchun tashqi auditorlarga beriladigan texnik topshiriqlarni va auditorlik xizmatiga haq to'lash to'g'risida 1997 yil mayda Markaziy Bank boshqaruv qarori qabul qilindi.

Auditorlik firmalariga va auditorlarga banklarda audit o'tkazish uchun Markaziy Bank tomonidan beriladigan sertifikatlarni olish tartibini yanada takomillashtirish hamda tijorat banklarida audit tekshiruvlarini bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazel komiteti talablariga muvofiqlashtirib, amaliyotga yangicha mazmunda joriy etish maqsadida Jahoni bank ekspertlari ishtirokida 1998 yilda mazkur me'yoriy hujjatlar qayta ishlab chiqildi.

Auditorlik firmalarining banklardagi audit tekshiruvlari bo'yicha taqdim etgan xulosalari Markaziy Bank tomonidan tahlil qilinib, audit tekshiruvi

xulosalarida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish, tijorat banklari faoliyatini kuchaytirishga doir tavsiyanomalarni bajarilishini ta'minlash maqsadida Markaziy Bank tomonidan tijorat banklari Kengashlari va Boshqaruvi raislariga aniq, ko'rsatmalar berildi va ushbu ko'rsatmalarni bajarilishi qattiq nazorat ostiga olindi.

Xususan, Markaziy Bankda faoliyat ko'rsatgan "Barents grupp - LLS" konsalting firmasi maslahatchilari bilan hamkorlikda Markaziy Bank mutaxassislari tomonidan "O'zbekiston Respublikasida banklarni audit qilish to'g'risida"gi Nizom, "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar" ishlab chiqilib, Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazildi.

Ushbu me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqilishi tijorat banklarida o'tkazilayotgan ichki va tashqi audit tekshiruvlarini Markaziy Bank tomonidan tartibga solish jarayonini ancha yaxshiladi.

Tijorat Banklarida sifatli audit tekshiruvlarini o'tkazilishini ta'minlash maqsadida Markaziy Bank tomonidan Jahon banki mutaxassislari bilan birgalikda tashqi audit tekshiruvlarini o'tkazishga texnik topshiriqlar ishlab chiqilib, barcha auditorlik firmalari va tijorat banklariga etkazildi.

Shuningdek, respublikada xizmat ko'rsatayotgan tijorat banklari faoliyatiga real baho berish, bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashda banklarda auditorlik tekshiruvlari sifati va ta'sirchanligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini xolisona tahlil etilishini ta'minlash va audit tekshiruvlarini xalqaro andozalar darajasida tashkil etish maqsadida 1999 yil 18 sentyabrda Markaziy Bankning "O'zbekiston Respublikasida banklarni audit qilish to'g'risida" 1998 yil 4 iyuldagi 403-sonli Nizomiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Yuqorida nomlari ko'rsatib o'tilgan Nizomlar asosida Markaziy Bankda auditorlarga sertifikatlar berish va auditorlar malakasini attestatsiya qilish bo'yicha komissiya tuzilgan bo'lib, mazkur komissiya tomonidan bugungi kunda 4 ta nufuzli xalqaro auditorlik firmalari Artur Andersen limitedi, Prays Voterxaus Kupersa, Ernest end Yangp, KPMG va 3 ta maxalliy Xolis Guruh, Odil-audit, O'zbankaudit kabi auditorlik firmalariga bank audit o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatlar hamda mazkur auditorlik firmalarining 18 ta auditorlariga malaka sertifikatlari berildi.

Auditorlik firmalarining banklardagi audit tekshiruvlari bo'yicha taqdim etgan xulosalari Markaziy Bank tomonidan tahlil qilinib, audit tekshiruv xulosalarida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish, tijorat banklari faoliyatini kuchaytirishga doir tavsiyanomalarni bajarilishini ta'minlash maqsadida Markaziy Bank tomonidan tijorat banklari Kengashlari va Boshqaruvi raislariga aniq, ko'rsatmalar berildi va ushbu ko'rsatmalarni bajarilishi qattiq nazorat ostiga olindi.

Ayni paytda, Markaziy Bank tomonidan banklarda audit o'tkazish huquqiga ega bo'lgan auditorlik firmalari o'rtasida sog'lom raqobatni kuchaytirish

maqsadida respublikada faoliyat ko'rsatayotgan boshqa auditorlik firmalarini banklarda audit o'tkazish jarayoniga jalb etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, bank tizimini iqtisodiyotda tobora kuchayib borayotgan o'zgarishlar bilan baravar qadam tashlash, tijorat banklari xodimlarining bilim va ko'nikmalarini oshirib borish maqsadida Jahon bank ekspertlari bilan hamkorlikda Markaziy Bank tomonidan tashqi audit masalalariga bag'ishlangan seminarlar o'tkazildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 1998 yil 4 iyul 405-sonli tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablari to'g'risidagi Nizomiga muvofiq, barcha tijorat banklarida ichki audit xizmati tashkil etildi.

Bankda amalga oshirilayotgan operatsiyalarni balansda to'g'ri aks ettirilishini ta'minlash, buxgalteriya hisobini to'g'ri yo'lga qo'yishda ichki audit xizmatining roli muhimdir. Shu bois ham barcha tijorat banklarida ichki audit xizmati bevosita bank Kengashiga buysondirilgan.

Tashqi auditorlarning asosiy vazifasi bank tomonidan olib borilayotgan faoliyatni qonunchilikka va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini hamda ichki nazorat tomonidan olib borilayotgan faoliyatni nazorat qilishdan iboratdir. Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida tijorat banklari ichki auditorlari tomonidan bank moliyaviy hisobotlari joriy audit tekshiruvidan o'tkazib borilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aktsiyadorlik tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1998 yil 2 oktyabrdagi Pf-2084 sonli Farmoni muvofiq, tijorat banklarida aktsiyadorlar rolini oshirish va banklarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash maqsadida har chorakda bank Kengashida ichki audit xizmati rahbarining hisobotini tinglash amaliyotga joriy qilindi.

Tijorat banklari tashqi auditiga oid me'yoriy hujjatlar bank nazoratini amalga oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

Markaziy Bankning tijorat banklari tashqi auditiga bo'lgan talablarini yangi taxrirda qabul qilinishini tartibga solish jarayonini ancha yaxshiladi. Mazkur o'zgargan talablarni tijorat banklari tomonidan qisqa muddatlarda bajarilishini ta'minlash uchun Markaziy Bank Amerika Xalqaro rivojlantirish agentligi (USAID) va Xolis Guruh auditorlik firmasi bilan birgalikda 1999 yil 13-15 dekabr kunlari "Tijorat banklarida ichki audit" mavzusida seminar o'tkazilib, seminarda tijorat banklaridan 78 ta xodim ishtirok etdi.

1999 yilda Markaziy Bank Jahon banki bilan birgalikda bank tizimini isloh qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Respublika moliya institutlarini rivojlantirish zayomini o'zlashtirishga kirishdi. Mazkur zayomning ahamiyatli tomonlaridan biri tijorat banklarida ichki auditni rivojlantirishni ta'minlash borasida texnik yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Shunga asosan ushbu zayom hisobidan tijorat banklariga audit xizmati faoliyatini yanada takomilashtirishda ko'mak berish maqsadida Markaziy Bankda xorijiy maslahatchilar ish olib bormoqda.

Ushbu maslahatchilarning asosiy vazifasi tijorat banklari audit xizmatlari faoliyatini o'rganib chiqib, uning faoliyatini jahon andozalari darajasida tashkil etishga ko'mak berishdan iboratdir.

«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunning «Banklarda hisob yuritish va hisobot, banklarni nazorat qilish» deb nomlangan VI—bobida banklarda buxgalteriya hisobi yuritish va hisobot qoidalari Markaziy bank tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro standartlarga muvofiq belgilanishi, Markaziy bank qonun hujjatlariga muvofiq banklar faoliyatini nazorat qilib borishi aytilgan. qonunning 43-moddasi butunlay auditga bag'ishlanib, unda shunday deyiladi: «Banklarning faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik tekshirishlarini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan auditorlar tomonidan har yili tekshirib turilishi lozim. Audit, xususan, kapitalning etarlicligini baholash, ssudalarni tasniflash, ssudalar bo'yicha zararlarni qoplash, riskni va likvidlilikni o'lchashni o'z ichiga oladi. Banklar qonun hujjatlariga muvofiq ichki auditorlik dasturlarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari ham shart».

O'zbekistonda bank auditiga bunchalik katta e'tibor qaratilayotganining sabablari bor. Chunki davlat nazorati organlarining tijorat banklarining operatsiyalarni o'tkazish va ularning hisobini rasmiy jihatdan olib borishiga qo'yiladigan barcha talablarga rioya etilishi mamlakat kredit tizimining sifati va ishonchligini ta'minlaydi. Bu talablar, birinchi navbatda, banklarga jalb etilgan omonatchilar va mulkdorlar kapitalining yo'qotishlar riskni bartaraf etish yoki uni eng past darajaga tushirish sharti bilan bank operatsiyalarining daromadligini makbul darajada ta'minlashga karatilgan.

Agar biz jahon mamlakatlari kredit tizimining tarixiy rivojiga nazar solsak, bank va ular mijozlarining ko'p bor xonavayron bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Shu bois ular faoliyati ustidan O'zbekistonda davlat nazorati o'rnatilishi zarurligini tushunishga olib keldi. Misol uchun, 1929—1933 yillarda ro'y bergan jahon iktisodiyoti inqirozi AQSh iqtisodiyotiga katta zarba berdi. Bu holni tahlil qilgan «The Vap Keg» jurnali quyidagi xulosani chiqaradi «Amerika bank tashkilotining qoniqarsiz ahvoli va uni keskin o'zgartirish zarurati shunda bo'ldiki, bu tizim tadbirkorlik hamjamiyatiga ham, alohida shaxsga ham xizmat qila olsin. Inqiroz quyidagilarni oshkor etdi:

1. Amerika banklari tashkilotining nosog'lom tabiati banklarning turli sabablar bilan xonavayron bo'lishiga olib keldi.

2. Amerika bank tizimi iktisodiy inqiroz va stresslar paytida jamiyat manfaatlarini ta'minlashga noqobil bo'lib chiqdi.

3. Federal Rezerv Tizimi (o'sha davrda, inqroz paytida) pul bozorini nazorat xam, muvofiqlashtira ham olmadi.

AKShning «ulug' inqiroz» yillaridagi audit va bank nazorati tahlili sohadagi ishlarni butunlay qayta ko'rib chiqishga olib keldi. Prezident F.Ruzvelt boshchiligidagi hukumat bank tizimini markazlashtirish siyosatini yuritdi va bu siyosat mamlakatda bank nazorati va auditini yangi bosqichga olib chiqdi. Keyinchalik depozitlarni sug'urtalash siyosatining kengayib borishi AQSh moliya tarixida banklarni Umumfederal nazorati ostiga olish imkonini berdi.

Umuman olganda, «buyuk inqiroz»dan keyingi yillarda ham moliyaviy bo'ronlar u yoki bu mamlakatda turli shakllarda yuz berib turdi va ularning tahlili hamda jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayoni banklar ustidan maxsus davlat nazoratining o'rnatilishi va kuchaytirilishini tushunishga olib keldi. Bu sohadagi tajribalarni umumlashtirish, muvofiqlashtirish maqsadida 1975 yili Bank nazorati bo'yicha Bazel komiteti tuzildi. O'zbekiston ham bu komitetga 1995 yildan buyon a'zo bo'lib kirgan.

Bank auditining asosini banklarning o'zlari tomonidan tayyorlagan moliyaviy hisobot shakli yoki auditorlik firmalari tasdiqlagan ish faoliyatining moliyaviy ahvoli va rentabelligi xaqidagi axborotlar tashkil etadi. Ko'pgina xalqaro me'yoriy hujjatlarda bank aktivlari va passivlarini to'g'ri baholash, ular faoliyatining moliyaviy natijalari haqqoniy baholanishi zarurligi ta'kidlanadi.

Bank ishining moliyaviy ahvoli va rentabelligi xaqidagi aniq axborotlarning nazorat organlariga taqdim etilishiga Bank nazorati bo'yicha Bazel komiteti bankning barqaror faoliyat ko'rsatishining majburiy sharti sifatida qaraydi va bu uning «Samarali bank tizimining asosiy mezonlari» deb nomlangan hujjatida ham o'z aksini topgan. Mazkur komitetning 1998 yil sentyabrda «Bank ravshanligini mustahkamlash» degan maxsus materialiy tayyorlanib, unda bank faoliyatining moliyaviy ahvoli va natijalari xaqidagi axborotlarning o'z vaqtida ommaga etkazib borilishi ta'kidlangan. Bazel komitetining 1999 yil iyunida qabul qilingan boshqa bir hujjatida shunday uqtiriladi: «Banklar mavjud tavakkalchiliklar va unga olib keluvchi vaziyatlar haqidagi ma'lumotlar kabi yo'qotish hollariga zaxira sifatida shakllantirgan kapitallarining barcha asosiy komponentlarini qisqa muddatlarda ommaga etkazib borishi kerak. Bunday axborotlar xech bo'lmaganda yillik moliyaviy hisobotlarga kiritilishi, ularda bank moliyaviy ahvoli va faoliyati natijalarini aks ettiruvchi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari, operatsiyalari, risklar tarkibi va ularni boshqarish borasidagi sa'y — xarakatlari yoritilmog'i lozim».

O'zbekistonda bank auditini takomillashtirish, tijorat banklarining risklari va rentabelligi darajasi, moliyaviy ahvoli haqida xaqqoniy axborotlar bilan ta'minlashga qaratilgan kompleks tadbirlar ko'rib borilmoqda. Bunda 1996 yilda parlament tomonidan «Buxgalteriya xisobi to'g'risida»gi qonunning qabul

qilinishi hamda 1997 yil mart oyidan boshlab tijorat banklarida buxgalteriya hisobining yangi hisobvaraqlar rejasiga o'tkazilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bular banklar resurslarining tarkibi, ularning yuridik tegishliligi va muddati, bank resurslarining turli daromadlilik bo'yicha joylashtirilishi, tezligi va operatsiyalar tavakkalchiligi bo'yicha bank faoliyatiga qiziquvchilarni haqqoniy axborotlar bilan ta'minlash imkonini berdi.

Biroq eng mukammal xalqaro standartlar xam tijorat banklarining real moliyaviy ahvoli va moliyaviy hisobotlaridagi ma'lumotlar bilan mos kelmasligi mumkin. Bu mumkin ham emas, chunki hech qanday yo'l-yo'riqlar banklar o'z hisobi va mijozlari topshirig'i bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda barcha nostandart hollarni aks ettirmaydi. Bunday paytda bank nazorati organlari tomonidan ishlab chikilgan dasturlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar, mustaqil auditorlar tomonidan bajariladigan tekshiruvlar katta ahamiyatga ega.

Markaziy bank topshirig'iga muvofiq mutaxassislar tomonidan bank auditini o'tkazish bo'yicha tuziladigan shartnomalarning namunasi hamda tijorat banklarida audit tekshiruvlarini o'tkazish uchun Jaxon banki mutaxassislari bilan birgalikda texnik topshiriqlar ishlab chiqildi. Bank faoliyati va hisoboti tahliliga oid bu topshiriqlarda auditorlar oldiga auditorlik tekshirishlari davomida kelishilgan muddatda (besh yilgacha) tahliliy obzor olib borishi vazifasi qo'yildi. Unda standart moliyaviy tahlilda qo'llanilgan balans va balansdan tashqari pozitsiyalar, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotlar hamda boshqa muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy ko'rsatkichlar jamlangan asosiy moliyaviy ko'rsatkichlarni atroflicha va o'sish izchilliklarini yoritish talab etildi.

Ko'rsatkichlarni tanlab olishda :

- ssudalarni tasniflash asosida aktivlar sifati va zaxiralarni yaratish;
- balans va balansdan tashqari moddalarning tarkibidagi o'zgarishlarning asosiy tendentsiyalari, nisbiy likvidlilik, foiz stavkasi va valyuta riskni boshqarish bo'yicha choralar;
- daromadlar tarkibidagi asosiy tendentsiyalar;
- boshqaruvning iqtisodiy samaradorligi va sarf - xarajatlar samaradorligiga qaratilishi zarurligi ta'kidlandi.

Auditorlar quyidagi hollarni alohida qayd etishi uqtirildi:

- bank aktivlari portfeli ahvoli, jumladan ssudalarni tasniflashda foydalanilgan mezonlar ko'rsatilgan holda muddati uzaytirilgan qarzdorliklar;
- bankning mahalliy va xorijiy banklardagi tekshirilgan hisobvaraklari («nostro» xisobraqami) va yil yakunigacha tugallanmagan pozitsiyalarning to'liq qondirilgan taqqoslamasi;
- bankning mahalliy va xorijiy banklardagi tekshirilgan hisobvaraqlari («loro» xisobraqami) va yil yakunigacha tugallanmagan pozitsiyalarning to'liq



qondirilgan taqqoslamasi;

— yil yakunigacha amaldagi qonunchilikka muvofiq o'tkazilgan inventarizatsiya natijalarini tekshirish;

— filiallar va bosh bank o'rtasidagi hisob — kitoblarning debet va kredit saldosi tekshirish, ularning yil yakunigacha to'liq chegirmalar, shu jumladan ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplashga ajratilgan umumiy zaxiralar va real yoki ehtimoliy zararlar o'rnini to'ldirish uchun yaratilgan joiz zahiralar tahlili;

— yil davomida bank va unga aloqador bo'lgan shaxslar o'rtasida olib borilgan barcha asosiy operatsiyalar tahlili va bu operatsiyalarning bankning o'z kapitali va uning sof daromadiga ko'rsatgan samarasi.

Banklarning buxgalteriya hisobini yuritish qoidalariga rioya qilishi tekshirilganda quyidagi jihatlar qamrab olindi:

— aktiv va passivlarni baholash tizimi;

— amaldagi qonunchilik asosida daromadlar va xarajatlarni hisoblash usuli;

— qimmatli qog'ozlarni baholash uchun asoslar;

— boshqa kompaniyalarda ishtirok etish portfelini baholash uchun asoslar;

— xorijiy valyutadagi «spot»lar va forvard shartnomalarni baholash uchun asoslar;

— xorijiy valyutani konvertirlashning belgilangan tartibiga rioya qilishi;

— harakatda bo'lgan va harakatda bo'lmagan asosiy vositalarning amortizatsiyasi;

— imtiyozli soliqqa tortish;

— lizing operatsiyalarini moliyalash;

— faktoring operatsiyalarini moliyalash.

Auditorlar o'zlari tekshirish o'tkazayotgan bankda foydalanilayotgan axborotlarning kompyuterlashtirilgan tizimini bayon etishlari, shu bilan birga xisobotlarda quyidagi jihatlarni aks ettirishlari lozimligi ta'kidlandi:

— buxgalteriya operatsiyalarini qayta ishlashning yagona tizimi mavjudligi;

— nomuvofiq vazifalarni taqsimlash;

— operatsiyalarni avtomatlashtirishning rivojlanish darajasi;

— ma'lumotlarni qayta ishlash ishonchliligining ehtimoliy bog'liqligi;

— qo'llanilayotgan asosiy sohalar o'rtasida tizimning integratsiyalashuv va muvofiqlashtirish darajasi;

— kompyuter himoyasi va avariya holatlarida ma'lumotlarni qayta tiklash rejasi;

— arxiv ishlari, shu jumladan, elektron ma'lumotlarni amaldagi tartibga muvofiq olib borish va himoyalash.

### 3. Bank auditining metodlari va vazifalari

Bank auditining o'ziga xos usullari va uslubiyati mavjud. Bu usullar bank auditining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bankda audit o'tkazish mutaxassis auditoridan ma'lum bilimni va ish tajribasini talab qiladi. Bozor sharoitida turli mulkka asoslangan tijorat banklarining faoliyatlari bir-biridan farq qiladi. Ularning so'nggi moliyaviy natijalari ham turli operatsiyalar va omillar tufayli shakllanadi. Tijorat banklar faoliyatining qabul qilingan qonun-qoidalarga monandligini ekspertiza qilish, baholash, asosli xulosalarga kelish va tavsiyalar berish auditoridan ko'p bilim va saviyani talab qiladi. Bank audit natijasida ishonchli xulosaga kelish ushbu jarayonda qo'llaniladigan usullarga bevosita bog'liqdir. Ushbu usullarning turi ham ko'p.

Bank auditi uslubining asosida mantiqiy mulohaza, ilm-fan yutuqlari, xo'jalik jarayonining o'zgaruvchanligi yotadi. Tijorat banklar faoliyatidagi operatsiyalar tufayli mablag'lar bir shakldan boshqa shaklga o'zgarib turadi. Ushbu jarayon natijasida tijorat bank samara (naf) olishi kerak. Bu samara, o'z navbatida qabul qilingan qonun-qoidalarga to'liq amal qilingan holda erishilgan bo'ladi. Noqonuniy operatsiyalar mijozlarga faqat zarar keltiradi, xolos.

Audit jarayonida iqtisodiyotimizga xos bo'lgan xalqaro amaliyotda keng foydalaniladigan usullar qo'llaniladi. Auditor audit usullarini mustaqil ravishda belgilaydi va qo'llaydi. Ushbu usullar tarkibi auditning predmeti, maqsadi va vazifalariga bevosita bog'liqdir. Audit nazariyasi va amaliyotida ushbu usullarning quyidagi turlari keltirilgan:

- solishtirish usuli (iqtisodiy hodisalar, ko'rsatkichlarni o'zaro va biznes-reja bilan solishtirish);
- gipoteza usuli (hodisalarning sodir bo'lishi, natijalari turli shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda o'rganiladi. Bunday usul ko'pincha "yashirin iqtisodiyot" natijalarini aniqlashda keng foydalaniladi);
- tahlil va sintez usuli (audit ob'ekti bo'lgan ma'lum ko'rsatkich omillar asosida o'rganiladi, mavjud ichki imkoniyatlar aniqlanadi);
- taftish usuli (tijorat bankning faoliyatiga to'liq baho berish uchun barcha operatsiyalar tasdiqlovchi nazoratidan o'tkaziladi);
- inventarizatsiya usuli (tijorat bankdagi huquqiy aktivlar va majburiyatlarning buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga monandligi tekshiriladi);
- kalkulyatsiya usuli (bajarilgan ishlar, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi, umumiy ovqatlanish tijorat banklarda esa taomlarning sotilish bahosi aniqlanadi);
- ekspertiza usuli (hujjatlarning realligini, haqqoniyligi, mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari laboratoriya yo'li bilan aniqlanadi);

- buxgalteriya hisob raqamlari va ikkiyoqlama yozuv usuli ( tijorat bank aktivlari va majburiyatlarining harakati hamda qoldiqlari buxgalteriya hisobi hisob raqamlari orqali tekshiriladi);

- balans usuli (tijorat bankdagi hodisalar, jarayonlarni rasmiylash-tirish, dastlabki ma'lumotlarni umumlashtirish orqali nazorat qilish).

Auditor tekshirish jarayonida me'yorlashtirish, baholash, guruhlash usullaridan ham foydalaniladi. Audit usullari har bir hodisaning kelib chiqish sabablari, ularning oqibatlari, ho'jalik jarayonlarining qonun-qoidalariga (mezonlarga) muvofiqligini aniqlashga yordam berishi kerak. Auditorlik faoliyatining rivojlanishi tufayli uning uslubi, unda qo'llaniladigan usullar ham takomillashib boraveradi. Keyingi paytlarda maxsus adabiyotlarda auditning quyidagi usullariga katta e'tibor berilmoqda: xodimlar (yoki uchinchi shaxslar) bilan og'zaki so'rovlar o'tkazish, tekshirilayotgan tijorat bank bo'yicha muqobil (alternativ) balans tuzish, audit ob'ektlari bo'yicha testlar anketalar o'tkazish, kompyuter axborotlari texnologiyalaridan keng foydalanish kabi usullar. Shuni ham qayd qilish kerakki, auditorlar (auditorlik tashkilotlari) audit jarayonida qabul qilingan umumiy (an'anaviy) usullardan foydalanish bilan bir qatorda ular o'zlariga ma'qul bo'lgan yoki boshqalar uchun "tijorat siri" hisoblangan noan'anaviy (lokal) usullardan ham foydalanishlari mumkin. Audit o'tkazishda milliy va xalqaro audit standartlariga asoslanadi. Shunday qilib, auditda qo'llaniladigan usullar uning turi, maqsadi va vazifalariga bevosita bog'liq bo'ladi.

Bank auditining vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasida bank auditini shakllanishi va rivojlanishi;
- bank auditini tashkil etishning huquqiy asoslari;
- tijorat banklarini audit qilish tartibi;
- tashqi va ichki auditning o'zaro aloqadorligi;
- tijorat banklarida tashqi audit o'tkazish tartibi;
- tijorat banklarida ichki audit o'tkazishning amaliy holati tahlili;
- bank auditini takomillashtirishda tashqi auditni rivojlantirish;
- respublikamizda bank auditing rivojlanishi bilan bog'liq muam-molar va uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini tadqiq qilish.

Bank auditining yana bir muhim vazifalaridan biri, ichki bank sferasida odil raqobatni tashkil etishdan iborat. Bu keyinchalik ko'pgina salbiy oqibatlarni oldini oladi.

Bank auditining yana bir vazifasi banklar tomonidan mijozlarga khrsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va barcha mijozlarga bir xil munosabatda bo'lishlarini ta'minlashdan iboratdir. Chunki iste'molchilar xuquqlari qonun bilan ximoyalangan. Nazorat organlari xodimlari bankni stabil faoliyati to'g'risida jonkuyarlik qilib, uni bankrotlikdan saqlashlari lozim. Bu esa maqsad

sari eng to'g'ri strategiyadir. Bunda bank sektorini davlat aralashuvidan ozod etish va yangi banklarga litsenziyalar berish hamda ularni faolyatini tartibga solishda oqilona bank nazoratini samarali majmui zarurati tug'iladi.

Ishonchli va samarali bank auditini avvalo bank xodimlarining ma'suliyatlarini hamda nazorat organlari xodimlarini malakasiga bog'likdir.

Banklarni oliy yuridik nazorat qilish uchun auditni samarali tashkil qilish, auditni bajarilishi uchun kutilgan vaqtni aniqlash, auditorlarni kichik guruhlar qilmasdan filiallarni tizimli tekshirish hisoblanadi. Ko'p hollarda, bankning buxgalteriya hisobni dastlabki ekspertizasi o'tkazilishi noaniq bo'lib, faqatgina qaror qabul qilish maqsadida o'tkaziladi.

Bank auditorlari tijorat banklari filiallarini dastlabki auditorlik tekshiruvdan o'tkazish moliyaviy yilning oxirigacha hech qanday aloqasi yo'q barcha masalalarni ham qamrab olgan hisobotni yangi yilning yanvar-fevral oylarida tekshiruvdan o'tkazishlari shart.

Bunda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- Yirik qarzdorlar hisobining joriy nazorati;
- Gosh va Djilani ko'mitasining xisobotlarida ko'rsatilgan ichki nazorat jihatlarini testdan o'tkazilishi;
- Xujjatlashtirish va operatsion kamchiliklari;
- Bankning yirik mijozlarining hisobvaraqlarini ko'rib chiqish va jismoniy shaxslarning ma'lumotlarini tekshirish;
- Bankning muammoli aktivlarini hisobini moliyaviy yil yakunidan oldin boshqaruvni samarali olib borish uchun tekshirish.

### **O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar**

1. Respublikamizda bozor iqtisodiyoti qanday kechmoqda?
2. Bank auditi deganda nimani tushunasiz?
3. Mustaqillik yillarida bank auditini rivojlanishi.
4. "Bank auditi tizimini rivolantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon qachon qabul qilingan va uning mohiyati.
5. Auditorlik firmalariga va auditorlarga sertifikatlar kim tomonidan beriladi?
6. Qanday nufuzli auditorlik firmalarini bilasiz?

## **2-mavzu. Bank auditing tashkil qilinishi va turlari**

- 1. Bank auditing turlari va ularning mazmuni**
- 2. Auditorlik tashkilotlari va auditorning huquq va majburiyatlari**
- 3. Tijorat banklarida ichki va tashqi auditni o'tkazish tartibi**

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida audit tashkilotlarining yangi iqtisodiy tizimi yuzaga kelmoqda. Ayni paytda, respublikada audit tekshiruvlari moliyaviy xizmatlardan biri sifatida tez sur'atlar bilan takomillashib bormoqda. Audit tekshiruvlari tizimi moliyaviy xizmatlar bozorida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning talabiga javob beradigan nazorat turlaridan biri bo'lib hisoblanadi

Umuman, bank auditi audit ichki va tashqi auditlarga bo'linadi.

Ichki audit - ichki nazorat tizimi va bankning xavfsizlik tizimini ta'minlash maqsadida olib boriladi. Bank faoliyatida omonatchilar manfaatlarini ximoya qilish va aniq natijalarga erishish maqsadida ichki nazorat tizimi joriy etiladi. Ichki nazorat tizimi bankning ish rejasi, usuli va jarayonlari, foydaning ko'payishi hamda bank rahbariyati topshiriqlarining aniq bajarilishini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Ichki audit bank tarkibining tashkilotchilik bo'linmasi sifatida tan olingan bo'lib, bank rahbariyatiga bo'ysunadi. Ichki auditning vazifasi turlicha bo'lishi mumkin: buxgalteriya hisobini to'g'ri olib borishni tekshirish; bank daromadlari va xarajatlari hisobining to'g'ri olib borilishini nazorat qilish (foydani to'g'ri hisoblash, xarajatlarni uz vaqtida hisoblarda aks ettirish va boshqalar); boshqa muomalalarning qonuniy bajarilishini nazorat qilish va boshqalar. Ichki auditni tashkil etish va o'tkazish uchun uslubiy topshiriqnomalar yoki yo'riqnomalar ishlab chiqilishi tavsiya etiladi. Ushbu yuriqnomalar kerakli ish ob'ektlarida nimalarni nazorat qilishni aniqlab beradi. Ichki audit yillik reja asosida olib boriladi. Tekshiruvni tashkil etish va o'tkazishda ichki audit boshlig'i to'la javobgarlikni o'z bo'yniga oladi. Ichki audit boshqaruv nazorat tizimining bir qismi sifatida qaraladi. Ichki nazoratning xususiyati tarixan o'zgargan bo'lib, avval auditning roli moliyaviy boshqaruv va aktivlar xavfsizligini ta'minlashdan iborat edi. Nazorat qiyinlashgan sharoitda ichki nazorat tizimining tsiklik bajarilish jarayoni asta-sekinlik bilan rivojlanib bordi.

Ichki auditning vazifasi - xodimlarning o'z vazifalarini imkon qadar sifatli va samarali bajarishlariga yordam berishdir. Ichki auditor buxgalteriya ma'lumotlari to'g'riligini tekshiradi. Ichki auditorlar rahbariyat oldida hisobot beradi va auditorlar qumitasi bilan to'g'ri aloqada bo'ladi.

Ichki auditning asosiy vazifasi bank boshqaruvi tomonidan taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarning haqqoniylik darajasi hamda risklarni daromadlilik darajasi bilan o'zaro bog'liq holda tahlil qilish, bank samaradorligini oshirish maqsadida dasturiy mahsulotlar sifatini huquqiy jihatdan tekshirish va uni takomillashtirish yuzasidan takliflarni bank boshqaruviga taqdim etishdan iborat.

Quyidagi jadvalda tijorat banklarining ichki audit yo'nalishlari va vazifalarining guruhlanishi ko'rishingiz mumkin.

### 1-jadval

#### Tijorat banklarida ichki audit yo'nalishlari va vazifalarining guruhlanishi<sup>1</sup>

<b>Audit yo'nalishi</b>	<b>Tekshiruv usuli</b>	<b>Ichki auditning vazifalari</b>
<b>Faoliyat natijala-rini baholash</b>	Amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini baholash usuli	Bankning tadbirkorlik faoliyatini, ishonchliligi va barqarorligini, mulkdorlar kapitalining daromadlilikini baholash. Bank risklarini inobatga olgan holda auditdan maqsadli va tizimli foydalanish.
<b>Faoliyat samaradorligini baholash</b>	Bank faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiy muhitni tahlil qilish va baholash	Tahlilda tekshiruvning maqsadi va uslublarini aniqlash, moliyaviy ahvolini baholash va rivojlanish dasturlarini amaliyotga tatbiq qilish masalalariga alohida e'tibor berish. Aktivlar butligini o'rganish, elektron dasturiy mahsulotlar sifatini huquqiy tomonlarini tekshirish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash va turli masalalar bo'yicha maslahat berish.
	Boshqaruv faoliyatini baholash	Menejment funktsiyalari va bankning boshqaruv sifatini baholash, uni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish.
	Nazorat faoliyatini tashkil etish va boshqarishga nisbatan yondashuv darajasini baholash	Puxta ishlab chiqilgan audit strategiyasi, nazorat tizimining demokratlashuvi, bank darajasida auditorlar faoliyatining qat'iy tartibga solinganligi, auditorlik jarayonining sifatini nazorat qilish.

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Ichki audit xizmati tomonidan me'yoriy hujjatlarning noto'g'ri talqin qilinishi yoki ichki nazorat tizimi faoliyatida nomutanosibliklar xosligini inobatga olib, miqdoriy ko'rsatkichlarini uning sifat ko'rsatkichlari bilan taqqoslash zarur.

Bunda auditning har bir bosqichida uning oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda tekshiruv jarayonini tashkil etish, uning belgilariga ko'ra mezonlardan foydalanish borasida ishlab chiqilgan tavsiyalar audit samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Demak, ichki audit xizmatining faoliyati ikki yo'nalishdan iborat bo'lib, ularning birinchisi, bank faoliyati natijalarini, ikkinchisi, bank faoliyati samaradorligini baholashdan iborat.

Tashqi audit - yuqorida aytib o'tganimizdek mustaqil auditorlik firmasi tomonidan amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotning to'g'riligini tekshirish va u bo'yicha xulosa berishdan iborat. Tashqi audit ichki audit bilan o'zaro aloqada olib boriladi. Birinchi o'rinda ichki nazorat faoliyati va tashkilotchiligi baholanadi, bunda ichki auditning ob'ektivlik darajasi, mustaqilligi, bajarilgan ishlar xajmiga e'tibor qaratiladi. Tashqi auditorlar tekshirilayotgan bankning umumiy faoliyatini o'rganadilar. Ob'ektiv baholash uchun eng birinchi o'rinda aktiv va passiv muomalalarning holati ko'rib chiqilishi, bankning moliyaviy hisoboti to'g'ri tuzilganligi va unda aks ettirilgan muomalalarning qonun talablariga javob berishi tekshirib chiqilishi lozim. Bankdagi auditorlik tekshiruvlarining ob'ektlaridan biri bu bankning yil yakunlari bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobotidir.

Moliyaviy hisobotning asosiy shakli bu bankning balansi bo'lib, balans aktiv va passiv kislardan iborat. U bankning daromadlari va xarajatlari, debitorlik va kreditorlik qarzlari hamda bankning moliyaviy holati to'g'risidagi boshqa asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Auditorlar bankning moliyaviy holatini tahlil qiladilar, shu jumladan ayniqsa likvidlikni, kredit portfelining sifatini, qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan investitsiyalarni, valyuta muomalalarini, tasniflangan ssudalarga asoslangan zaxiralarni, boshqaruv ma'lumotlarini va bank tizimini bir maromda faoliyat kursatishini, kreditorlar, omonatchilar va mijozlar manfaatini ximoya qilish shu bilan birga sog'lom bank faoliyatini tashkilqilib boshqa ma'lumotlarni birma-bir tahlil qilib chikadilar.

Bank auditini auditning bir ko'rinishi sifatida quyidagi belgilar bo'yicha chuqurlashtirish mumkin:



### 1-rasm. Bank auditining klassifikatsiyasi<sup>2</sup>

Tijorat banklarida audit olib borish tartibi hukumat qarorlari va idoraviy yo'l-yo'riqlar bilan tartibga solinib, faoliyatning muayyan qirralaridagi og'ishlarni vaqti-vaqti bilan nazorat qilib turadi. Audit asl hujjatlar va buxgalteriya qaydlari, naqd pul vositalari qiymatini diqqat va e'tibor bilan kompleks ravishda o'rganadi. Moliyaviy hisobotning haqqoniyligi bo'yicha o'z fikrini bildiradi. Bank faoliyatini tahlil qiladi, aktiv va passivlarini baholaydi. Bankning moliyaviy holatini yaxshilash, investorlar, kreditorlar va mijozlarni jalb etish va samarali faoliyat yuritish borasida maslaxat beradi. Audit xulosasibarcha jismoniy va yuridikshaxslar uchun, hokimiyat va sud idoralari uchun huquqiy hujjat hisoblanadi. Bu xulosa matbuotda ham e'lon qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasiga asosan tijorat banklari har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishlari lozimligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ayrim bank auditini o'tkazishga huquqi va litsenziyasi bo'lgan tashqi auditorlik tashkilotlari hozirgi kunda 5 tani tashkil etadi. Ulardan 4 tasi xorijiy auditorlik kompaniyalari va 1 tasi «PKF MAK ALYANS» auditorlik tashkiloti mahalliy auditorlik tashkilotlari hisoblanadi.

<sup>2</sup>Muallif tomonidan tayyorlandi.



**Bank auditini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatga ega bo'lgan va faoliyat ko'rsatayotgan auditorlik tashkilotlar ro'yxati<sup>3</sup>**

<b>№</b>	<b>Auditorlik tashkilotlarning nomi</b>
	Xorijiy auditorlik tashkilotlari
1.	<b>«PraysvoterxausKuperc» MCHJ</b>
2.	<b>«Ernst &amp; Young» MCHJ</b>
3.	<b>«Deloitte &amp; Touche» MCHJ</b>
4.	<b>«Grant Thornton» MCHJ</b>
	Mahalliy auditorlik tashkilotlari
5.	<b>«PKF MAK ALYANS» MCHJ</b>

Respublikamizning bozor munosabatlariga o'tishi yangi sharoitda faoliyat ko'rsata oladigan tijorat banklari tizimini shakllantirishni taqozo etdi. Mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar natijasida turli mulkchilikka asoslangan tijorat banklari tizimi vujudga keldi. Xalqaro tajribaga tayangan holda bank tizimining isloh qilinishi natijasida xalqaro standartlar talablariga ko'ra, ularning boshqaruv infratuzilmasi, nazorat tizimini shakllantirish bilan bog'liq muammolarni xal qilishga erishildi. Bazel qo'mitasining talablariga binoan bank boshqaruvi faoliyati va nazorati tizimini evolyutsion yo'l bilan takomillashtirish borasida yagona davlat siyosati yurgizilib, qator me'yoriy hujjatlar majmui yaratildi. Natijada bank amaliyotiga tashqi nazorat monitoringi va mustaqil audit kabi tushunchalar kirib keldi.

Shu munosabati bilan bank tizimi ichki nazoratini olib borish, uning shakli, usuli va uslublarini tanlashga, boshqaruv tizimi qarorlari va moliyaviy hisobotlar tekshiruv tizimini ta'minlovchi ichki auditni tashkil qilishga katta e'tibor berilmoqda.

Bunday sharoitda ichki audit tizimi faoliyatini nazorat va boshqaruv vositasiga aylantirishga, uning nazariy, uslubiy va tashkiliy asoslarini xalqaro standart talablariga mos ravishda takomillashtirishga qaratilgan faoliyati samaradorligi va barqarorligini ta'minlash imkoniyati bo'lmaydi.

Bizningning fikrimizcha, bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni salmoqli bo'lishida boshqaruvning tarkibiy qismi bo'lgan ichki auditga nazoratning zarur elementi sifatida yondashish muhimdir. Zero, ichki audit banklarning moliyaviy holatini va ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini baholashga, bozor ehtiyojlarini aniqlash va shu tariqa banklarning ish samaradorligini oshirishda ular uchun bozorda samarali

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumoti.

raqobat muhitini yaratishda katta yordam beradi. Tadbirkorlik faoliyati jarayonida daromad olish, iqtisodiy sub'ektlar rivojlanishining optimal traektoriyasiga erishish uchun eng maqbul vositalar zarurligi bois, aksariyat mulkdorlar ichki audit xizmatining mavjud bo'lishidan manfaatdordirlar.

Bank auditi maxsuslashtirilgan tashkilotlarni tashkil etishni talab etib, bir qator xususiyatlarga ega. Bank va boshqa moliya-kredit uyushmalarida auditorlik tekshiruvni xuddi kredit tizimlari singari xizmat ko'rsatilayotgan xo'jalikda malakali tekshirishni va maxsus javobgarlikni talab qiladi. Audit natijalari yillik hisobotning tasdiqlanishi, balansni chop etish va kredit tashkilotlarining umumiy ishini baholashda xizmat kilar ekan, auditorlik xulosasi ob'ektiv va to'g'ri yozilishi shart. Olib borilgan auditorlik izlanishlarining natijalari shuni ko'rsatadiki, auditorlik tekshiruvining samarali bulishi uzaro qizikish xamda tekshiruvchi shaxs tekshirilayotgan bank hisob va hisobotlarining to'g'riligini ta'minlashi lozim. Bunda barcha kamchiliklarni aniqlab bartaraf etish kerak.

Normal audit jarayoni ichki nazoratni baholash, tanlov asosida buxgalteriya kitoblariga kiritilgan operatsiyalarni tasniflash va umumlashtirishni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, bank filialidagi auditda ichki nazorat qilish tizimining mavjudligi, muhim shart sifatida, turli xil kuzatuvning hisobot mexanizmlari, parallel audit, daromad audita, ichki inspeksiya va qonuniy audit kabi nazoratlarning mavjudligi bilan ta'minlanadi.

Shu sababli, Bank filialidagi audit holatida, aniqlik kiritish va tekshirish kabi jarayonlarga e'tibor berilmaydi. Yuqoridagi Bank filiali auditi "aktiv va passiv balans auditi" nomi mashhurdir. Shunga muvofiq, filial auditorlari muhim e'tiborni aktiv va passiv balansidagi asosiy o'ringa ega bo'lgan "Kredit va avanslar"ga, Hindiston Zahira Bankining rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan daromadlar hisobi, aktivlar tasnifi va mablag' ajratuvchiga qaratadi.

Yutuqlarni ko'rsatuvchi daromadlar hisobi hisoblash usuli asosida hisoblanib, bu erda yutuqlarni ko'rsatmaydigan daromaddagi (YuKD) sof foyda sog'lomlashtirish yozuvi asosida banklar tomonidan amal qilinadigan daromadlar hisobini sog'lomlashtirish usulini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Moliyalashtirish foizi: Daromadlarning YuKDga nisbatan hisobini yuritish, ularning shartlari qayta o'zgartirish/qayta rejalashtirish/qayta muhokamalashga duchor bo'lishi, bo'lmasligidan qat'iy nazar, naqd pulga asoslangan holda bajarilgan bo'lishi va bunda muddati o'tgan barcha foizlar moliyalashtirilmasligi lozim. AGar barcha muddati o'tgan foizlar daromad sifatida qaralsa, uning umumiy miqdoriga teng ravishdagi ta'minoti bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, foizlarni qoplash YuKD dan kelib chiqqanda agar daromad sifatida qaralsa, ular to'liq ta'minlangan bo'lishi lozim.

## **2. Auditorlik tashkilotlari va auditorlarning huquq va majburiyatlari**

Auditor tashkilotlari va auditorlar quyidagi huquqlarga ega:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki talablariga, shartnomada belgilangan aniq shartlarga muvofiq auditorlik tekshiruvining shakl va usullarini mustaqil ravishda belgilash;

- bank faoliyati to'g'risidagi barcha hujjatlarini, mavjud moddiy boyliklar va qimmatbaho qog'ozlarni tekshirish, vujudga keladigan savollar yuzasidan sharx hamda auditorlik tekshiruvi uchun zarur qo'shimcha ma'lumotlar olish;

- yozma so'rov bo'yicha uchinchi shaxslardan zarur ma'lumotlar olish; shartnomaviy asosida auditorlik tekshiruvida qatnashish uchun auditorlarni, auditorlik tashkilotlari yoki ularning xodimlarini jalb etish;

- tekshirilayotgan bank zarur hujjatlarni taqdim etmagan hollarda auditorlik tekshiruvi o'tkazishdan bosh tortish.

Auditorlik tashkilotlari va auditorlarning o'zlari bank faoliyati, buxgalteriya hisobotlarini rasmiylashtirish, shuningdek, ichki auditini tashkil etish va amalga oshirish yuzasidan konsalting xizmatlari ko'rsatadigan banklarda audit o'tkazish huquqiga ega emaslar.

Barcha auditorlik tashkilotlari va auditorlar o'zlari bank auditini o'tkazish uchun zarur deb hisoblagan har qanday ma'lumot va materiallarni olish, ko'rib chiqish va nusxa ko'chirish, shuningdek, auditorlik tekshiruvi o'tkazilishini muxokama qilish uchun bank rahbariyati bilan hech qanday to'sqinliksiz muloqotda bo'lish borasida istisnosiz huquqqa egalardir.

Banklarda audit o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari va auditorlar Markaziy bankning audit to'g'risidagi nizomiga muvofiq quyidagi talablarga amal qilishlari shart:

- auditorlik tekshiruvini o'tkazishda qonunchilik hamda Markaziy bank me'yoriy hujjatlari talablariga, jumladan audit jarayoni hamda metodologiyasiga rioya etish;

- quyidagilar haqida buyurtmachi va Markaziy bankga darhol xabar berish:

a) mazkur bank auditorlik tekshiruvini o'tkazishda o'zi qatnasha olmasligining sabablari to'g'risida;

b) audit jarayonida yuzaga kelgan vaziyat munosabati bilan tekshiruvda qatnashishga qo'shimcha auditorlarni jalb etish zarurligi to'g'risida;

- auditorlik tekshiruvlarini professional audit andozalariga muvofiq ravishda yuqori malaka bilan o'tkazish;

- tekshiruv davomida o'zlari oladigan va tuzadigan hujjatlar but saqlanishini ta'minlash;

- zarurat tug'ilganda barcha ishchi hujjatlarini, hamda ularning nusxalarini

Markaziy bankka taqdim etish.

Auditorlar ob'ektivligi va mustaqilligi

Auditor o'z ishini bajarishi chog'ida halol va samimiy bo'lishi zarur. U xolis bo'lishi hamda shaxsiy xayrixoxlik va boshqa extiroslar ob'ektiv fikr yuritishda halal berishiga yo'l qo'ymasligi shart. U tekshiruv natijisidan mutlaqo manfaatdor bo'lmasligi zarur.

Maxfiylik

Auditor ish davomida o'ziga ma'lum bo'lgan maxfiy axborot sir saqlanishini ta'minlashi va alohida ruxsatsiz uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi shart.

Auditorga maxfiy axborotni sir saqlay olmagan uchun shartnoma shartlariga asosan ma'suliyat yuklatiladi.

### **Bank Kengashi va Boshqaruvi majburiyatlari.**

Bank Boshqaruvi yil yakunlari bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlanishi uchun javobgardir.

Bank Kengashi malakali auditor jalb qilinishi uchun javobgardir. Auditorlik tashkiloti yoki auditor va tijorat banki o'rtasida tuzilgan shartnoma nusxasi hisobot yilidan keyingi yilning ikki oyi davomida Markaziy bankka taqdim etilishi shart.

Auditorlik tekshiruvlari yakunlanganidan so'ng 10 kun muddat ichida auditorlik hisobotini Markaziy bankka taqdim etish tijorat banklarining majburiyatiga kiradi.

Bank Kengashi quyidagi hujjatlar nusxasini Markaziy bankka taqdim etishi shart:

a) auditorlik hisoboti, balans, daromad va xarajatlar to'g'risidagi hisobot, pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotni o'z ichiga olgan xolis auditorlik xulosasi;


b) ichki audit ahvoli to'g'risida alohida hisobot;

v) tekshiruv davomida auditorlar tomonidan tayyorlangan barcha qo'shimcha hisobotlar.

Bank Kengashi tijorat banki auditorlik hisobotini olgan vaqtdan boshlab 30 kun mobaynida auditorlar tomonidan aniqlangan ichki nazoratga doir kamchiliklarni bartaraf etish va tavsiyalarni bajarishga karatilgan choralar yuzasidan Markaziy bankka hisobot berishi lozim.

Auditorlarning vazifasi bank faoliyatini tekshirishda qo'yilgan barcha masalalari aniqlashga qaratilgan bo'lib, bunda asosiy ma'suliyat shundaki bank muomalalarini noto'g'ri bajarish holatlari aniqlangan hollarda, joriy etilgan buxgalteriya hisobi tartibi mijoz tomonidan buzilgan holatlarda davlat byudjeti

yoki bankka keltirilgan zarar hajmi hisoblab chiqilishi va javobgar shaxslardan buning sabablari aniqlanishi lozim.



**2-rasm. Auditorlar faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar.<sup>4</sup>**

Auditorlik tekshiruvini boshlashdan oldin tekshirish uchun tegishli savollar aniqlab olinishi lozim. Bu savollar tomonlar kelishuvi bilan tuziladi va bank faoliyatining hamma tomonlarini yoki aloxida bulimlarini o'zida aks ettirishi mumkin.

Banklarda auditorlik tekshiruvini boshlashda quyidagi ma'lumotlar bilan tanishish lozim: bank faoliyatining hajmi, tashkilotchilik rahbarlarning malaka darajasi, umumiy ichki nazoratning tashkil etilishi va xokazolar. Shundan so'ng auditorlik tekshiruvi jarayonida xatolar mavjud bulishi ko'rib chiqiladi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida qo'llanilayotgan standartlardan kelib chiqqan holda, auditning mavjud huquqiy bazasini takomillashtirish, aynan ichki auditorlik standartlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir

**3- jadval.**

**Xalqaro ichki auditorlik standartlari<sup>5</sup>**

<b>№.</b>	<b>Standartlarning nomi</b>
<b>STANDARTLARNING SIFAT TAVSIFLARI</b>	
<b>1000</b>	Maqsadi, huquqi va majburiyatlari
<b>1100</b>	Mustaqillik va ob'ektivlik
<b>1200</b>	Malakali va ish jarayoniga professional yondashuv
<b>1300</b>	Kafolat va ichki audit sifatini oshirish dasturi

<sup>4</sup> To'laxodjaeva M. «Organizatsiya i metodi finansovogo kontrolya v Respublike Uzbekistan» / Avtoref. diss. dokt. ekon. nauk. - M.: MGU, 1998, str.15.

<sup>5</sup> Mejdunarodnie standarti audita i kodeks etiki professionalnix buxgalterov. - MTSRSBU, 2000, str.35.

<b><i>FAOLIYAT STANDARTLARI</i></b>	
<b>2000</b>	Ichki audit jarayonini tashkil qilish
<b>2100</b>	Ichki audit faoliyatining mohiyati
<b>2200</b>	Audit topshirig'ini rejalashtirish
<b>2300</b>	Auditorlik tekshiruvini bajarish
<b>2400</b>	Tekshiruv natijalari bo'yicha hisobotlarni taqdim etish
<b>2500</b>	Auditorlik tekshiruvi natijasida olib borilgan harakatlarning nazorati
<b>2600</b>	Bank rahbariyati tomonidan risklarning qabul qilinishi

Qayd etib o'tish joizki ushbu standartlarni joriy qilish jarayonini bosqichma - bosqich amalga oshirgan holda, uning dastlabki bosqichida audit xizmati tizimidagi holat va xodimlarning malakalariga e'tibor qaratish, keyingi bosqichda esa bevosita auditorlik faoliyatini takomillashtirish orqali amalga oshirish mumkin. Ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish, eng avvalo, uning asosini yaratish, baholash mezonlarini ishlab chiqish, ichki nazorat tizimi va usulini shakllantirishni taqozo qiladi.

Tabiiyki, ushbu sifat ko'rsatkichlarisiz bank tizimida joriy qilingan ichki audit faoliyatini baholash mumkin emas.

Bazel qo'mitasining tavsiyasiga ko'ra, ichki audit xizmati bank faoliyati ustidan muttasil nazorat olib borishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Respublikamiz tijorat banklarida ichki audit xizmati muhim o'rin egallagan bo'lib, uning faoliyati Markaziy bank tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan Nizomda tekshiruvni tashkil etish va olib borish jarayonlari umumiy ko'rinishda yoritib berilgan.

Auditni oqilona boshqarish uchun tekshiruv jarayonida audit standartlariga yuqoridagi tavsiyalarni inobatga olgan holda qat'iy rioya qilish talab qilinadi. Zero, mazkur jarayon qanchalik to'g'ri tashkil qilinsa, tekshiruv ham shunchalik sifatli va samarali bo'ladi.

### **3. Tijorat banklarida ichki va tashqi auditni o'tkazish tartibi**

Iqtisodiyotning yangi bozor munosabatlariga o'tishida faoliyat ko'rsata oladigan tijorat banklari tizimini shakllantirish davr talabi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar natijasida turli mulkchillika asoslangan tijorat banklari tizimi vujudga keldi. Xalqaro tajribaga tayangan holda bank tizimining isloh qilinishi natijasida xalqaro standartlar talablariga ko'ra, ularning boshqaruv infratuzilmasi, nazorat tizimini shakllantirish bilan bog'liq muammolarini hal qilishga erishildi. Bazel qo'mitasining talablariga binoan bank boshqaruvi faoliyati va nazorati tizimini evolyutsion yo'l bilan takomillashtirish borasida yagona davlat

siyosati yurgizilib qator me'yoriy hujjatlar majmui yaratildi. Natijada bank amaliyotiga tashqi nazorat monitoringi va mustaqil audit kabi tushunchalar kirib keldi.

Shu munosabati bilan bank tizimi ichki nazoratni olib borish, uning shakli, usuli va uslublarini tanlashga, boshqaruv tizimi qarorlari va moliyaviy hisobotlari tekshiruv tizimini ta'minlovchi qarorlari va moliyaviy hisobotlar tekshiruvi tizimini ta'minlovchi ichki auditni tashkil qilishga katta e'tibor berilmoqda.

Hozirgi zamon iqtisodiyotida, ishlab chiqarish tizimida, moliya va bank sohasida, umuman, barcha sohalarda auditorlar faoliyatidan keng foydalaniladi. Hayotimizning hamma tarmoqlarida ular xizmatiga ehtiyoj seziladi.

Bank tizimidagi islohotlarning chuqurlashuvi moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish usullari va vositalaridan kengroq foydalanish, tijorat banklari faoliyatini muvofiqlashtirishda esa bevosita va bilvosita nazorat vositalarini keng qo'llanishini taqozo etadi. Shu bois Markaziy bank tijorat banklari va ularning filiallari moliyaviy-xo'jalik faoliyatini vaqti vaqti bilan muntazam nazorat qilib turishga katta e'tibor qaratmoqda. Dunyo tajribasi ko'rsatishicha, tijorat banklari barqarorligini saqlashda tashqi va ichki audit katta ahamiyat kasb etadi. Markaziy bankning ichki va tashqi auditni kuchaytirishiga nisbatan qo'yayotgan qat'iy talablari nazorat organlari va moliya-kredit muassalarining o'z zimmlariga yuklanayotgan vazifalarini sifatli va o'z vaqtida bajarishga sharoit yaratmoqda.

Shuni takidlab o'tish kerakki ichki va tashqi audit bir biridan farqlanadi, bu borada iqtisodchi olimlar S.Norqobilov va O.Abdusalomova shunday fikr yuritgan: "Ichki va tashqi auditdan kutilgan asosiy maqsad, ko'p jihatdan o'xshash bo'lib, nazorat qilib borishdan iborat. Biroq ular o'rtasida muayyan farqlar ham borki, bu auditor xarakteriga bog'lik. Tashqi audit hisobot tizimni baholash, bankning aktiv va passivlarini baholash va tekshirish, mavjud ichki nazorat tizimini testdan o'tkazishdan iborat. Tashqi audit tekshirilayotgan bankning taqdim etgan hisboti va balanslari haqiqatga to'g'ri keladimi yoki yo'qmi, uning moliyaviy ahvoli va muayyan davridagi faoliyati natijalarini baholashdan iborat. Chetdan taklif etilgan, mustaqil auditorlik tashkilotlari tomonidan tayyorlangan xulosalar yuqori tashkilotlariga, aktsiyadorlar, kreditorlar va hokazolarga mo'ljallanadi va undan ichki auditorlar ham foydalaniladi."<sup>6</sup>

Ichki audit tashqi auditga nisbatan belgilanishi va tashkil etilishga qarab, boshqacha xarakterli, mazmunga ega bo'ladi. Ichki audit bank doirasida mustaqil bo'linma sifatida bank faoliyatining har kungi faoliyatini tekshiruvdan o'tkazib boradi. Umum tomonidan qabul qilingan qoidalariga ko'ra, ichki audit bankning o'z majburiyatlarini samarali bajarishga xizmat qiladi, ya'ni birinchi navbatda muammolarning endigina vujudga kelayotgan davrida aniqlashga yo'naltirilgan

<sup>6</sup> S.Norqobilov, O.Abdusalomova "Banklarda audit" Toshkent "Ma'naviyat", 2005 y. 81 b.

bo'ladi. Ichki audit boshqaruv quroli, bank operatsiyalarining ichki kuchlari yordamida juda yaqindan kuzatish imkoniyati bo'lib, boshqaruv maqsadga erishish kafolatidir. Buning uchun ichki audit xizmati boshqaruvini bajarilgan analiz natijalari haqidagi axborot bilan ta'minlab, bo'linmalar faoliyatini, har xil yo'riqlarni tahlil etib, ularga yuzaga chiqayotgan muammolarni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalar berib boradi. Ichki audit xizmati xodimlari tashqi auditorlar bilan hamkorlikda ish yuritadi.

Ichki audit natijalari bank rahbarlari tomonidan amaldagi qonunlar doirasida mavjud resurslarni hisobga olgan holda joriy ishlarni boshqarishda foydalaniladi. Shu tariqa ichki audit tashkilotlarining o'z maqsadga erishishi uchun xizmat qiladi. Bank faoliyatining ichki auditi vazifalari yuqorida sanalganlardan farq qilmaydi, ammo bank faoliyatining xususiyatlari, bank mahsulotlari, buxgalteriya hisobi, ishni tashkil etish jarayoni, tavakkalchilik omillarining ko'pligi bilan o'zgacha xususiyatga egadir.

Demak, ichki audit - bank xodimlarining o'z vazifalarini samarali bajarishlarida yordam berish maqsadida bank faoliyatini tekshirish va baholash uchun bank ichida doimiy asosda tuzilgan mustaqil ekspertiza. Ichki auditning asosiy maqsadi bo'lib, ichki audit xizmati tomonidan bank rahbariyatiga bank faoliyatining nazaroti va natijalari bo'yicha ob'ektiv tahlil, baho, tavsiyalar va ma'lumotlar taqdim etish orqali bank Kengashi va Boshqaruviga bank faoliyati maqsadiga erishishida ko'maklashish hisoblanadi.

Ichki audit xizmati esa - bankda ichki nazorat holatini, jumladan moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligi, hisobning ishonchliligi va aniqligi, hisobotlarning to'liqligi va ob'ektivligi, O'zbekiston Respublikasi bank qonunchiligi hujjatlariga, ta'sis va ichki hujjatlarga, bank operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari va tartiblariga rioya qilinishini tekshirish (audit) va monitoringini amalga oshiruvchi, shuningdek bank operatsiyalarining samaradorligi va ishonchliligini oshirish bo'yicha bank Kengashiga maslahatlar beruvchi mustaqil tarkibiy tuzilmadir.

Ichki audit jarayonida topshiriqlarning bajarilishi turli-tuman bo'lib, uning maqsadi va tashkilot faoliyati xarakteriga bog'liqdir. Qo'yilgan vazifalarni har xil mezonlarga suyangan holda turli yo'llar, har xil teranliklar va detallar bilan echish mumkin. Bunda standartlar katta o'rin tutadi.

Davlat apparati rivojlangan mamlakatlarda audit muammolariga, jumladan, ichki auditga katta e'tibor beriladi. Shu o'rinda nazorat qilish yuqori insitutlarining xalqaro tashkiloti The International Organization of Supreme Audit Institutions (INTOSA) bo'lib, unga AQSh, Angliya, Yaponiya kabi o'nlab mamlakatlar a'zodir. Xalqaro ichki auditorlar insituti The Institution of Internal Auditors (IIA) ham mavjud. Bu yo'nalishda hukumatning maxsus tashkilotlari, masalan, AQShda (General Accounting Offis) ish olib boradi. Bu kabi idoralarning har birida audit



standartlarini ishlab chiqadigan maxsus bo'linmalar mavjud. Bu standartlardan kutilgan maqsad ichki auditning ahamiyati va ma'suliyatini tushuntirish, ichki audit bo'yicha boshqaruv uchun asoslar yaratish va ishlarni me'yorlashtirish, ichki auditni o'tkazish tajribasini takomillashtirishdan iborat. Standartlarning asosiy printsiplariga mustaqillik va ob'ektivlik, professionallik, ish hajmi, auditorlik topshirig'ini bajarish, ichki audit bo'limini boshqarish kiradi.

Audit xizmatlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari, bankning ichki me'yoriy hujjatlari hamda o'z nizomlari asosida olib boradi.

Audit xizmati, bugungi kunda, aytish mumkinki, tijorat banki va uning barcha filiallari va boshqa tarkibiy tuzilmalari faoliyatnin istiqbollari va maqsadlariga erishishda haqiqiy ko'makchi bo'lmoqda. Audit xizmati mustaqil tarkibiy tuzilma bo'lsada, o'z faoliyatining bankning boshqa mustaqil boshqarmalari bilan hamkorlikda olib boradi. Audit xizmati bevosita Bank kengashi va uning auditorlik qo'mitasiga bo'ysunadi. Audit xizmatining tarkibiy tuzilishi va shtat birligini ham Bank Kengashi tasdiqlaydi.

Bosh auditor (audit xizmati rahbari) Bank kengashi qarori bilan tayinlaydi va o'z lavozimidan ozod etiladi. Audit xizmatining boshqa xodimlari bank kengashi raisi tomonidan bosh auditor tavsiyasiga asosan tasdiqlanadi. Audit xizmati bank kengashi tomonidan ishlab chiqiladi va bank kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Faqat bank kengashi audit xizmatining xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Audit xizmati xodimlarining ish haqlari bank kengashi tomonidan o'rnatiladi.

Ichki audit xizmatini yo'lga qo'yishdan kutilgan maqsad ichki nazorat tizimi, jumladan, moliyaviy hisobotlarini tuzish ustidan nazorat o'rnatishdir. Ichki audit tomonidan bank faoliyatini, boshqaruv jarayoni sifatini oshirish, bank faoliyatini yanada yaxshilashga yo'naltirilgan ob'ektiv baho va maslahat berish bankning moliyaviy bozoridagi o'rnini mustahkamlashga olib keladi. Tijorat banklarida ichki auditni tashkil etish bank kengashining zimmasiga yuklatilgan bo'lib, ichki nazoratning samaradorligi bilan bog'liq masalalarini vaqti-vaqti bilan ko'rib boradi, bankdagi ichki nazorat aholini bank menejerlari, ichki va tashqi auditorlar bilan muhokama etadi, ichki va tashqi auditorlar, nazorat muassalarining bankda aniqlangan kamchiliklarini bartaraf etishdagi takliflarining bank rahbarlari tomonidan bajarilishini ta'minlaydi, mavjud tavakkalchilik va limitlarining bank strategiyasiga mos kelishini kuzatib boradi. Bank rahbariyati xodimlarining o'z burchlarini og'ishmay bajarishini ta'minlaydigan vakolat va ma'suliyatini aniq belgilab berish kerak. Chunki bank tavakkalchiliklarini monitoring qilish uchun birinchi navbatda bank rahbarlari javobgardir.

Ichki audit o'z faoliyatining maqsadlariga erishish uchun asosan quydagi vazifalarini bajaradi:

Shuningdek, audit xizmati:

- bank xodimlariga ularning o'z vazifalarini samarali bajarishda ko'maklashish;
- oylik, choraklik va yillik hisobotlarni joriy auditidan o'tkazish;
- buxgalteriya, amaliyot va ma'muriy nazorat tizimining monandligini baholashga yordam beradi.

Audit xizmatini boshqarish. Audit xizmatiga Bank kengashi tomonidan tayinlangan bosh auditor rahbarlik qiladi. U audit o'tkazishni rejalashtiradi, siyosat va jarayonlarini belgilaydi, xodimlar malakasini oshirish va o'qitish choralarini ko'radi, sifatiga javob beradi.

Bosh auditorning asosiy vazifalari quydagilardan iborat:

audit xizmati faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

audit xizmatining tarkibiy bo'linmalari tuzilishini, ularning lavozimi vazifalarini, audit xizmatining nizomini, audit tekshirishlari tartiblarini, audit xizmatining yillik xarajatlar smetasini ishlab chiqadi va ushbu hujjatlarning ichki audit standartlariga muvofiqligini ta'minlaydi;

audit xizmati xodimlarining malakalarini oshirish choralarini ko'rib boradi;

Bank kengashi va auditorlik qo'mitasiga audit xizmati faoliyati bo'yicha doimiy hisobotlar berib boradi;

Bosh auditor lavozimi yo'riqnomasida qayd etilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

Audit xizmati xodimlarining xuquq va vakolatlari.

Audit xizmati xodimlarining huquq va vakolatlarining aniq belgilanishi o'z faoliyatini sifatli va samarali bajarilishini ta'minlaydi. Tekshiruv davomida ular:

- tekshirish o'tkazish maqsadida bosh bank va bank filiallarining barcha bino va xonalariga, shu jumladan kassa tarmog'i, pul almashtirish shoxobchalari, jamg'arma kassalariga to'siqsiz kirish;

- bank faoliyatiga tegishli bo'lgan va audit tekshiruvi predmeti hisoblangan barcha zaruriy hujjatlarni bank va bank filiallari rahbarlari hamda xodimlaridan talab qilish;

- tekshirish davomida bank va uning filiallari rahbarlari, xodimlaridan yuzaga kelgan savollar bo'yicha tushuntirishlar olish, zarur hollarda ulardan yozma tushuntirishlar olish;

- hujjatlardan nusxalar olish;

- zarur hollarda, belgilangan tartibda(kelgusida saqlanish gumon bo'lgan) xujjatlarning asl nusxalarini olib qo'yish;

• alohida bank operatsiyalari va hujjatlari tekshirilayotgan rasmiy so'rovnoma orqali bank mijozlaridan zarur ma'lumotlar, tasdiqnomalar va hujjatlar talab qilib olish huquq va vakolatlariga ega bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, tekshirish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar bo'yicha filiallarga nisbatan tegishli choralar ko'rilishi to'g'risida Bank kengashiga takliflar kiritib borishi lozim.

Audit xizmati xodimlarining majburiyatlari va ma'suliyati. Audit xizmati xodimlari bank faoliyatining barcha qirralarini tekshirish huquqi, o'z navbatida, ularga muayyan majburiyatlar ham yuklaydi, hisobotlarning to'g'ri va haqqoniy tuzilishida katta ma'suliyatga ega bo'ladilar. Bu jihatdan ular:

bank muassasidan tekshirish o'tkazish haqidagi farmoyishi va xizmat guvohnomasiga ega bo'lish;

bank va uning filiallarida o'tkazilgan tekshirish jarayonida ma'lum bo'lgan bank va tijorat sirlarining maxfiyligini ta'minlash;

audit tekshiruvlarini mutlaq mustaqil ravishda olib borish;

audit tekshiruvlarini o'z vaqtida va sifatli o'tkazishi;

tekshirish natijalari bo'yicha o'z vaqtida xolis audit hisobotlarini tayyorlashi va taqdim etishi;

audit tekshiruvi o'tkazishiga doir Markaziy bank me'yoriy xujjatlari va bankning ichki me'yoriy xujjatlariga rioya qilish lozim.

Shu bilan birga ichki audit xizmati xodimlari:

tekshirish natijalarini buzib ko'rsatgani, bank va uning filiallari holatiga baho bermagani;

tekshirish jarayonida ma'lum bo'lgan bank va tijorat sirlarining maxfiyligini ta'minlamagani;

tekshirish davomida olingan xujjatlarning butunligi va qaytarilishini ta'minlamagani uchun ichki audit xizmati xodimlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va bankning tegishli ichki me'yoriy xujjatlariga javobgar bo'lishi lozim.

Ichki audit xizmati xodimlariga nisbatan va tekshiruvlarni o'tkazish uchun belgilangan talablar. Ichki audit xizmati xodimlarining professional malakasi ichki audit xizmati va har bir auditorning ma'sulligini belgilaydi. Har bir auditor buxgalteriya hisobi, iqtisodiyot, moliyaviy ish statistika, ma'lumotlarini qayta ishlash, texnika, solikka tortish va huquq sohasida puxta bilimga, ish faoliyati davomida ichki audit standartlari, protseduralari va usullari, buxgalteriya hisobi printsiplari va metodlari, boshqaruv printsiplari, kompyuterda joylashtirilgan axborot tizimi haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. Bunda:

bajariyotgan vazifalari xarakteriga mos oliy ma'lumot hamda tegishli kasbiy ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari;

bank qonunchiligi hamda Markaziy bankning bank faoliyatini tartibga soluvchi yo'riqnoma va me'yoriy xujjatlarni bilishlari;  
o'z malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlar;  
vazifalarini hal etish ko'lam va muddatiga doir auditorlik dasturlari rejalashtirilayotganda cheklovlarga ega bo'lmasliklari lozim.

Tekshiruvlar «audit xizmatining banklar faoliyatini audit tekshiruvdan o'tkazish to'g'risida»gi tartibga asosan amalga oshiriladi.

Audit xizmatining ish dasturi:

- audit tekshiruvi aniq maqsadga ega bo'lishi;
- dastur qamrovi doirasi audit maqsadlariga erishish uchun etarli bo'lishi;
- bajarilgan ish rejasi va ko'riladigan har bir tarmoqning zarur tamoyillari tasvirini o'z ichiga olishi talablariga javob berish lozim.

Amalga oshirilayotgan amaliyotlar hajmi va murakkabligiga yoki harakatdagi me'yoriy xujjatlarning o'zgarishiga qarab dasturga kiritilgan tamoyillari o'zgarib turishi mumkin.

Auditorlik hisobotiga qo'yiladigan asosiy talablar.

Auditorlik hisoboti audit tekshiruvi tugashi bilan qisqa muddat ichida tayyorlanadi. U o'z ichiga audit tekshiruvi maqsadi va ob'ekti, tekshirish vaqtida aniqlangan muammo va kamchiliklar, aniqlangan har bir muammoni bartaraf etish bo'yicha takliflarni qamrab olgan bo'lishi shart.

Muammolarni bartaraf etish bo'yicha tayyorlangan takliflaridan aniqlangan muammolarining qisqacha tavsifi, bu muammolarni to'g'rilash bo'yicha amalga oshiriladigan choralar, ularga biriktirilgan ma'sul xodimlar va choralarni amalga oshirish uchun belgilangan muddatlar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Audit xizmati xodimlarining hisobotlari bevosita Bank kengashiga va auditorlik qo'mitasiga taqdim qilinadi. Ushbu hisobotlarning nusxalri Bank boshqaruviga, aniqlangan kamchiliklarga tegishli bo'lgan qismi esa muayyan boshkarmalarga taqdim etiladi.

Audit xizmati tekshirish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha filiallar tomonidan chora-tadbirlar ishlab chikilishi va ularga amal qilishni nazorat etish lozim.

Audit tekshiruvlarini o'tkazishdan maqsad, Bosh bankni va uning barcha filiallari faoliyatini auditdan o'tkazish, banklar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini nazorat qilish, buxgalteriya, operatsiya va ma'muriy nazorat tizimlari monandligini baholash, filiallari faoliyatini tahlil va nazorat qilish orqali Bank kengashi va Bank boshqaruviga bank faoliyati bo'yicha belgilangan istiqbol va maqsadlarga erishishda ko'maklashishdan iborat.

Audit o'tkazish tartibi va jarayonlari. Bosh bank va filiallar faoliyatini auditdan o'tkazish Bank kengashi tomonidan tasdiqlangan «Audit xizmatining filiallar faoliyatini auditdan o'tkazish bo'yicha tekshirish rejasiga»ga asosan amalga oshiriladi va ushbu hujjat maxfiy hisoblanadi. Tekshirish rejasiga Bosh bank va uning barcha filiallari kiritilgan bo'lishi lozim. Filiallarning moliyaviy ahvoli yoxud iqtisodiy ko'rsatkichlari keskin o'zgargan holatlarda tekshirish rejasiga o'zgartirish kiritilishi mumkin.

Ma'lumki, tijorat banklarining operatsiyalari ko'proq o'z kapitalidan emas, balki jalb qilgan mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi, demak, bank faoliyati jalb etilgan mablag'lar o'z kapitalidan ko'p bo'lishini kuzda tutadi. Bank mablag'i egalari va undan foydalanuvchilar o'rtasida moliyaviy vositachi vazifasini bajarar ekan, bundan bank mablag'larning egalariga belgilangan muddatda saqlash va qaytarish majburiyatini oladi. Shunday ekan, banklar har yil tashqi audit tekshiruvlaridan o'tishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tashqi auditorlik firmalarini o'zlari ixtiyoriy tanlaydilar. Yilning oktyabr oyida banklar auditorlik firmalariga tender e'lon qiladi.

Xalqaro va milliy auditorlik firmalari o'z faoliyatlari, yutuqlari va xizmat ko'rsatish narxlari xususida banklarga ma'lumotnomalar yuborishadi. Banklar ikki muhim ko'rsatkich, sifat va arzon narx ko'rsatkichlari bo'yicha ma'qul auditorlik firmalarini tanlaydilar va ular bilan uzog'i 5 yilgacha bo'lgan shartnoma belgilaydilar. Auditorlik firmalarining xizmat ko'rsatish narxlari yil sayin arzonlashib boradi, chunki ular bu bank xususidagi ma'lumotlarni topish osonlashadi.

Har yili Markaziy bankning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida tashqi audit o'tkazishga qo'yiladigan talablari o'zgarib, mukammallashib boradi.

Tijorat banklarida tashqi auditni o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankinig 1996 yil 4 iyulida tasdiqlangan 403-sonli "O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarini audit qilish tug'risida"gi nizomga muvofiq olib boriladi. 1999 yilga kelib nizomga o'zgartirishlar kirilganligiga qaramay 2010 yil 1 yanvardan o'z kuchini yo'qatgan. Hozirda " Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunga asosan tashqi audit olib boriladi.

Bunga ko'ra, tijorat banklari auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun Markaziy bankning bank auditini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatiga ega bo'lgan auditorlik tashkilotini mustaqil tanlashadi.

Nizomning 6 bo'lim 3 bandida auditorik tekshiruvini o'tkazish uchun shartnoma tuzishdan oldin auditorlik tashkiloti tijorat bankiga Markaziy bank tomonidan berilgan sertifikatni ko'rsatishi shartligi aytilgan. Nizomning 5-6 bandida auditorlik tashkilotlar va auditorlar banklar faoliyati natijalari bo'yicha

hisobot tug'riligini tasdiklashi, shuningdek, banklar yillik hisobotiga ilova qilinadigan rasmiy auditorlik xulosalarini berish, auditorlik xulosasisiz bank yillik hisoboti Markaziy bank tomonidan qabul qilinmasligi va matbuotda e'lon qilinmasligi keltirilgan.

Bank va auditorlik firmasi o'rtasida tuziladigan shartnomada ikki tomonning huquq va majburiyatlari keltirib o'tilgan.

Jumladan, auditorlik tashkilotlari va auditorlar qo'yidagi huquqlarga ega:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki talablariga, shartnomada belgilangan aniq shartlariga muvofiq auditorlik tekshiruvining shakl va usullarini aniq ravishda belgilaydi;

- Bank faoliyati to'g'risidagi barcha xujjatlarini, mavjud moddiy boyliklar va qimmatbaho qog'ozlarni tekshirish, vujudga keladigan savollar yuzasidan sharh hamda auditorlik tekshiruvlari uchun zarur qo'shimcha ma'lumotlar olish;

- Yozma so'rov bo'yicha uchinchi shaxslardan zarur ma'lumotlar olish;

- Shartnomaviy asosida auditorlik tekshiruvida qatnashish uchun auditorlarni, auditorlik tashkilotlari yoki ularning xodimlarini jalb etish;

- Tekshirilayotgan bank kerakli xujjalarni taqdim etmagan hollarda auditorlik tekshiruvi o'tkazishdan bosh tortish.

Auditorlik tekshiruvlari va auditorlarning o'zlari bank faoliyati, buxgalteriya hisobotlarini rasmiylashtirish, shuningdek, ichki auditini tashkil etish va amalga oshirish yuzasidan konsalting xizmatlari ko'rsatadigan banklarda audit o'tkazish huquqiga ega emaslar.

Banklarning auditini amalga oshiradigan auditorlar va auditorlik tashkilotlari qo'yidagilarga majburdirlar:

- Auditorlik tekshiruvini amalga oshirish jarayonida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, audit uslubiyati va jarayonlariga amal qilishi kerak;

- Auditorlik hisobotida bank va moliyaviy - xo'jalik muomalalarini qonuniyligini buzganligini aks ettirish va ularni bartaraf etish bo'yicha maslahat berish;

- Auditorlik standartlariga asosan auditorlik tekshiruvlarini malakali o'tkazish;

- Tekshiruv jarayonida olingan va tuzilgan xujjatlarni saqlashni ta'minlash;

- Maraziy bankning talabiga binoan hamma ishchi hujjatlarni va ularning nusxalarini berishga majburdirlar.

Nizomning 8.2 bandiga binoan, bank kengashi malakali auditor jalb qilinishi uchun javobgar hisoblanib, auditorlik tekshiruvlari yakunlanganligidan so'ng 10 kun muddat ichida auditorlik hisobotini Markaziy bankka taqdim etish uning majburiyatiga kiradi.

Xullas, bank va auditorlik tashkiloti bir-birlariga har tomonlama o'zaro yordam berishi, birgalikda bank barqarorligini ta'minlash yo'llarini izlashlari va kamchiliklarni bartaraf etishlari lozim.

Bank auditori maxsuslashtirilgan firmalarni tashkil etishni talab etib, bir qator xususiyatlarga ega bo'ladi. Bank va boshqa moliya - kredit uyushmalarida auditorlik tekshiruvi xuddi kredit tizimlari singari xizmat ko'rsatilayotgan xo'jalikda malakali tekshirishni va maxsus javobgarlikni talab qiladi. Audit natijalari yillik hisobotning tasdiqlanishi, balansni chop etish va kredit tashkilotlarini umumiy ishini baholashda xizmat qilar ekan, auditorlik xulosasi ob'ektiv va tug'ri yozilishi shart. Olib borilgan auditorlik izlanishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, auditorlik tekshiruvining samarali bo'lishi o'zaro qiziqish hamda tekshiruvchi shaxs tekshirilayotgan bank hisob va hisobotlarining tug'riligini ta'minlashi lozim. Bunda barcha kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish, bank rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni yo'q qilish maqsadga muvofiqdir.

Auditorlarning vazifasi bank faoliyatini tekshirishda qo'yilgan barcha talablarni, masalalarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, bunda asosiy ma'suliyat shundaki bank muomalalarini notug'ri bajarish holatlarini aniqlangan hollarda, joriy etilgan buxgalteriya hisobi tartibi mijoz tomonidan buzilgan holatlarda davlat byudjeti yoki bankka keltirilgan zarar hajmi hisoblab chiqilishi va javobgar shaxslaridan buning sabablari aniqlanishi lozim.

Auditorlik tekshiruvini boshlashdan oldin tekshiri uchun tegishli savollar aniklab olinishi lozim. Bu savollar tomonlarning kelishuvi bilan tuziladi va bank faoliyatining hamma tomonlarini yoki alohida bo'limlarini o'zida aks ettirishi mumkin.

Banklarda auditorlik tekshiruvini boshlashda qo'yidagi ma'lumotlar bilan tanishish lozim bank faoliyatining hajmi, tashkilotchilik rahbarlarining malaka darajasini, umumiy ichki nazoratni tashkil etilishi va hokazolar. Shundan so'ng auditorlik tekshiruvi jarayonida xatolar mavjud bo'lishi ko'rib chiqiladi.

Masalan, bank faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishni rejalashtirish jarayonida 4-jadvaldan foydalanish mumkin.

## Bank balansi moddalarining muhimlik darajasi

Aktiv		Passiv	
Modda nomi	Muhimlik darajasi, %	Modda nomi	Muhimlik darajasi
Pul mablag'lari	0,01	Kapital va fondlar	0,5
Korrespondentlik hisob varaqlari	0,01	Qarz bo'yicha yo'qotishlar bo'yicha zaxiralar	1,5
Bank mulki	1,98	Qimmatli qog'ozlar bahosining kamayishi uchun zaxira	1,0
Kredit resurslari bo'yicha to'langan foizlar	1,0	Kredit bo'yicha daromalar	0,5
Qimmatli qog'ozlar bilan muomalalar bo'yicha xarajatlar	1,0	Qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar	0,5
Kelgusi davr xarajatlari	1,5	Kelgusi davr daromadlari	2,0
Boshqa xarajatlar	1,5	Boshqa daromadlar	2,0
Foydadan foydalanish	1,0	Hisoblashidagi mablag'lar	1,0
Bank tomonidan berilgan kreditlar	1,0	Mijozlar hisobvarag'idagi mablag'lar	0,2
Bank tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar	0,5	Depozitlar	0,2
Daromad keltiruvchi boshqa ativlar	0,5	Banklararo kreditlar	0,6
<b>Jami</b>	<b>10</b>	<b>Jami</b>	<b>10</b>

Auditorlar bankning moliyaviy holatini tahlil qiladilar, shu jumladan, ayniqsa likvidlikni, kredit portfelining sifatini, qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan investitsiyalarni, valyuta muomalalarini, tasniflangan ssudalarga asoslangan zahiralarni, boshqaruv ma'lumotlari (menejment sifatini daromad va xarajatlar tarkibini, ma'lumotlar tizimining avtomatlashganligini) va boshqa ma'lumotlarni birma bir tahlil qilib chiqadilar.



Auditorlik faoliyati auditorlik firmasi rahbariyati tomonidan rejalashtiriladi. Auditorlik faoliyatini rejalashtirish strategik rejalashtirish va qismlarga ajratib rejalashtirish turlariga bo'linadi.

Strategik rejalashtirish qo'yidagi ehtimollarni aniqlaydi:

- Bilim va tajribaga asoslangan ish hajmi;
- Risklarni aniklash;
- Mijozlarning xohishi;

Bankni tekshirish jarayonida auditorlik ish hajmi va auditorlik riski darajasini baholashda auditorning bilim va tajribasi katta yordam beradi. Auditorlik ish hajmi aniklangandan keyin, tekshirishni qaysi usul yoki shaklda olib borish tanlanadi.

Tekshirishning usullari:

- Nazoratning usuliga bank boshqaruvi nazoratining sifati, kompyuter nazorat tizimining mavjudligi, fizik nazorat va haqiqiy aktivlar (pul belgilari, qimmatli qog'ozlar va boshqalar)ni tekshirish kiradi.
- Analitik usulga kredit summasining qoldig'ini tasdiqlash uchun mijozlarga xat bilan murojaat qilish, muomalalar darajasining ko'tarilishi yoki pasayishi, mavjud daromad ko'rsatkichlar bilan oldingi yillar ko'rsatkichlarini solishtirish kiradi. Nazorat va analitik usullari tez va kam ish talab qiladigan usullardir.
- Malumotlarni sinchiklab o'rganish usuli buxgalteriya hisobi xujjatlarining tekshirilish natijalarini, hisob yozuvlarining xujjatlar bilan mosligini va solishtirma tekshiruvlar o'tkazishni o'zida aks ettiradi.

Xorijiy auditorlik firmalari o'zlari bajargan ishlarning hajmi va sifatini tasdiklovchi asosiy xujjatlar hisoblanadigan ishchi hujjatlarini tuzadilar. Bularning shakli ixtiyoriy bo'lib, unda firma bajargan ishlarning qisqacha bayoni beriladi, xususan, qanday birlamchi xujjatlar va hisobga olish registrlari tekshirilganligi, tekshirish usuli va bu erda yozma yoki tanlov asosidaligi ko'rsatiladi.

### **3-mavzu. Naqd pul va kassa operatsiyalarining auditi**

#### **Reja:**

- 1. Naqd pul va boyliklarni audit qilish tartibi**
- 2. Naqd pul va boyliklarni saqlash binolari va ularni qo'riqlanish auditi**
- 3. Kassa va kassa operatsiyalarini auditi**

#### **1. Naqd pul va boyliklarni audit qilish tartibi**

Bank kassalaridagi mavjud pul va boyliklar to'satdan, bir kunning o'zida, barcha boyliklar, ular bilan o'tkaziladigan operatsiyalar, pul va boyliklar sanash chog'ida but saqlanishini to'liq audit qilish imkoniyatini ta'minlaydigan, hamda boyliklar yashirilishi, pul va boshqa boyliklardan kamomad borligini yashirishga imkon qoldirmaydigan izchillikda audit qilinadi.

Audit qilish boyliklar but saqlanishi uchun javobgar bo'lgan mansabdor shaxslarning ishtirokida o'tkazilishi hamda bank muassasalarida operatsiyalar amalga oshirilishining odatdagi maromini buzmasligi kerak.

Auditdan o'tkazish paytida Yuqori lavozimdagi mansabdor shaxslar yo'q bo'lsa, bu holat dalolatnomada alohida qayd ztiladi, umumiy dalolatnoma audit rahbarining, hamda mas'ul rahbarlarning imzolari bilan tasdiqlanadi.

Audit qilish razberi bank muassasasiga kelganidan aylanma (operatsiya) va kechki kassalarda, qayta pul sanash kassasida va kassirlar bilan inkassatorlarning javobgarligida bo'lgan jamiki naqd pulni, zaxira fondlarida bo'lgan pul bileti va tangalarni, chet el valyutasi va boshqa boyliklarni o'z nazoratiga qabul qiladi.

Audit qilish rahbari, uni o'tkazishga kirishar ekan, mansabdor shaxslarning xuzurida Naqd pul bo'lgan barcha omborlarni uzining lavozimiga doir surg'uchli muxr bilan muxrlab chiqadi. Kassa tarmogida joylashgan boshqa omborlar esa audit boshlangan payt ularda pul va boyliklar yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun ko'zdan kechiriladi.

**Ish kuni tugaganidan so'ng pul omborlari muxrlanishi va boyliklar but saqlanishi uchun javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar bilan birgalikda qo'riqlash uchun belgilangan tartibda topshirilishini audit rahbari pul omborlaridagi pul va boyliklarni audit qilish to'liq yakunlanguniga qadar davom ettiradi.**

Bu vaqtda mansabdor shaxslarning pul omborlariga faqat audit rahbari ishtirokidagina kirishiga, pul va boyliklarni uning nazorati ostida qo'yishi yoki olishiga ruxsat etiladi.

Audit qilish rahbari muxrining izi taxtachada audit qilinayotgan bank muassasasidagi rahbar xodimlar muxrlarining izidan oldinga joylashtiriladi.

Audit rahbari surg'uchli muxrining uning imzosi bilan tasdiqlangan hamda qo'riqlash uchun topshirish daftaridagi imzosiga qiyoslash uchun namuna hisoblanadigan izi to'liq kartonda "Bankni audit qilish rahbari surg'uchli muxrining izi namunasi" degan matn bilan rasmiylashtiriladi, sana va imzo qo'yiladi, hamda qo'riqlash xizmati boshlig'idan tilxat olib topshiriladi. Pul va boyliklarni audit qilish tugaganidan so'ng audit rahbari tilxatni qaytaradi va surguchli muxr izining namunasi yo'q qiladi.

Kassalardagi pul biletlari dastlab bog'lamlar va dastalar, metall tangalar va ish haqi to'lash uchun oldindan tayyorlab qo'yilgan pullar qoplarga birkirilgan yorliqlar va cheklarga qarab tekshiriladi. Umumiy summa hisob yuritish ma'lumotlariga qiyoslanadi.

Shu xil tekshirishdan keyin naqd pul quyidagi tartibda qayta sanaladi:

- oborot va kassa operatsiyalarida bo'lgan pul biletlari, hamda tangalar nazorat tarikasida to'liq donalab birma-bir sanaladi;

- mijozlarga berish uchun oldindan tayyorlab qo'yilgan pul biletlari va tangalar ma'lumotlari cheklardagi summaga qiyoslanadigan yorliqlardagi yozuvlarga qarab tekshiriladi, keyin esa audit rahbari belgilaydigan xajmda bog'lamlar, dastalar, shuningdek, birma-bir va donalab to'liq sanaladi;

- kechki kassadagi naqd pul usha kunning o'zida yoki keyingi kun ertalabdan kechiktirmay, birma-bir va tangalar donalab to'liq sanaladi;

- xaltalar ochilganidan keyin pul sanash kassasida bo'lgan pul biletlari va tangalar audit qilish rahbari belgilaydigan xajmda bog'lamlar va dastalar bo'yicha hamda birma-bir va donalab to'liq qayta sanaladi.

Shuningdek, muayyan sanalarning birida bankning savdo va transport korxonalarida xuzuridagi kassalarda bo'lgan naqd pul tekshiriladi. Pul biletlari bog'lamlar va dastalar bo'yicha, tangalar esa qoplarga birkirilgan yorliqlardagi yozuvlarga qarab sanaladi. Ma'lumotlar kirim hujjatlaridagi umumiy summaga, kirim bo'yicha kassa daftarlariga qiyoslanadi, keyin esa audit qilish rahbar belgilaydigan xajmda birma-bir va tangalar donalab qayta sanaladi.

Agar audit boshlangan paytda pul sanash kassalarida, kechki kassalarda va inkassatorlarning javobgarligida naqd pulli ochilmagan xaltalar bo'lsa, shu xaltalar va qoplardagi (ochilgan xaltalar va qoplardagi) pul qoldig'i yuk xatlar, tashrif varaqchalari, qabul qilingan naqd pulli xaltalar (qoplar) va bo'sh xaltalar hisobini yuritish daftarlari, ro'yhatlar, yo'l kaidnomalari, yo'nalish varaqlari hamda

inkassatorlarga yo'lga chiqish paytida berilgan xaltalar to'g'risidagi ma'lumotnomalarda ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan qiyoslanadi. Ular bo'lmagan taqdirda esa bu xil tekshiruv boshqa kunlarda tusatdan o'tkaziladi. Ayni paytda xaltalar va qoplarning butunligi hamda plombalar va muxrlar izi mavjud namunalarga mos kelishi tekshiriladi.

Xaltalar va qoplar shikastlangani, plombalar va muxrlar tegishli namunalarga to'g'ri kelmasligi aniqlangan hollarda shu xaltalar va qoplardagi boyliklar birma-bir, tangalar esa donalab to'liq qayta sanaladi. Zarur hollarda qayta sanashda ishtirok etish uchun tegishli korxonalar, shuningdek Ichki Ishlar Vazirligining vakillari taklif etilishi mumkin.

Xalq banki muassasalariga etkazib berilishi kerak bo'lgan, pul va boyliklar solingan xaltalar (puli qayta sanaladigan xaltalar) shu muassasalar xodimlarining xuzuridagika ochilishi mumkin.

Audit o'tkazilayotgan kuni "Yo'ldagi qog'oz pullar" 10109 va "Yo'ldagi tangalar" 10111 hisobvaraqlarda pul qoldig'i bo'lgan taqdirda pul 10101 hisobvaraqdan chiqarilib, 10109-hisobvaraqqa o'tkazilishi qay darajada asosli ekanligi tekshiriladi. Bundan tashqari audit qilish jarayonida Toshkent shahar hisob-kassa Markazi Bosh boshqarmadan jo'natilgan pullar kelib tushgani to'g'risida tasdiqnoma olinishi kerak.

Shuningdek, Xalq banki muassasalariga etkazish uchun inkassatorlarga berilgan pullarning asosliligi ham tekshiriladi. Xalq banki muassasalariga etkazib berish uchun ko'rsatilgan summani qiyoslash kerak. g'riqlarda ko'rsatilgan summani hisob yuritish daftarlaridagi yozuvlarga va Xalq banki muassasalarining talablariga qiyoslash zarur. Agar inkassa-torlarga berilgan, lekin jo'natilmagan pul bo'lsa, uning miqdori, xaltalar va tangalarning butunligi, plombalar izining aniqligi va haqiqiyliigi tekshiriladi, hamda xaltalar belgilangan joyga etkazib berilgani nazorat qilinadi.

Audit qilish rahbarining xoxishiga qarab, bu xaltalar ochilishi va ulardagi boyliklar shu xaltalarni qabul qilib olgan inkassatorlar, kassa mudiri, bank muassasasining rahbari yoki bosh buxgalteri ishtirokida bog'lamlar va dastalar bo'yicha yoki birma-bir qayta sanalishi mumkin.

Zaxira fondlarida bo'lgan pul biletlari bog'lamlar va dastalarga qarab, metal tangalar esa qoplarga birki qilgan yorliqlardagi yozuvlar bo'yicha tekshiriladi. Pul biletlari va tangalarning umumiy summasi tegishli daftarlar, kundalik balans ma'lumotlariga qiyoslanadi. Daftarlarda chiqarilgan yakunlar turli qiymatdagi alohida qoldiq summalarini hisoblash orqali tekshiriladi.

Shu xil tekshiruvdan so'ng zaxira fondlaridan, Markaziy bank xuzuridagi "Davlat belgisi" maxsus ishlab chiqarish birlashmasi, "Toshkent" zarbxonasi, Toshkent shahar XKM va uning Chilonzor filiali bog'lamlarida bo'lgan pul biletlari

va tangalar audit qilish rahbari belgilayligan xajmda birma-bir va donalab qayta sanaladi. Zaxira fondidan qayta sanash uchun chiqarilgan naqd pullarni Hisob-kassa Markazining kassirlari auditorlar nazorati ostida qayta sanashlari lozim.

Auditor kassirga pul biletlari va tangalarni sanash uchun berayotganida qog'oz-tasma (yorliq)ni pul biletlari va tangalarning bir qismi bilan birgalikda nazorat uchun o'zida olib qoladi. Pul biletlari yoki tangalar qayta sanalganidan keyin kassir aytgan summa yoki miqdorni auditor o'zida olib qolgan pul biletlari va tangalarning summasi yoki miqdoriga qo'shadi va natija qog'oz-tasma (yorliq)dagi ma'lumotlarga qiyoslanadi.

Umumiy summa o'zaro mos kelganida nazorat uchun qoldirilgan pul biletlari yoki tangalar qayta sanash va dastalar (qoplar)ni umumiy tarzda belgilangan tartibda tayyorlash uchun kassirga beriladi. Mos kelmagan taqdirda esa bu pullar auditor tomonidan qayta sanalishi va ularni dastlab sanagan kassir tomonidan o'rab bog'lanishi kerak. qog'oz-tasmalar, ustki nakladkalar, yorliq, va plombalar bog'lamlar (qoplar)dagi pullar to'liq sanalmaguncha auditorda qolishi zarur.

Pullarni qayta sanashni ularni bog'lamlar va qoplarga sanab joylagan kassa xodimlariga faqat ayrim hollardagina topshirish mumkin. Kirim-chiqim kassasida bitta kassir ishlaydigan banl muassasalarida pulni kassir vaqtincha bo'lmagan paytda uning vazifasini bajaruvchi xodim qayta sanaydi.

Pul sanalganidan keyin dastalardagi qog'oztasmalar va bog'lamlar (yorliqlar)dagi nakladkalar auditorlarning imzosi bilan rasmiylashtirilmaydi.

Audit rahbari pul biletlari bog'lamlarini va tanga joylangan qoplarni turli joylardagi pul omborlarida tayyorlanganlaridai, urab-boglash sanasi har xil bo'lgan va turli kassirlar tayyorlaganlaridan tanlab oladi.

To'liq bo'lmagan va yig'ma tarzda tayyorlangan pul biletlari bog'lamlari hamda metall tangali qoplar, o'rami shikastlangan, nakladkalari va yorliqlarida kassirning imzosi bo'lmagan, shuningdek, o'ramida yoki rasmiylashtirilishida boshqa xil kamchiliklari bor pul bog'lamlari va qoplari birma-bir va donalab sanalishi kerak.

Kamomad yoki ortiqcha pul biletlari borligi aniqlangan hollarda ularni tayyorlagan kassirning barcha pul bog'lamlari birma-bir qayta sanalishi zarur. Audit rahbarining xoxishiga qarab kamomad yoki ortiqcha pul chiqqan qoplardagi tangalar ham shunday tekshiruvdan o'tkaziladi.

Buxgalteriya hisobidan o'tkazilmagan tilxatlar va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan summalar kassa qoldig'ini tasdiqlash uchun qabul qilinmaydi va kassirdan chiqqan kamomad hisoblanadi. Kassada aniqlangan ortiqcha pul 45994 - "Boshqa foizsiz daromadlar" hisobvarag'iga o'tkazilishi lozim.

Agar audit boshlanishida 90131 "Yuldagi muomalaga chiqarilmagan banknotlar" hisobvarag'ida qoldiq bo'lsa, pul biletlari va tangalar "Hisob-kassa Markazlari omborida saqlanayotgan muomalaga chiqarilmagan pullar" nomli 90117-hisobvaraqdan chiqarilishi qay darajada asosligini tekshirishi zarur. Ayni vaqtda auditor jo'natilgan boyliklar belgilangan manzilga etib borganini audit qilish jarayonida Markaziy bankning tegishli Bosh boshqarmasidan tasdiqnoma olish orqali nazorat qilishi kerak.

Markaziy bank muassasalaridan olingan va 93609 "Saqlanayotgan qimmatliklar" hisobvarag'ida o'tkazilgan pullar bog'lamlar va dastalarga qarab, shikastlangan o'ramdagilari esa birma-bir tekshirib chiqiladi. Ularning har bir jo'natma bo'yicha umumiy summasi esa ilova qilingan ro'yhatlardagi ma'lumotlar bilan qiyoslanadi. Bundan tashqari, auditor shu hisobvaraqda to'rgan pullar kelib tushgan kuniyoq zaxira fondiga yoki aylanma kassasiga o'tkazilmaganning sababini aniqlashi shart.

Boshqa hisobvaraqlardagi boyliklar quyidagi tartibda audit qilinadi:

- "Naqd chet el valyutasi" nomli 10511-hisobvarag'ida chet el valyutasi, yo'l cheklari va chet el valyutasidagi boshqa xil to'lov hujjatlari bog'lamlar va dastalarga qarab, tangalar esa qoplar (lotoklar)ga birkirilgan yorliqlardagi yozuvlar bo'yicha tekshiriladi. Bunda erkin ayirboshlanadigan barcha valyuta va unga tenglashtirilgan valyuta hamda xorijiy valyutadagi to'lov hujjatlari yalpisiga birma-bir va donalab tekshiriladi;

- agar audit boshlangan paytda xorijiy valyuta va to'lov hujjatlari ayirboshlash punkti xodimiga hisob berish sharti bilan topshirilgan bo'lsa, ularning summasi audit ertalab boshlangan holda ayirboshlash punktining avvalgi kun hujjatlari bo'yicha tuzilgan hisobotidagi, audit kunning ikkinchi yarmida boshlangan holda esa, shu kungi hisobotdagi ma'lumotlar bilan qiyoslanishi kerak. Ayni vaqtda ayirboshlash punktiga qo'shimcha boyliklar berish va ular etarli bo'lishi tartibiga rioya qilinishi tekshiriladi;

- "Oltin va boshqa qimmatbaho metallar" nomli 10200-hisobvaraqda hisobga olingan oltin va boshqa qimmatbaho metallar tarozida tortish orqali, to'liq vaznli tangalar esa donalab tekshiriladi. Banklarning shahar (operatsiya) boshqarmalari (bo'limlari)da O'zbekistan Respublikasi banklarining bo'limlari va agentliklaridan kelgan, qimmatbaho metallar joylangan ochilmagan jo'natmalar ularda ko'rsatilgan ma'lumotlarni bank muassasalarining shu jo'natmalarga tegishli ro'yhatlaridagi va jo'natmalarni hisobini yuritish daftarlaridagi ma'lumotlar bilan qiyoslash orqali tekshiriladi. Ayni vaqtda jo'natmalar o'ramining to'g'riligi ham tekshiruvdan o'tkaziladi;

- Kassirga hisob berish sharti bilan topshirilgan davlat boji markalari yalpisiga donalab, pul omborida bo'lgan markalar esa audit qilish rahbari

belgilaydigan xajmda tanlov asosida sanaladi. Amaldagi qoidalarga zid ravishda uralgan bog'lamlardagi markalar birma-bir qayta sanalishi shart. Pul omborida va kassirning hisobdorligida bo'lgan markalar bir vaqtning o'zida qayta sanaladi. Agar teshirishni bir paytning o'zida olib borish imkoni bo'lmasa, avval kassirning hisobdorligidagi markalar, keyin esa pul omborida saqlanayotgan markalar sanaladi. Markalarning umumiy summasi hisob berish sharti bilan topshirilgan va donalab sanalgan turli qiymatdagi qoldiq markalarning summasini pul omborida saqlanayotgan qoldiq markalar summasiga bog'lamlardagi yozuvlarga qarab kushish orqali aniqlanadi;

- "Saqlanayotgan qimmatliklar" nomli balansdan tashqari 93609-hisobvaraqa turadigan chet el banklari va muassasalarining yo'l cheklari, Markaziy bankning chet el valyutasini sumga ayirboshlash to'g'risida 377-shakldagi ma'lumotnoma daftarchalari, omonat daftarchalarining blankalari, mehnat daftarchalari va ularga ilovalar bog'lamlar va daftarlar bo'yicha qayta sanaladi, ularning umumiy summasi buxgalteriya va kassadagi analitik hisob ma'lumotlari bilan qiyoslanadi. So'ngra bu hujjatlar (boyliklar) audit qilish rahbari belgilaydigan xajmda birma-bir sanaladi. Ushbu hisob-varaqa hisobga olinuvchi boshqa blankalarni tekshirish zarurati va tartibini ham audit qilish rahbari belgilaydi;

- "Saqlanayotgan qimmatliklar" nomli balansdan tashqari 93609-hisobvaraqa turadigan boyliklar va hujjatlar yalpisiga sanaladi. Bunda muxrlangan ko'rinishda qabul qilingan boyliklar o'ramdagi yozuvga qarab, ro'yhatlar bo'lgan taqdirda esa o'ramda ko'rsatilgan summalarni ro'yhatlarda ko'rsatilgan summalarga qiyoslash orqali tekshiriladi. Saqlash uchun qabul qilingan, o'rami yoki muxri shikastlangan boyliklar ularni topshirgan tashkilotning vakili xuzurida tekshiriladi;

- 91816-hisobvaraqa hisobga olinadigan uzok muddatli qarzarlar bo'yicha majburiyatnomalar va uy sotib olgan fuqarolarning majburiyatnomalari hisoblab chiqiladi va ularning summasi hisob yuritish ma'lumotlari bilan qiyoslanadi. Bundan tashqari, majburiyatnomalar va ularga ilovalar to'g'ri rasmiylashtirilgani, shuningdek, qarzarlar vaqtida qaytarilgani tekshiriladi.

Yuqorida ko'rsatilgan hisobvaraqlarda hisobga olinuvchi boyliklar qayta sanalganidan keyin ular oborot kassasidagi Naqd pul va boshqa boyliklar, zaxira fondlari, kundalik balans va analitik hisob daftarlaridagi ma'lumotlar bilan qiyoslanadi.

Audit qilish jarayonida kamomad, to'lovga kobilyatsiz yoki ortiqcha pul va boyliklar aniqlangan holda dalolatnoma tuziladi. Ana shu asosda kamomad summasidan (xatto etishmagan pul aniqlangan zaxoti joyiga qo'yilgan bo'lsa ham) kamomad yoki to'lovga kobilyatsiz pul kassa chiqimi hisobidan chiqarilib, 19909-

hisobvaraqa o'tkazish orqali o'ndirib olinadi, ortiqchasi esa bank daromadiga olib boriladi. Zaxira fondlarida etishmayotgan summa shoshilinch tarzda oborot kassasi hisobidan to'ldiriladi. Audit rahbari kassalardagi yirik xatolar to'g'risida UzR MB ning tegishli Bosh boshqarmasiga o'z vaqtida xabar berilishini nazorat qiladi, hamda bunday hollarga yo'l qo'ymaslik maqsadida ko'rilgan chora tadbirlarning samaradorligini tahlil qiladi Davlat boji markalari va boshqa boyliklar bo'yicha kamomad va ortiqcha pul hisobini yuritish tartibi 42-yo'riqnomaning tegishli bandlarida ko'rsatilgan.

Boyliklar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarni hujjatlar asosida audit qilish analitik hisob oborotlarini oldindan yoki keyin hisoblash va olingan yakunlarni oylik oborot qaydnomalaridagi ma'lumotlar bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi. Balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha, bulardan tashqari, shu qaydnomalarda ko'rsatilgan qoldiqlar to'g'riligi tekshiriladi.

Balansdagi "Yuldagi qog'oz pullar" 10109 va "Yuldagi tangalar" 10111 hisobvaraqlar bo'yicha kreditga doir operatsiyalar to'g'riligi va asosli ekanligi tekshiriladi.

Davlat boji markalarining chiqimi audit qilish raxbari belgilaydigan xajmda tekshiriladi.

Chiqim uchun hisobdan chiqarilgan davlat boji markalarining umumiy summasi har bir kun uchun kirim kassa orderlari va maxalliy byudjet hisobvaraqlaridagi tegishli yozuvlar bilan qiyoslanadi.

Agar markalar audit qilinayotgan muassasadan banklarning boshqa muassasalariga jo'natilgan bo'lsa, markalarni hisobdan chiqarish qanchalik asosli ekanligi dastlabki hujjatlar va markalar olingani to'g'risidagi tasdiqnomalar bo'yicha tekshiriladi.

Kamomadga bog'liq holda chiqim uchun hisobdan chiqarilgan markalar bo'yicha ularning qiymati balansdagi 19909-hisob-varaqa kiritilgani va aybdor shaxslardan o'ndirib olingani aniqlanadi.

Bosh boshqarmalarini audit qilishda shikastlangan markalarni hisobdan chiqarish qanchalik asosli ekanligi ularni yo'q qilish to'g'risidagi dalolatnomalar bo'yicha tekshiriladi.

"Ko'zda tutilmagan holatlar" hisobvarag'i bo'yicha kirim va chiqim operatsiyalarini amalga oshirish qanchalik asosli ekanligi balansdan tashqari orderlar, boyliklarning ro'yhatlari, ishonchnomalar, tegishli tashkilotlarning talabnomalari, boyliklarni jo'natishga doir pochta kvitantsiyalari va boshqa hujjatlar bo'yicha tekshiriladi.

Inkassatsiya apparati kassasini audit qilish boshlanganidan oldingi kunda, hamda kassa audit qilinishi boshlangan kuni operatsiya soatlarida topshirgan tushum, shuningdek, temir yo'l bekatlari aloqa bo'limlari, jamg'arma kassalari va



banklarning, savdo hamda transport korxonalari xuzuridagi kassalaridan xaltalarda kelib tushgan pul oborot kassasiga to'liq kirim qilingani tekshiriladi. Masalan, kassa 15 yanvarda audit qilinayotgan bo'lsa, inkasso qilingan tushum qanchalik to'liq ko'rsatilgani 14 yanvardagi buxgalteriya hisobiga qarab tekshiriladi.

Bunday audit qilish inkasso qilingan tushumning dalolatnomalarda, inkassatorlardan naqd pulli xaltalar va qoplarni qabul qilib olish hisobini yuritish daftarlarida, yo'l qaydnomalari va ro'yhatlarda ko'rsatilgan turli qiymatdagi qoldiq summalarni hisoblash hamda ortiqcha pul va kamomad summalari hisobga olingan yakunlarni kassa va buxgalteriya daftarlaridagi tegishli ma'lumotlar bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan bir qatorda xaltalarning ilova qaydnomalarida ko'rsatilgan sanalar, summalar va raqamlar tashrif varaqchalari va qayd etish daftarlari (yo'l qaydnomalari va ro'yhatlar)dagi ma'lumotlarga qiyoslanadi. Audit rahbarining ixtiyoriga ko'ra, xaltalarning ilova qaydnomalarida ko'rsatilgan sanalari, summalari va nomerlarini qiyoslash o'rniga inkasso qilingan tushumni ilova qaydnomalari va tashrif varaqchalari bo'yicha xisoblab chiqish mumkin hamda olingan yakunlar qayd etish daftarlari, kassa va buxgalteriya daftarlaridagi ma'lumotlar bilan qiyoslanadi.

Audit qilinayotgan bank muassasasiga kelib tushgan Naqd pulning barchasi to'liq kirim qilinganini aniqlash maqsadida keyingi kundagi kassa hujjatlari bo'yicha sanalari tuzatilgan kirim hujjatlari bor yo'qligi, shuningdek, bankka kelib tushgan pul tushumi hisobga to'liq kiritilgani va shu summalar shu kungi kirim kassa hujjatlariga mos kelishi savdo hamda boshqa tashkilotlarning shaxsiy hisobvaraqlari bo'yicha tanlov asosida tekshiriladi.

Chiqim kassa operatsiyalari to'g'ri o'tkazilgani va buxgalteriya hisobida to'g'ri ko'rsatilgani tekshiriladi. Shu maqsadda chiqim kassa hujjatlarining summalari hisoblanadi va hisobot ma'lumotnomalarining umumiy summasi bilan qiyoslanadi, keyin esa kunlar bo'yicha yakunlar balansdagi "Kassadagi banknotlar" 10101 va "Kassadagi tangalar" 10103-hisobvaraqlarning yoki bankning operatsiya kassalaridagi 10101 va 10103-hisobvaraqlarining ombor daftari va sintetik varaqchada ko'rsatilgan debet hamda kredit oborotlariga taqqoslanadi, agar ular o'rtasida fark aniqlansa bunday tekshiruv mas'ul ijrochilar bo'yicha o'tkaziladi. Muayyan vaqt mobaynidagi barcha kassa chiqim hujjatlari (pul cheklari, chiqim kassa orderlari va boshqalar)ning summalari mijozlarning hisob-varaqlari, bank ichidagi va boshqa hisobvaraqlarning debet qismidagi yozuvlarga qiyoslanadi va ayni paytda hujjatlarning rasmiylashtirilishi hamda imzolar va muxrlar bankka berilgan namunalarga mos kelishi tekshiriladi.

Emissiya-kassa intizomiga rioya etilishi, jumladan, muomalaga pul chiqarishning qonuniyligi tekshirilishi shart. Tekshiruv kassa orderlari va

balansdan tashqari orderlar, emissiya telegrammalari bo'yicha o'tkaziladi. Telegrammalarning rasmiylashtirilishi kodlar, kalitlar 04028152-shakldagi qayd etish daftaridagi yozuvlar bo'yicha emissiya ruxsatnomalarining kelgan va foydalanilgan sanasi ular amalda kelgan va foydalanilgan sanaga mos kelishi, shuningdek, ulardan foydalanish muddatlariga rioya etilishi tekshiriladi.

Bunda ushbu kassaning hisobchi-kassirlari operatsiya kuni mobaynida va ish kuni oxirida operatsiya o'tkazish qoidalariga rioya qilishlariga e'tibor beriladi (audit qilish davridagi holatlar ko'zatishtirish orqali, bir necha kun avvalgi holatlar esa nazoratchi va hisobchi-kassirning nazorat qaydnomalaridan imzolari orqali ko'rib chiqiladiki, ular kassir qayta sanagan pul summasi nazorat qaydnomasidagi ma'dumotlarga mos kelishi qiyoslanganidan dalolat beradi);

- kassa mudiri (oborot operatsiya kassasining kassiri) ish kuni mobaynidagi kassa oborotlari to'g'risida 04028111-sintetik ma'lumotnomani tuzishi, hamda shu ma'lumotnoma yakunlari kassa oborotlarining summalariga umumiy buxgalteriya daftari va sintetik varaqcha bo'yicha qiyoslanishi;

- ish kuni oxirida bosh buxgalter (uning muovini) oborot (operatsiya) kassasidagi naqd pul va boshqa boyliklar hisobini yuritish daftarida ko'rsatilgan boyliklar qoldig'ini tegishli hisobvaraqlarning qoldig'iga doir ma'lumotlarga sintetik varaqcha bo'yicha qiyoslashi. Bundan tashqari bosh buxgalteriya (uning muovini) daftarchadagi ma'lumotlarni keyin kundalik balans tuzilgan zaxoti u bilan uzil-kesil qiyoslashini aniqlash, hisobvaroqlardagi qoldiqlarni 04028120 va 04028141 shakldagi daftarlarda ketma-ket 5-10 kun mobaynida ayniqsa-tuzatishga yo'l qo'yilgan sanalarda kundalik balanslar bilan qiyoslab borish;

Boyliklar but saqlanishi uchun javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar (bank muassasasi rahbari, bosh buxgalteri va kassa mudiri) amaldagi naqd pul va boyliklarni ularning har bir harakatida (zaxira fondlariga pul o'tkazilishi yoki zaxira fondlaridan pul olinishida) buxgalteriya hisobidagi, zaxira fondlari hisobini yuritish daftaridagi ma'lumotlarga qiyoslab tekshirilishi, oborot kassadagi naqd pul va boshqa boyliklar hisobini yuritish daftaridagi ma'lumotlarni esa ish kuni tugab, boyliklarni qo'riqlash uchun topshirish paytida tekshirib borishi. Zaxira fondlariga qo'yiladigan pullarni boyliklar but saqlanishi uchun javobgar shaxslar bog'lamlar va dastalar bo'yicha sanashi, hamda orderda ko'rsatilgan summa bilan qiyoslashi kerak;

pul va boyliklarni bank ichida, shu jumladan, operatsiya zali va boshqa xonalar orqali tashish. Boyliklar liftida tashilgan paytda eshiklar kodi ular binoning istalgan qavatida lift dan foydalanib to'rgan xodim tomonidagina ochilishini ta'minlashi kerak. Naqd pul, tushum solingan va ochilmagan inkassatsiya xaltalari hamda boshqa boyliklarning bir qismini qabul qilish-topshirish va tashishda

summalar berilgani to'g'risidagi hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilgani (imzolar borligi) boyliklarning kolgan qismi saqlanishi qoidalariga rioya etilishi tekshiriladi;

- inkassatsiya qilish va tashishda pul va boyliklar but saqlanishini ta'minlash. Shu jumladan, banklarning savdo va transport korxonalarida xuzuridagi kassalarida boyliklar qabul qilinishi-topshirilishi, ayirboshlash punktlarida esa boyliklar tashish uchun olib chiqilishi qoidalariga, pul tushumli inkassatorlik xaltalari kechki kassaga topshirilishi (guruxlar to'rejaib qolishiga, bir qancha guruh boyliklar solingan xaltalarni bitta kassirga topshirish uchun bir vaqtda tayyorlashiga yo'l qo'yilayotgani), muassasalar o'sha kunning o'zida qabul qilmagan boyliklar but saqlanishi qoidalariga rioya qilinishi. Katta inspektor boyliklar etkazib berilishiga tegishli hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etishi. Auditor bu ishlarni shaxsan ko'zatish orqali, shuningdek, boyliklar uchun yozilgan hujjatlar asosida tekshiradi:

- kassirlar mijozlarga kassadan pul berish tartibiga rioya qilishlari;
- muassasaning bosh buxgalteri pochta xabarnomalari va 0428126-shakldagi qaydnoma daftar asosida kassa boyliklarni pochta muassasasidan o'z vaqtida olishi va to'liq holda kiritishini har kuni nazorat qilib borishi;

- muxrlar, plombirlar, kassirlarning nomi yozilgan to'rtburchak muxrlar, kalitlar (shu jumladan, shikastlangan hamda vaqtincha zaxirada to'rgan kalitlar)ni saqlash qoidalariga rioya etilishi.

Audit qilish jarayonida quyidagi hujjatlar asosida tekshiriladi:

- pul va boyliklarni audit qilish qoidalariga rioya qilinishi va shu maqsad uchun tayinlangan shaxslarning tarkibi to'g'risida buyruqlar borligi. Audit o'tkazishga jalb etilgan xodimlarning tayyorgarlik darajasiga va audit o'tkazish sifatiga e'tibor beriladi. Bunda audit dalolatnomalarida ko'rsatilgan qoldiqlar 04028120 - shakldagi daftarda va balansda ko'rsatilgan ma'lumotlarga mos kelishi tekshiriladi. Zaxira fondlaridagi pul va boyliklarning nazorat tariqasida qayta sanalgan summasi ular olib chiqilishiga daxldor. 04028123-shakldagi daftar ma'lumotlari bilan qiyoslanadi. Audit o'tkazishga sarflangan vaqt 04028161-shakldagi post daftaridagi qaydlarga qarab aniqlanadi va audit o'tkazish uchun amaldagi imkoniyat (kassani yopish va boyliklarni qo'riqlash uchun topshirish vaqti, audit qilish rahbarining qo'shimcha imzosi borligi) belgilanadi;

- kassadan bank xodimiga hisob berish sharti bilan topshirilgan 0402004- va 0402005-shakldagi kvitantsiya daftarchalarining hisobini yuritish, shu daftar blankalari ishlatilishini nazorat qilish holati. Hisobdor shaxslarda kvitantsiya daftarchalari borligi va hisobdor shaxslar vaqtincha almashtirilganda kvitantsiyalarning ishlatilmagan blankalarini boshqa shaxsga berish tartibiga rioya etilishi;

- kassa xodimlari va inkassatorlarni ishga qabul qilishni rasmiylashtirish. Ularga maxsus shakldagi guvoxnomalar berish, guvoxnomalar hisobini yuritish va saqlashning ayrim ko'rsatmalarda xabar qilingan tartibi;

- audit boshlanishidan oldin muxrlar va plombirlar amalda borligi va ular belgilangan namunadagi hisob yuritish daftaridagi ma'lumotlarga mos kelishi (bu daftarni O'zbekistan Respublikasi Markaziy Banki muassasasining rahbari yoki uning yozma farmoyishiga binoan, boyliklar bilan operatsiya o'tkazishga aloqador bo'lmagan xodim yuritadi), kassa xodimlariga birketib qo'yilgan plombirlar va muxrlardan to'g'ri foydalanilishi ularning izlarini pul va boyliklar nazorat tariqasida qayta sanalganidan so'ng pul biletlarining bog'lamlarida va tangali qoplarining tizimchalarida kolgan plombirlar va muxrlar iziga qiyoslash orqali tekshiriladi;

- inkassatsiya xaltalarining hisobi yuritilishi, ular inkassatsiya xodimlari yoki kassa mudiriga berilishi tartibi, farqlanuvchi yo'li bo'lgan xaltalarning saqlanishi, berilishi hamda qaytarilishi nazorat qilinishi, shuningdek metall tangalarni saqlash va tashish uchun xaltalar hisobini yuritish.

Audit qilish jarayonida kassa operatsiyalari bo'limining boshlig'i pul va boyliklar but saqlanishi ta'minlanishi va saqlash qoidalariga rioya etilishi yuzasidan chorak mobaynida o'tkazadigan tekshiruvlarni rejalashtirishning holati va shu tekshiruvlarning sifati, shuningdek, har bir ish sohasidagi kassa ishlarining tashkil etilishi ko'rib chiqiladi.

Audit qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni tuzatish va mijozlarga hisob-kassa xizmati ko'rsatishni yaxshilash yuzasidan bank muassasalari ko'rayotgan chora tadbirlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, auditor mijozlar inkasso qilinayotgan pul tushumini qayta sanashiga doir ishlarning ahvolini tahlil etishi lozim.

Bank muassasasini audit qilish jarayonida unga karashli alohida kassalar-muayyan Xalq banki bo'limlarida tashkilotlar-ning tushumi topshiriladigan kassa punktlarida bo'lgan pul va boyliklar, shuningdek, shu kassalarda amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligi, bu operatsiyalari bankning buxgalteriya hisobida to'g'ri aks etirilishi, pul va • boyliklarni saqlash tartibiga rioya qilinishi tekshiriladi.

## Pul qoldig'lari ma'lumotlarini tekshirish

Aniq jarayonlar bo'yicha pul mablag'lari qoldig'lari ma'lumotlarini tekshirish

<b>Audit maqsadlari</b>	<b>Aniq tekshirish jarayonlari</b>
1. Xodisa, to'liqlik va baholash	<ul style="list-style-type: none"><li>• Kassa kitobi bilan bank balans hisobvarag'iga qabul qilmoq</li><li>• Tranzitdagi tijorat depozitlari, to'lanmagan cheklar va boshqalar, vipiskadagi bazi noaniqliklar bilan bank xisobvaraqlari solishtirish</li></ul>
2. Aniqlik	<ul style="list-style-type: none"><li>• Bank xisobvaraqlarini tekshirib, bank saldo kitobini kassa kitobi bo'yicha tekshirib va asosiy buxgalteriya kitobi bilan taqqoslash;</li></ul>
3. Bekor qilish	<ul style="list-style-type: none"><li>• Pul tushumlarini qabul qilish uchun, oxirgi kundan boshlab xisobdagi pul mablag'larini yilning oxirigacha, xamda tushgan depozit pul mablag'larni taqqoslash;</li><li>• To'langan pul mablag'larini yozma qayd qilish va oxirgi berilgan chek, to'langan pul mablag'larini kassa kitobida qayd etilganini tekshirish va bank xisobvarag'idagi to'lanmagan cheklar va xar qanday uzoq ushlangan kliring cheklarini xam tekshirish;</li></ul>
4. Klassifikatsiya, ma'lumotlarni berish	<ul style="list-style-type: none"><li>• Bank xatlarini, kredit shartnomalarini va pul mablag'larini cheklanishiga aloqador xujjatlarni tekshirish;</li><li>• Bank kreditlarini va oderdraftlarini ta'minlash, moliya xisobotida qayd qilinmagan pul qoldig'larini tekshirish</li></ul>

### 2. Naqd pul va boyliklarni saqlash binolari va ularni qo'riqlanish auditi

Naqd pullar, boyliklar va ular bilan o'tkaziladigan operatsiyalarning qonuniyligini audit qilish bilan bir qatorda pul va boyliklar ish vaqtida, hamda ishdan tashqari vaqtda but saqlanishi ta'minlangani, pul omborlari seyflarni ochish, yopish, muxrlash, qo'riqlash uchun topshirish va qabul qilish qoidalariga rioya etilishi, ularning holati bank muassasalari binolaridagi kassa uzellarining lryixalanishi va qurilishiga doir texnik talablarga muvofiq tekshiriladi.

Auditor tekshirilayotgan Bosh boshqarmaning rahbari yoki uning kassa ishiga rahbarlik kiluvchi muovini bilan hamkorlikda bank binosi eshiklarining mustahkamligini, ularda ichki tambalar, eshik-derazalar, erto'la va boshqa

xonalarda panjaralar borligi va mustahkamligini ko'zdan kechirib chiqadi. Birinchi kavatdagi xonalarning derazalari tunda ichki eshiklar yoki kalın darpardalar bilan yopilishini tekshiradi.

Pul ombori ko'zdan kechiriladi, zirxli eshiklar butunligi, etarlicha jixozlangan javonlar borligi va zich yopilishi, ulardagi kulflar butunligi tekshiriladi.

Bank muassasalarining kassa xonalaridagi eshik, derazalarning ichki tambalari, kassirlarning boyliklar saqlanadigan ish stollarida shaxsiy kulflar borligi va butunligi ham shu tartibda tekshiriladi.

Kassirlar va inkassatorlar zarur bo'lgan pul omborlari bilan ta'minlangani, omborlar ularga qo'yiladigan talablarga mos kelishi tekshiruvdan o'tkaziladi.

Auditor bank binosi, kassa xonalari eshiklari, kassa kabinalarining derazalari, pul omborilar joylashgan javonlarning eshiklari qulf (tamba) bilan berkilishiga ishonch hosil qilishi kerak.

Aniqlangan kamchiliklar kassa xodimlari va boshqa xodimlarga boyliklar but saqlanishi uchun javobgar bo'lgan mansabdor shaxslardan biri (bank muassasasi rahbari, bosh buxgalteri yoki ularning kassa ishiga rahbarlik kiluvchi o'rinbosarlari, kassa mudiri)ning xuzurida ko'rsatib o'tiladi.

**Pul omborlarini qo'riqlash xizmati xodimlariga topshirish va ulardan qabul qilish tartibi ham ko'zatish orqali, hamda har bir ombor bo'yicha post daftarlaridagi yozuvlar bo'yicha tekshiriladi. Bunda boyliklar but saqlanishi uchun javobgar shaxslar pul omborlarini qabul qilib olishda eshiklar, kulflar, tizimcha, muxr izlari butunligini tekshirishi aniqlanadi.**

Ish kunlari pul omborlari ko'zdan kechirish va tekshirish uchun albatta ochilishi ta'minlangani, shuningdek, davlat boyliklarini saqlash shart-sharoitlariga rioya qilinishi post daftaridagi yozuvlarga qarab tekshiriladi.

Xavf xatardan darak berish vositalarining ahvoli bank muassasi rahbari yoki uning boyliklar but saqlanishi uchun javobgarlik zimmasiga yuklatilgan muovini bilan hamkorlikda tekshirib chiqiladi. Pul omborlari, deraza, eshiklar, pol va shiftlardagi lyuklar, boyliklar tashishda foydalaniladigan liftlar, kirish mumkin bo'lgan boshqa joylar kodlashtirilgani yoki mustahkamlangani, kassa tarmogi (uzeli) xavf xatar va yong'indan darak beruvchi texnik vositalar bilan jihozlangani ko'zdan kechiriladi.

Ayni paytda pul sanash kassasi mudiri, oborot, kechki, kirim, chiqim va boshqa xil operatsiya kassalari kassirlarining, shuningdek, muassasa rahbari, bosh buxgalter (yoki ularning zaxira fondlarini saqlash vazifalari ishonib topshirilgan muovin-lari), kassa mudirining ish o'rinlarida, postlarda hamda boyliklar bo'lgan boshqa xonalarda tugmachali datchiklar borligi tekshiriladi.

Audit rahbarining talabiga ko'ra, xavf-xatardan darak berishch vositalarining to'g'ri ishlashi va "Xavf-xatar" degan darak berilishi bilanok militsiya xodimlari o'z vaqtida etib kelishi tekshirib qurilishi lozim. Shuni nazarda tutish lozimki, banklarning viloyat (shahar) boshqarmalari boshliklariga, kassa operatsiyalari bo'limlari boshliklariga, bank bo'limlari boshqaruvchilariga ichki ishlar organi, idoraga qarashli bo'lmagan qo'riqlash xizmati bo'limi (bo'linmasi) boshlig'i yoki ularning muovnlari xuzurida qo'riqlanayotgan ob'ektda xavfli holat e'lon qilish huquqi beriladi.

Bank hisoblarini audit tekshirish jarayoni

(A) Bank hisobvaraqlarini va kassa kitobidagi aniq balansni aniq matematik tarzda tekshirilishini nazorat qilish

(B) Muslashtirish va tasdiqlash bosqichlardagi balanslar mosligi

(S) bank hisobi tekshirilgan bir xafalik sanaga mo'ljallangan Bank hisobvaraqlaridagi xujjatlar bilan depozitlarni taqqoslash;

(D) Bank hisobotlarini tekshirish ro'yxatiga qo'shilgan xar bir xujjatni nazorat qilish;

(E) Korrektsiya qilingan balans kitobini asosiy bank hisobi bilan moslashtirish;

### **3. Kassa va kassa operatsiyalarini auditi**

Markaziy bank xuzuridagi tashkilotlarning (Axborotlash-tirish Bosh markazi, Bank kolleji va "Davlat belgisi" maxsus ishlab chiqarish birlashmasi fabrikalari) kassasi audit qilinayotganda obe'ktga kelgan zaxoti, kassir va bosh (katta) buxgalterning ishtirokida zudlik bilan audit qilinadi. Amalda bo'lgan pul mablag'lari, pul hujjatlari va qat'iy hisobda turadigan blankalar buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan qiyoslanadi. Kassa naqd pul qoldiqlari, hamda kassada mavjud boshqa boyliklar auditi bevosita muassasaning bosh hisobchisi va kassiri ishtirokida amalga oshirilib, boshqa xodimlarning kassaga kirishi takiklanadi.

Xazinada audit o'tkazilayotgan paytda barcha kassa operatsiyalari tuxtatiladi va kassa qoldig'i hisoblanishidan avval kassirdan u barcha naqd pul va jamiki pul mablag'larini bergani to'g'risida tilxat olinadi. Agar kassirning so'nggi kassa hisobotida ko'rsatilmagan pul operatsiyalari bo'lsa, kassirning kassa hisoboti auditor va bosh buxgalter xuzurida tuziladi.

Auditor tomonidan kassa naqd pul qoldiqlarini sanash bilan birga kassa chidamli seyf, yong'inga karshi va ogoh moslamalari bilan jixozlanganligiga, kassa ish kuni oxirida muxrlanib' qo'riqlash posgiga topshirilishi nazoratdan o'tkazilib, bu haqda dalolatnomada qayd etish lozim.

Amaldagi pul mablag'lari, qimmatbaho qog'ozlar sinchiklab tekshirilganidan keyin alohida dalolatnoma tuziladi.

Kassa va kassa operatsiyalarini audit qilishda auditor quyidagilarni aniqlashi zarur:

a) kassa operatsiyalari kirim-chiqim orderlari bilan rasmiylash-tirilishi, o'z vaqtida va to'g'ri tuzilishi, pul qabul qilingan va berilgan sanalar, hamda shuning asosi ko'rsatilishi, chiqim hujjatlarida tegishli imzolari borligi;

b) bank hujjatlarini yoki ish haqiga doir hisob-kitoblar bilan bog'liq hujjatlarni imzolash huquqiga ega bo'lgan buxgalter yoki boshqa bir hisobchi xodim kassir vazifasini bajarmayotgani;

v) deponentdagi summalar bankka to'liq va o'z vaqtida topshirilishi, kassadagi naqd pul kundalik qoldig'ining bank belgilab bergan limitiga rioya qilinishi va ular but saqlanishi qanday ta'minlangani;

g) kassirning moddiy javobgarlik haqida kassa operatsiyalarini o'tkazish to'g'risidagi nizomga muvofiq belgilangan shaklda tuzilgan majburiyatnomasining mavjudligi;

d) kassa hujjatlari audit o'tkazilayotgan davr bo'yicha to'liq tekshirishdan o'tkaziladi. Kassa hujjatlarini tekshirilishi birdaniga kassa, hamda moliya tartiblariga rioya qilinishi tekshirilishi hisoblanadi.

**Pul tushumlari va amaliyotlari nazoratini jarayonlari:**

Audit maqsadlari	Aniq teshiruv jarayonlari
1. Xodisalar	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Kassa kitoblaridan tushgan pul mablag'lardan bazilarini misol tariqasida olib, pul o'tkazmalari kirim orderlariga to'g'ri kelishini va bank xisobotlarini tekshirish.</li> <li>➤ Kassa kitobidan pul o'tkazmalari misollarni va to'lov cheklarini (tasdiqlovchi xujjatlar bilan birga) tanlab olib va bank xisobvarag'i pul mablag'lar bilan solishtirish.</li> <li>➤ Xujjatlar va to'lov qog'ozlari orqali bazi holatlarda tafsilotlarni tekshirish, masalan bazi to'lovlarni to'xtatilganligi, to'langan cheklar, avtorizatsiya va boshqa xujjatlar.</li> </ul>
2. Tugallanganlik	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Kassa chekini kirim,chiqim jurnallarida aks ettirilgan to'lovlarini tekshirish.</li> <li>➤ Kassa kitobidagi to'lov xujjatlarini tekshirish (tasdiqlovchi xujjatlar bilan)</li> </ul>
3. Aniqlik	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Umumiy pul tushumlari va to'lovarni umumiy</li> </ul>



	buxgalteriya kitobida qayd qilmoq
4. Baxolash	<ul style="list-style-type: none"> <li>➤ Kassa kitobida ro'yxatga olingan avizo misolini tushgan pul mablag'larini ko'rsatgan xolda taqqoslash</li> <li>➤ Chek nusxasini (bekor qilingan cheklar) kassa kitobida qayd etilgan pul tushumlari bilan taqqoslash</li> </ul>
5. Bekor qilmoq	➤ Kassa amaliyotlari yozilgan sanalarni naqd pul tushgan sanalar bilan taqqoslamoq (bankka qo'yilgan ki cheklar bo'yicha)
6. Klassifikatsiya	➤ Pul tushumlari, to'lovlari va amaliyotlarini misollarini to'g'ri klassifikatsiya maqsadida taqqoslash

Bankdan olingan mablag'lar kiringa to'liq, kiritilgani bank bergan ko'chirmalar va bankdan pul olish uchun yozib berilgan cheklar asosida tekshiriladi. 2-sonli jurnal-order bilan debet "Kassa" va kredit "Bank" summalariga mos kelishi kerak, agarda fark borligi aniqlansa, chek milki, kassa kirim orderi bank ko'chirmalari bilan solishtiriladi, shubxa tug'ilgan taqdirda bevosita bank bo'limida ham tekshirilishi mumkin.

Pul mablag'lari belgilangan maqsadda, ish haqi to'lash, xizmat safari xarajatlari, ishga vaqtinchalik layokatsizlik uchun to'lanadigan nafaqalarga ajratilgan xo'jalik xarajatlari va hokazolar uchun ishlatilgani tekshiriladi.

Bankdan olingan pul summalari ish haqi uchun to'g'ri ishlatilganini aniqlash maqsadida uni yozilgan ish haqi to'g'risida bankka taqdim etilgan ma'lumotnoma bilan qiyoslash kerak.

Barcha kirim-chiqim pul hujjatlarini hujjatlar asosida tekshirishda ularning ishonchliligini sinchiklab nazardan o'tkazish kerak. Hisob-kitob to'lov qaydnomalari yozilgan ish haqi summasi bo'yicha ham, uni berish bo'yicha ham tekshiriladi. Bunda hujjatlar, kassa chiqim orderlari, to'lov qaydnomalaridagi imzolar ishonchli ekaniga alohida e'tibor beriladi, "berilsin" degan holatda chiqarilgan yakunlarning to'g'riligini yalpi tekshirish shular asosida olib boriladi, undan tashqari kassa kirim va chiqim hujjatlarini qayd qilish kitobi mavjudligi hamda kim tomonidan qayd qilib borilayotganligi tekshiriladi.

Imzolarning ishonchliligi (haqiqiyliigi) aynan shu shaxslarning imzolarini boshqa hujjatlar, qaydnomalar, hisobvaraqlardagi imzolariga qiyoslash orqali aniqlanadi.

To'langan hujjatlar yoki xususiy shaxslar bajargan ishlar uchun to'ldirilgan naryadlar ayniksa sinchiklab tekshirilishi kerak. Bu hisobvaraqlarga qo'yiladigan oddiy talablar, shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi, manzili (pasportiga doir to'liq ma'lumotlar) ko'rsatilishidan tashqari shu ishlar bajarilgani to'g'risida tasdiqnoma bo'lishi kerak.

Alohida olingan har bir holda bajargan ishlarning asosli ekanligi, zarurligi, qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi aniq belgilanadi.

Kassir to'lov qaydnomalarida summani olmagan shaxslarning familiyasi ruparasiga "deponentga o'tkazildi" deb qayd etgani, shuningdek, amalda to'langan va qaydnomalar bo'yicha umuman to'lanmagan summalar to'g'risida qaydnomalarda qayd etgani, deponentdagi summalar ro'yhatini tuzgani va kassa hisobotini topshirishda to'lov hujjatlariga ilova kilgani auditdan o'tkaziladi.

Auditor undan tashqari, tekshirilayotgan muassasa ma'muriyati buyrug'i bilan komissiya xay'ati tasdiqlanganligini va ushbu komissiya tomonidan oy yoki chorak oxirida xazina qoldiqdarini tusatdan tekshirishdan o'tkazgan yoki o'tkazmaganligini tekshirishi lozim.

#### O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

1. Naqd pullarni audit qilish.
2. Bank auditi deganda nimani tushunasiz?
3. Naqd pullarni audit qilishda kassadagi pullarni sanalish tartibi.
4. Naqd pul va boyliklarni saqalashda binolarga qo'yiladigan talablar.
5. Naqd pullarni qo'riqlash tartibi.
6. Kassalarni tekshirish tartibi.
7. Kassa va kassa operatsiyalarini audit qilishda auditor oldiga qo'yiladigan vazifalar.

#### **4-mavzu. Hisob-kitob operatsiyalari auditi**

- 1. Mijozlarga ko'rsatilgan hisob-kitob operatsiyalarining auditi**
- 2. Ayrim hisob-kitob operatsiyalarini auditi**
- 3. Buxgalteriya hisobi va hisoboti operatsiyalarini tekshirish**

Audit davrida analitik hisob qoldiqlari bilan sintetik hisob qoldiqlari audit rahbari belgilaydigan kunlarning biridagi barcha balans hisobvaraqlari bo'yicha solishtiriladi.

Jixozlar varaqchalari va daftarlari analitik hisob uchug' asos bo'ladigan bankning ichki hisobvaraqlar bo'yicha analitik hisobni sintetik hisob bilan qiyoslash shu varaqchalarda ko'rsatilgan summalar bilan daftarlardagi ochiq summalarni hisoblash orqali amalga oshiriladi. Operatsiya daftarlari yoki sintetik shaxsiy hisob-varaqlar yuritiladigan balans hisobvaraqlari bo'yicha hisobvaraqqa yozilgan har bir ochik summa hisoblanadi, yakuni esa shu hisobvaraqda va balansda chiqarilgan qoldiq bilan kieslanadi.

Analitik hisob bilan sintetik hisob qiyoslanganidan keyin kundalik balansning aktiv va passiv qismlari bo'yicha qoldiq summalar hisoblanadi, hamda olingan yakuniy natija balansda chiqarilgan umumiy yakuniy natija bilan taqqoslanadi.

Analitik hisob bilan sintetik hisob qiyoslanganida quyidagilar audit qilinadi:

- mijozlarning amaldagi hisobvaraqlari orasida kalbaki hisobvaraqlar bor-yo'qligi. Buning uchun har bir shaxsiy hisobvaraqlarning tegishli ma'lumotlari imzolar namunalarining varaqchasi, ochilgan hisobvaraqlarni qayd etish daftari va tekshiruv qaydnomalari bilan kieslanadi. Maxsus ruxsatnomalar asosida maxfiy tutiladigan zhisobvaraqlarda esa tekshiruv ana shu ruxsatnomalar bo'yicha o'tkaziladi;

- amaldagi ssuda zhisobvaraqlari va boshqa aktiv hisobvaraqlar orasida kalbaki hisobvaraqlar bor-yo'qligi. Shu maqsadda muddatli va muddati utib ketgan ssuda hisobvaraqlari bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlarning qoldiqlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning balans hisobotlari, majburiyat-nomalar va ssuda bo'yicha qarzdorlik asosli ravishda vujudga kelganini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar bilan kieslanadi. Agar biron-bir ssuda hisobvarag'i bo'yicha shunday tekshiruvni o'tkazish imkoni topilmasa, audit jarayonida mijozdga ana shu hisobvaraqlar bo'yicha tegishli tasdiqnoma talab qilinadi. Boshqa aktiv hisobvaraqlar, shu jumladan, kapital qo'yilmalarni, respublika byudjeti chiqimlarini moliyalash hisobvaraqlari bo'yicha ular ochilishining qonuniyligi, hamda ularda to'rgan debet qoldiqlari korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning ma'lumotlariga mos

kelishchi, zarur hollarda esa debet kolditi vujudga kelishining to'g'riligi ushbu yo'riqnomaning tegishli bo'limlarida ko'rsatilgan tartibda audit qilinadi.

Zarurat tug'ilganda (audit rahbarining ixtiyoriga ko'ra) analitik hisob bilan sintetik ehisob qiyoslangan kuni bankda bo'lgan hisobvaraqlardagi qoldiqlar korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning ma'lumotlari bilan, shuningdek, yakka tartibdagi qarzdorlardan ularning hisobvaraqlaridagi qoldiqlarni ko'rsatuvchi tasdiqnomalar olish orqali yalpisiga yoki tanlab kieslanadi. Bunda 23404-balans hisobvarag'i bo'yicha kreditni tasarruf etuvchilar kredit qoldiqlari va kassa chiqimlarining summalari to'g'risida tasdiqnoma taqdim etadilar. Qoldiqlar to'g'risida mijozlardan olingan tasdiqnomalar shaxsiy hisobvaraqlar bilan, tasdiqnomalardagi imzolar va muxr izlari esa bankka berilgan imzolar va muxrlar namunalari bilan qiyoslanadi.

Analitik hisob sintetik hisob bilan qiyoslanganidan keyin davlat, kooperativ, jamoa korxonalari, tashkilotlari, muassasalari, ularning vakolatli tuzilmalariga tegishli hisobvaraqlar yuridik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilgani audit davrida ochilgan barcha hisobvaraqlar bo'yicha yalpisiga, kolganlari bo'yicha esa - audit rahbari belgilaydigan xajmda audit qilinadi.

Ochilishi amaldagi qoidalarda ko'zda tutilmagan biron-bir hisobvaraqlar borligi aniqlanganda yoki ba'zi hisobvaraqlar bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektni tashkil qilish to'g'risidagi hujjat yoki pul hujjatlarini imzolash huquqiga ega bo'lgan shaxslarning imzo namunalari ko'rsatilgan va zarur tarzda tasdiqlangan varaqcha bo'lmagan hollarda auditor hisobvaraqlar ochilishi qonuniy ekanligiga ishonch hosil qilishi, bank muassasasi rahbari zimmasiga etishmayotgan hujjatlarni talab qilib olish vazifasini yuklashi lozim. Bu hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda audit rahbari shu hisobvaraqlar bo'yicha chiqim operatsiyalari o'tkazishni tuxtatish to'g'risida ko'rsatma berishi va zarur hollarda xo'jalik organining yuqori tashkiloti oldiga amalga oshirilgan operatsiyalarni hujjatlarasosida audit qilish to'g'risidagi masalani qo'yishi mumkin.

Ochilgan hisobvaraqlarni qayd etish daftari va tekshiruv qaydnomalarining ma'lumotlari bo'yicha audit davrida yopilgan (shu jumladan, xizmat ko'rsatish uchun boshqa banklarga o'tkazilgan) barcha hisobvaraqlar aniqlanadi va hisobvaraqlarni yopish, ulardagi qoldiq mablag'larni - belgilangan joyga o'tkazish, mijozlar foydalanilmagan pul cheklarini milklari bilan birga to'liq qaytarishi qoidalariga rioya qilinishi (mijozning hisobvaraqlari bo'yicha o'tkazilgan so'nggi pul chekining raqami va mijozlarga qaytarilgan cheklarning raqamlari asosida) audit qilinadi.

Audit rahbarining ko'rsatmasiga muvofiq mijozlar joylashgan erda muddatsiz depozit hisobvaraqlari, byudjet, ssuda, maxsus qarz hisobvaraqlari va boshqa hisobvaraqlar bo'yicha bankdagi shaxsiy hisobvaraqlar yozuvlari ulardan

olingan ko'chirmalarga kieslanadi. yozuvlarni qiyoslash bilan bir vaqtda quyidagilar ham audit qilinadi: bankdan cheklar bo'yicha olingan pul to'liq kirim qilingani bank kassasiga badal tarikasida topshirilayotgan pul summasi va kvitansiya sanasi shaxsiy hisobvaraqlardagi ma'lumotlarga mos kelishi, pul saqlash uchun seyflar borligi kassa daftari to'g'ri yuritilishi va rasmiylashtirilgani.

SHaxsiy hisobvaraqlardagi yozuvlarni ulardan olingan ko'chirmalarga qiyoslash uchun tashkilotga borishdan oldin shaxsiy hisobvaraqda tekshirilayotgan davrda tashkilotlar yozib bergan va ishlatilgan barcha pul cheklari ko'rsatilganini tekshirish maqsadida qiymati to'langan cheklar va qabul qilingan summalar to'g'risidagi ma'lumotlarni hisoblab chiqilgan va 10101, 10103 hisobvaraqlarning oboroti bilan qiyoslangan kassa hujjatlari bo'yicha bevosita tanlab olinishi kerak. SHuningdek, imzo namunalari bo'lgan varaqchadan ularga berilgan pul chek daftarchalarining raqamlarini tanlab olish ham zarur.

Bunda nafaqat audit qilinayotgan bank muassasasi bilan bitta ma'muriy hududda joylashgan muassasalar, balki boshqa erlarda joylashgan va shu bank xizmat ko'rsatadigan mijozlar ham audit rahbari belgilaydigan miqdorda kamrab olinadi.

Balansdagi va ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarni hujjatlar asosida audit qilish analitik zhisobga doir hisob-varaqlar bo'yicha oborotlarni hujjatlar asosida auditdan oldin yoki keyin albatta hisoblab chiqilgan tarzda va ularning yakunlarini idora tekshirgan oylik oborot qaydnomalari bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi.

Hisoblashni bank muassasasi operatori auditorning ko'zatuvi ostida hisoblash mashinasida amalga oshirishi. mumkin. hisoblashda bank muassasasi oldindan tuzib kuygan hisoblash tasmalaridan foydalanish ta'kiklanadi.

Agar analitik hisobni sintetik hisob bilan qiyoslash paytida qoldiqlar bo'yicha yoki oborotlar summasini hisoblashda fark aniqlansa, auditor uning sabablarini topishi va bartaraf etish choralarini kurishi shart.

Aktivlarni tasniflash qarzdorlarning hisob raqamlaridagi amaliyotlarning muntazamligi, nozikligini aniqlash, qayta tiklashdagi qiyinchilik va tahdid asoratlariga asoslanib undagi aktivlar tasnifi Standart, Sub-standart, gumonli va umidsizlarga bo'linadi. Yutuqlarni ko'rsatmaydigan daromadlar bilan bog'liq sog'lomlashtirish me'yorlari yomonlashuvni aniqlab beruvchi usul bo'lib, ularni noziklashib borish jarayonidagi yoki qayta tiklashga taxdid qoluvchi hisob raqamga ega qarzdorlar, bir xilda taqsimlanmagan vaqt shartlarini o'lchash va uni sog'lomlashtirish choralarini Hindiston Zahira banki normalariga muvofiqlashtirishdan kelib chiqadi.

Ta'minotlar bu shunchaki minimal ta'minlashdir va banklar erkin tarzda belgilangan minimumdan yuqorisini taklif etishi mumkin, ammo shuning o'ziga rioya qiladilar.

Bank filiali auditining tavsifi, masshtabi va darajasi bir ko'z bilan qaraganda 1949 yilgi Bank faoliyatini tartibga solish to'g'risidagi qonunning 3 bandita muvofiq tayyorlangan jamiyatning faoliyati, foyda va yo'qotishlar bo'yicha hisobotlarning haqqoniy va ob'ektiv tarzda bajarilganligidan dalolat beradi

Shuningdek maxsus maksadlarga mo'ljallangan Hindiston zahira banki filialdagi auditorlar tomonidan bajarishiga ishonadigan uzok muddatli shakldagi audit hisoboti mavjud. Filialni soliq auditidan o'tkazish yana bir muhim yo'nalish bo'lib, Markaziy auditorlik filialdagi sohaviy auditorlar ishiga ishonadi, shuning uchun ular ekspertlar tomonidan bajarilgan ishga ishonish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

## **2. Ayrim hisob-kitob operatsiyalarini auditi**

Ayrim hisob-kitob operatsiyalarini audit qilish hujjatlarning asl nusxalari asosida olib boriladi. Audit jarayonida quyidagilarni tekshirish zarur:

a) mijozlarning balans hisob-varaqlarida ochilgan hamda audit davrida harakatdagi va yopilgan hisobvaraqlar bo'yicha ularga mablag' o'tkazilishining qonuniyligi, vakolatli muassasalarning hisobvaraqlaridan mablag'larni naqd pulsiz tartibda o'tkazish va naqd pul berish qoidalariga rioya etilishi.

Vakolatli muassasalarning operatsiyalari audit qilinayotgan hisobvaraqlari analitik hisobni sintetik hisobga qiyoslash orqali, ochilgan hisobvaraqlarni qayd etish daftari va imzolar namunalari ko'rsatilgan varaqchalarga qarab aniqlanadi;

b) o'z manzilidan boshqa joyda xo'jalik hisobida bo'lmagan ayrim korxonalari, omborlari, filiallari va hokazolarga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining ayrim ko'rsatmalarida belgilangan hollarda ba'zi tashkilotlar uchun tushumni o'tkazish maxsadida ochilgan ikkilamchi hisobvaraqlari bo'yicha ularning ochilishi va mablag' o'tkazilishi qonuniyligi, turib qolgan mablag'lar yuqori tashkilotlarning hisobvaraqlariga o'z vaqtida va to'g'ri o'tkazilishi.

Audit qilinayotgan bank muassasasining ilova xisobvaraqlari borligi ochilgan hisobvaraqlarni qayd etish daftariga qarab va analitik hisobni sintetik hisob bilan qiyoslash orqali aniqlanadi;

v) Xalq bankining vakillik hisobvarag'i bo'yicha kredit operatsiyalari jismoniy shaxslarning omonatlariga, muassasalar va tashkilotlarning joriy hisobvaraqlariga noqonuniy o'tkazilgan summalarni aniqlash maqsadida audit qilinadi.

Ayni vaqtda Xalq bankida bank xodimlarining imzo namunalari borligi va bank muassasasidan xalq bankining hisobvarag'iga summa o'tkazilgani bo'yicha kelgan hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilgani audit qilinadi.

SHuningdek, bank muassasalarida hisob-varag'i bo'lgan barcha Xalq banki bo'limlariga mablag' o'tkazish uchun hujjatlarning birinchi nusxalari asosida qaydnoma tuzilishiga ham yo'l qo'yiladi.

Vakillik hisobvaraqa boshqa bank muassasalaridan ayrim, omonatchilar yoki muassasalar va tashkilotlar nomiga qonuniy tarzda o'tkazilgani shubxa uyg'otadigan summalar kelib tushganida audit o'tkazish rahbari tegishli bank muassasidan shunga doir tasdiqnoma olishi kerak.

Auditor tuman Xalq bankiga borganida Xalq bank belgilangan maqsadli mablag' pensionerlar va omonatchilarning hisobvarag'iga bank muassasalari o'tkazgan to'lovlar summasi o'z vaqtida o'tkazilgani audit qilinadi;

g) 21500, 21700 va 21900-bosh kitoblardagi balans hisobvaraqlari bo'yicha foizlar hisoblanishi va ularning summasi 51700, 51800 va 51900- bosh kitobdagi balans hisob-varaqlarida aks ettirilishi.

Operatsiyalarni audit qilish ushbu yo'riqnomaning boshqa bo'limlarida ko'zda tutilmagan muddatsiz depozit hisobvaraqlari, ssuda va boshqa hisobvaraqlardan mablag' berish va o'tkazishning qonuniyligi hujjatlar va shaxsiy hisobvaraqlar bo'yicha audit rahbari belgilaydigan hajmda tekshirilishi mumkin. Bunda moddiy tovarlar olishga doir orderlar, ayniqsa shu mijozga xizmat ko'rsatmaydigan mansabdor shaxslar imzolagan operatsiyalarga alohida e'tibor qaratish va ayni vaqtda hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilganini tekshirish kerak.

Audit qilinadigan hujjatlar oldindan yoki navbati bilan hisoblanishi, hamda olingan natijalar balans bilan qiyoslanishi zarur.

Buxgalteriya daftari tutiladigan, hujjatlar debetlangan balans hisobvaraqlari raqamlari o'sib boruvchi tartibda tiqiladiga bank muassasalarida audit qilinadigan hujjatlar va kassa hujjatlari shu daftardagi yozuvlarga qiyoslanadi.

Hisob yuritishni tekshirish uchun olingan hujjatlar summasi hujjatlarning xhar bir bog'lami bo'yicha muassasa nomi, sana, ro'yhatlarning raqami va bog'lami, berilgan guruxdagi hujjatlarning narxi, hisoblash va qiyoslashni amalga oshirgan operatorlarning imzolari tushirilgan hisoblash tasmalaridagi summalar bilan qiyoslanadi va shu kundagi barcha tasmalarning yakunlari o'zaro qo'shiladi va olingan ma'lumotlar balans bilan taqqoslanadi.

Hujjatlarni tekshirishning ko'rsatib o'tilgan usullarini qo'llashda audit qilinadigan hujjatlarni alohida jarayonda hisoblashga zarurat qolmaydi.

Ayni vaqtda auditor hujjatlar shakllanishi va bog'lam muqovalarining yuz tomoni rasmiylashtirilishi to'g'riligini ham tekshiradi.

a) Filiallararo oborotlarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni audit qilish.

Banklar o'rtasidagi hisob-kitoblarni audit qilishda O'zbekistan Respublikasi Markaziy bankining buxgalteriya hisobvaraqlar rejasidagi 17305, 23206-

"Aniqlanish jarayonidagi transaksiyalar", 17400 va 27400•bosh kitoblardagi hisobvaraqlarini tekshirish orqali amalga oshiriladi O'zbekiston Respublikasi banklari o'rtasida hisob-kitoblarni olib borilishini audit qilish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 1995 yil 19 avgustda tasdiqlangan yo'riqnoma va unga 1995 yil 15 sentyabr, 1996 yil 18 maydagi 222-sonli qo'shimcha bo'lgan me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

b) Inkasso operatsiyalarini audit qilish.

Inkasso operatsiyalarini audit qilish har bir hisobvaraqdagi kartotekada bo'lgan hujjatlarni hisoblashdan va hisob natijalarini analitik hisobvaraqchalari va balans ma'lumotlariga qiyoslashdan boshlanadi.

Hujjatlarni audit qilish rahbari belgilagan mijozlar bo'yicha tanlab hisoblash mumkin.

Ikki o'rtada farq chiqqanida uning sabablari kunlar va oylar bo'yicha kirim-chiqimga doir operatsiyalarni, shuningdek, aniqlangan farqlarni tartibga solish to'g'riligini tekshirish orqali aniqlanadi.

90965 - "Inkassoga olingan (ichki) maxalliy veksellar" hisobvaraq bo'yicha quyidagilar audit qilinadi:

a) hujjatlar kartotekaga kirim qilinishining asosli ekanligi, ular orasida keyinchalik akseptlangan yoki akseptlanmagan holda haqini to'lash, shuningdek, balansdan tashqari 90909, 90930, 90951, 90963 va 90979-hisobvaraqlarda hisobga olinishi kerak bo'lgan hujjatlar bor yo'qligi;

b) akseptlashdan oldin yoki keyin voz kechish hollarini qabul qilish va hisobini yuritish qoidalariga amal qilinishi.

"Muddatida to'lanmagan hisob-kitob hujjatlari" nomli 90963-hisobvarag'i bo'yicha quyidagilar audit qilinadi;

a) to'lov talabnomasining orqa tomoniga "Talabnoma 2-kartotekaga qo'yilgani to'g'risida ta'minotchining bankiga xabar berildi (sana)" deb yozilgan to'rtburchak muxr urilgani;

b) hujjatlar to'lovlar navbatiga qarab joylashtirilgani;

v) to'lov hujjatlarini qaytarib olish uchun bank muassasasining kredit xodimlari va rahbariyati ruxsat belgisi kuygan tegishli hujjatlar borligi.

To'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasalarida keluvchi hisob-kitob hujjatlari uchun haq, qanchalik to'g'ri to'lanayotgani audit qilinadi. Jumladan, quyidagilar aniqlanadi:

a) hujjatlar bank muassasasining ekspeditsiyalaridan operatsiya bo'limiga o'z vaqtida tushishi;

b) to'lovlar navbatiga rioya qilinishi;

v) o'z vaqtida to'lanmagan to'lov hujjatlari bo'yicha penyalar o'z vaqtida hisoblangani va undirib olingani;



g) bankning 60-yo'riqnomasiga 1-ilovaning 14-bandida bayon etilgan hisob-kitoblar bo'yicha bank operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga muvofiq inkasso qilingan to'lovlar FO hisobvaraqdari orqali o'z vaqtida o'tkazilgani.

v) Banklarining vakillik hisobvaraqlarini audit qilish.

Banklar o'rtasidaagi barcha hisob-kitoblar banklarning vakillik hisobvaraqlari asosida amalga oshiriladi. Vakillik hisobvaraqlari hisob Markazida yuritiladi.

Hisob Markazida Vakillik hisobvaraqlarini tekshirishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1996 yil 19 avgustdagi 22-sonli bayonnomasi "O'zbekiston Respublikasi banklari o'rtasida hisob-kitoblarni elektron to'lov tizimi haqida" yo'riqnomasining 3,6 bandi bo'yicha har kuni bank ish kuni boshlanishidan oldin vakillik hisobvaraqlarini solishtirib borishini, utayotgan to'lovlarning qonuniyligi audit qilinadi.

Banklarning vakillik hisobvaraqlarini audit qilishda vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladigan to'lovlar vakillik hisobvaraq'idan mablag' doirasida o'tkazilganligiga, vakillik hisobvaraq bo'yicha debet qoldiqda pul qo'yilmaganligi, hisobvaraqsining yuritilayotganligiga alohida e'tibor beriladi.

g) Davlat byudjet" hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarni audit qilish.

Byudjeti hisobvaraqlari bo'yicha amalga operatsiyalari Uzmarkazbankning 1996 yil 20 "O'zbekiston Respublikasida Davlat ijrosi" to'g'risidagi yo'riqnomaga va 1996 yil 30 dekabrda 301-sonli "Davlat byudjeti hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish tartibi"ga rioya qilingan holda audit qilinadi. Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi.

To'lov hujjatlari to'liq rasmiylashtirilgani hamda korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning hisobvaraqlaridan mablag'lar, shu jumladan ishchi va xizmatchilarning ish haqidan ushlab kolingan soliklar, pensiya fondi va bandlik fondiga to'langan badallar byudjet daromadi uchun o'z vaqtida o'tkazilgani aniqlanadi.

"Respublika byudjeti qaramog'idagi tashkilotlarning mablag'lari" nomli 23404 hamda Maxalliy byudjet tashkilotlarning hisobvaraqlar bo'yicha tekshirishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

a) hisobvaraqlar ochilishining qonuniyligi va shu hisobvaraqlarni tasarruf etishga berilgan vakolat to'g'ri rasmiylashtirilgani; maxsus mablag'larning joriy hisobvaraqlari bo'yicha esa bundan tashqari shu chiqimlarning smetasi tasdiqlangani to'g'risidagi ma'lumotnomalar borligi tashkilotlar shu ma'lumotnomalarni to'g'ri berganligi, "Topshiriqnomalarga doir summalar" nomli joriy hisobvaraqlar bo'yicha ham tegishli moliyaviy organlarning Ruxsatnomalari borligi;

b) maxsus mablag'lar bo'yicha shu hisobvaraqlarga summalar o'tkazish to'g'riligi maxsus mablag'lar smetalarini tasdiqlash to'g'risidagi ma'lumotnomalarda ko'rsatilgan manbalarga muvofiq, "Topshiriqnomalarga doir summalar" nomli hisobvaraqlarga summalar o'tkazish to'g'riligi esa shu hisobvaraqlar ochilishiga moliya organlari bergan ruxsatnomalerga muvofiq nazorat qilinishi;

v) ko'rsatib o'tilgan mablag'lar belgilangan maqsadlarga sarflanishi;

g) maxsus mablag'larning joriy hisob-varaqlari bo'yicha chiqimlar uchun to'lovlar paytida hisob-kitob-pul hujjatlari va topshiriqnomalarga doir summalar to'g'ri rasmiylashtirilgani.

d) Bankning ichki zhisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni audit qilish.

O'zmarkazbank tomonidan Bosh boshqarmalarga 56100 "Xodimlarning ish haqi va boshqa xarajatlar" bosh kitobi bo'yicha limit o'rnatiladi.

Bosh boshkharmalarda ushbu o'rnatilgan limitga asosan ish haqi va mukofot pullari hisoblanadi. Ish haqi hisoblashda O'zmarkazbank tomonidan tasdiqlangan shtat bankning bank auditi o'tkazish uchun sertifikat (malaka sertifikatini) berish va auditorlar malakasini attestatsiyadan o'tkazish komissiyasi tartibi", "Bank auditi o'tkazish huquqini olish uchun malaka imtixonlarini o'tkazish" va "Bank auditi o'tkazish huquqi uchun sertifikat (malaka sertifikatini) berish" tartibiga asosan beriladi.

Tashqi auditning maqsadi banklarning Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlariga (XBXS) mos ravshida tuzilgan moliyaviy hisobotlari haqkoniyligiga nisbatan mustaqil auditorlarning xolisona fikrini bildirishdir. Auditni o'tkazish jarayonida auditorlar bank ichki nazoratidagi kamchiliklar haqda alohida hisobot tayyorlashi kerak.

Tijorat banklarini audit qilish to'g'risidagi Nizom quyidagilar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi:

- Markaziy bankning Bank auditini o'tkazish uchun sertifikat (malaka sertifikatini) berish va auditorlar malakasini attestatsiyadan o'tkazish komissiyasi faoliyati;

- bank auditini amalga oshirish huquqini beruvchi malaka imtixonlarini o'tkazish;

- bank auditini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatlarni olish va uni bekor qilish ;

- auditorlik tashkilot (firma)larning huquq va majburiyat-larini amalga oshirish;

- auditorlik tashkilotlari va auditorlar tomonidan auditni amalga oshirish;

- auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda Bank kengashi va Boshqaruvi faoliyati.

Auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish tartibi.

Tijorat banklarining auditorlik tekshiruvlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga asosan amalga oshiriladi. O'zmarkazbank tomonidai limit o'rnatiladi. Ushbu o'rnatilgan limitga rioya qilinishini tekshirishda ovqat va yo'l kira puli uchun ochilgan shaxsiy hisobvaraqlar bo'yicha audit qilinadi. Boshqarmada ovqat va yo'l kira pullari ishchi va xodimlarga faqat ishlagan ish kunlari uchun to'lanishy audit qilinadi.

Boshqaruv apparatini ta'minlash uchun qilingan sarf xarajatlarning qonuniyligini audit qilishda xodimlarga tegishli bo'lgan ish haqi summolari, shu jumladan to'liq bo'lmagan oy, bayram, dam olish kunlari va ishdan tashqari vaqtlarda, birovning urnida vaqtincha ishlab to'rganlik, o'rindoshlik puli bilan ishlaganlik, navbatdagi ta'tillar, hamda oliy va o'rta ukuv yurtlarining talabalariga beriladigan ta'tillar uchun, xodim ishdan bushayotgan paytda u foydalanmagan ta'til, vaqtincha mehnatga layokatsizlik uchun to'lanadigan nafaqa, hamda boshqa mablag'lar to'g'ri hisob-kitob qilingani va to'langaniga e'tibor qilish kerak.

Uzluksiz ishlagan ish stajiga to'lanadigan to'lovlarni Uzmarkazbank Nizomida belgilangan foizlarga nisbatan to'lanishy audit qilinadi. Ushbu to'lovda ustama ish haqi qo'shilmaganligi tekshirilishi shart.

Bosh boshqarmada O'zmarkazbank tomonidan belgilangan yillik yakuni bo'yicha mukofot pullarini hisoblanishini har bir ishchi va xodimlar uchun ochilgan shaxsiy hisobvaraqlarga kiritilgan ish haqi, ustama ish haqi, ish vaqtidan tashqari ishlagan ish kunlari uchun to'lovlar, mukofot puli, uzluksiz ish stajiga to'lanadigan to'lovlar va ta'til pullarining (O'zmarkazbankning yo'riqnomasida ko'rsatilgan to'lovlarga) yig'indisi belgilangan foizga nisbatan hisoblanishi audit qilinadi.

Markaziy bank tizimida qishloq xo'jalik mahsuloti uchun pullarning to'lanishi O'zmarkazbank tomonidan belgilangan summalar va ko'rsatilgan shartlarga asosan to'lanishining to'g'riligi audit qilinadi.

Bundan tashqari O'zmarkazbank tomonidan turli xil bayramlarga (31101) ajratiladigan mukofot pullari shoshilinchnomada ko'rsatilgan summalariga asosan to'lanishy audit qilinadi.

YUqorida ko'rsatilgan barcha to'lovlar ishchi va xodimlar uchun ochilgan shaxsiy hisobvaraqlariga to'liq kiritilishi audit qilinadi.

Markaziy bank ishchi va xodimlarning daromadidan daromad soligi hisoblanishini O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasining belgilangan soliq shkalasiga asosan har oyda va yil yakuni bo'yicha to'g'ri soliqqa tortilishi audit qilinadi. Ishchi va xodimlarning shaxsiy hisob-kitob varaqasiga kiritilgan barcha to'lovlardan daromad solig'i hisoblanishi shart.

Kasallik varaqalari bo'yicha to'lovlar tekshirilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak, ya'ni kasallik varaqalarining o'z vaqtida buxgalteriyaga topshirilishi, xodimlarning kasallik varaqalarida xodimlar bilan ishlash bo'limi tomonidan mehnat stajlarining to'g'ri qo'yilganligi shu asosda kasaba uyushmasi tomonidan bankning majlis bayonnomasiga asosan foizlarning aniq belgilanishi, kasallik varaqalari bo'yicha nafaqalarni "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan nafaqalarni to'g'ri to'langanligi audit qilinadi.

Xizmat safari bo'yicha mablag'lar to'g'ri sarflangani va bo'nak hisobotlari o'z vaqtida taqdim etilgani audit qilinadi.

Xizmat safari xarajatlari bo'yicha to'lovlar tekshirilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak, ya'ni safar xizmati guvoxnomalarining to'g'ri rasmiylashtirilishi, (safari muddatiga rioya qilinishi, safarga borish uchun chiqarilgan buyruq yoki farmoyish raqami, sanasi, yili, xizmat safariga boruvchi xodimning pasport ma'lumotlari borligi, xizmat safari guvoxnomasi rahbariyat tomonidan imzo va muxr bilan tasdiqlanganligi, xodimning belgilangan joyga borganligi va u erdan chiqib ketganligi • to'g'risidagi qaydlar sana, yillari va ularning kelib ketganligini tasdiqlovchi imzo va muxr bilan tasdiqlanganligi audit qilinadi

Xizmat safariga borib kelgandan keyin bo'nak hisobotlarini topshirish muddatiga rioya qilinishi, bo'nak hisobotlarida ko'rsatilgan xarajatlarni to'g'ri aks ettirilganligi va buxgalteriya tomonidan to'lov uchun qabul qilinganligi, hamda ortiqcha olingan bo'nak pullarini o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash hujjatlar asosida ko'rsatiladi

Ishlab turgan pensionerlarga pensiya to'lash qoidalariga rioya qilinishi, shu jumladan pensionerlarga ish joyidan maoshini hisobga olgan holda pensiya to'lashni davom ettirish to'g'risida ijtimoiy-ta'minot bo'limlarining topshiriqnomalari borligi, pensiya xodimi egallab to'rgan lavozimga va amalda bajarayotgan ishga qarab to'g'ri belgilangani, pensionerlar ishga qabul qilingani to'g'risida ijtimoiy-ta'minot organlariga o'z vaqtida xabar berilishi audit qilinadi.

Bundan tashqari, mablag'lar ro'znoma va oynomalarga obuna bo'lish uchun sarflanishi me'yorlariga rioya etilishi, mablag'lar smetaning boshqa moddalari asosida to'g'ri va maqsadga muvofiq tarzda ishlatilishi, etarlicha rasmiylashtirilgan asosiy hujjatlar borligi auditdan o'tkaziladi.

Bank faoliyati bo'yicha operatsiyalar va boshqa xarajatlarni hisobga olib boruvchi hisobvaraqlarda amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi va asosli ekanligi ham shu tarzda audit qilinadi.

Bank rezerv kapitali hisobvarag'i bo'yicha kredit va debet operatsiyalarning to'g'riligi aniqlanadi.

31101-hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni tekshirishda operatsiyalar o'tkazish va mablar sarflash o'rnatilgan limit va mablag'lar doirasida amalga oshirilgani aniqlanadi.

31101-hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar to'g'riligini tekshirishda quyidagilarga e'tibor qilish kerak:

- 1) Yillik ish yakunlari bo'yicha mukofot to'lashning to'g'riligi;
- 2) Xodimlarga ko'rsatilgan moddiy yordam qay tarzda hisobga olinishi va berilishi;
- 3) Moddiy rag'batlantirish fondi bo'yicha boshqa xil to'lovlar qay tarzda amalga oshirilishi.

Moddiy rag'batlantirish uchun "O'zbekiston respublikasi Markaziy banki va uning muassasalari xodimlariga ish haki to'lash to'g'risida"gi Nizomga qat'iy rioya qilib sarflanishi zarur.

31101-hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilishining to'g'riligini tekshirishda, shuningdek, ajratilgan mablag'lar Markaziy bank ruxsatnomalarini hisobga olgan holda belgilangan maqsadda ishlatilishiga e'tibor qilish kerak.

19921-hisob varag'ida hisobga olingan arzon va tez eskiruvchi buyumlarning xaraja

tini to'g'ri olib borilishini tekshirishda balansning tegishli xarajat hisob varaqlari bilan qiyoslanib audit qilinadi. Arzon va tez eskiruvchi buyumlarni chiqim qilishda tuzilgan yo'qotish dalolatnomasi audit qilinadi. 19923 hisobvaraqlarda ombordagi asosiy vositalar hisobi to'g'ri yuritilganligi audit qilinadi.

Bankning asosiy vositalarini, mebellarini va jixozlarining butligini audit qilishda 16500-bosh kitobdagi hisobvaraqlar bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar qonuniyligi tekshiriladi.

16515-hisobvaraqlar operatsiyalarini audit qilishda ijaraga olingan binolarni kapital ta'mirlash uchun sarflangan harajat SHartnoma shartlariga mos kelishi, ular Boshqaruv apparatini ta'minlash uchun belgilanan chiqimlar smetasi bo'yicha ana shu maqsadda ajratilgan mablag' darajasidan oshib ketmasligi; ijaraga olingan binolarning kapital ta'mirlanishi uchun qilingan xarajatlar 16515-hisobvaraqlar debetiga to'liq o'tkazilgani, bu xarajatlar 56216-hisobvaraqlardagi mablag'lar hisobidan o'z vaqtida to'g'ri qoplangani; asosiy vositalar, shuningdek, arzon va tez eskiruvchi buyumlar hisobini yuritish ishlari yo'lga qo'yilishi va asosiy vositalar ro'yhatga olinishining to'g'riligi; binolar, asbob-uskunalar, mashinalar va boshqa jixozlar balans hisobidan chiqarilganining asosli ekanligi va maqsadga muvofiqligi hamda hisobdan chiqarilgan buyumlar (shu jumladan qimmatbaho metallar)ni sotishdan olingan mablag'lar hisobga to'liq olinganiga e'tibor berish kerak. Bank

o'z binolariga ega bo'lgan taqdirda ular bankka tegishlilikini tasdiqlovchi hujjatlar 93609-hisobvaraqa borligi auditdan o'tkaziladi.

Audit jarayonida asosiy vositalar va jixozlar ro'yhatga olingani tanlab auditdan o'tkaziladi.

"Tugallanmagan qurilish" nomli 16505-hisobvaraqa bo'yicha quyidagilar auditdan o'tkaziladi:

- bu hisobvaraqa bo'yicha o'rnatilgan limit doirasida xarajat qilinishi;
- mablag', hamda etarlicha tasdiqlangan hujjatlar, shu jumladan qurilishdagi ob'ektlar ro'yhati va qurilish olib borilishiga asos bo'lgan pudrat shartnomalari borligi;
- bajarilgan ish uchun hisob-kitob qilish qoidalariga rioya etilishi;
- kapital qo'yilmalarga ajratilgan mablag'lar belgilangan maqsadda o'z vaqtida va to'g'ri sarflanishi;
- kapital ta'mirlash operatsiyalarini nazorat qilish ham shu tartibda amalga oshiriladi;
- 19909-hisobvaraqaqning "Scheta k polucheniye" moddasi bo'yicha haqi to'langan hujjatlar 16529, 16535-hisobvaraqlar daftoriga summasi bo'yicha ham, sotib olingan buyumlarning miqdori bo'yicha ham qiyoslanadi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, transport va yuk ortish-tushirish chiqimlari Boshqaruv apparatini ta'minlash smetasiga kiradi yoki buyum qiymatini oshiradi;
- Ko'rsatib o'tilgan audit o'tkazishlar bilan bir qatorda bankning boshqa ichki operatsiyalarning qonuniyligiga ishonch hosil qilish zarur.

16701 hisobvaraqa'i bo'yicha ochilgan "Asosiy vositalar bo'yicha bankning korxonalari va tashkilotlari bilan hisob-kitoblar" shaxsiy hisobvaraqlar bo'yicha debet va kredit ezuvlarining asosli ekanligi audit qilinadi.

Kapital qo'yilmalar bo'yicha debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblar 19909 va 29802, 29896 hisobvaraqlari bo'yicha quyidagilar audit qilinadi:

- debet operatsiyalarining qonuniyligi;
- boyliklar talon-taroj qilingani, qilanganidan ortiqcha sarflangani, vazifasini suiste'mol qilish, kamomaddan kelgan zarar va shu hisob-varaqlarda shuningdek zarar hisobiga o'tkazilgan qarzlarni hisobvaraqa turgan boshqa summalarni undirib olish uchun o'z vaqtida chora ko'rilishi va ularning samaradorligi;
- hisob berish sharti bilan summalarning topshirilishi va o'z vaqtida qaytarilishi tartibiga rioya qilinishi.

Bank xodimlarining ish haqidan ushlab kolingan summalar soliklar, ko'ngilli ravishda sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta badallari, kreditga harid qilingan tovarlar uchun to'lovlar, ijro varaqalari bo'yicha uchinchi shaxslar foydasiga ushlab qolingan summalar, shuningdek, omonatga o'tkazilgan summalar

va kasaba uyushmasi badallari hisobini yuritish uchun ochilgan shaxsiy hisobvaraqlarga o'z vaqtida va to'liq o'tkazilgani tegishli orderlar yoki ish haqi berishdagi qaydnomalarning ma'lumotlari bo'yicha xonalarda chiqarilgan umumiy yakunlar to'g'riligini avvaldan qiyoslagan holda auditdan o'tkaziladi.

Bundan tashqari, auditor yuqorida ko'rsatilgan hisobvaraqlarning qoldiqlari belgilangan joylarga (tegishli byudjetlarga, Xalq banki, davlat sug'urtasi, savdo tashkilotlari va boshqalarning hisobvaraqlariga) o'tkazilganini audit qilish kerak.

Xo'jalik va qurilish materiallari hamda boshqa materiallarning shaxsiy hisobvaraqlari bo'yicha quyidagilar audit qilinadi:

a) haqi to'langan materiallar kiringga to'liq kiritilgani va hisobdan chiqarilishining asosli ekanligi;

b) moddiy boyliklar o'z vaqtida va to'liq ro'yhatga olingani, hamda natijalari buxgalteriya hisobida aks etirilgani, shuningdek, aniqlangan kamomadlar moddiy javobgar shaxslardai undirib olishga taqdim etilgani;

v) moddiy boyliklar but saqlanishi, ularning buxgalteriya va ombor hisobi to'g'ri yuritilishi, boyliklar saqlanishi zimmasiga yuklatilgan shaxslar bilan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar tuzilgani.

Zarurat tug'ilganda audit jarayonida alohida materiallarning amaldagi miqdori buxgalteriya va ombor hisobi ma'lumotlariga mos kelishi auditdan o'tkaziladi.

Operatsiyalarga bog'liq va xilma-xil daromadlar bo'yicha debet operatsiyalarining asosli ekanligi. shuningdek, banklardan va mijozlardan undirib olingan foizlar, jarimalar va boshqa summalar hisobvaraq kreditiga to'liq o'tkazilgani audit qilinadi.

Foizlarni to'lash va undirish, inkassatsiya uchun to'lovlar bilan bog'liq operatsiyalarni audit qilib foizlarni hisoblash qaydnomalarida. Tushum inkassatsiya qilingani uchun to'lov ro'yhatlari (qaydnomalari)da turli qiymatdagi qoldiq summalar hisoblab chiqiladi va olingan yakunlar tegishli hisobvaraqlarning kredit yoki debet qismi yozuvlari bilan qiyoslanadi. Bunda passiv hisobvaraqlar bo'yicha hisoblangan foizlardagi turli qiymatdagi qoldiq summaları mijozlarning muddatli depozit hisobvarag'i va boshqa xil hisobvaraqlarining kredit yozuvlari bilan qiyoslanadi. Ayni vaqtda foiz stavkasi qo'llanishi, hamda hisob-kitob, joriy, qarz va boshqa xil hisobvaraqlar bo'yicha foizlar summasini hisoblash to'g'riligi auditdan o'tkaziladi.

Bundan tashqari, audit jarayonida bankdan olingan summalar hamda, bank undirib olgan foizlar, jarimalar, tushum inkassatsiya qilingani va boyliklar etkazib berilgani uchun to'lovlar va boshqa summalar to'g'risida ayrim korxonalar va tashkilotlardan ma'lumotnoma so'raladi.

SHuningdek, shaxsiy hisobvaraqlari ko'chirma olib tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan shu xil ma'lumotlarni olish, qolaversa, qarz olish uchun taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishonchli ekanligini auditdan o'tkazish tavsiya etiladi.

Bu ma'lumotlar olingunga kadar mijozlar talab qilgan summalar to'liq o'tkazilgani va hisobdan to'g'ri chiqarilgani audit qilinadi.

Zarurat tug'ilganda korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda kapital qo'yilmalar va kapital ta'mir, xo'jalik materiallari va jixozlar sotib olingani, xizmat ko'rsatilgani, fuqarolarning omonatlariga va kreditga harid qilingan tovarlar uchun mablag' o'tkazish va boshqa xil operatsiyalar bo'yicha muqobil tekshiruvlar olib borish zarur.

### **3. Buxgalteriya hisobi va hisoboti operatsiyalarini tekshirish**

Buxgalteriya ishlarini tekshirish Markaziy bankning 1, 27, 60, 61-sonli yo'riqnomalariga, 98-V-sonli Tartibiga, 290 - sonli «O'zbekiston Respublikasi Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobradamlar Rejasi» ga, ularga kiritilgan qo'shimchalar va o'zgarishlarga hamda Markazny bankning boshqa meyoriy hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Tekshiruv buxgalteriya bo'limida nshlariipg qay darajada yo'lga qo'yilganligini ko'rishdan boshlanadi. Bunda bo'lim Ish Rejasining va ish targibining mavjudligi, xodimlar o'rtnsida vazifalarnng to'g'ri taqsimlanishi, ularning zaruriy qo'llanmalar bilai ta'miilanganligi, xodimlarning o'z ishlariga oid qo'llanmalarni qay daraja bilnshlarn darajasi o'rganiladi.

Birinchi navbatda oxirgi sanaga buxgalteriya kuilnk balalsi talab qilinib, kunlik balans zaruriy tarzda to'liq tahlil qilib chiqiladi. SHundan so'ng sintetik (yig'ma) va analitik (yoyma) hisoblarning bir-biriga mosligi ularni solishtirish yo'li bilai birma-bir tekshiriladi. Buidan tashqari bo'limda mijozlarga hisobraqamlar va subhisobvaraqlar ochish tartibi, ularning yuridik hujjatlarining to'g'rn rasmiylashtirilganligi va to'liqligi, ochilgan va yopilgan hisobvaraqlarning 61-shakl kitobda o'z vaqtida va to'g'ri ro'yxatga olinishi va qayd qilinishn, mijozlar bilsh! xizmat ko'rgasish bo'yicha shartpomalariing to'liq va qonuniy tuzilganligi, mijozlardan ko'rsatilgan xizmatlar uchup xizmat haqlarining to'g'ri va to'liq o'rnatilganligi va hisoblanishi hamda undirilishi, kunlik hujjatlarnipg rasmiylashtirilishi, qabul qilinishi va o'tkazilishi, bo'limda so'ngi nazoratning yo'lga qo'yilganligi -yo'riqnomalar-ga asosan ko'riladi.

Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari amaliyoglarning to'g'riligi, xarajatlarning tegishli hisob raqamlarda to'g'ri aks ettirilgailigi Markaziy Bankning 61-yo'riqnomasi va 290-sonli hisobvaraqlar Rejasi asosida tekshiriladi.

Bulardan tashqari buxgalteriya hisobi va hisoboti operatsiyalarini tekshirishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:



- hujjatlarning arxivga topshirilishi va saqlanishiga;
- «Tuzatish orderlari» kitobchasining yuritilishiga;
- bank xizmatlari va kreditlar bo'yicha foizlarning o'z vaqtida hisoblanishiga;
- Vazirlar Mahkamasining 327-sonli Qarori talablariga rioya qilinishiga;
- 615-sonli yo'riqnomalar talablarining to'g'ri bajarilishiga;
- bank faoliyatiga tegishli soliqlar va boshqa o'tkazmalarining o'z vaqtida to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi;
- xizmat safari xarajatlari uchun mablag'lar berish va ular bo'yicha hisob-kitoblarning o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishiga;
- mehnatga haq to'lash fondidan 40 foizlik ajratmalarining o'z vaqtida hisoblanishi va o'tkazilishiga;
- tovar-moddiy qimmatliklarni omborxonaga kirim qilish va chiqim qilish tartibiga;
- asosiy vositalarga eskirish xarajatlarni o'z vaqtida va to'g'ri hisoblanishiga;
- ish haqqiga mablag'lar borish bo'yicha 1-sonli kartochkaning to'g'ri yuritilganligiga;
- har xil xizmatlar (qo'riqlash, aloqa) uchun to'lovlarni o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishiga;
- ishonchnomalarni berish tartibiga;
- inkasso topshiriqnomalarini hisobining yuritilishiga;
- xo'jalik sudlarini ijro varaqalarini hisobi va ularni to'lanishi tartibiga;
- K-1 va K-2 inqg hisobining to'g'ri yuritilishiga;
- balansdan tashqari hisobraqamlar qoldiqlarining haqqoniylikiga;
- bank siriga rioya qiliishiga.

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

1. Mijozlarga hisob-kitobvaraqlarini ochish tartibi.
2. Hisob-kitor operatsiyalarining auditi.
3. CHet el valyutasidagi operatsiyalarni auditdan o'tkazish tartibi.
4. Naqd chet valyutasidagi operatsiyalar qanday audit qilinadi?
5. Inkasso operatsiyalarini audit qilish.
6. Banklarning vakillik hisobvaraqlarini audit qilish tartibi.

## **5 mavzu: Kredit operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisobga olish auditi (muammoli kreditlarning auditi)**

### **Reja:**

1. Kredit operatsiyalarining tashkil etilishi va hisobvaraqlarni ochish tartibi
  2. Banklarda qisqa va uzoq muddatli kredit operatsiyalarining buxgalteriya hisobi
  3. Kreditlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqini hisoblash va ularning hisobi
- Xulosa  
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

### **Kredit operatsiyalarining tashkil etilishi va hisobvaraqlarni ochilishi tartibi auditi**

Kredit vaqtincha o'z egalari qo'lida bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatlardir. Kredit munosabati ikki sub'ekt o'rtasida yuzaga keladi, biri pul egasi, ya'ni qarz beruvchi, ikkinchisi pulga muhtoj, ya'ni qarz oluvchi. Qarz beruvchi qarzdorga aylanishi va buning aksi ham yuz beradi. Shu bilan birga, biror sub'ekt bir vaqtning o'zida ham qarz beruvchi, ham boshqalardan qarz oluvchi bo'lishi mumkin. Masalan, bank pul egasi bilan qarz oluvchi o'rtasida vositachi, ayni vaqtda, uning o'zi bo'sh pulni qarzga oladi, so'ngra uni boshqalarga kredit ko'rinishida beradi. Kredit sub'ektlari har xil bo'lib, bularga turli mulkchilik shakllariga tegishli bo'lgan davlat, bank, korxonalar, tashkilot, yuridik maqomga ega bo'lmagan xususiy tadbirkorlar va turli toifadagi aholi kiradi.

Kreditning bir qancha shakllari mavjud bo'lib, ulardan biri bank kreditidir. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunida "Pul mablag'larini jalb qilish hamda ularni qaytarishlik, to'lovlilik va muddatlilik shartlari asosida o'z nomidan joylashtirish uchun tuzilgan muassasa bankdir" deb qayd etilgan. Banklar va boshqa kredit tashkilotlari pulni uning mijozlariga foiz to'lash sharti bilan o'z qo'lida jamlaydi va o'z nomidan qarzga berib, foiz oladi. Bunda uch sub'ekt, ya'ni pul egasi, kredit tashkiloti va qarz oluvchi o'rtasidagi kredit munosabati paydo bo'ladi.

Vositachilar orasida tijorat banklari markaziy bo'g'in hisoblanadi, chunki tijorat banklarining asosiy operatsiyalaridan biri iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyojlarini kreditlashdir.

Hozirgi kunda har bir tijorat banki o'zining kredit siyosatini ishlab chiqib, kredit munosabatlarini ushbu siyosat orqali yuritadi. Markaziy bank esa kreditlash bo'yicha umumiy ko'rsatmalar beradi.

Bank tomonidan beriladigan kreditlar muddatiga ko'ra qisqa va uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Qisqa muddatli kreditlarning ham har xil turlari mavjud, ular bir-biridan kredit berish shartlari, ta'minot turi, qoplash muddatlari bilan farq qiladi. Qisqa muddatli kreditlash operatsiyalarining hisobini yuritish uchun tijorat banklarining hisobvaraqlar rejasida bir qancha asosiy hisobvaraqlar ochilgan "Boshqa banklar va mijozlarga berilgan kreditlar" hisob raqami hisobvaraqlar rejasining 12101-15599 balans hisob raqamlarida bankning rezident hamda norezident bo'lgan boshqa banklarga va mijozlarga milliy va xorijiy valutalarda bergan kreditlarning hisobi olib boriladi. Kreditlar muddati, qarzdorlar va kreditning maqomi bo'yicha tasniflanadi. Kreditlar muddati bo'yicha qisqa va uzoq muddatli kreditlarga tasniflanadi.

Qisqa muddatli kreditlar kredit berilgan sanadan bir yilgacha muddatga berilgan kreditlardir. Uzoq muddatli kreditlar kredit bir yildan ortiq muddatga berilgan kreditlardir. Kreditlar maqomi bo'yicha quyidagicha tasniflanadi. Muddati o'tgan kreditlar – bank va mijoz o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga ko'ra o'z vaqtida qaytarilmagan kreditlar. Bu toifadagi kreditlar muddatsiz hisoblanib, imkoniyati bo'lishi bilan undirib olinadi.

Shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar – o'zaro qayta ko'rib chiqilgan yoki qayta tuzilgan shartnomalarga asosan muddati, yangi foiz stavkasi yoki ta'minlanganlik holatiga qo'shimcha talablar va shu kabi boshqa shartlarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan kreditlardir.

Muddati o'tgan kreditlar bo'yicha foizlar ko'zda tutilmagan holatlar hisob raqamida hisobga olib boriladi va qarzdor kreditni qaytarayotganda foizlar ham birga undirib olinadi.

Ushbu hisob raqamlar boshqa banklarga va mijozlarga berilgan kreditlar summasiga debetlanadi. Bank tomonidan berilgan kreditlar qaytarilganda yoki muayyan kreditning maqomi o'zgarishi munosabati bilan boshqa turga o'tkazilayotganda va ushbu kreditlar bo'yicha ko'rilgan zarar qoplanayotganda tegishli kredit hisob raqamlari kreditlanadi.

Berilgan kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar uchun zahiralar bankning xarajatlari hisobidan yaratiladi. Ushbu zahiralar qarzdorning moliyaviy holatini, berilgan kreditning ta'minlanganligi va qaytmaslik risklarini baholash natijasida yaratiladi.

Quyida boshqa banklarga va mijozlarga kreditlar bo'yicha balans hisob raqamlari alohida tasniflanadi.

Demak, banklarda kredit operatsiyalarini olib borish uchun quyidagi ssuda hisob raqamlari ochiladi:

12100 – Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli kreditlar.

12300 – Hukumatga berilgan qisqa muddatli kreditlar.

12500 – Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar.

12600 – Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar.

12700 – Davlat korxonalar, tashkilot va muassasalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar.

12900 – Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar.

13100 – Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar

Bu asosiy hisob raqamlarning debet tomonida tegishli bank, korxonalar, tashkilot, jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar, kredit tomonida esa ularning qaytarilishi aks ettiriladi. Yuqoridagi hisob raqamlarning barchasi bir qator subhisob raqamlarni o'z ichiga olib, ular muddatli, muddati o'tgan, qayta ko'rilayotgan kreditlar bo'yicha alohida-alohida hisob yuritiladi.

Kredit berish va qaytarish operatsiyalari ssuda hisobvarag'larida aks ettiriladi. Agar xarid qilingan tovarning haqini darhol to'lash lozim bo'lsa, lekin buning uchun firmaning xususiy mablag'i etmasa, bunday hollarda firmada bir martalik qarz mablag'lariga ehtiyoj paydo bo'ldi, deyishadi. Bu ehtiyojni qondirish uchun "kredit liniyasi ochilmagan" ssuda hisobvarag'idan foydalaniladi. Bunday hisobvaraqdan kredit berish bir martalik ssuda berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunday ssudaning har biri bo'yicha bank alohida qaror qabul qiladi. Bu shuni bildiradiki, agar kelgusida yana kredit zarur bo'lsa, korxonalar rahbariyati bank talab qilgan hujjatlarning yangi to'plamini to'liq ishlab chiqishi, xuddi birinchi kredit olinganidek muzokaralar olib borishi va barcha yuridik rasmiylashtirish ishlari bajarilishi lozim.

Shuning uchun kredit resurslariga ehtiyoj uzoq muddatli va takrorlanuvchan ekanligi oldindan tahlil qilinsa, "kredit liniyasi ochib" kredit berish to'g'risida shartnoma tuzish qulayroq bo'ladi va arzonroq tushadi. Kredit liniyasi – korxonalar bilan bank o'rtasida belgilangan summada zayom (qarz)lar turkumini berish to'g'risida tuzilgan kelishuvdir.

Kredit liniyasini ochishda bank tomonidan kreditlash limiti belgilanadi. Shu limit doirasida kredit berishda bank bilan qo'shimcha muzokaralar olib borish talab qilinmaydi. Kredit tarmog'ini ochilishi shuni bildiradiki, korxonalariga etkazib berilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun bank kredit summasi doirasida korxonalar hisob-kitob hujjatlari bo'yicha pul to'laydi. Shu bilan birga, bank pulni hujjatlar topshirilgan kuni to'lashga majbur. Kredit o'z vaqtida berilmaganligi va mijozning tovar etkazib beruvchilar bilan hisob-kitobni kechikib amalga oshirilganligi uchun bank javobgar hisoblanadi.

Qisqa muddatli kredit olish uchun alohida kredit ochish liniyasini ochish shart emas. Bank bilan uning mijozlari o'rtasida maxsus bitim tuzilib, shu bitimga asosan mijozga uning hisob-kitob varag'ida qolgan mablag'dan ortiq summadagi to'lovlarni amalga oshirishga ruxsat etiladi. Qisqa muddatli kreditning bunday turi overdraft deyiladi. Shartnomada overdraft qarzning eng katta summasi, kredit berish shartlari: kreditni qoplash tartibi, foiz darajasi belgilanadi. Overdraftda mijozning hisob kitob varag'iga kelib tushadigan barcha summa kreditni qoplashga yo'naltiriladi. Shuning uchun kredit hajmi mablag' kelib tushgan sari o'zgarib turadi, ana shuni bilan overdraft kreditning boshqa turlaridan farqlanadi.

Kredit olish uchun bankda har bir kredit bo'yicha alohida ssuda hisobvarag'i ochiladi. Mijoz kredit olish uchun bankga belgilangan tar-tibda hujjatlar paketini rasmiylashtirib topshiradi. Kredit komissiyasi-ning qaroriga ko'ra kredit berish lozim deb topilsa, bank va kredit oluvchi o'rtasida kredit shartnomasi tuziladi. Kredit shartnomasida kredit-ning nima maqsadda olinishi, muddati, summasi, qaytarilish tartibi, kredit uchun to'lovlar, tomonlarning majburiyatlari, javobgarligi, boshqa shartlar ko'rsatiladi.

Kredit bo'limining farmoyishiga ko'ra, hisob operatsion bo'limida kredit oluvchi korxonaga ssuda hisobvarag'i ochiladi. Qaysi turdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektligiga qarab tegishli balans hisobvarag'i bo'yicha kredit hisobvarag'i ochiladi. Masalan: jismoniy shaxslarga 12500, yuridik maqomga ega bo'lmagan yakka tadbirkorlarga kredit berish uchun 12600 balans hisobvarag'i bo'yicha ssuda hisobvarag'i ochiladi. Davlat korxonalariga kredit berishda esa 12700 balans hisobvarag'i ochiladi. Kredit hisobvarag'i ham 20 ta razryaddan iborat bo'lib, uning ichida kredit olmoqchi bo'lgan korxonaning xos raqami bo'lishi lozim. Masalan, mijozga berilgan unikal xos raqam 04952452 bo'lsa so'mda berilgan kreditni hisobga olish uchun qarz oluvchi davlat korxonasi ekanligini hisobga olgan holda quyidagi hisobvaraqa ochiladi.

### ***12701000K04952452001***

Bu hisobvaraqa bank tomonidan davlat korxonalariga berilgan qisqa muddatli kreditlarning hisobi yuritiladi. Hisob raqamining debetida davlat korxonalariga berilgan ssudalar summasi aks ettiriladi. Hisob raqamining kreditida esa qarzdorlar tomonidan qaytarilgan ssudalarning summasi aks ettiriladi. Bu hisobvaraqa bo'yicha analitik hisob har bir qarzdor va kreditlarning turlari bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.

Xuddi shunday tartibda boshqa mulkchilik shakllariga tegishli bo'lgan, qarz olmoqchi bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ssuda hisobvaraqlari ochiladi va ular bo'yicha kredit berish va qaytarib olish bo'yicha operatsiyalar bajariladi.

## **2 Banklarda qisqa va uzoq muddatli kredit operatsiyalarining**

## **buxgalteriya hisobi auditi**

Korxonalar va tashkilotlarga yoki alohida olingan jismoniy shaxslarga ssuda hisobvarag'i ochilgandan so'ng ular bo'yicha kreditning berilishi va qaytarilishi bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish mumkin. Har bir kredit berilishi kredit komissiyasining farmoyishi asosida amalga oshiriladi, ya'ni kredit bo'limi tomonidan hisob-operatsion bo'limga mijozga ssuda hisobvarag'i ochish va kredit berish to'g'risidagi yozma farmoyishi beriladi. Mas'ul ijrochilar farmoyishda ko'rsatilgan rekvizitlar asosida hisob-kitob hujjatlarini to'lash orqali kredit berish bo'yicha buxgalteriya provodkalarini bajaradilar.

Quyida biz xususiy korxonalar uchun kredit berish bo'yicha buxgalteriya provodkalarini ko'rib chiqamiz. Xususiy korxonalar uchun xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga qisqa muddatli kredit berish uchun 13100 – “Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar” nomli balans hisob raqami ochiladi. Bu hisob raqam bir qator subhisob raqamlarni o'z ichiga oladi.

Kredit berilayotganda korxonaning hisob-kitob hujjati to'lanayotgan bo'lsa, pul o'tkazilishi lozim bo'lgan mol sotuvchi yoki xizmat ko'rsatgan korxonalar hisobvarag'iga o'tkaziladi. Pul tushirilishi lozim bo'lgan korxonaga boshqa bank bo'limi xizmat ko'rsatsa, kredit summasi kredit berayotgan bankning vakillik hisobvarag'i orqali tegishli bankga o'tkaziladi.

**-jadval**

### **Muddatli, muddati o'tgan kreditlar va shartlari qayta ko'rib chiqiladigan qisqa muddatli kreditlarni hisobga olishda qo'llaniladigan ssuda hisobvaraqlar**

<b>Asosiy hisobvaraqlar</b>	<b>Hisobvaraqlarning nomi</b>
13100	“Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar”
Sub hisobvaraqlar (subschyot)	
13101	“Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar”
13105	“Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan muddati o'tgan kreditlar”
13109	“Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan shartlari qayta ko'rib chiqiladigan qisqa muddatli kreditlar”

13199	Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)
-------	---

Kredit berilayotganda quyidagi buxgalteriya provodkasi bajariladi:

Debet 13101 – “Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar”

Kredit 10301 – “Bankning vakillik hisobvarag'i yoki mahsulot so-tuvchi korxonalar hisobvarag'i”

13101 – hisob raqamida bank tomonidan xususiy firmalar, shirkatlar va jamoa xo'jaligi va shu kabi xususiy mulkchilik shakliga ega bo'lgan korxonalariga berilgan qisqa muddatli kreditlarning hisobi yuritiladi. Bu hisob raqam bo'yicha analitik hisob har bir qarzdor va kredit turlari bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.

Kredit oluvchi va bank o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga binonan kreditni qaytarish muddatlari belgilanadi. Kreditning qaytarish muddati tugagandan so'ng ssuda qaytarish bo'yicha buxgalteriya provodkalari bajariladi. Kreditni qaytarish bo'yicha buxgalteriya provodkalari quyidagicha ko'rinishda bo'ladi.

Debet 20208

Kredit 13101

Bu buxgalteriya provodkasi agar mijozning talab qilinguncha saqlanadigan depozit bo'yicha hisobvarag'ida kreditni qaytarish uchun etarli pul mablag'lari bo'lgan holda bajariladi. Agar qarzdorning hisob-varag'ida ssudani qaytarish uchun mablag'i yo'q bo'lsa, ssuda summasi 13101 – “Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan muddati o'tgan kreditlar” hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Bu operatsiya bo'yicha quyidagi buxgalteriya provodkasi amalga oshiriladi.

Debet 13105 “Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan muddati o'tgan kreditlar”

Kredit 13101 “Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar” .

Qaytarish muddati kelganda to'lanmagan va shundan so'ng 90 kun o'tgandan so'ng ham qaytib kelmagan ssudalar 13109 “Xususiy korxonalar va nodavlat korporatsiyalariga berilgan qisqa muddatli shartlari qayta ko'rib chiqiladigan kreditlar” balans hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Kreditlarning qaytishi ma'lum riskni talab qiladi. Shu sababli banklarda kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash zahirasi tashkil etiladi. Xususiy korxonalariga va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha zararlarni qoplash

zahirasiining hisobini olib borish uchun 13199 balans hisob raqami ochiladi. Unda bankning xususiy firmalar, shirkatlar, jamoa xo'jaliklari hamda korxonalari, korporasiyalariga bergan qarzlari undirib olinmay qolishi mumkin bo'lgan qismi bo'yicha ko'riladigan zararlarni qoplash uchun yaratilgan zahiralari hisobi olib boriladi. Analitik hisob har bir mijoz va kredit turlari bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda aks ettiriladi. Boshqa mulkchilik shakllariga tegishli bo'lgan korxonalar, tashkilot, firma, bank va boshqalarga kredit berish va berilgan kreditlarni qaytarish bo'yicha operatsiyalar ham xuddi shu tarzda amalga oshiriladi. Faqat tegishli hisobvaraqlar tizimi ishlatiladi.

Kapital qo'yilmalarini moliyalashtirishning manbalaridan biri – uzoq muddatli kreditlashdir. Uzoq muddatli kreditlash deb yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish va yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, shuningdek, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalar uchun mo'ljallangan ob'ektlarning qurilishi, rekonstruktsiyasi va texnik jihatdan qayta qurilishi bilan bog'liq bo'lgan maqsadlarga 1 yildan ortiq muddatga beriladigan kreditlarga aytiladi.

Uzoq muddatli kreditlash ob'ektlariga quyidagilar kiradi:

- bino-inshootlar qurilishi;
- korxonalar yoki uning tseklari qurilishi;
- ishlab chiqarish obyektlarini qurish, kengaytirish, rekonstruktsiya qilish va jihozlash;
- texnika, texnologiya, jihozlar, transport vositalarini sotib olish;
- turar joy binolarini qurish yoki sotib olish;
- yangi erlarni o'zlashtirish va hokazo.

Kreditni rasmiylashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Kredit buyurtmasini o'rganib chiqish
2. Bo'lajak qarzdorlarning moliyaviy holati va kreditga layoqatliligi-gini tahlil qilish va baholash.
3. Kreditlanadigan ob'ektni keng qamrovli ekspertiza qilish.

Taqdim etilgan hujjatlar asosida mijozning moliyaviy holati va kreditga layoqatliligi o'rganib va baholab chiqilgandan so'ng barcha hujjatlar kredit komissiyasiga xulosa berish uchun taqdim etiladi.

Kredit komissiyasining kredit bo'yicha ijobiy xulosasi qabul qilingandan keyin bank protokolni bankning bosh boshqarmasiga yo'llaydi. Bosh boshqarma ijobiy xulosa qabul qilgandan keyingina bank bo'limi qarz oluvchi bilan kredit shartnomasini tuzadi.

Kredit shartnomasi bank bilan qarzdor o'rtasidagi munosabat asosi bo'lib, shartnoma tuzilgan vaqtdan to kreditning to'liq qaytarilishi va ular bo'yicha foizlar to'lanishigacha amal qiladi.



Shuni ta'kidlash joizki, bank bilan qarzdor o'rtasida kredit shart-nomasi imzolanayotganda bankning yuridik xizmati bo'limi ishtirok etishi lozim, chunki u hujjatlarning rasmiylashtirilishi uchun mas'uldir.

Banklarda uzoq muddatli kredit berish kredit shartnomasida ko'r-satilgan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi. Kredit bo'limi inspektori tomonidan bank hisob operatsion bo'limiga ssuda hisob-varag'ini ochish haqida yozma farmoyish beradi. Farmoyishga asosan hisobvaraqa ochilib, ushbu hisobvaraqa bo'yicha ssuda berish va qaytarish operatsiyalari aks ettiriladi. Kreditni va hisoblangan foizlarni qaytarish grafigi yillar va oylar bo'yicha tuzib chiqiladi.

Uzoq muddatli kredit berish mijozning hisob-kitob hujjatlarini to'lash orqali amalga oshiriladi, bu operatsiya quyidagi provodka orqali bajariladi:

Debet "Uzoq muddatli ssuda hisobvarag'i"

Kredit "Mol sotuvchi yoki pudratchining hisobvarag'i".

Agar kredit olayotgan korxonada davlat korxonasi bo'lsa, u holda provodka quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

Debet 15101 "Davlat korxonasiga berilgan uzoq muddatli kreditlar"

Kredit 20200 "Mijozlarning talab qilinguncha saqlanadigan depozitlari".

Shartnoma ko'rsatilgan stavkada dasturiy yo'l bilan har kuni foiz summasi hisoblab boriladi. Hisoblangan foizlar 16309 hisobvaraqa aks ettiriladi. Hisoblangan foizlar summasi, shuningdek, tegishli daromad hisobvarag'ida ham aks ettiriladi. Foizlar hisoblanganda quyidagi bux-galteriya provodkasi bajariladi.

Debet 16309 «Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar»

Kredit 44401 «Davlat korxonasi va tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar»

Foizlarni undirish kredit shartnomasida ko'rsatilgan hajmda va belgilangan ketma-ketlikda qarzdorlarning talab qilib olinguncha hisob raqami bo'yicha memorial orderlarni rasmiylashtirish orqali amalga oshiriladi. Foizlarni undirish qarzdorning ruxsatisiz amalga oshiriladi. Bu operatsiya quyidagi provodka orqali rasmiylashtiriladi:

Debet 20210 «Davlat korxonalarining (qarzdor) talab qilib olin-guncha hisob raqami»

Kredit 16309 «Kreditlar bo'yicha foizlar»

Kredit va ular bo'yicha foizlar korxonalarining hisob raqamiga tusha-digan kelasi real pul oqimini hisobga olgan holda tuzilgan jadval asosida qaytariladi. Bu operatsiya quyidagi provodka orqali rasmiylashtiriladi:

Debet 20210 «Davlat korxonalarining talab qilib olinadigan hisob raqamlari»

Kredit 15101 «Davlat korxonalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar»

Kreditlarni qaytarish bo'yicha to'lovlar har oyda yoki har kvartalda amalga oshirilishi mumkin. Agar lozim bo'lsa, kredit va foizlarni qaytarish bo'yicha jadvalga ikkala tomon roziligi bilan aniqliklar kiritilishi mumkin. Qarzdor hamma kreditni va ular bo'yicha foizlarni muddatidan oldin qaytarish huquqiga ega.

Bunday holda qarzdor bankning kredit resurslarini jalb qilish uchun sarflangan xarajatlarini qoplashi lozim. Agar kredit va ular bo'yicha foizlar belgilangan muddatda qaytarilmasa, bank joriy qonunchilik asosida da'vogarlik xatini topshirish va xo'jalik sudiga da'vo arizasini topshirish choralarni ko'radi.

Qarz qoldig'i bank tomonidan to'lov talabnomasi orqali rasmiy-lashtiriladi va ikkinchi kartotekaga joylashtiriladi. Qarzni qaytarish kalendar ketma-ketlikda amalga oshiriladi, foizlar asosiy qarzdandan oldin qaytariladi.

Kredit muddati o'tgan hisoblanganda, kredit summasi muddati o'tgan kreditlar hisobvarag'iga o'tkaziladi va quyidagi provodka bilan rasmiylashtiriladi:

Debet 12705 "Davlat korxonalariga berilgan muddati o'tgan kreditlar"

Kredit 15101 "Davlat korxonalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar"

Bank kreditlarning asosiy summasini va to'lanmagan foizni undirganda quyidagi provodka bajariladi:

Debet 20210 – Davlat korxonalarining talab qilib olinguncha saqlanadigan mablag'lari

Kredit 12705 "Davlat korxonalariga berilgan muddati o'tgan kreditlar"

Kredit 42205 "Davlat korxonalariga berilgan muddati o'tgan kreditlar bo'yicha foizli daromadlar"

### **3. Kreditlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqini hisoblash va ularning hisobi auditi**

Har bir kredit bo'yicha bank va mijoz o'rtasidagi shartnomada kelishilgan miqdordagi foiz stavkalari asosida bank foydasiga foizli daromadlar undiriladi. Foizlar bo'yicha summalar quyidagi formula asosida hisoblab chiqariladi.

$$\text{Foiz summasi} = \frac{\text{kredit miqdori} * \text{foiz stavkasi} * \text{kunlar soni}}{365}$$

Kredit uchun foiz summasi kredit miqdori foiz stavkasi kunlar soni 365 kunga bo'lishimizga sabab foiz stavkalari yillik qilib belgilanadi. Lekin barcha bank operatsiyalari kompyuterlashtirilganligi sababli das-turiy yo'l bilan to'lanadigan foizlar va asosiy qarz summalari butun kreditlash davri uchun grafik ko'rinishida chiqarib beriladi. Bunday grafikning bir nusxasi mijozga beriladi, mijozlar ushbu grafik asosida kredit summasini va foizlarni belgilangan tartibda to'lab boradilar.

Banklarda kreditlar bo'yicha foizlar har kuni hisoblab boriladi va 16309 –

“Sudalar bo’yicha hisoblangan foizlar” hisobvarag’ida aks ettiladi. Foizlar hisoblangan, lekin hali undirilmagan holda quyidagi bux-galteriya provodkasi bajariladi:

Debet 16309 “Kreditlar bo’yicha hisoblangan foizlar”

Kredit 42601 “Xususiy korxonalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo’yicha foizli daromadlar”

Foizlar summasi undirilganda esa quyidagi buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi.

Debet 20208 “Xususiy korxonalar, shirkat va jamoalarning talab qi-linguncha saqlanadigan depozitlari”

Kredit 16309 “Berilgan kreditlar bo’yicha hisoblangan foizlar”

Vositachilik haqini kredit bo’yicha real daromadning qismi sifatida aks ettirish bo’yicha misol:

Kredit berishni tayyorlash uchun vositachilik haqi, shuningdek, kredit berish to’g’risida majburiyat uchun vositachilik haqi (kredit berish to’g’risida majburiyatning amal qilish davrida berilgan kreditlar bo’yicha), kredit bo’yicha daromadlarni tuzatish (kotirovka) sifatida tan olinadi. Quyidagi keltirilgan misolda, kredit berish majburiyati uchun vositachilik haqi ko’rib chiqilgan. Ushbu metodologiya kredit berishni tayyorlash uchun vositachilik hakiga nisbatan ham qo’llanilishi mumkin.

Misol: Bank 10 mln. so’m miqdorda kredit berish majburiyatini olgan. Ushbu bank kredit berish to’g’risida majburiyati uchun kreditning umumiy summasidan 4 foiz miqdorida (qaytarib berilmaydigan) vositachilik haqini oladi, va ushbu majburiyatning amal qilish muddati 3 oyni tashkil etadi. Kredit bo’yicha foiz stavkasi (yillik) 15%ni tashkil etadi, bunda foiz to’lovlari har oy amalga oshirilishi lozim. 10 mln. so’m miqdoridagi asosiy qarz summasi ikki yil tugagandan keyin qaytarilishi lozim. Bank uning kredit berish majburiyati amal qiladigan uch oy muddat davomida mijoz tomonidan kredit olish uchun murojaat qilinishini kutadi.

$$\text{Vositachilik haqi summasi} = 10.000.000 \times 4\% = 400\,000$$

$$\text{Oylik foizlar} = 10 \text{ mln.} \times 15\%/12 = 125\,000$$

Majburiyatlar uchun vositachilik haqini olish bo’yicha buxgalteriya o’tkazmasi:

Dt – Qarz oluvchining talab qilib olgungacha depozit hisobvarag’i	400.000	
Kt 22896 - “Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar”		400.000

Agar kredit majburiyatnomasi muddati kredit taqdim etilmasdan tugasa:

Dt 22896 – “Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar”	400.000	
Kt 45237 – “Kredit majburiyatlari bo’yicha ko’rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar”		400.000

Agar bank tomonidan kredit berish bo'yicha majburiyati bajarilayotgan bo'lsa, u holda muddati uzaytirilgan daromadlar kreditning amal qilish muddati davomida daromadni tuzatish sifatida real foiz stavkasi usulini qo'llagan tarzda amortizatsiyalanadi. Vositachilik haqi mohiyatiga ko'ra kredit bo'yicha daromadlarni muvofiqlashtiradi deb asoslanganda, kredit bo'yicha amaldagi ichki daromadlik stavkasi 15%ga teng bo'lgan ko'rsatilgan foiz stavkasining ko'rsatkichini emas, balki 17.3473%ni tashkil etadi. Operatsiya mohiyatini yanada aniqroq aks ettirish uchun muddati uzaytirilgan vositachilik haqini amortizatsiyalash uchun kredit "vositachilik daromadlari"ga emas, balki "foizli daromadlar"ga taalluqli bo'lishi kerak.

## 2-jadval

### Muddati uzaytirilgan vositachilik haqining amortizatsiyasi jadvali

Davr	Pul ko'rinishidagi olingan foizlar	Foizli daromad	Muddati uzaytirilgan vositachilik daromadlarining amortizatsiyasi
1	125.000	144.561	19.561
2	125.000	139.061	14.061
3	125.000	139.265	14.265
4	125.000	139.471	14.471
5	125.000	139.680	14.680
6	125.000	139.892	14.892
7	125.000	140.107	15.107
8	125.000	140.326	15.326
9	125.000	140.547	15.547
10	125.000	140.772	15.772
11	125.000	141.000	16.000
12	125.000	141.231	16.231
13	125.000	141.466	16.466
14	125.000	141.704	16.704
15	125.000	141.946	16.946
16	125.000	142.191	17.191
17	125.000	142.439	17.439
18	125.000	142.691	17.691
19	125.000	142.947	17.947
20	125.000	143.206	18.206
21	125.000	143.470	18.470
22	125.000	143.737	18.737
23	125.000	144.007	19.007
24	125.000	144.282	19.282
		3.400.000	400.000

1-nchi oy uchun vositachilik daromadi quyidagi tartibda tan olinadi:

Dt 22896 – “Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar”	19.561	
Dt - Qarz oluvchining talab qilib olgungacha depozit hisobvarag'i	125.000	
Kt 41400-44600 – Kreditlar bo'yicha foizli daromadlar		144.561

Bank har doim mijozlarning faoliyati haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim va ular haqida axborotlar bazasini tuzishi kerak. Investitsiya kreditlari va kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish quyidagicha nazorat qilinadi:

- kreditning maqsadli ishlatilishi to'lov hujjatlarni to'lashda moliyaviy mablag'larni aniq maqsadga yo'naltirilishi, pul mablag'lar harakatini, qilingan ish hajmini, hisobotlarning haqqoniyligini va shart-nomada ko'rsatilgan narxlarga mos kelishini nazorat qilish;

- kredit va foizlarni qaytarishni nazorat qilish;

- qarzdorning to'lovlarni jadval asosida amalga oshirishi;

- kredit ta'minotining sifati va holatini;

- hujjatlarning to'liqligi va qarzdorga qarshi yuridik va sud tadbirlarini amalga oshirishda yuridik huquqqa ega bo'lish ta'minotini tekshirish;

- kreditga bo'lgan talabning kamayishi yoki ko'payishi sababli qarzdorning moliyaviy holatining o'zgarishini baholash;

- qarzdorning xarajatlarini tekshirish. Qarzdor bankka yiliga kamida ikki marta xarajatlar hisobotini taqdim qilishi shart. Qarzdor xarajatlarini tahlil qilish va nazorat qilish asosida bank tomonidan korxonaning samarali boshqarilayotganligi to'g'risida xulosa tuziladi.

Shunday qilib, ushbu mavzuda iqtisodiyot tarmoqlariga qisqa va uzoq muddatli ssuda hisobvarag'i ochish, mijozlarga qisqa va uzoq muddatli kredit berish, qaytarish va foizlarni undirib olish tartibi va ular bo'yicha buxgalteriya provodkalarini ko'rib chiqdik.

## **6-mavzu. Tijorat banklari daromadlari, harajatlari va foydasi auditi**

### **Reja:**

#### **1. Bankning daromad va xarajatlarini tekshirish tartibi**

#### **2.**

Bunda oxirgi sanaga bank kunlik balansi olinib, daromad va xarajatlar ahvoli tahlil qilinadi.

Bularni ko'rishda daromad va xarajatlar smetasi tuzilishi va unga amal qilinishi taqqoslangan holda tekshirilib, zaruriy izohlar berib o'tiladi.

Daromadlarning o'z vaqtida tegishli higobvaraqlarda to'g'ri aks ettirilishi, daromad va xarajatlarning har bir moddasining jami daromadlardagi hissasi birma-bir tahlil qilinadi.

Bundan tashqari daromad va xarajatlarni o'tgan davr bilan taqqoslagan holda ham tahlil qilinadi.

Bank daromadlarining qonuniyligini tekshirish audit tekshiruvlarinnig asosini tashkil qiladi.

Bank daromadlarining har bir hisobi alohida tekshirilib, natijalari hisobotda aks ettirilishi kerak.

Daromadlarni foizli va foizsiz qismlarga bo'lib, ularning hissasi aniqlanib, har biri alohida tekshiriladi. Kreditlar bo'yicha foizli daromadlarni tekshirishda kreditlar uchui foizlar qayta hisoblanib ko'riladi. Ularning stavkalari kredit shartnomalari bilan solishtiriladi. Komission daromadlar (debet borot) ham qayta hisoblab chiqiladi (tanlov asosida), ularning shartnomalar asosida undirilayotganligiga ishonch hosil qilish maqsadida shartnomalarning tuzilishi, ularning shartnomada ko'rsatilgan foizlar bo'yicha undirilganligi tekshiriladn.

YUqoridagi tartibda bank daromadi barcha moddalarining har biri alohida tekshirilib, hisobotda aks ettiriladi.

Bank xarajatlari ham foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarga bo'linib, ularnng hissasi aniqlanadi va har bir qism bo'yicha hisobvaraqlar alohida tekshiriladi.

Talab qilib olinguncha dspozitlar (50100), jag'arma depozitlar (50000), muddatln depozitlar (51100) bo'yacha xarajatlar tuzilgan shartnomalar va foiz stavkalari bilan solishtirilgan holda tanlov asosida qayta hisoblab chiqiladi.

Olingan kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar (53100, 53600, 54100 va h.) ham yuqoridagi tartibda shartnomalar asosida tanlov yo'li bilan qayta hisoblab ko'riladi.

Komission xarajatlar va xizmatlir uchui xarajatlir (55100, 55300, 55800, 55900 va h.) oxirgi sanaga to'liq talqin qilinib), birlamchi hujjatlar bilan solishtirish yo'li bilan tekshiriladi.

Operatsion xarajatlar ham birlamchi xujjatlar asosida tasdiqlanadi, yani barcha hisobvaraqlar bo'yicha talqinlar talab qilinib, birlamchi xujjatlar bilan solishtiriladi.

Jumladan, 56100 - «Ish xaqi va xodimlarga boshqa xarajatlar» - hisobi bo'yicha ish xaqi jadvali bo'yicha o'rnatilishi, ularni hisoblanishi, to'lanishi, hamda ushlangan soliqlarning va ushlanmalarning to'g'riligi tekshiriladi. Xodimlarga qilingan boshqa xarajatlar ham qonuniy berilganligiga hisobotda izoh beriladi.

Qolgan barcha operatsion xarajatlarning har biri alohida yuqoridagi tartibda tekshirilib, hisobotda izoh beriladi.

Balansdan tashqari hisobvarqlar bo'yicha operatsiyalarni tekshirish natijalari ham hisobotda o'z aksini topishi zarur.

Bundan tashqari buxgalteriya hisobi va hisoboti amaliyotlarini tekshirishda filial tomonidan soliqlarning hisoblanishi va to'lanishi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 18 martda 677-son bilan ro'yxatga olingan Markaziy Bankning 98-V-sonli «O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan soliqlarni to'lash Tartibiga asosan to'liq qayta hisob-kitob qilib ko'riladi.

Bankning daromadliligi, birinchi navbatda, xarajatlarni kamaytirishga bog'liq. Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar joriy xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

Odatda, banklar o'z zimmasiga operatsiya xarajatlari, ustama foizlarga ketgan mablag'lar, shuningdek, kredit riski bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun ajratmalarni oladilar. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunga binoan mamlakatimizda hisoblash tamoyiliga asosan bank daromadlari va xarajatlari hisobga olinadi va hisobda aks ettiriladi. Tijorat banklari buxgalteriya hisobi boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar buxgalteriya hisobidan farq qiladi. Uni o'zining maxsus hisobvaraqlar rejasida mavjud va bank daromadlari va xarajatlari mana shu hisobvaraqlarda aks ettiriladi.

Respublikamiz yirik tijorat banklarida foizsiz daromadlar hajmidagi salmog'i 50 foizdan yuqori darajani tashkil etmoqda. Jahon banki ekspertlarining fikriga ko'ra, tijorat banklari yalpi daromadining kamida 70 foizi foizli daromadlardan tashkil topishi lozim.<sup>7</sup>

Tijorat banklari hisobvaraqlar rejasida xarajatlar 50000- 56902 hisobvaraqlarda aks ettiriladi. Dastlab foizli xarajatlar 50100-54904 hisobvaraqlarida aks ettiriladi. Ularning tarkibi quyidagicha:

- talab qilib olinguncha depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar
- jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar

---

<sup>7</sup> Jahon Banki axborotnomasi II bob 7-bet.

- muddatli depozitlar bo`yicha foizli xarajatlar
- O`zbekiston Respublikasi hisobvaraqlari bo`yicha foizli xarajatlar
- boshqa banklarning hisobvaraqlari bo`yicha foizli xarajatlar
- bankning tugallanmagan akseptlari bo`yicha foizli xarajatlar
- qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli xarajatlar
- uzoq muddatli kreditlar bo`yicha foizli xarajatlar
- chiqarilgan qimmatli aog`ozlar bo`yicha foizli xarajatlar
- qimmatli qog`ozlar bilan oshiriladigan REPO operatsiyalari bo`yicha foizli xarajatlar
- boshqa foizli xarajatlar

Tijorat banklari daromadlari va xarajatlarini audit qilishda har bir balans moddalari shaxsiy hisobvaraqlar aylanmalari bilan solishtirib chiqishdan boshlanadi. Auditor bankka kelgach dastlab bank bosh buxgalteridan bankning kunlik balansni so`raydi. Undagi qoldiqlarni birma-bir tekshirib chiqadi. Balans va uning moddalari shaxsiy hisobvaraqlar qoldiqlariga tengligi tekshirilgach, auditor dasturlar tengligini tekshirishni boshlaydi. Hamkorbank filialida IABS dasturi va RS\_Bank dasturlari ishlatiladi. Har bir berilgan kredit ikki dasturda ham bir xil kiritilishi va ulardagi qoldiq doimo teng bo`lishi lozim. Auditor har doim dastur bilan ish yuritadi. Uning ishchi dasturi taxminan quyidagicha bo`ladi:

**-jadval.**

#### **Daromadlar auditi ishchi dasturi(misol tariqasida)<sup>8</sup>**

<b>№</b>	<b>Tekshiruv bosqichlari</b>	<b>Talabga javob beradimi?(+:-)</b>
<b>1</b>	Shaxsiy hisobvaraqlar qoldig`i bilan balans qoldig`ini tekshirish	
<b>2</b>	Foyda va zararlar to`g`risidagi hisobot bilan shaxsiy hisobvaraqlar qoldig`ini mos kelishini tekshirish	
<b>3</b>	Daromadlarni tegishli hisobvaraqlarda aks ettirishni tekshirish	
<b>4</b>	Kelgusida kutilayotgan daromadni to`g`ri aks ettirilganligini tekshirish	

Daromadlar auditi amalga oshirilayotgan jarayonda auditor har bir daromad hisobvarag`i qoldig`ini to`g`ri va vaqtida aks ettirilganligini bilishi zarur. Audit jarayoni bir oy muddatgacha cho`zilishi mumkin. Bu vaqt auditor ishchi dasturi va filial faoliyati kattaligiga qaraladi. Auditor har bir shaxsiy hisobvaraqlar qoldig`ini

<sup>8</sup>Surkova M.A, Leshina E.A, Bagdanova N.A, Ryabova M.A “Аудит банков” o`quv qo`llanma . Ulyanovsk 2009-yil.



tekshirishga vaqt topolmaydi va shuning uchun tasodifiy tanlash ishlarini olib boradi.

Tanlash jarayoni odatda ma`lum muddat yoki ma`lum mijozlarni o`z ichiga oladi. Eng muhimi tanlanma tasodifiy bo`lishi. Auditor dasturda aks ettirilgan ketma-ketlikda o`z ishini olib boradi va tekshiruv natijasida o`z hisobotini shakllantiradi.

Dastlab auditor ishni O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 25.10.2004 yilda 1419-son bilan ro`yxatga olingan Nizomga asosan har bir daromad turini tekshirishni boshlaydi. Nizomning 2-ilovasida “Foyda va zararlar to`g`risida”gi jamlanma hisobotni har bir satri bo`yicha to`ldirilishiga e`tibor beradi. Dastlab auditor fozili daromadlarning to`g`ri aks ettirilganini tekshiradi.

▪ *Kreditlar bo`yicha foizli daromadlar.*

Bu satrda O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va boshqa banklarga berilgan kreditlardan tashqari barcha turdagi kreditlar bo`yicha foizli daromadlarning umumiy summasi, kreditlar bo`yicha hisoblangan vositachilik haqi hisobga olingan holda aks ettirilishi lozim. Auditor ushbu summani hisoblashda RS\_Bank va IABS dasturlaridagi:

- 41800 Hukumatga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 41900 Budjet tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 42000 Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 42100 Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 42200 Davlat korxonalar, tashkilot va muassasalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 42300 Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 42400 Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 42500 Bank bo`lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 42600 Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 43100 Respublika korxonalariga berilgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari bo`yicha foizli daromadlar
- 43600 Budjet tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar

- 43700 Bank bo`lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 43900 Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 44100 Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 44200 Hukumatga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 44300 Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 44400 Davlat korxonalar, tashkilot va muassasalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 44500 Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 44600 Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 44700 Sud jarayonidagi kreditlar bo`yicha foizli daromadlar

Hisobvaraqlar qoldiqlari va “Foyda va zararlar to`g`risida”gi hisobotning “Kreditlar bo`yicha foizli daromadlar” satrlari teng chiqishi kerak. Bordiyu bu tenglik bajarilmasa auditor sintetik hisobdan analitik hisobga o`tadi va har bir mijozning shaxsiy hisobvarag`i qoldig`ini hisoblab chiqadi. Bu satr va bu tur daromadlar bilan bog`liq asosiy kamchilik 2 turga bo`linadi.

1. Foizlarni hisoblash kunlarining mos kelmasligi. Buxgalter nazoratchi dasturlardagi tenglikni ta`minlashi zarur. Bordiyu ikki dasturda hisoblash kunlari farq qilsa, bu hisobvaraqlar bo`yicha jami qoldiq olingan vaqtda yaqqol ko`rinadi.
2. Foiz stavkasi bilan bog`liq xatolik, bu xatolik asosan foiz stavkalarini xato kiritilishi bilan bog`liq xatolikdir. Buning natijasida kreditlardan olinadigan foizli daromadlar ikki dasturda ikki xil summani tashkil etadi va auditor har bir shaxsiy hisobvaraqlarni tekshirishga majbur bo`ladi.

- *O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo`yicha foizli daromadlar .*

Bu satrni tekshirishda auditor banklararo hisob-kitoblarda muayyan bilimga ega bo`lish talab etiladi. Bu satrni tekshirishda auditor IABS dasturidagi

- 40200 O`zbekiston Respublikasi Markaziy Bankidagi hisobvaraqlar bo`yicha foizli daromadlar
- 40400 Boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo`yicha foizli daromadlar
- 41400 O`zbekiston Respublikasi Markaziy Bankiga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar

- 41600 Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar
- 44000 Boshqa banklarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo`yicha foizli daromadlar

Hisobvaraqlar qoldiqlarni yig`indisi bilan “Foyda va zararlar to`g`risida”gi hisobotning “O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo`yicha foizli daromadlar” satrlari summalari bir xil chiqishi lozim.

Bu tenglik bajarilmagan hollarda auditor har bir bankka berilgan har bir kredit turi bo`yicha qoldiq summalari yig`indisini hisoblab chiqishi lozim bo`ladi. Banklararo kreditlarni olish, berish ishlari bilan odatda bankning banklararo hisob-kitoblar bo`limi shug`ullanadi. Hamma bank muassasalarida ham bunday bo`lim yo`qligini hisobga olsak, filiallarda bu ishlarni filial boshqaruvchisi, bosh buxgalter bilan birga amalga oshiradi. Bu tur daromadlardagi xatoliklarga aynan shu operatsiyani bajargan bank xodimlari javobgar bo`ladilar.

- *Oldi-sotdi qimmatli qog`ozlar bo`yicha foizli daromadlar*

Bu turdagi foizli daromadlarni tekshirish uchun auditorndan bir qancha sohalar, qimmatli qog`ozlar va ular bilan bog`liq operatsiyalarni bilishi, bu tur daromadlarning o`ziga xos jihatlarni, qaysi hisobvaraqda aks ettirilishini, ulardan olinadigan daromadni hisobotning qaysi satrida va qachon aks ettirish kerakligini bilishi talab etiladi. Bu satrda savdoga mo`ljallangan va savdoga mo`ljallanmagan qimmatli qog`ozlar bo`yicha foizli daromadlar hisobga olinadi. Bu satrni tekshirishda auditor IABS dasturidagi :

- 40600 Oldi-sotdi qimmatli qog`ozlar bo`yicha foizli daromadlar
  - *Sotishga mo`ljallangan mavjud investitsiyalar bo`yicha foizli daromadlar*

Bu satrni tekshirishda auditor IABS dasturidagi:

- 40700 Sotishga mo`ljallangan qimmatli qog`ozlarga qilingan investitsiyalar bo`yicha foizli daromadlar
- 40800 Sotib olingan veksellar bo`yicha foizli daromadlar
- 44800 So`ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog`ozlarga qilingan investitsiyalar bo`yicha foizli daromadlar

Hisobvaraqlari qoldiqlari yig`indisi bilan “Foyda va zararlar to`g`risida”gi hisobotning “Sotishga mo`ljallangan mavjud investitsiyalar bo`yicha foizli daromadlar” satri summalari teng chiqishiga e`tiborini qaratishi lozim hisoblanadi. Bizga ma`lumki, mamlakatimizda veksell muomalasi bekor qilingan va bu satr barcha banklarda hozirgi kunga kelib hech qanday summani o`zida aks ettirmaydi.

- *REPO teskari bitimlar bo`yicha foizli daromadlar*

Bu satrda auditor REPO bitimlari bo`yicha sotib olingan qimmatli qog`ozlar bo`yicha hisoblangan foizli daromad aks ettirilishiga e`tiborini qaratadi. Bu satr to`g`ri hisoblanganini tekshirish uchun auditor IABS dasturidagi :

- 45000 Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli daromadlar hisobvarag'i qoldig'i hamda yuqoridagi satr tengligini bajarilishini tekshiradi.

- *Moliyaviy ijara bo'yicha foizli daromadlar*

Bu satr tog'riligini tekshirish uchun auditor dasturdagi:

- 45100 lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45101 boshqa banklarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45103 jismoniy shaxslarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45105 yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45107 davlat korxonalar, tashkilot va muassasalariga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45109 chet el kapitali ishtirokidagi korxonalariga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45111 nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45113 xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45115 bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45117 mudati o'tgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45119 shartlari qayta ko'rib chiqilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45121 sud jarayonidagi lizing bo'yicha foizli daromadlar.

Hisobvaraqlarning qoldiqlari yig'indisi va moliyaviy ijara bo'yicha foizli daromadlar satrini tengligini tekshirish kerak. Odatda lizing bo'yicha daromadlarni hisoblashdagi kamchiliklar kreditlarni hisoblashdagi xatoliklar bilan o'xshash bo'ladi.

- *Jami foizli daromadlar*

Bu satr foizli daromadlarni jami miqdorini ko'rsatadi. Bu satrni hisoblash uchun yuqoridagi foizli daromad satrlarining hammasi qo'shib chiqiladi.

Foizli daromadlar tekshirib bo'lingach auditor foizli xarajatlarni tekshirishni boshlaydi. Tekshiruv oldidan auditor xarajatlar auditining maxsus dasturini ishlab chiqadi va shu dastur asosida ishini olib boradi. Bu dastur taxminan quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

## **Xarajatlar auditining maxsus dasturi<sup>9</sup>**

Dastlab yuqoridagi kabi auditor balans hisobvaraqlari va shaxsiy hisobvaraqlar qoldig`ini tekshirib chiqadi. Ulardagi summalar mos kelgach, auditor Foyda va zararlar to`g`risidagi hisobot bilan shaxsiy hisobvaraqlar qoldiqlari mosligini tekshirib chiqadi. Bu tekshiruv foyda va zararlar to`g`risidagi hisobotning quyidagi satrlari asosida olib boriladi.

▪ *Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlarga foizli xarajatlar*

Bu tur xarajatlarni tekshirish uchun auditor depozit hisobvaraqlari va ular bo`yicha foizlarni hisoblash va ularni foyda va zararlar to`g`risidagi hisobotning tegishli satrida aks ettirilishini bilishi lozim. Auditor undan tashqari depozit shartlari, unga foizlarni hisoblash tartibi, depozit kapitalizatsiya qilinishi yoki qilinmasligini bilishi lozim. Auditor bu tur xarajatlarni tekshirishda 50100 hisobvaraqlarni qoldiqlari va “Foyda va zararlar to`g`risida”gi hisobotning quyidagi hisobvaraqlarining qoldiqlarini yig`indisini topishi lozim:

- 50101 Hukumatning budjetdan tashqari mablag`lari asosidagi talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50103 Respublika qaramog`idagi budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag`lari asosidagi talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50104 Mahalliy budjet qaramog`idagi budjet tashkilotlarining budjetdan

<b>№</b>	<b>Tekshiruv bosqichlari</b>	<b>Talabga javob beradimi?(+:-)</b>
<b>1</b>	Shaxsiy hisobvaraqlar qoldig`i bilan balans qoldig`ini tekshirish	
<b>2</b>	Foyda va zararlar to`g`risidagi hisobot bilan shaxsiy hisobvaraqlar qoldig`ini mos kelishini tekshirish	
<b>3</b>	Xarajatlarni tegishli hisobvaraqlarda aks ettirish Tekshirish	
<b>4</b>	Shaxsiy hisobvaraqlar qoldig`i bilan soliq hisobotlari mosligini tekshirish	
<b>5</b>	Kutilayotgan zararlarga tashkil qilingan rezervlarni to`g`riligini tekshirish	

tashqari mablag`lari asosida talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;

- 50105 Budjetdan tashqari fondlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;

<sup>9</sup> Surkova M.A, Leshina E.A, Bagdanova N.A, Ryabova M.A “Audit bankov” o`quv qo`llanma . Ulyanovsk 2009-yil.

- 50106 Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50107 Respublika yo`l fondining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50108 Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlarining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50110 Jismoniy shaxslarning plastik kartochkalaridagi mablag`lari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50111 Davlat korxonalar, tashkilot va muassasalarining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50114 Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50116 Nodavlat notijorat tashkilotlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50118 Yakka tartibdagi tadbirkorlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50121 Bank bo`lmagan moliyaviy muassasalarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50126 Boshqa mijozlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar.

- *Jamg`arma depozitlar bo`yicha foizli xarajatlar*

Auditor jamg`arma depozitlar bo`yicha foizli xarajatlarni tekshirish uchun dastrurdagi quyidagi hisobvaraqlarni tekshirishi lozim:

- 50601 Hukumatning budjetdan tashqari mablag`lari asosidagi jamg`arma depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50603 Respublika qaramog`idagi budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag`lari asosidagi jamg`arma depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50604 Mahalliy budjet qaramog`idagi budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag`lari asosidagi jamg`arma depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 50605 Budjetdan tashqari fondlarning jamg`arma depozitlari bo`yicha foizli xarajatlari;
- 50606 Jismoniy shaxslarning jamg`arma depozitlari bo`yicha foizli xarajatlari;
- 50607 Respublika yo`l fondining jamg`arma depozitlari bo`yicha foizli xarajatlari;
- 50608 Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlarining jamg`arma depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;

- 50611 Davlat korxonalar, tashkilot va muassasalarining jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50614 Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarining jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50616 Nodavlat notijorat tashkilotlarining jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50618 Yakka tartibdagi tadbirkorlarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari;
- 50621 Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 50626 Boshqa mijozlarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar.

Yuqoridagi hisobvaraqlar qoldiqlari va foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar summolari bir xil chiqishi lozim. Ular orasida farq bo'ladigan bo'lsa, auditor bu farq nimaga yuzaga kelganini topishi lozim. Xato kimningdir aybi bilan yuzaga kelsa, auditor aybdorni topishi va jazolashi lozim.

- *Muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar*

Salmoq jihatidan tijorat banklarining eng ko'p foizli xarajatlari aynan shu tur foizli xarajatlar hisobiga to'g'ri keladi. Bunga asosiy sabab, muddatli depozitlarning bank uchun barqaror resurs ekanligi hisoblanadi. Bu xarajatlarning auditor diqqat bilan tekshirishi lozim. Ularning ma'lum muddatga qo'yilishi va ular bo'yicha shartlarning to'g'ri bajarishi juda muhim hisoblanadi. Auditor dastlab muddatli depozitlarga foiz to'lash, ularning foiz stavkalari, muddatlari va depozit hisobvarag'i ochilgan kunga e'tibor berishi zarur. Dasturdagi 51100 "Muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar" satrini diqqat bilan tekshiruvdan o'tkazishi lozim. Auditor dasturdagi quyidagi hisobvaraqlar qoldiqlari va "Foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobotning muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar satri summolari bir xil chiqishiga e'tiborini qaratishi lozim:

- 51101 Hukumatning budjetdan tashqari mablag'lari asosidagi muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 51103 Respublika qaramog'idagi budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari asosidagi muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 51104 Mahalliy budjet qaramog'idagi budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari asosidagi muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- 51105 Budjetdan tashqari fondlarning muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari;
- 51106 Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari;
- 51107 Respublika yo'l fondining muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari;

- 51108 Xususiy korxonalar, xo`jalik shirkatlari va jamiyatlarining muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51111 Davlat korxonasi, tashkilot va muassasalarining muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51114 Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarining muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51116 Nodavlat notijorat tashkilotlarining muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51118 Yakka tartibdagi tadbirkorlarning muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51121 Bank bo`lmagan moliyaviy muassasalarning muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51126 Boshqa mijozlarning muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar.
  - *Hukumatga tegishli hisobvaraqlar bo`yicha foizli xarajatlar*

Agar bank hukumatning maxsus dasturiga tushgan bo`lsa, bankda hukumatning maxsus hisobvaraqlari joylashadi va shu hisobvaraqlar bo`yicha bank olingan resurs uchun foizli xarajatlar qiladi. Auditor bu resurslarga foizli xarajatlarni to`g`ri hisoblanganini tekshiradi.

- *O`zbekiston Respublikasi Markaziy Bankiga to`lanishi lozim bo`lgan hisobvaraqlar bo`yicha foizli xarajatlar*

Bu tur xarajatlar uchun auditor 51600 hisobvaraqlarni tekshirishi lozim. Bu hisobvaraqlar:

- 51601 Markaziy bankning vakillik hisobvarag`i bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51606 Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag`i bo`yicha foizli xarajatlar;
- 51611 Markaziy bankning depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar.

Bu hisobvaraqlarda bankning Markaziy bank bilan qilgan jami operatsiyalari natijasida qilingan jami xarajatlar hisobga olinadi.

*Boshqa banklarga to`lanishi lozim bo`lgan hisobvaraqlar bo`yicha foizli xarajatlar*

Har bir tijorat banki boshqa tijorat banklari bilan doimiy aloqada bo`ladi. ya`ni resurs oladi va aksincha resurs beradi. Mana shu resurslar uchun qilingan jami xarajatlar mana shu hisobvaraqlarda hisobga olinadi va aks ettiriladi. bu hisobvaraqlar quyidagilar:

- 52101 Boshqa banklarning vakillik hisobvarag`i bo`yicha foizli xarajatlar;
- 52106 Boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo`yicha foizli xarajatlar;
- 52111 Boshqa banklarning depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar.
  - *Boshqa qarz mablag`lari bo`yicha foizli xarajatlar*

Bu hisobvaraqlarda:

- bankning tugallanmagan akseptlari bo`yicha foizli xarajatlar (52600);



- qisqa muddatli kreditlar bo`yicha foizli xarajatlar bo`yicha foizli xarajatlar (53100);
  - uzoq muddatli kreditlar bo`yicha foizli xarajatlar (54100)
- turdagi foizli xarajatlar hisobga olinadi.

- *Chiqarilgan qarz qimmatli qog`ozlari bo`yicha foizli xarajatlar*
  - *Depozit sertifikatlari bo`yicha foizli xarajatlar*

Depozit sertifikatlari bo`yicha foizli xarajatlar- bank tomonidan muomalaga chiqarilgan depozit sertifikatlari uchun to`lanadigan foizlardir. Auditor ularni tekshirayotganda dastlab depozit sertifikatlari soni, muddati, ular bo`yicha to`lanadigan foiz stavkasi, ularning qaysi hisobvaraqda yuritilishi kabi omillarni inobatga olishi lozim.

- Chiqarilgan obligatsiyalar bo`yicha foizli xarajatlar
- Chiqarilgan veksellar bo`yicha foizli xarajatlar
- Chiqarilgan boshqa qimmatli qog`ozlar bo`yicha foizli xarajatlar
  - *REPO bitimlari bo`yicha foizli xarajatlar*

Bu xarajatlar qimmatli qog`ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo`yicha foizli xarajatlarni o`z ichiga oladi. Bu xarajatlar 54300 hisobvaraqlarda hisobga olinadi.

#### *Boshqa foizli xarajatlar*

Bu xarajatlar yuqorida keltirilgan birorta xarajat turiga kirmaydigan xarajatlar hisoblanadi. Ular 54902- boshqa foizsiz xarajatlar va 54904 –bosh bank/filialdan olingan mablag`lar bo`yicha foizli xarajatlardan iborat.

Foizsiz daromadlarni tekshirish uchun auditor “Foyda va zararlar to`g`risida”gi hisobotning “*Xizmatlar va vositachilik uchun olingan daromadlar*” satrini tekshirishdan boshlaydi. Bu satrda bankning O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa banklarga ko`rsatilgan xizmatlar uchun, akkreditivlar va akseptlar bo`yicha, overdraft bo`yicha ko`rsatilgan xizmatlardan vositachilik haqi va to`lovlar ko`rinishida hisoblangan daromadlar, kredit majburiyatlari bo`yicha, menejment bo`yicha, mahalliy va xorijiy to`lovlar bo`yicha, inkasso operatsiyalari bo`yicha ko`rsatilgan xizmatlardan daromadlar va vositachilik va xizmatlar uchun to`lovlar ko`rinishida boshqa daromadlar aks ettirilishi lozim.

“*Qaram xo`jalik jamiyatlari va qo`shma korxonalar foydasi*”- ushbu satr bo`yicha auditor qaram xo`jalik jamiyatlari va qo`shma korxonalar investitsiyalarining sotilishi yoki chiqib ketishi natijasida olingan foyda, shuningdek qaram xo`jalik jamiyatlari va qo`shma korxonalar sof foydasidagi bankning ulushi aks etirilishi lozim.

“*Savdo operatsiyalaridan olingan foyda*” bunda ma`lum turdagi aktivlarni sotish yoki boshqacha chiqib ketishi hisobiga olinadigan foyda hisobga olinadi.

“Valyuta operatsiyalaridan olingan foyda” valyutani sotish, sotib olish va valyuta bilan amalga oshiriladigan boshqa operatsiyalardan olinadigan foydani oʻzida aks ettiradi. Bu satrda

- 45401 “SPOT” bitimi boʻyicha xorijiy valyutalardagi foyda;
- 45405 Hosilaviy instrumentlar bilan tuzilgan bitimlar boʻyicha xorijiy valyutalardan foyda;
- 45409 Valyuta transaksiyalari boʻyicha foyda.

Hisobvaraqlar qoldiqlari yigʻindisi hisobga olinadi.

“Dividendlar koʻrinishidagi daromadlar”- ushbu satrda xususiy kapitalga qilingan investitsiya boʻyicha olingan dividendlar aks ettiriladi.

“Investitsiyalardan olingan foyda”- bu satr bankning qimmatli qogʻozlarga qilingan investitsiyalaridan olingan daromadlarni oʻzida aks ettiradi. Quyidagi hisobvaraqlarning qoldiqlari bu satrni tashkil qilishi lozim:

- 45801 Obligatsiya va boshqa qarz vositalariga qilingan investitsiyalarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda;
- 45803 Sotishga moʻljallangan qimmatli qogʻozlarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda;
- 45805 Soʻndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qogʻozlarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda.

“Sof pul moddalari boʻyicha foyda”- ushbu satrda inflyatsiya taʼsirini hisobga olish uchun hisobot moddalarini qayta hisoblash natijasi aks ettiriladi.

“Boshqa operatsion daromadlar”- ushbu satrga yuqoridagi satrlarga kiritilmagan daromadlar kiritiladi. Hozirgi kunda mamlakatimiz tijorat banklarining koʻpchilik qismida aynan foizsiz daromadlarning ulushi deyarli foizli daromadlarning ulushiga teng. Bu banklarning asosiy faoliyat turi hisoblanadigan operatsiyalardan kam daromad olayotganligini anglatadi. Ushbu satr:

- 45901 Bankning asosiy vositalari ijarasidan olingan daromadlar;
- 45905 Bankning boshqa koʻchmas mulkka qilingan investitsiyalardan olingan daromadlar;
- 45909 Bankning asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda;
- 45913 Bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan daromadlar;
- 45921 Hisobdan chiqarilgan mablagʻlarining qaytarilishi;
- 45994 boshqa foizsiz daromadlar hisobvaraqlar qoldiqlarini oʻzida aks ettiradi.

Foizsiz xarajatlarni tekshirishda auditor quyidagi hisobvaraqlar qoldiqlariga eʼtiborini qaratadi.

- 55100 Vositachilik xarajatlari
- 55300 Xorijiy valyutadan ko`rilgan zarar
- 55600 Tijorat operatsiyalaridan ko`rilgan zarar
- 55700 Qaram xo`jalik jamiyatlariga, qo`shma korxonalariga va sho`ba xo`jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalardan ko`rilgan zararlar
- 55800 investitsiyalardan ko`rilgan zararlar
- 55900 Boshqa foizsiz xarajatlar

Banklar o`z operatsion xarajatlarini ularning bosh banki tomonidan bir yil uchun tasdiqlangan va xabar berilgan smeta assignovaniyalari doirasida amalga oshiradilar.

Bankning operatsion xarajatlari smetasi bo`yicha kreditlarni bank rahbari tasarruf etadi. Bank rahbari bank bo`yicha buyruq chiqarib, smeta assignovaniyalarini tasarruf etish huquqini o`z muoviniga ishonib topshirishga haqlidir. Respublika banki raisi ham buyruq chiqarib smeta bo`yicha assigniyalarni tasarruf etish huquqini o`zining birinchi muoviniga berishi mumkin. Biroq, smeta bo`yicha assignovaniyalarni tasarruf etish huquqini boshqa shahsga berib qo`yish bilan bank raisini uning smeta intizomi ahvoli uchun qonunda belgilangan shaxsiy javobgarlikdan ozod qilmaydi. Smeta assignovaniyalari, shu jumladan kelgusi davrlar xarajatlari hisobidan mablag` sarflash uchun hujjatda kreditlar tasarruf etuvchisining ijozat imzosi bo`lishi shart.

Bankning operatsion xarajatlari uchun ajratilgan smeta assignovaniyalari hisobot yilining 31 dekabrigacha amal qiladi. Tugagan yilda amalda qilingan barcha xarajatlar 31 dekabrigacha o`tkazilishi lozim.

Bankning operatsion xarajatlari hisobi banklar tomonidan balansda quyidagi tegishli hisobvaraqlar yuritiladi: "Ish haqi va xodimlar uchun boshqa xarajatlar", "Ijara va saqlash", "xizmat safari va transport xarajatlari", "Ma`muriy xarajatlar" va shu kabilar. Bu hisobvaraqlarga faqat hujjatlar bilan tasdiqlangan va amalda qilingan xarajatlar kiritiladi.

Kelgusi yillar smetalari hisobidan bankning operatsion xarajatlari uchun qilinadigan xarajatlar hisobi "Puli oldindan to`langan xarajatlar" hisobvarag`ida yuritiladi.

Bu hisobvaraqa yil oxirida ta`tilga ketadigan xodimlarga to`langan ish haqi, xususan kelasi yilga taalluqli to`lovlar, kelasi yil uchun gazetaga obuna bo`lish xarajatlari, kelgusi yillar smetalari hisobidan o`rni qoplanishi kerak bo`lgan ijara olingan binolarni kapital ta`mirlash xarajatlari summasi va shu kabilar o`tkaziladi.

Tijorat banklari daromadlari va xarajatlari auditori bo`yicha tuziladigan auditor hisoboti har bir filialda o`tkazilgan auditorlik tekshiruvidan keyin aniqlangan kamchiliklar, yo`l qo`yilgan xatoliklar va ularni to`g`rilash bo`yicha ko`rsatmalarni o`z ichiga oladi. Audit tekshiruvi natijalarini maxfiy saqlash bank

uchun juda muhim hisoblanadi. Tijorat banklari daromadlari va xarajatlari auditi bo'yicha tuziladigan auditorlik hisoboti jami auditorlik hisobotining bir qismi hisoblanadi. Unda daromadlar va xarajatlarni hisobga olish, hisobda yuritish, foizlarni hisoblash kabi satrlar mavjud bo'ladi. Auditorlik hisoboti uch qismdan iborat bo'ladi.

- Kirish qismi
- Tahliliy qism
- Xulosa qismi

Kirish qismida auditorlik tekshiruvlari qaysi sanalarda, bankning qaysi bo'limlarida, kimlar tomonidan o'tkazilganligi, balansning qaysi moddalari tekshirilganligi ko'rsatiladi.

Tahliliy qismda esa bankning daromadlari va xarajatlari miqdori, ularni hisobga olish va hisobda yuritishning o'ziga xos jihatlari, bankning daromadlari va xarajatlari to'g'ri hisoblanganligi, tegishli hisobvaraqda aks ettirilganligi, xatoga yo'l qo'ygan mas'ul shaxslar, ularni to'g'rilash muddati, xatoliklar yuzasidan bankka keltirilgan zarar miqdori kabi ko'rsatkichlar aks ettiriladi.

Xulosa qismida bankning umumiy faoliyatiga baho beriladi va bankning faoliyati bo'yicha o'tgan yilga nisbatan erishilgan yutuqlar, kamchiliklar to'liq bayon etiladi. Xulosa faqatgina auditorlik qo'mitasi va u orqali bank Kengashiga taqdim etiladi.

**jadval.**

**“A” bankida o'tkazilgan auditorlik tekshiruv natijalari to'g'risida<sup>10</sup>**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>IABS dasturi bo'yicha</b>	<b>Auditor hisobi bo'yicha</b>	<b>Farq</b>	<b>Izoh</b>
Foizli daromadlar	898 560	898 560	0	
Foizli xarajatlar	548 505	547 495	-1 010	
Foizsiz daromadlar	462 750	462 750	0	
Foizsiz xarajatlar	150 426	150426	0	
Operatsion xarajatlar	360 495	360 496	1	
Soliqlar	78 523	78 523	0	
Ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi maxsus zaxira	7 900	7 900	0	

Jadvaldan ko'rinadiki, bankning foizli xarajatlarini hisoblanishida xatolik mavjud. Bu xatolik miqdori 1 011 ming so'mga teng bo'lgan. Ya'ni bosh hisobchi depozitlar uchun foizlar hisoblanishida va operatsion xarajatlarni hisoblashda

<sup>10</sup> “A” tijorat banki auditorlik tekshiruvlari asosida tayyorlandi.

xatolikka yo'l qo'yilganligini sezmagani. Auditor dasturni birma-bir ko'zdan kechiradi va xatoga yo'l qo'ygan bank xodimini topadi. Bizning jadvaldagi xatoga yo'l qo'ygan bank xodimi bankning omonat bo'limi nazoratchi buxgalteri bo'lib chiqdi. U mijozning 31 mln so'm omonatini dasturga kiritayotganda xatoga yo'l qo'ygan ekan. Bu bo'yicha dalolatnoma tuziladi va mijozga to'lanishi lozim bo'lgan 1 010 ming so'm to'lab berilishi lozim. Bank yordamchi buxgalteri tomonidan xodimlarning xizmat safari bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan 1 ming so'm mablag'i noto'g'ri hisoblanagan va buni bank xodimiga to'lashi zarur.

Bankda o'tkazilgan audit natijalari dalolatnomasi ikki nusxada tuziladi. Uning birinchi nusxasi filialda qoldirilsa, ikkinchi nusxasi bosh bankka olib boriladi. Bu nusxa bank Kengashiga taqdim etiladi. Bank Kengashi esa uni belgilangan tarzda ko'rib chiqadi va boshqaruvning tegishli departamentlaridan bu mauammoni hal qilishni talab qiladi. Bank departamenti bu talabni tegishli tarzda bajaradi va bajarilgan ishlar yuzasidan bank Kengashiga axborot beradi. Bu jarayon audit natijalari realizatsiyasi deb nomlanadi.

Bank auditida audit natijalari realizatsiyasi muhim ahamiyatga ega. Bank auditi natijalari realizatsiyasi bankda ishlamayotgan yoki xato ishlayotgan xodimlari topishda va ularga yordam berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Unga tegishli departament orqali ta'sir o'tkaziladi va yo'l qo'yilgan xatoliklarni to'g'rilash uchun maxsus topshiriqlar beriladi.

Bank auditi shunisi bilan muhimki, auditor tomonidan aniqlangan xato va kamchiliklar to'g'rilash uchun bank Kengashiga taqdim etiladi. Bank kengashi esa topilgan xatoliklarni to'g'rilash uchun bank boshqaruviga ko'rsatmalar beradi. Bu jarayon bankda yaxshi ishlamayotganlarni jazolash, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish, qilingan xatoliklarni qayta qilmaslikni o'rgatadi.

## **7 mavzu. Debitorlar, kreditorlar va qimmatli qog'ozlar auditi**

Reja:

- 1. Bank debitor va kreditorlar holatini audit qilish tartibi**
- 2. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar auditi**

### **1. Bank debitor va kreditorlar holatini audit qilish tartibi**

Debitor va kreditor qarzlari holati bo'yicha tekshirish:

Filial tomonidan to'lovsizliklarni kamaytirish, to'lov intizomini mustahkamlash borasida qilingan ishlarga baho berish uchun quyidagilarga e'tibor beriladi.

•mol jo‘natuvchilardan yoki to‘lovchilardan bo‘lgan qarzlarning o‘sib borish sabablariga:

•favqulotda ko‘mita ishiga baho berish: yagona moliyaviy hisob-kitob kunlarining o‘tkazilishiga:

•joylarda debitor va krsditor qarzar bo‘yicha tekshirishlar o‘gkazilishiga:

•har oyda tashkilotlardan dsbitor va kreditor qarzar bo‘yicha talqinlar, muddati o‘tgan qarzlarga taqqoslama dalolatnomalarining talab qilib olilnshi ahvolga.

•O‘zbekiston Rsspublikasi Prezidentining 1995 yil 12 may va 1999 yil 24 yanvardagi to‘lov intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari borasidagi va boshqa farmon hamda qarorlarning bajarilishi ustidan nazoratning qanday yo‘lga qo‘yilganliga va h.

Bank kapitali va qimmatbaho qogozlar bo‘yicha ishlarni tekshirish. Ushbu ishlarni tekshirish bankda ustav kapitalinn ko‘paytirish borasida qilingai ishlarga baho berish va bo‘limga o‘rnatilgai me‘yor va uning haqiqatda bajarilishi tahlil qilish bilan boshlanadi. Aksiyadorlar restrlarining yuritilishi, akqnonsrlar shaxsiy yig‘ma jildlarnnnng rasmiylashtirilishi, ular bilai shartnomalar tuzilishi ahvoli to‘liq tekshiriladi. Bundan tashkari aksiyadorlik kapital bilan boshka buxgalteriya operatsiyalari qonuniyligi ham tekshirilishi shart.

## **2. Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar auditi**

Qimmatli qog‘ozlar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalar auditining maqsadi:

1. Bank qimmatli qog‘ozlari bilan operatsiyalari hisobini qonun va me‘yorlar talablari darajasida amalga oshirayotganligiga amin bo‘lish

2. Qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisidan tushgan daromad(xarajatlarni) o‘z vaqtida daromadlar (xarajat) hisobvarag‘ida aks ettirilganligini aniqlash

3. Qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilmalar hisobini hisobvaraqdagi qoldig‘ini tasdiqlash

*Tekshiruv manbalari:*

- balans

- shaxsiy hisobvaraqdan ko‘chirma

-kunlik qoldiq qiymat

-investitsiyalarning taqsimlanishi

-qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha hisobot

Auditor tomonidan filialda qimmatli qog‘ozlar auditi ko‘paytirish imkoniyatlari urganib chiqilib, zarur tavsiyalar berish talab qilinadi. Bank kapitalini tekshirishda aksionerlarga dividendlar hisoblanishi va to‘lanishi ham bir yo‘la tekshirib ko‘riladi.

Bulardan tashqari ushbu bo‘limni tekshirishda quyidagilarga e‘tibor qaratiladi:

- aksiyadorlardan kelib tushgan so‘roklarni o‘rganib chiqish, ularga javob tayyorlash;
- fond portfeli bo‘yicha hisobotlarni o‘z vaqtida tayyorlanishi va kerakli joylarga berilishi;
- davlat qisqa muddatli obligaqiyalari bo‘yicha operatsiyalarning balansda to‘g‘ri aks ettirilishi va qayta baholanishi;
- sotib olingan aksiya paketlari emitentlarining moliyaviy ahvolini o‘rganish jarayonidagi tahlillarning mavjudligi;
- fond portfeli yig‘ma jildidagi hujjatlarning to‘liqligi (emitent balansi, moliyaviy natijalar bo‘yicha hisobotlar, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarorlarining mavjudligi.);
- hisoblangai dividendlarni undirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ahvoli;
- birja va birjadan tashdari savdodagi bitimlar bo‘yicha tuzilgan shartnomalarning holati, yuridik ekspertizadan o‘tkazilganlik darajasi;
- qimmatli qog‘ozlar operatsiyalaridan kutilayotgan zararlarga zahiralarning yaratilishi va boshqalar.

**Tijorat banklarida qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar quyidagi me‘yoriy hujjatlar orqali tartibga solinadi:**

-”Auditorlik faoliyati to‘risida”gi qonun.2007 yil 17 dekabr

-”Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi” qonun.1996 yil 30 avgust

-”Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog‘ozlar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida” nizom 2008 yil 27 dekabr

-”Tijorat banklarida qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” yo‘riqnoma 2008 yil 13 dekabr

I. O‘z bilimni tekshirish bo‘yicha savollar

1. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan aktiv operatsiyalarining hisobi qanday tekshiriladi?

2. Tijorat banklarining investitsion faoliyati nimadan iborat?

3. bankning karz majburiyatlari va aksiyalariga kuyilmalar kandy tartibda tekshiriladi?

4. Bank tomonidan bunday amalga oshiriladigan operatsiyalarining daromadligi darajasi qanachlik samara beradi?

5. Depozit sertifikatlari nima uchun chiqariladi va u bo‘yicha foiz tulashni tekshirishda nimalarga e‘tibor karatish lozim?

## **8-mavzu. Valyuta operatsiyalari auditi**

### **Reja:**

#### **1. Chet el valyutasidagi bank operatsiyalarini audit qilish tartibi**

#### **2. Ayiraboshlash shaxobchalarini audit qilish tartibi**

Chet el valyutasidagi bank operatsiyalarini audit qilish tartibi O'zR MB Boshqaruvi hamda O'zR Moliya vazirligining chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirish va nazorat etishni tashkil qilish tartibi to'g'risidagi ko'rsatmalariga qat'iy rioya etilishiga e'tibor beriladi.

"Naqd chet el valyutalari" nomli balansdagi 10511-hisobvaraqa debeti bo'yicha quyidagilar jujjat asosida audit qilinadi:

- a) muomalada bo'lgan naqd chet el valyutasini va to'lov hujjatlarini harid qilishga oid qoidalariga rioya qilinishi, O'zR MB ning operatsiya amalga oshirilayotgan kunda amalda bo'lgan kursi ko'llanishi va to'lanishi lozim bo'lgan sumdagi ekvivalentini aniqlash to'g'riligi va o'z vaqtida amalga oshirilishi;
- b) hamdo'stlik mamlakatlari naqd valyutasini sotib olishning belgilangan qoidalarga rioya qilinishi;
- v) chet el valyutasini hamda valyutadagi hujjatlarni sotib olish operatsiyalari 378-shakldagi ro'yhatda o'z vaqtida to'g'ri aks ettirilishi;
- g) 377-shakldagi ma'lumotnoma to'g'ri rasmiylashtirilishi va tegishli nusxalari mijozlarga berilishi;
- d) harid qilingan Naqd chet el valyutasi hamda valyutadagi to'lov hujjatlari to'liq va o'z vaqtida kirim qilingani. Tekshiruv valyuta va cheklar, to'lov hujjatlarini sotib olishda yozib beriladigan 377-shakldagi ma'lumotnomani 378-shakldagi ro'yhat yozuvlariga qiyoslash orqali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, harid qilingan chet el valyutasi hamda valyuta hujjatlari to'liq kirim qilingani xorijiy fuqarolar ishlatilmagan sumlarni valyutaga ayirboshlaganiga bog'liq holda audit qilinayotgan bank muassasasiga qaytarilgan 377-shakldagi ma'lumotnomaning birinchi nusxalari bo'yicha audit qilinadi, buning uchun tegishli kundagi shu ma'lumotnomalarning dalillari 378-shakldagi ro'yhat bilan taqqoslanadi;

- e) tashkilotlar va muassasalar, shuningdek, bankning ayirboshlash punktlari topshirgan chet el valyutasi va pul cheklari to'liq kirim qilingani. Inkassatorlar keltirgan xaltalardagi chet el valyutasi qayta sanalishi tartibiga rioya qilinishi;
- j) boshqa bank muassasalaridan inkassatorlar orqali kelgan chet el valyutasi va chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari to'liq kirim qilingani. Aloqa organlaridan chet el valyutasi bo'lgan jo'natmalarni olish tartibiga rioya qilinishi (xabarnomalar qayd etilishi, ishonchnomalar berilishi, boyliklar kirim qilinishi ustidan nazorat).

10511-hisobvaraqaqning kredit qismi bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarni audit qilishda quyidagilar audit qilinadi:

- a) rezidentlariga chet el valyutasi va chet el valyutasidagi to'lov hujjatlarini sotishning amaldagi qoidalari va me'yorlariga rioya etilishi, sotiladigan valyuta summasi hisob-kitob qilinganining to'g'riligi;



- b) chet el valyutasini sotish operatsiyalari sotilgan Naqd chet el valyutasi hisobini yuritish bo'yicha 394-shakldagi daftarda o'z vaqtida va to'g'ri qayd etilishi;
- v) 391-shakldagi ma'lumotnoma to'g'ri rasmiylashtirilishi va tegishli nusxalari mijozlarga berilishi;
- g) sotiladigan valyuta ayirboshlash punktining sotilgan chet el valyutasi hisobini yuritish daftarida to'g'ri ko'rsatilgani;
- d) chet el valyutasini Respublikadan tashqariga olib chiqish uchun 800-shakldagi ruxsatnoma to'g'ri rasmiylashtirilgani, valyuta sotilganda vositachilik haqi undirilgani;
- e) xizmat safari xarajatlari uchun tashkilotlar va korxonalariga chet el valyutasi sotishning belgilangan tartibiga rioya qilinishi;
- j) chet el valyutasi va chet el valyutasidagi to'lov hujjatlarini O'zbekistan Respublikasining boshqa banklariga yoki bevosita chet el bankiga jo'natish bo'yicha operatsiyalarning to'g'riligi va asosli
- d) belgilangan hollarda foizlar to'g'ri hisoblangani va hisobvaraqlar, bo'yicha bajarilgan operatsiyalar uchun vositachilik haqi undirilgani.

29802-balans hisobvarag'ida chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalar hujjatlar asosida audit qilinadi:

- a) mablag'lar 29802-hisobvaraqlarning kreditiga kiritilgani asosli ekanligi (qayd etilgan yozuvlar banklarning kredit avizolari, bevosita chet el banklaridan kelgan pul jo'natmalari yoki xorijdan yuborilgan jo'natmalar egasining manzili o'zgarganida muassasalar beradigan kredit avizolari bilan tasdiqlanishi);
- b) jo'natmani oluvchilarga mablag' to'lashning qonuniyligi, belgilangan hollarda naqd valyuta omonatlarga yo'naltirilgan jo'natmalar hisobidan sotilishi.

Naqd chet el valyutasi va to'lov hujjatlari bilan bog'liq inkasso operatsiyalari bo'yicha quyidagilar hujjatlar asosida audit qilinadi:

- a) rezident va norezidentlardan naqd chet el valyutasi va to'lov hujjatlarini sumda, hamda chet el valyutasida inkasso uchun qabul qilishning to'g'riligi;
- b) inkasso operatsiyalarining to'g'ri rasmiylashtirilishi, hamda 90972-hisobvaraqlarda hisobga olinishi;
- v) inkasso uchun qabul oshirishning qonuniyligi audit qilinadi:

a) nazorat va ma'lumot tusidagi materiallar (chet el valyutasi bo'yicha malumotnomalar, chet el valyutasi va sumdagi to'lov hujjatlarining namunalari, operatsiya o'tkazish qoidalari va hokozolar) borligi, hamda ulardan amaliy ishda foydalanish, Aynan shu masala ayirboshlash punktlarida ham audit qilinadi;

b) hisobot sanalarida chet el valyutasi qayta baholanishi va kursdagi fark tegishli xisobvaraqlarga o'tkazilishining to'g'riligi.

Chet el valyutasining sumdagi ekvivalentini aniqlashda kursdagi fark, noto'g'ri ko'rsatilishiga pul qo'yilganini yashirish maqsadida muayyan hisobvaraqlarga o'tkazilishi mumkin bo'lmagan kursdagi farqlar summasi shchu hisobvaraqlarga noqonuniy tarzda o'tkazilgani;

v) valyuta operatsiyalari bajarilgani uchun yuridik va jismoniy shaxslarning hisobvaraqlaridan bankning vositachilik haqi amaldagi tariflarga muvofiq to'g'ri undirib olingani. Bu summalar bank daromadiga to'liq va o'z vaqtida o'tkazilgani. Chet el valyutasini sotib olishda vositachilik haqining miqdoriga rioya etilishi;

g) Naqd chet el valyutasi bilan operatsiya o'tkazuvchi kassirlarning ish o'rinlari jixozlanishi, valyuta boyliklari hisob berish sharti bilan topshirilishi, kassirlar o'rtasida biridan ikkinchisiga berilishi, saqlanishi, dastalanishi va urab boglanishi, valyuta boyliklaridagi kamomadni qoplash tartibi, tusatdan audit o'tkazish va chet el valyutasini nazorat tarzida qayta sanash to'g'riligi;

d) qat'iy hisobda turadigan blankalar hisobini yuritishdagi ahvol va ulardan foydalanish ustidan nazorat;

e) valyuta operatsiyalarini o'tkazishga asos bo'lib xizmat qiladigan hujjatlarni rasmiylashtirishning sifati, ya'ni ular uchirib yozilgan, qo'shimcha kiritilgan, mumkin bo'lmagan usulda tuzatilgan yoki mijozlar nomidan bank (ayirboshlash punkti) xodimlari, shuningdek boshqa shaxslar tomonidan imzolangan hollar bor-yo'qligi.

Shunday hujjatlar borligi aniqlangan taqdirda ular (zarur hollarda mutaxassis ekspertlarni jalb etib) sinchiklab tekshirilishi hamda valyuta va boshqa boyliklarni talon-taroj qilish maqsadida kalbakilashtirilgan bo'lsa, tergov organlariga topshirish uchun belgilangan tartibda olib qo'yiladi;

j) bank muassasalari va ayirboshlash punktlari rezident hamda norezidentlarga uzluksiz va sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlashi, mijozlarga xizmat ko'rsatishning belgilangan soatlariga rioya qilishi;

z) valyuta operatsiyalarini bajaruvchi va ularni nazorat etuvchi shaxslarni ishga qabul qilish qoidalariga rioya etilishchi, ularning shaxsiy yig'ma jildlari mavjud nizomga muvofiq rasmiylashtirilishi. Xodimlar bajarilayotgan operatsiyalarga doir amaldagi me'yoriy hujjatlarni bilishlari;

i) bank muassasalarida valyuta qilingan boyliklar va to'lov hujjatlari, shuningdek, qoplash summasi kechikkan hollarda banklarga so'rovnomalar o'z vaqtida jo'natilishi;

g) inkasso qilingan boyliklar uchun mijozlar bilan hisob-kitob olib borilishi tartibiga rioya etilishi. i va diplomatik vakolatxonalarini nomlga davlat valyutasida hisobvaraqlar ochishning, shuningdek, davlat tashkilotlari nomiga xalqaro s'ezdlar, kongresslar va boshqa xil xalqaro kengashlar qatnashchilaridan tushadigan badallar hisobini yuritish uchun hisobvaraqlar ochishning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yo'riqnomasi bilan belgilangan tartibiga, hamda shu hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish qoidalariga rioya etilishi hujjatlar asosida audit qilinadi.

"Saqlanayotgan qimmatbaho buyumlar" nomli 93609-balans hisobvarag'i bo'yicha quyidagilar hujjatlar asosida audit qilinadi:

- kelib tushgan yo'l cheklari va yirtma cheklar hamda 377-shakldagi ma'lumotnoma blankalari kiringa to'liq kiritilgani, cheklar bo'yicha esa ular hisobdan chiqarilishining asosli ekanligi;

Balansdagi 10301, 10305, 10511, 10515, 19909, 29802, 40301, 40501, 50402 va 50502-hisobvaraqlar bo'yicha valyuta operatsiyalarini amalga operatsiyalarini amalga oshirishni bank ichida nazorat qilish to'g'ri yo'lga qo'yilgani, hamda valyuta operatsiyalari keyin tekshirilishining ahvoli;

k) valyuta operatsiyalari bo'yicha hisob-kitob-pul hujjatlari rasmiylashtirilishi va saqlanishi qoidalariga rioya etilishi;

l) valyuta operatsiyalari bo'yicha daromad va xarajatlarning hisoblanishi va hisobning to'g'ri olib borilishi.

Bosh boshqarmalarni audit qilish jarayonida rezident va norezidentlarga valyuta xizmati ko'rsatish bo'yicha ayirboshlash punktlarining ishi ham audit qilinadi.

Tekshiruv ayirboshlash punktlari va karashli bo'lgan bank muassasasi xodimlari uchun ham, ayirboshlash punktlari xodimlari uchun ham ko'tilmagan bo'lishi kerak.

## **2. Ayirboshlash shaxobchalarini audit qilish tartibi**

Ayirboshlash punktida milliy va xorijiy valyuta, valyutaga doir to'lov hujjatlari, qat'iy hisobda turadigan blankalar va boshqa boyliklar borligini bevosita auditorning o'zi ayirboshlash punkti xodimlari ishtirokida, 2 - bobida ko'zda tutilgan chiqadi. Naqd pul va muassasasiga tegishli navbatdagi hisobot jo'natilganidan keyin amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha summalarni hisobga olgan holda qiyoslanadi.

Ayirboshlash punktlarida naqd boyliklarni tekshirish bilan bir qatorda quyidagilar aniqlanadi:

a) Ayirboshlash punktini tashkil etish to'g'risida tegishli hujjatlar (bank boshqarmasining ayirboshlash punkti amalga oshirishi mumkin bo'lgan operatsiyalar, ayirboshlash punktata rahbarlik va uning faoliyatini nazorat qilish zimmasiga yuklatilgan mansabdor shaxslar ro'yhati ilova qilingan buyrug'i) borligi, bitta xodim ishlaydigan ayirboshlash punktlarida esa u amalga oshirishi ruxsat etilgan valyuta operatsiyalari to'g'ri bajarilayotgani;

b) Naqd chet el valyutasi va to'lov hujjatlarini sotib olish hamda ishlatilmagan summlarni chet el valyutasiga qayta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalariga rioya etilishi. Tekshiruv o'tkazilgan kunda harid qilingan valyuta va to'lov hujjatlari o'z vaqtida va to'liq qayd etilgani.

Mavjud pul chet el valyutasi va boshqa boyliklar audit uchun to'liq, taqdim etilganini aniqlash maqsadida ular ayirboshlash punktlarining ombor (javn)lari va xodimlarning stoli galadonlarida qolib ketmaganini tekshirish zarur;

v) ayirboshlash punktlari muxofazalashning texnik vositalari va telefon bilan jixozlangani, pul omborlari bilan ta'minlangani, har bir kassirda plombir va bankning to'rtburchak muxri borligi, ularni saqlash qoidalariga rioya qilinishi;

g) ayirboshlash punktlari milliy valyuta va chet el valyutasi, yo'l cheklari, qat'iy hisobda turadigan blankalar (377-shakldagi ma'lumotnomalar va 0402004-shakldagi kvitansiya daftarlari, valyutani chetga olib chiqish uchun beriladigan ruxsatnomalarning blankalari) bilan o'z vaqtida va zarur miqdorda taminlanishi;

d) boyliklar va hujjatlar ayirboshlash punktlariga etkazib berilishi qoidalariga rioya qilinishi, ular ayirboshlash punktlaridan bank muassasalariga o'z vaqtida va to'liq olib ketilishi. Boyliklar yo'lda saqlanishining ahvoli;

e) boyliklar va qat'iy hisobda turadigan blankalar (shu jumladan, kassirlar vaqtincha bo'lmagan paytda), shanba va yakshanba kunlari operatsiya o'tkazish uchun olingan milliy valyuta va chet el valyutasidagi bo'nak saqlanishi qoidalariga rioya etilishi;

j) ayirboshlash punktining yakunlangan ish kuni to'g'risidagi hisoboti berilishi muddatiga va boylıklar KOLDIRI bank muassasasiga yoki inkassatorlarga topshirilishi qoidalariga rioya qilinishi. hisobot tuzilishi to'g'riligi va uni asoslovchi hujjatlar borligi, hisobotda ko'rsatilgan operatsiyalar bank muassasasi balansida to'liq va o'z vaqtida aks ettirilishi;

z) ayirboshlash punktlarida pul summaları ortiqcha va kam chiqishi, buning sabablari, shunday dollar yuzasidan ko'riladigan chora-tadbirlar;

i) ayirboshlash punktlarini muntazam suratda to'satdan audit qilib turish va audit natijalarini ko'rib chiqish.

Ayirboshlash punktlarini audit qilish natijalari bo'yicha dalolatnoma tuziladi. Unda milliy valyuta, chet el valyutasi va to'lov hujjatlari, shuningdek, qat'iy hisobda turadigan blankalar borligi hamda ular bank muassasasining buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga mos kelishi, ayirboshlash punktlari muxofazalashning texnik vositalari bilan qay darajada jixozlangani, fuqarolarga valyuta xizmati ko'rsatish operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga rioya k;ilinishi va auditorning ixtiyoriga ko'ra boshqa masalalar ko'rsatib o'tiladi.

Toshkent shahar Bosh boshqarmasida chet el valyutasidagi bank operatsiyalarini audit qilish jarayonida eksport-import shartnomalarini to'g'ri ro'yhatga olish va uni bajarilishi qonuniyligi, eksport shaotnomalari bo'yicha mablag'larning o'z vaqtida kelib tushishi, kelib tushgan chet el valyutalari bo'yicha majburiy to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishi tekshchiriladi. Bundan tashqari, chet el oshirishni bank ichida nazorat qilish to'g'ri yo'lga qo'yilgani, hamda valyuta operatsiyalari keyin tekshirilishining ahvoli;

k) valyuta operatsiyalari bo'yicha hisob-kitob-pul hujjatlari rasmiylashtirilishi va saqlanishi qoidalariga rioya etilishi;

l) valyuta operatsiyalari bo'yicha daromad va xarajatlarning hisoblanishi va hisobning to'g'ri olib borilishi.

Bosh boshqarmalarni audit qilish jarayonida rezident va norezidentlarga valyuta xizmati ko'rsatish bo'yicha ayirboshlash punktlarining ishi ham audit qilinadi.

Tekshiruv ayirboshlash punktlari va karashli bo'lgan bank muassasasi xodimlari uchun ham, ayirboshlash punktlari xodimlari uchun ham ko'tilmagan bo'lishi kerak.

Ayirboshlash punktida milliy va xorijiy valyuta, valyutaga doir to'lov hujjatlari, qat'iy hisobda turadigan blankalar va boshqa boylıklar borligini bevosita auditorning o'zi ayirboshlash punkti xodimlari ishtirokida, 2 - bobida ko'zda tutilgan chiqadi. Naqd pul va muassasasiga tegishli navbatdagi hisobot jo'natilganidan keyin amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha suxmalarni hisobga olgan holda qiyoslanadi.

Ayirboshlash punktlarida naqd boylıklarni tekshirish bilan bir qatorda quyidagilar aniqlanadi:

a) Ayirboshlash punktini tashkil etish to'g'risida tegishli hujjatlar (bank boshqarmasining ayirboshlash punkti amalga oshirishi mumkin bo'lgan operatsiyalar, ayirboshlash punktata rahbarlik va uning faoliyatini nazorat qilish zimmasiga yuklatilgan mansabdor shaxslar ro'yhati ilova qilingan buyrug'i)

borligi, bitta xodim ishlaydigan ayirboshlash punktlarida esa u amalga oshirishi ruxsat etilgan valyuta operatsiyalari to'g'ri bajarilayotgani;

b) Naqd chet el valyutasi va to'lov hujjatlarini sotib olish hamda ishlatilmagan sumlarni chet el valyutasiga qayta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalariga rioya etilishi. Tekshiruv o'tkazilgan kunda harid qilingan valyuta va to'lov hujjatlari o'z vaqtida va to'liq qayd etilgani.

Mavjud pul chet el valyutasi va boshqa boyliklar audit uchun to'liq taqdim etilganini aniqlash maqsadida ular ayirboshlash punktlarining ombor (javon)lari va xodimlarning stoli g'aladonlarida qolib ketmaganini tekshirish zarur;

v) Ayirboshlash punktlari muxofazalashning texnik vositalari va telefon bilan jixozlangani, pul omborlari bilan ta'minlangani, har bir kassirda plombir va bankning to'rtburchak muxri borligi, ularni saqlash qoidalariga rioya qilinishi;

g) Ayirboshlash punktlari milliy valyuta va chet el valyutasi, yo'l cheklari, qat'iy hisobda turadigan blankalar (377-shakldagi ma'lumotnomalar va 0402004-shakldagi kvitansiya daftarlari, valyutani chetga olib chiqish uchun beriladigan ruxsatnomalarning blankalari) bilan o'z vaqtida va zarur miqdorda taminlanishi;

d) Boyliklar va hujjatlar ayirboshlash punktlariga etkazib berilishi qoidalariga rioya qilinishi, ular ayirboshlash punktlaridan bank muassasalariga o'z vaqtida va to'liq olib ketilishi. Boyliklar yo'lda saqlanishining ahvoli;

e) Boyliklar va qat'iy hisobda turadigan blankalar (shu jumladan, kassirlar vaqtincha bo'lmagan paytda), shanba va yakshanba kunlari operatsiya o'tkazish uchun olingan milliy valyuta va chet el valyutasidagi bo'nak saqlanishi qoidalariga rioya etilishi;

j) Ayirboshlash punktining yakunlangan ish kuni to'g'risidagi hisoboti berilishi muddatiga va boyliklar qoldig'i bank muassasasiga yoki inkassatorlarga topshirilishi qoidalariga rioya qilinishi. hisobot tuzilishi to'g'riligi va uni asoslovchi hujjatlar borligi, hisobotda ko'rsatilgan operatsiyalar bank muassasasi balansida to'liq va o'z vaqtida aks ettirilishi;

z) Ayirboshlash punktlarida pul summalari ortiqcha va kam chiqishi, buning sabablari, shunday dollar yuzasidan ko'riladigan chora-tadbirlar;

i) Ayirboshlash punktlarini muntazam suratda tusatdan audit qilib turish va audit natijalarini ko'rib chiqish.

Ayirboshlash punktlarini audit qilish natijalari bo'yicha dalolatnoma tuziladi. Unda milliy valyuta, chet el valyutasi va to'lov hujjatlari, shuningdek, qat'iy hisobda turadigan blankalar borligi hamda ular bank muassasasining buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga mos kelishi, ayirboshlash punktlari muxofazalashning texnik vositalari bilan kay darajada jixozlangani, fuqarolarga valyuta xizmati ko'rsatish operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga rioya qilinishi va auditorning ixtiyoriga ko'ra boshqa masalalar ko'rsatib o'tiladi.

Toshkent shahar Bosh boshqarmasida chet el valyutasidagi bank operatsiyalarini audit qilish jarayonida eksport-import shartnomalarini to'g'ri ro'yhatga olish va uni bajarilishi qonuniyligi, eksport shartnomalari bo'yicha mablag'larning o'z vaqtida kelib tushishi, kelib tushgan chet el valyutalari bo'yicha majburiy to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishi tekshiriladi. Bundan tashqari,

chet el valyutasidagi bank operatsiyalarini audit qilishda xodimlarning chet ellarga xizmat safari borish uchun olingan hisobotdagi chet el valyutalarining to'g'ri berilganligi va topshirilgan bo'nak hisobotlarining rasmiylashtirilishi, hisobotning to'g'ri topshirilganligiga e'tibor qaratilishi lozim.

Valyuta hisob operatsiyalari buyicha tekshirish.

Valyuta hisob operatsiyalarini tekshirishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- valyuta hisob raqamlarining to'g'ri ochilganligi:
  - chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarning o'z vaqtida va to'g'ri bajarilganligiga:
  - chet el valyutasidagi yuridik va jismoniy shaxslarning hisob varaqlari bo'yicha buxgalteriya hisobining to'g'ri olib borilishi:
  - eksport va import shartnomalarining hisobga olinish ahvoli va ular bo'yicha yig'ma jildlarning yuritilishi ahvoli:
  - eksport va import operatsiyalari bo'yicha dsbitor va kreditor qarzlarning paydo bo'lish sabablari va ular bo'yicha ko'rilgan choralar:
- chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarning o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishi:
  - valyuta hisobvarag'idagi valyuta mablag'larining o'z vaqtida va to'g'ri qayta baholanishi:
  - valyuta ayirboshlash shaxobchasining texnik jihozlanishi va u erda ish yuritish ahvoli Adliya vazirligidan 2000 yil 12 avgustda 958-son bilan ro'yxatga olingan Markaziy bankning «Ayirboshlash shaxobchalari to'grisida»gi 473-tartib asosida tekshiriladi.

Bulardan tashqari valyuta amaliyotlarini tekshirishda «Western Union» pul o'tkazmalarini o'tkazish tartibi bo'yicha ularning to'g'ri qabul qilib o'tkazilishi va berilishi tartibi ham tekshirib ko'riladi.

#### I. O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

1. Chet el valyutasidagi operatsiyalarni auditdan o'tkazish tartibi.
2. Naqd chet valyutasidagi operatsiyalar qanday audit qilinadi?
3. Inkasso operatsiyalarini audit qilish.
4. Banklarning vakillik hisob varaqlarini audit qilish tartibi.

## 10-mavzu. Auditorlik risklari va auditorlik xulosalari

### Reja:

1. Auditorlik faoliyati bilan bog'liq risklar
2. Auditorlik xulosalari va ularning turlari

### 1. Auditorlik faoliyati bilan bog'liq risklar

Audit va moliyaga oid ayrim manbalarda «risk» atamasi turlicha tarjima qilib qo'llanilmoqda («tavakkalchilik», «xatarlilik», «xavf- xatar», «tahlika», «g'ov» va h. k. ). Auditorlik faoliyatiga nisbatan bunday tarjimalar «risk» atamasining asl mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Bu borada biz professor T. S. Malikov fikriga qo'shilamiz (31. 5-bet). Umuman murakkab ilmiy atamalarni ularning mohiyatini ifodalamaydigan tarjimalar bilan almashtirmasdan, birinchi marta qo'llanilganida izohlagan holda, keyinchalik aslini qo'llash maqsadga muvofiq.

№9 - «Muhimlik va auditorlik riski» nomli AFMS ga muvofiq: **Auditorlik riski** – bu auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha auditorlar tomonidan sub'ektiv aniqlanadigan, moliyaviy hisobotda, uning ishonchliligi tasdiqlanganidan so'ng xatolar mavjudligini tan olish yoki moliyaviy hisobotda bunday kamchiliklar haqiqatan ham yo'q bo'lgan-da, unda kamchiliklar mavjud deb tan olinish ehtimolidir.

Faraz qilaylik, agar auditor salbiy xulosa bersa yoki xulosa berishdan voz kechsa o'zini xavf-xatar ostiga qo'ymas-ligi mumkin. Ammo bu noto'g'ri fikr, chunonchi, auditor uchun bu holda mijozlarini yo'qotish xavfi vujudga keladi. Bundan tashqari, auditor har qanday, hatto, mijoz-tijorat bank moliyaviy hisobotini to'liq tasdiqlaydigan xulosa berganida ham, u shartnoma majburiyatlari bilan bog'liq xavf-xatarni o'z zimmasiga oladi. Auditorlik faoliyatida uchraydigan bunday xavf-xatarlar yigindisini keyinchalik **auditorlik risklarning maqbul to'plami** deb atash mumkin.

Ma'lumki, har qanday malakali va puxta o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi ham auditorlik riskini to'liq bartaraf eta olmaydi. Shuning uchun auditorlik amaliyotida uning ( auditorlik riskining) maqbul chegarasi **5% deb qabul qilingan**. Ya'ni, auditorlik tashkiloti tomonidan berilgan yuzta auditorlik xulosasidan beshtasi munozarali masalalar bo'yicha noto'g'ri xulosalar bo'lishi mumkin. Bunday risk ya'ni, 5% miqdorda noto'g'ri xulosa berish ehtimoli auditorlik tashkiloti uchun muhim hisoblanmaydi va uning raqobatbardoshligini pasaytirmaydi. Aksincha, bu ko'rsatkich (5%)ni yanada pasaytirishga urinish behuda kuch va mablag' sarflashga olib keladi hamda raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman **auditorlik riskining maqbul to'plamiga** quyidagi shart-sharoitlar asosiy ta'sirini ko'rsatadi.

**1. Mijoz-tijorat bank faoliyati(biznesi)ning ko'lami.** Mijoz-tijorat bankda sodir bo'ladigan xo'jalik muomalalarining miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, auditorlik riski shunchalik yuqori bo'ladi va uning moliyaviy hisobotidan shuncha kengroq hajmda foydalanish zarur bo'ladi. Auditorlik risk darajasini aniqlashda moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilarning fikrlari asos bo'lib

hisoblanadi. Masalan, agar aktsiyadorlik jamiyati qo'shimcha aktsiya chiqarishni rejalishtirmagan bo'lsa, u holda faqat haqiqiy aktsiyadorlar fikri inobatga olinadi. Agar qo'shimcha aktsiya chiqariladigan bo'lsa, aktsiyalarga obuna bo'luvchilar fikrlari ham inobatga olinadi. Yangi aktsiyadorlarni asosan yuqori dividendlar va ijobiy auditorlik xulosasi bilan jalb qilish mumkin.

**2. Mulkchilikning tashkiliy-huquqiy shakllari** ham auditorlik risklarning maqbul to'plamiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlari yopiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlarinikiga qaraganda aktsiyadorlarining ishonchini ko'proq qozonganligi bois, auditorlik riskini pasaytirishi mumkin. Bu ochiq turdagi aktsiyadorlik jamiyatlarida har xil mulkdorlar mavjudligi bilan izohlanadi. Shuningdek, aktsiyadorlarning manfaatlari har doim ham bir-birinikiga mos kelavermaydi va shuning uchun ham ular bir-birlarini nazorat qilib turadilar.

**3. Kreditorlik qarzlarning miqdori va tavsifi.** Mijoz-tashkilot kreditorlari qanchalik yirik tijorat banklardan iborat bo'lsa, demak, uning moliyaviy hisobotiga ishonch shuncha yuqori ekanligi va uni tekshirish bilan bog'liq tavakkalchilik xatari shunchalik past bo'ladi.

Auditorlik riskiga boshqa shart-sharoitlar ham ta'sir ko'rsatadi. Jumladan: mutaxasislarning buxgalteriya hisobini bilishi, auditorlik tekshiruviga umumiy yondashuv, me'yoriy-huquqiy tizimdagi o'zgarishlar, hisobning kompyuterlashtirilganlik darajasi, mijoz-tijorat bankdagi ichki nazorat tizimining ishonchliligi, rahbarlar almashinishi va ularning shaxsiy fazilatlarini, olingan natijalarni baholash va ularning to'liqligi, mazkur tashkilot faoliyatiga xos bo'lmagan muomalalar miqdori va sh. k.

Demak, **auditorlik risklarning maqbul to'plami deganda, o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlari natijasida yangilish mulohazaga kelish va natijada, noto'g'ri auditorlik xulosasi tuzish ehtimoli(xavfi) tushuniladi.**

Yuqorida bayon etilganidek, **auditorlik risklarining maqbul to'plami** bir qancha risklardan iborat.

Umumiy auditorlik amaliyotida **auditorlik risklarining maqbul to'plamiga** quyidagicha yondashuv ishlab chiqilgan va ular ingliz tilidagi abbreviaturasi (bosh harflari) bo'yicha quyidagi formula ko'rinishida ifodalangan:

$$DAR = IR * CR * DR$$

**DAR** (Desired audit risk) – ARMT (auditorlik risklarning maqbul to'plami);

**IR** (Internal risk) – IXR (ichki xo'jalik riski);

**SR** (Control risk) – NR (nazorat riski);

**DR** (Detection risk) – AR (aniqlanmaslik ya'ni xatolar va moliyaviy hisobotdagi kamchiliklarning aniqlanmaslik riski).

Demak, auditorlik risklarining maqbul to'plami (ARMT) ni va uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar (IXR; NR; AR)ni batafsil bayon qilish va mohiyatini o'rganish uchun quyidagi formula ko'rinishida ifodalaymiz hamda uning tarkibiy qismlarini alohida ko'rib chiqamiz:

$$ARMT = IXR * NR * AR$$



***Ichki xo'jalik riski*** –IXR (IR-Internal risk) – bu mazkur buxgalteriya schyotida, balans moddasida, bir turdagi xo'jalik muomalalari guruhida yaxlitlanganda, xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisobotida muhim kamchiliklarning, bunday kamchiliklar ichki nazorat tizimi vositalari yordamida aniqlan-gunga qadar yoki ichki xo'jalik nazorati umuman yo'q bo'lganda, auditor tomonidan sub'ektiv tarzda aniqlanish ehtimoli tushuniladi.

Audit xulosasi barcha jismoniy va yuridik shaxslar uchun, hokimiyat va sudidoralari uchun xuquqiy hujjat hisoblanadi.<sup>11</sup> Bu xulosa matbuotda ham e'lon qilinishi mumkin. Auditning taftishdan asosiy farqi hammana shunda.

Tijorat banklarida o'tkazilayotgan auditorlik tekshirishlari sifati va ta'sirchanligini oshirish, tashqi audit faoliyatini takomillashtirish, auditorlik firmalari o'rtasida erkin va sog'lom raqobat munosabatlarini kuchaytirish hamda aholi va sarmoyadorlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish maqsadida 1996 yil 24 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank auditi tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan edi.

Mazkur farmon talablarini bajarilishini ta'minlash va Respublikada bank auditini mustahkamlash maqsadida o'tgan davr mobaynida Markaziy bank tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda ishlab chiqilgan Auditorlik faoliyati milliy andozalari asosida banklarda auditorlik tekshiruvlari tashkil etiladi. Auditorlik faoliyati milliy andozasi-AFMA "Auditorlik faoliyati to'jrisida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 senyabrdagi "Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlari rolini oshirish to'jrisida" 365-son qaroriga asosan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish elementi hisoblanadi.

Andozaning maqsadi auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tuzishning yagona tartibini joriy etish hisoblanadi.

Mazkur andoza talablari auditorlik tekshiruvini o'tkazish va xo'jalik yurituvchi sub'ektga auditorlik hisoboti hamda auditorlik xulosasini taqdim etish paytida barcha auditorlik tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi. Mazkur andozaning № 70 esa auditorlik xulosalariga bag'ishlangan.

## **2. Auditorlik xulosalari va ularning turlari**

Auditorlik hisoboti - xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari, mulkdori, ishtirokchilari (aktsiyadorlari) umumiy yijilishiga taqdim etiladigan, auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi huquq buzilishlari to'jrisida batafsil ma'lumotlar, shuningdek, auditorlik tekshiruvini o'tkazish natijasida olingan va auditorlik xulosasini tuzish uchun asos hisoblanadigan boshqa axborotdan iborat bo'lgan hujjat.

<sup>11</sup> Kunitsina N.N. Bankovskiy audit: Uchebnoe posobie / N.N. Kunitsina, V.V. Xisamudinov. – M.: Finansi i statistika, 2005. – 128 s.

**Auditorlik xulosasi** - moliyaviy hisobotning haqqoniyligi va buxgalteriya hisobini yuritish tartibining qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan va xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat.

Auditorlik xulosasining tuzilishi

Auditorlik hisobotida quyidagilar bo'ladi:

a) nomi ("Auditorlik hisoboti" yoki "Auditorlik tashkilotining hisoboti": ikkala nom bir xil kuchga ega);

b) adresatning nomi;

v) kirish qismi;

g) tahliliy qism;

d) yakuniy qism.

Auditorlik hisobotining har bir sahifasiga moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvini amalga oshirgan auditor (auditorlar) imzo chekishi shart.

Auditorlik hisoboti buyurtmachining barcha zaruriy rekvizitlarini ko'rsatish bilan auditorlik tekshiruvi buyurtmachisiga yuboriladi.

Auditorlik hisobotining kirish qismi

Auditorlik hisobotining kirish qismida auditorlik tashkiloti rekvizitlari, shu jumladan auditorlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziyaning raqami va sanasi, auditorlar va auditorlik tekshiruvida qatnashgan boshqa shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun asos va xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining umumiy tavsifi keltiriladi.

Auditorlik hisobotining taxlil qismi

Auditorlik hisobotining tahliliy qismi AFMAGA havola qilishi va unda quyidagilar bo'lishi shart:

xo'jalik yurituvchi sub'ektda ichki nazorat holatini tekshirish natijalari (batafsil bayoni);

buxgalteriya hisobi holati va moliyaviy hisobotni tekshirish natijalari;

moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish paytida qonunchilik talablariga rioya etilishini tekshirish natijalari;

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda to'lashning to'g'riligini tekshirish natijalari;

aktivlarning butligini tekshirish natijalari.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichki nazoratining holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

ichki nazorat tizimining xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining miqyoslari va xususiyatiga muvofiqligi umumiy bahosi;

auditorlik tekshiruvi mobaynida aniqlangan ichki nazorat tizimining xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining miqyoslari va xususiyatiga jiddiy nomuvofiqliklari bayoni.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini baholash;

auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashning belgilangan tartibini jiddiy buzishlar bayoni.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirish paytida qonunlarga rioya etishini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt amalga oshirgan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining qonunchilikka muvofiqligini baholash;

auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan, xo'jalik yurituvchi sub'ekt amalga oshirgan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarning qonunchilikka jiddiy nomuvofiqliklari bayoni.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi va to'lashning to'g'riligini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

tuzilgan va tegishli organlarga taqdim etilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'riligining bahosi;

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lashning belgilangan tartibini buzish faktlari, soliq solinadigan bazani belgilash paytidagi chetga chiqishlar bayoni.

Aktivlar butligini tekshirish natijalari aktivlarni inventarlashga asoslanishi va o'z ichiga ularning haqiqatda mavjudligi va butligi to'g'risidagi ma'lumotlarni olishi kerak.

Auditorlik xisobotining yakuniy qismi

Auditorlik hisobotining yakuniy qismi auditorlik tashkilotining aniqlangan chetga chiqishlar va huquq buzilishlarini bartaraf etishga doir tavsiyalarini, shuningdek xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga doir takliflari va maslahatlarini o'zi ichiga olishi kerak.

Auditorlik xisoboti uchun javobgarlik

Auditorlik tashkiloti auditorlik hisobotini tuzganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi. Auditorlik hisobotida keltirilgan axborot maxfiy hisoblanadi va oshkor etilmasligi kerak. Axborotni oshkor etganlik uchun ushbu axborotdan foydalana oladigan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

### **Auditorlik xulosasining tuzilishi**

Auditorlik xulosasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

a) nom ("Auditorlik xulosasi" yoki "Auditorlik tashkilotining xulosasi": ikkala nom teng huquqli);

b) adresatning nomi;

v) kirish qismi;

g) qayd etish qismi;

d) yakuniy qism;

e) auditorlik xulosasini berish sanasi;

j) auditorlik tashkiloti manzili;

z) auditorlar va auditorlik tashkiloti rahbarining imzosi.

Auditorlik xulosasi auditorlik tashkilotining muhri bilan tasdiqlanishi kerak. Auditorlik tashkiloti auditorlik xulosasi shaklining bir xilligiga rioya qilishi kerak. Auditorlik xulosalari shakllari 1 va 2-ilovalarda keltirilgan.

Auditorlik xulosasi auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga yo'llanib, buyurtmachining barcha zaruriy rekvizitlari ko'rsatilishi kerak.

Auditorlik xulosasining kirish qismi

Auditorlik xulosasining kirish qismi auditorlik tashkilotining quyidagi rekvizitlarini o'z ichiga olishi kerak:

- auditorlik tashkilotining yuridik manzili va telefonlari;
- auditorlik faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya raqami, berilgan sana va litsenziya bergan organning nomi;
- auditorlik tashkiloti davlat ro'yxatiga olingani to'g'risidagi guvohnoma raqami;
- auditorlik tashkiloti hisob-kitob varag'ining raqami;
- auditorlik tekshiruvda ishtirok etgan auditor (auditorlar)ning, shuningdek, auditorlik tashkiloti rahbarining familiyasi, ismi va otasining ismi.

Kirish qismida sana va hisobot davri ko'rsatilgan holda tekshirilgan moliyaviy hisobotlar ro'yxati keltirilishi kerak.

Kirish qismida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladigan moliyaviy hisobotni tayyorlash va uning haqqoniy bo'lishi uchun javobgar;

auditorlik tashkiloti auditorlik xulosasining xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga muvofiq bo'lishi uchun javobgar.

Auditorlik xulosasining qayd etish qismi

Auditorlik xulosasida auditorlik tekshiruvi AFMAga muvofiq o'tkazilgani qayd etilishi kerak.

Qayd etuvchi qismda auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot qonun hujjatlariga, shuningdek moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqiqiy holatiga muvofiqligi va haqqoniyligini baholashga asoslanishi ko'rsatilishi kerak.

Qayd etuvchi qismda auditorlik tekshiruvi fikrni ifodalash uchun etarlicha asoslar berishi xususida auditorlik tashkilotining tasdig'i berilishi kerak.

Auditorlik xulosasining yakuniy qismi

Auditorlik xulosasining yakuniy qismida auditorlik tashkilotining tekshirilgan moliyaviy-hisobot xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqiqiy holati to'g'risida haqqoniy tasavvur berish-bermasligi va moliyaviy hisobot qonun hujjatlariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi xususidagi fikri ravshan bayon etilishi kerak.

Auditor auditorlik xulosasini auditorlik tekshiruvi yakunlangan kun bilan belgilashi kerak. Auditor auditorlik xulosasini xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy hisobotga imzo chekkan yoki uni tasdiqlagan sanadan oldin keluvchi kun bilan belgilashi kerak emas.

Auditorlik xulosasidagi imzolar

Auditorlik xulosasiga auditor (auditorlar), auditorlik tashkiloti rahbari imzo chekishi va u auditorlik tashkilotining muhri bilan tasdiqlanishi kerak.

Auditorlik xulosalarining turlari

Auditorlik xulosalarining quyidagi turlari mavjud<sup>12</sup>:

a) ijobiy auditorlik xulosasi;

b) salbiy auditorlik xulosasi.

Ijobiy auditorlik xulosasi

Auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy ahvolini haqqoniy yoritadi va xo'jalik yurituvchi sub'ekt amalga oshirgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq degan fikrga kelganda ijobiy auditorlik xulosasi tuzilishi kerak.

Salbiy auditorlik xulosasi

Auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotida, agar xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan bartaraf etilmasa, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itishi mumkin bo'lgan buzilishlar mavjud degan fikrga kelsa, salbiy auditorlik xulosasi tuzilishi kerak.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt amalga oshirgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirilgan, lekin qonunchilik talablariga muvofiq kelmaydigan hollarda ham salbiy auditorlik xulosasi tuziladi.

Odatda xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyatining auditorlik tashkilotining aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish maqsadida moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritish to'g'risidagi fikriga qo'shilmasligi salbiy auditorlik xulosasini tuzishga sabab bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan buzilishlarni bartaraf etgan holda salbiy auditorlik xulosasi tuzilmaydi.

Auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortish

Auditorlik tekshiruvi hajmining cheklanganligi tufayli auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobot to'g'risidagi fikrni ifodalash uchun etarlicha auditorlik dalillarini olishi mumkin bo'lmasa, auditorlik tashkiloti auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortishi mumkin.

Auditorlik tekshiruvi hajmini cheklash - xo'jalik yurituvchi sub'ekt vakillari yoki uchinchi shaxslarning boshlab yuborilgan auditorlik tekshiruvini auditorlik xulosasini tayyorlash uchun zarur deb hisoblagan hajmda o'tkazishga to'sqinlik qilishga yo'naltirilgan ochiqdan-ochiq harakatlari yoki harakatsizliklaridir.

Auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortish ariza shaklida bo'lishi va "Auditorlik tashkilotining auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortishi to'g'risidagi ariza" deb nomlanishi kerak. Arizaning shakli 3-ilovada keltirilgan.

Auditorlik xulosasi kamida uch nusxada tuziladi, shundan ikki nusxa auditorlik tekshiruvi buyurtmachisiga taqdim etiladi.

---

<sup>12</sup> 70-son AFMS asosida tayyorlandi

Auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga tushunarli bo'lishi, auditorning ishonchi komil emasligi va (yoki) rozi emasligi yuzaga keltirgan cheklashlarga doir ko'rsatmalarni o'z ichiga olishi kerak.

Auditorlik xulosasi ochiq axborot hisoblanadi, undan moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning hammasi foydalana olsin.

Auditorlik xulosasi tegishli moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan e'lon qilinishi mumkin.

Auditorlik xulosasi uchun javobgarlik

Auditorlik tekshiruvini o'tkazmasdan tuzilgan yoki auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha tuzilgan, lekin auditorlik tekshiruvi davomida auditor (auditorlar) olgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning hujjatlari mazmuniga muvofiq kelmaydigan auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi qasddan yolg'on hisobot va xulosa deb hisoblanadi.

Qasddan yolg'on auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tuzish qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt bilan auditorlik tashkiloti o'rtasida yuzaga kelgan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

## I. O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

1. Auditorlik risklari, ularning mazmuni, turlari va sug'urtalash tartibini bilasizmi?.

2. Auditorlik xulosalarini belgilanish maqsadi nimalardan iborat?

3. Auditorlik xulosalarining asosiy elementlari nimalardan iborat?.

4. Auditorlik xulosalarining kandy turlari bor?

5. Auditor fikriga va auditorlik xulosasiga ta'sir qiluvchi omillarni bilasizmi?.

6. Maxsus maqsad uchun tayyorlanaydigan xulosalar kandy rasmiylashtiriladi?

7. Auditorlik xulosasi kimga takdim etiladi?

## AMALIY MASHG'ULOT

### 1-Mavzu. "Bank auditi" fanining predmeti, metodi va vazifalari

**1 topshiriq.** Mavzuni faollashtirish uchun savollarga javob bering.

1. Audit tushunchasiga ta'rif bering?
2. Auditning qanday turlari bor?
3. Auditning iqtisodiy mohiyatini ayting?
4. Auditning zarurligi nimada?
5. Bank auditining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Banklarda audit tekshiruvini o'tkazish xuquqini beruvchi litsenziya kim tomonidan beriladi?
7. Qanday auditorlik kompaniyalarini bilasiz?

**2 topshiriq.** Tayanch iboralarga ta'rif bering.


Bank auditi  
Audit turlari  
Ichki audit  
Tashki audit  
Auditorning vazifalari  
Auditorlik xulosalari  
Auditorning maksadi  
Auditorlik kompaniyalari

## 2-Mavzu. Bank auditining tashkil qilinishi va turlari

### 1 topshiriq. Guruhni faollashtiruvchi savollar

<ol style="list-style-type: none"><li>1. Auditor etikasi nima?</li><li>2. Auditorlik tashkiloti ustav kapitaliga qo'yilgan talablar?</li><li>3. Banklarda ichki auditni tashkil etishning zarurligi niada?</li><li>4. Auditorning xuquqlari?</li><li>5. Auditorning majburiyatlari nimalardan iborat?</li><li>6. Ichki va tashqi audit farqlarini sanab bering.</li></ol>
---

**2.topshiriq.** Auditorlik sertifikatini olish uchun qanday xujjatlar taqdim etiladi ?



**3 topshiriq.** Talabalarni 4 guruhga ajratib bank audit turlarini tahlil qilish.

### Bank auditining turlari

#### 1. O'tkazish usuliga kura6

- Majburiy auditi
- Tashabbus tarzidagi audit

#### 2. O'tkazish xususiyatiga kura:



- Ichki audit
- Tashki audit.
- 3. O'tkazish muddatiga kura:**
  - Boshlangich audit
  - Kelishilgan, takroriy audit
- 4. Rivojlanishi tomonidan:**
  - Tasdiklovchi audit;
  - Bir tartibga yunaltirilgan audit;
  - tavakkalchilikka asoslangan audit;

Guruh ishlarini baholash jadvali

Guruh	Javobning to'liqligi, Aniqligi va tushunarligi (mak 0,8)	Berilayotgan ma'lumotning ko'rinishi (mak 0,5)	Guruh a'zolarining faolligi (mak 0,2)	Jami ballar
1				
2				
3				
4				


**4 topshiriq. Quyidagi test topshiriqlarini bajaring.**

### **3-Mavzu. Naqd pul va kassa operatsiyalarining auditi**


**1 topshiriq. Faollashtiruvchi savollarga javob bering.**

1. Naqd pul va kassa ishi auditi bank ishida qanday o'rin tutadi?
2. Qanday kassa turlarini bilasiz?
3. Kassa operatsiyalari auditida kandy xujjatlar asosida tekshiriladi.?
4. Kassa ishini audit qilishda kaysi metodlardan foydalaniladi?
5. Banklarda kassa operatsiyalarini olib borish uchun qanday kassalar tashkil etiladi?
6. Kassani va kassa operatsiyalarini audit qilish maksadi?
7. Kassa operatsiyalari auditi tartibi kandy?
8. Kirim va chiqim operatsiyalari bo'yicha kassalar kandy ji'ozlangan bo'lishi lozim?
9. Kandy operatsiyalar kirim kassa operatsiyalari deyiladi?
10. Chiqim kassa operatsiyalari deb qanday operatsiyalarga aytiladi?

**2 topshiriq. Berilgan Vizual materiallarni to'ldiring.**  
1-savol. Naqd pul va kassa ishini tashkil etilishiga ko'ra audit



2 savol Tijorat banklari tomonidan tashkil etiladigan kassalar



3 savol. Kassa taftishi va uni o'tkazish tartibi

- Kassa nazorati
- Kassa taftishi
- Kassa inventarizatsiyasi

## 4-Mavzu. Hisob-kitob operatsiyalari auditi

### 1.topshiriq. Keys stadi

#### Talabalarni guruhlarga ajratish va natijalarni baholash.

Bank mablag'larini joylashtirish masalasi bank aktivlarini boshqarishning markaziy masalasi hisoblanadi. Chunki amaliyotda aktivlarni joylashtirishning turli hil muqobil variantlari mavjud bo'lib, qaysi birini tanlash bu asosiy o'rinni egallaydi. Bu o'rinda bank oldida likvidlilikni saqlash, riskni kamaytirish va daromadlilikni oshirish kabi muammolar mavjud. Bu ko'rsatkichlardan birini yaxshilash boshqasining yomonlashuviga olib keladi. Shuning uchun eng asosiy masala bank kapitalini joylashtirishning optimal yo'lini topish hisoblanadi.

Albatta bank uchun qanchalik qulay bo'lmasin, agar bitim yoki mablag'larni joylashtirish bankning likvidlilikini saqlash va riskini kamaytirmasa ushbu bitimdan voz kechish kerak bo'ladi.

Bank mablag'larini oqilona va samarali joylashtirish bank xodimlarining oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Amaliyotda bank mablag'larini joylashtirishda muqobil variantlarni tanlashni bir necha usullari mavjud. Ushbu usullarning har birida qaysidir mezonga asosiy urg'u beriladi. Masalan, Markaziy bank yoki banklarni nazorat qiluvchi organlar bank mablag'larini joylashtirishda riskni kamaytirishni eng birinchi o'ringa qo'yadi. Tijorat banki risk qilmas ekan uning faoliyati samaradorligi ham pasayadi. Shuning uchun banklar regulyatorlar tomonidan o'rnatilgan normativlarni buzmaganda holda o'z mablag'laridan maksimal foyda olish uchun foydalanishadi.

Ushbu keys orqali berilgan aniq vaziyatdagi bank mablag'larini joylashtirish yoki uni taqsimlash masalasi ko'riladi.

Taklif qilinayotgan keysning echimini topish quyidagilarga erishish imkonini beradi:

- mavzu bo'yicha mavjud bilimlarni mustahkamlash;
- muammoni tahlil qila bilish va qaror qabul qila bilish imkoniyatlarini rivojlantirish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil qaror qabul qilish ilmini egallash;
- fan ma'lumotlarini o'zlashtirish darajasini tekshirib ko'rish;
- nomaqbul variantlardan voz kechishni o'rganish.

#### Gurux bo'yicha baxolash mezonlari

Xar bir gurux boshqa guruxlarni baxolaydi. Xar bir talab bo'yicha – 3 ball

Guruh	Tushunarli va aniq javob (1,5)	Ko'rgazmalilik (1,0)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Jami ball
1				
2				
3				

### Kichik guruxlarda ishlash qoidasi.

1. Talabalar ishini bajarish uchun zarur bilim va masalalarga ega bo'lmog'i lozim.
2. Guruxlarga aniq topshiriqlar berilmog'i lozim.
3. Kichik gurux oldiga qo'yilgan topshiriqni bajarish uchun etarli vaqt ajratiladi.
4. Guruxlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tazyiqqa uchramasligi xaqida ogoxlantirilishi zarur.
5. Gurux ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o'qituvchi ularga yo'riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo'lganda xam muloqotda bo'ling, o'z fikringizni erkin namoyon eting.

### 2 topshiriq. Masalani bajaring

Quyidagi jadvalda bank balansi ma'lumotlari keltirilgan.

Jadval (mln. so'mda)

No	Ko'rsatkichlar	31.12.2015
	Majburiyatlar	
1	Talab qilib olinguncha depozitlar	20142
2	Jamg'arma depozitlar	359
3	Muddatli depozitlar	8689
4	Depozit sertifikatlari	0
5	Hukumat hisobvaraqlari	859
6	Hamma depozitlar	30048
7	MBga to'lanishi kerak bo'lgan mablag'lar	99
8	Hukumatga to'lanishi kerak bo'lgan mablag'lar	0
9	Boshqa banklarga to'lanishi kerak bo'lgan mablag'lar	6788
10	REPO va boshqa qarz mablag'lari	3832
11	Soliq majburiyatlari	228
12	Boshqa majburiyatlar	541
13	CHiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlar	0
14	Hamma majburiyatlar	41536
	O'z sarmoyasi	
15	Oddiy aksiyalar	6085
16	Imtiyozli aksiyalar	0,4
	Jami ustv kapitali	6085
17	Qayta baholash zahiralari	133
18	Taqsimlanmagan foyda	950
	Jami o'z sarmoyasi	7168
	Jami majburiyatlar	48705

Quyidagilarni bajarish kerak:

1. Tijorat banki resurslar tarkibida jalb qilingan mablag'lar va o'z mablag'lar ulushini hisoblang.
2. Bank jalb etgan mablag'lar dinamikasini tahlil etish va mavjud o'zgarishlarga baho berish.
3. Berilgan ma'lumotlar asosida audit hisobotini shakllantirish

## **5-Mavzu. Kredit operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisobga olish auditi (muammoli kreditlarning auditi)**

### **1.topshiriq. Faollashtiruvchi savollarga javob bering:**

1. Kredit operatsiyalarining banklardagi o'ri qanday?
2. Qanday kredit turlarini bilasiz?
3. Kredit operatsiyalarini auditi qilishda nimalarga e'tibor beriladi?
4. Ssudalar sifati tasnifi va ta'minotini baxolash qanday audit qilinadi?
5. Kredit siyosati va portfeli auditi qanday amalga oshiriladi?

### **2.topshiriq. Berilgan vizual materiallar asosida kredit operatsiyalari auditini tashkil etishni tushuntirib bering.**

Kredit xisob-kitob operatsiyalari auditi Markaziy bankning me'yoriy xujjatlariga va bevosita tijorat banklarining kredit siyosatiga asoslangan xolda utkaziladi.

Kredit portfeli taxliliga asoslangan xolda audit muayyan berilgan kreditga bankning tavakkalchiligini aniklaydi. Chunki auditor shunga asosan kreditga nisbatan zaxirani kupaytirish eki kamaytirishga xaklidir.

Auditor :

- Kreditning uziga xos xususiyatlarini;
- Uning ta'minlanganligini;
- Foizlarning tugri xisoblanishini;
- Uz vaktida daromad xisobvaragiga olinishini;
- Kaytarish muddatlarini urganadi.

Kredit portfeli buyicha kuyidagilar audit kilinadi:

- Kredit olish uchun berilgan arizani ruyxatdan utkazish tartibi
- Kredit buyicha xujjatlarni rasmiylashtirish tartibi tulikligi, kaytarilgan kreditlar buyicha xujjatlarni arxivga topshirilishi<sup>4</sup>
- Kreditga ochilgan analitik xisobvaraklarni yuritilish tartibi;
- Kredit buyicha xisoblangan foizlarning uz vaktida vat ugri xisoblanishi, ularning tegishli xisobvaraklarga uz vaktida utkazilishi;
- Muddati utkazib yuborilgan kreditlar xisobini uz vaktida buxgalteriya xisobvaragida aks ettirilish tartibi;

- Muddatli majburiyatnomalarning tulikligi va ularning xisobi;
- Yul kuyilgan xatoliklarni kursatib beradi, xamda ularni bartaraf etish buyicha tadbirlar ishlab chikishni talab kiladi.

## 6-Mavzu. Tijorat banklari daromadlari, harajatlari va foydasi auditi

### 1.topshiriq. Quyidagi masalalarni ishleng.

#### Masala-1

Tijorat banking hisobot davrida foizli daromad keltiruvchi bank aktivlari 25806 ming so‘mni tashkil etgan. Bankning foiz evaziga erishilgan sof daraomadi 4525 ming so‘mni, foizlarni to‘lash uchun sarflangan xarajati esa 4830 ming so‘mni tashkil etgan. Bankning hisobot davridagi foizli marjasini aniqlang.

#### Masala-2

Tijorat banking yarim yillik faoliyati natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.


jadval.

№	Ko‘rsatkichlar nomlari	I chorak	II chorak
1.	Olingan foizli daromadlar (ming so‘m.)	15062,3	17463,0
1.	To‘langan foizli xarajatlar (ming so‘m.)	7351,9	6809,1
1.	Haqiqatdagi bank foiz marjasi	*	*
1.	Daromad keltiruvchi aktivlarning o‘rtacha choraklik qoldiqlari (ming so‘m.)	146929,2	168003,6
1.	Bank foiz marjasining haqiqatdagi koeffitsienti ( % da)	*	*
1.	Bankning umumiy foizsiz xarajatlari (ming so‘m.)	8007,6	8103,3
1.	Bankning umumiy foizsiz daromadlari (ming so‘m.)	3132,3	1808,7
1.	Bank foiz marjasining etarlilik koeffitsienti	*	*

Ma‘lumotlar asosida quyidagilarni aniqlang:

1. Jadvaldagi \* belgilari qo‘yilgan joylarni to‘ldiring;
2. Bank foiz marjasining haqiqatdagi va marjaning etarliligi o‘rtasidagi muvofiqlikni baholang.

### 2.topshiriq. Baliq skeletini to‘ldiring.



## 7-Mavzu. Debitorlar, kreditorlar va qimmatli qog'ozlar auditi

### 1.topshiriq. Berilgan savollarga javob bering.

6. Banklarda debitorlik qarzlarning vujudga kelishi va uni kamaytirish yo'llari

7. Banklarda kreditorlik qarzlarning auditi

8. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalarining hisobi qanday tekshiriladi?

9. Tijorat banklarining investitsion faoliyati nimadan iborat?

10. bankning karz majburiyatlari va aktsiyalariga kuyilmalar kandy tartibda tekshiriladi?

11. Bank tomonidan bunday amalga oshiriladigan operatsiyalarining daromadligi darajasi qanachlik samara beradi?

12. Depozit sertifikatlari nima uchun chiqariladi va u bo'yicha foiz tulashni tekshirishda nimalarga e'tibor karatish lozim?

2.topshiriq. "Tijorat banklarida audit tekshiruvi jarayonidagi muammolar, ularning namoyon bo'lish xususiyatlari?" savoliga javob beriladi.

<i>Savol</i>	<i>"Tijorat banklarida audit tekshiruvi jarayonidagi muammolar, ularning namoyon bo'lish xususiyatlari?"</i>
<i>Fikringizni bayon eting</i>	
<i>Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating</i>	
<i>Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring</i>	
<i>Fikringizni umumlashtiring</i>	

## 8-Mavzu. Valyuta operatsiyalari auditi

### 1.topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Banklarda valyuta operatsiyalari auditining maqsadi?

2. Banklarda naqd chet el valyutasidagi operatsiyalar auditi qaysi hisobvaraqlar bo'yicha tekshiriladi?

2. Bankning import operatsiyalari auditi manbalarini aytib bering


3. Bankning valyuta shaxobchalari qanday tartibda tekshiriladi?

4. Birjadan tashqarii valyuta bozori mavjudmi?

5. Bankning valyuta pozitsiyalari xam tekshiriladimi, va u kandy tartibda amalga oshiriladi?

6. Mijozlarni eksport va import operatsiyalarini tekshirish

**2.topshiriq.** «Nima uchun?» texnikasidan foydalanib “Bankning valyuta shaxobchalari tekshirilayotganda kandy xolatlariga aloxida e’tibor berish lozim?” savoliga javobni organayzerga to’ldirish



## **9-Mavzu. Tijorat banklarida asosiy vositalar va kam baholi, tez eskiruvchi buyumlarning auditi**

1.topshiriq. Mavzu bo’yicha savollarga javob bering

1. Banklarda asosiy vositalar auditining maqsadi.
2. Asosiy vositalarning hisobini yuritilishi, baholanishi va qayta baholanishini tekshirish.
3. Kam baholi aktivlar, tez eskiruvchi buyumlarni tekshirish.
4. Kam baholi, tez eskiruvchi buyumlarni holati, saqlanishi va bank balansidan chiqarilishini tekshirish.
5. Bankning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlari tekshiruvi bo’yicha auditorlik xulosasi va uning muhokamasi.



## 2.topshiriq. Quyidagi masalani eching

Jadvalda OATB Agrobankning balans ma'lumotlari keltirilgan.

Jadval  
(mln. so'mda)

Ko'rsatkichlar	31.12.2015	31.12.2016	31.12.2017	31.12.2018
<b>Aktivlar</b>				
Naqd pul va boshqa kassa hujjatlari	6187	20338	17901	18120
Markaziy bankdagi pul mablag'lari	93218	117788	217001	192684
Boshqa banklardagi mablag'lar	63304	17532	33822	39844
Qimmatli qog'ozlar	5	6	0	7
Banklarga berilgan sofsudalar	0	0	0	0
Mijozlarga berilgan sofsudalar	520604	726379	988802	1031449
Investitsiyalar	6959	7145	5026	62261
Asosiy vositalar, netto	27751	35276	52728	63675
Boshqa aktivlar	15476	30501	24865	272871
<b>Jami aktivlar</b>	<b>733505</b>	<b>954966</b>	<b>1352723</b>	<b>1680909</b>

Aniqlang:

1.Jadval ma'lumotlaridan foydalanib aktivlarni daromadlilik darajasiga ko'ra guruxlarga ajrating.

2.Daromad keltiruvchi va daromad keltirmaydigan aktivlarni jami aktivlardagi ulushini toping va umumiy xulosa bering.

### 10-Mavzu. Auditorlik risklari va auditorlik xulosalari

#### 1.topshiriq. Mavzu bo'yicha savollarga javob bering.

1. Auditorlik risklari, ularning mazmuni, turlari va sug'urtalash tartibini ayting.
2. Auditorlik xulosalarini belgilanish maqsadi.
3. Auditorlik xulosalarining asosiy elementlari.
4. Auditorlik xulosalarining turlarini sanab bering.
5. Auditor fikriga va auditorlik xulosasiga ta'sir qiluvchi omillar.
6. Maxsus maqsad uchun tayyorlanadigan xulosalar.
7. Auditorlik xulosasini taqdim etilishi.

2 **topshiriq.** Tijorat banklari balans hisobotlari asosida daromad keltiradigan aktivlar, riskli aktivlarni aniqlang va auditorlik hisobotini tuzing

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**



**“Bank auditi”**

**fanidan**

**2019/2020 o'quv yili**  
**uchun mo'ljallangan**

**ILOVALAR**

**TOSHKENT 2019**

**2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI**

**I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari**

**1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:**

davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni

hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatlarini yanada kengaytirish;

qonun ijodkorligi faoliyatining sifatini qabul qilinayotgan qonunlarni amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq isloxlari jarayoniga ta'sirini kuchaytirishga yo'naltirgan holda tubdan oshirish;

siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish.

**1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:**

davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini davlat boshqaruvining markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minoti darajasini oshirish, hamda iqtisodiyotni boshqarishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali isloh qilish;

mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shahslarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlariga oid axborotni taqdim qilishning zamonaviy shakllarini joriy etish;

«Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifati va aholi hamda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish.

**1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:**

xalk bilan samarali muloqot mexanizmlarini joriy qilish; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;

fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;

mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rnini va faoliyatining samaradorligini oshirish;

ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning professional faoliyatini himoya qilish.

## **II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari**

### **2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:**

sudyalar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy ta'minlash darajasini oshirish, sudlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

sudyalarga g'ayriqonuniy tarzda ta'sir o'tkazishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rish;

sudning mustaqilligi va beg'arazligi, sud protsessi tomonlarining tortishuvi va teng huquqligi tamoyillarini xar tomonlama tatbiq etish; «Xabeas korpus» institutini qo'llash sohasini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish;

sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash; sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish.

### **2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:**

fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va befarq munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko'rish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;

fuqarolarining hususiy mulkka bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;

fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliksiz erishishini ta'minlash;

sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish.

### **2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish:**

jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoyi qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoyi jazolar va ularni ijro etish tartibini insonpapvapashtirish; odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvining protsessual asoslarini takomillashtirish;

jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir birini takrorlovchi vakolat va instantsiyalarni qisqartirish;

elektron sud ish yurituvi va ijro ishi yurituvining zamonaviy shakl va usullarini joriy etish.

### **2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:**

jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

diniy ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni yanada kuchaytirish;

korruptsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korruptsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish;

aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish.

### **2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:**

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar ishini samarali rejalashtirish va uning natijalarini tahlil qilish, tizimli huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish;

sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlarini o'qitish, tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, rotatsiya qilish tizimini takomillashtirish;

huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar xodimlari orasida huquqbuzarliklarni oldini olish, profilaktika qilish va bartaraf etish bo'yicha idoraviy nazoratning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish; huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash.

### **2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish: davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining yuridik xizmati faoliyati samaradorligini oshirish;**

advokatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va ho'jalik ishlarini ko'rib chiqishda advokat o'rnini oshirish;

notariat va FHDYo organlari tizimini isloh qilish.

## **III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishari**

### **3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:**

qabul qilingan o'rta muddatli dasturlar asosida makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, tarkibiy va institutsional o'zgartirishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

harajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlangan holda Davlat byudjetining barcha miqyoslarida muvozanatni saqlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga yo'naltirilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;

ilg'or xalqaro tajribaga muvofiq instrumentlardan foydalanish hisobiga pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, milliy valyutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini ta'minlash; erkin konvertatsiyani ta'minlovchi valyutaga oid munosabatlarni tartibga solish, milliy valyuta kursini shakllantirishda zamonaviy bozor mexanizmlarni joriy etish;

soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish yo'lini davom etish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va rag'batlantirishning tegishli choralarini kengaytirish;

bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investitsion loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish;

yangi turlardagi sug'urta, lizing va boshqa moliyaviy xizmatlarning hisobiga ularning xajmini kengaytirish va sifatini oshirish, kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va axolining erkin resurslarini joylashtirishdagi muqobil manba sifatida fond bozorini rivojlantirish;

xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, shu jumladan etakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish yo'li bilan, puxta o'ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishni davom etish, jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan samarali foydalanish;

### **3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va difersifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:**

milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmadagi loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan aktiv investitsiya siyosatini olib borish;

sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom-ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;

iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulotlar va xizmatlar ko'rsatish bozorlarida monopoliyani bosqichma bosqich kamaytirish;

printsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiyalar turlarini chiqarishni o'zlashtirish, bunga asosan ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;

ishlab chiqarish mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom etish hamda eng avvalo iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish; iqtisodiyotning energiya va resurs sarfini qisqartirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish;

erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarni tashkil etish, amaldagi zonalarning samaradorligini oshirish; xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni

shakllantirishda xizmatlar roli va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning tuzilmasini eng avvalo xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksportning tuzilmasi va geografiyasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;

yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy sohaga, boshqarish tizimiga informatsion-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish;

### **3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:**

tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni muttasil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorining eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish;

paxta va boshqali don ekiladigan maydonlarni qisqartirib, ekin maydonlarini yanada maqbullashtirish, bo'shab qolgan erlarga kartoshka, sabzavot, oziq-ovqat i moyli ekinlarni, shuningdek yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish;

qishloq xo'jalik ekinlarining yangi seleksiya navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega, kasallik va zararkunandalarga chidamli, mahalliy er-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan hayvonot turlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish;

fermer xo'jaliklar, eng avvalo qishloq xo'jaligi mahsulotlarni ishlab chiqarayotgan, qayta tayyorlanayotgan, tayyorlash, saqlash, sotish, kurilish ishlari va xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini, shuningdek qadoqlash buyumlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy yuqori texnologiyali uskunalarni bilan jihozlangan, qayta ishlovchi yangi korxonalarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish yuzasidan investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarni saqlash, transportirovka qilish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlarni ko'rsatish infratuzilmasini yanada keygatarish;

sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, meliorativ va irrigatsiya ob'ektlarning tarmog'ini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo zamonaviy suv va resurslarni tejaydigan agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori qishloq xo'jaligi texnikasidan foydalanish;

global iqlim o'zgarishi va Orol dengizi qurib qolishining qishloq xo'jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni ko'rish;

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkning huquqlarini himoya qilish va uning istiqbolli rolini yanada kuchaytirish, kichik

biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom etish:

xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, barcha turdagi to'sqinliklar va cheklanishlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish yo'lida to'liq erkinlik berish, amaliyotda "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan printsipni amalgi oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning noqonuniy aralashuvini qat'iy oldini olish;

davlat mulkini xususiylashtirish tartib-taomillarni yanada kengaytirish va soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulkning xususiylashtirilgan ob'ektlarning bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

korporativ boshqaruvining zamonaviy standartlar va usullarni joriy etish, korxonlarni strategik boshqarishda aktsiyadorlarning rolini kuchaytirish;

tadbirkorlik sub'ektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanish tartib-taomillar mexanizmalarni takomillashtirish va soddalashtirish;

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini detsentralizatsiya qilish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlar va o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish;

### **3.5. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarning kompleks va muvozanatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:**

sotsial-iqtisodiy jadal rivojlanishi, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral va xom ashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

hududlar iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish masshtablarni kengaytirish hisobiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajasidagi farqini kamaytirish, eng avvalo sanoat va eksport salohiyatini o'stirish yo'li bilan qiyoslangan tuman va shaharlarni jadal rivojlantirish;

yangi sanoat ishlab chiqarish va servis markazlarini tashkil etish hisobiga shahar tipidagi kichik shaharlar va shaharchalarni aktiv rivojlantirish, yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

subventsion tuman va shaharlarni kamaytirish, sanoat va xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish hisobiga mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish;

sanoat va boshqa ishlab chiqarish ob'ektlarni joylashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda axolining turmush darajasini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-



kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmasini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish;

### **3.6. Turizm sohasini rivojlantirish:**

turizm tarmog'ini jadal rivojlantirish, turizm sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish;

turizm sohasida viza, litsenziya berish va ruxsat olish tartib-taomillarini soddalashtirish;

xorijiy investitsiyalar, jahon brendlarini faol jalb qilish, turizm sohasida biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

yangi turizm yo'nalishlarini yaratish, turizmning zamonaviy turlarini rivojlantirish, ularning jozibadorligini oshirish.

## **IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari**

### **4.1. Aholining bandligi va real daromadlarini bosqichma-bosqich oshirish:**

aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalarni va aholining daromadlari bo'yicha farqlanishi darajasini yanada qisqartirish;

byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalarning hajmini inflyatsiya sur'atlariga nisbatan jadal miqdorda bosqichma-bosqich oshirish;

yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining oqilona bandligini ta'minlash, mehnat bozori infrastrukturasi mutanosibligi va rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini qisqartirish;

mehnatga qobiliyatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini oshirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbiy tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish;

### **4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish:**

aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga qaratilgan dastlabki bo'g'ini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish, aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

oilalar salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatga erishishini kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada amalga oshirish;

pensionerlar, nogironlar, yolg'iz keksalar va aholi boshqa ehtiyojmand toifalarining to'laqonli hayot faoliyatini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, ular narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholi kasallanish ko'rsatkichlari pasayishini va hayotining davomiyligi uzayishini ta'minlash.

### **4.3. Arzon uy-joylar qurish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish:**

aholining, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashovchilar va fuqarolarning uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj boshqa toifalarining yashash shart-sharoitlarini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shaharlar va qishloq joylarida arzon uylarni qurish orqali yanada yaxshilash;

kommunal-maishiy xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, eng avvalo, yangi suv o'tkazish tarmoqlarini qurish, zamonaviy tejamkor va samarali texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarida aholining toza ichimlik suvi bilan ta'minlanishini tubdan yaxshilash;

odamlar yashashining ekologik xavfsizligini ta'minlash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindi yo'q qilishning zamonaviy ob'ektlari bilan ta'minlash;

aholiga transport xizmati ko'rsatishni tubdan yaxshilash, yo'lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atmosferaga zararli ifloslantiruvchi moddalarni qisqartirish, yangi har tomonlama qulay avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostantsiyalarni qurish hamda rekonstruktsiya qilish; yo'l infrastrukturasi qurilishi va rekonstruktsiya qilinishini jadal davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;

yangi elektr ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish asosida aholini elektr energiyasi bilan ta'minlashni yaxshilash, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash, shuningdek, aholini boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

teatr-tamosha, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

### **4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish:**

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash;

ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rish;

bolalar maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridagi shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish;

umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika, matematika, fizika, ximiya, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan predmetlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga jalb qilish, ularni musiqa va san'at olami bilan bog'lash maqsadida yangi bolalar sporti ob'ektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

#### **4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish:**

jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai-nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb qilish;

yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

**V. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar**

**5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:**

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va mutanosib ravishda qarshi harakatlarni tashkil etish;

fuqarolik, millatlar va konfessiyalararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlash; davlatning mudofaa salohiyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va qobiliyatini oshirish;

atrof-tabiiy muhit, aholi sog'lig'i va genofondiga putur etkazuvchi ekologik muammolarning oldini olish;

favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish.

**5.2. Chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:**

davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning halqaro munosabatlar to'la huquqli sub'ekti sifatida o'rni va rolini kuchaytirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekiston tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik mintaqasini vujudga keltirish;

O'zbekiston Respublikasining halqaro nufuzini mustahkamlash, jaxon hamjamiyatiga mamlakatda olib borilayotgan islohotlar haqida xolis axborotni etkazish;

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatini normativ-huquqiy bazasini hamda halqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat chegarasining demilitatsiya va demarkatsiya masalalarini hal etish.

**2- ILOVA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**RESPUBLIKA BANK TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISH VA  
BARQARORLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Ta'kidlash lozimki, respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish va mustahkamlash bo'yicha ko'rilyotgan chora-tadbirlar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, iqtisodiyotni kreditlash ko'lamini kengaytirish, ko'rsatilyotgan bank xizmatlari spektorlarini ko'paytirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini berdi.

Shu bilan birga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda tadbirkorlik sub'ektlari bilan to'laqonli hamkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo'jalik sub'ektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash vazifalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ichki valyuta bozorini liberallashtirish sharoitida tijorat banklarining barqarorligi va moslashganligi bo'yicha ularni stress-testlardan o'tkazish natijasida banklarning moliyaviy holati va valyuta pozitsiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator kamchiliklar aniqlandi, o'z navbatida ularning oqibatlarini banklarning likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida» PF-5177-sonli [Farmoni](#), shuningdek, bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, xalqaro tajribani hisobga olgan holda, bank tavakkalchiligini baholashni takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning zamonaviy tamoyillari hamda mexanizmlarini joriy etish maqsadida:

1. 2017 yilning 1 oktyabridan ustav kapitalining (fondining) minimal miqdori yangi tashkil etiladigan:

tijorat banklariga — 100,0 mlrd.so'm;

mikrokredit tashkilotlariga — 2,0 mlrd. so'm;

lombardlarga — 500 mln.so'm etib belgilansin.

Tijorat banklari, mikrokredit tashkilotlari va lombardlar 2019 yilning 1 yanvarigacha ustav kapitallarining minimal miqdorlarini mazkur bandga muvofiq belgilangan minimal talablar darajasiga keltirilishini ta'minlasin.

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banking O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va «Asaka» ATBning avval xorijiy valyutada shakllantirilgan ustav kapitallarini belgilangan tartibda xorijiy valyutani sotish yo'li orqali milliy valyutaga o'tkazish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Belgilansinki, mazkur bandga muvofiq, tijorat banklari tomonidan valyuta mablag'larini sotishdan olingan daromad (foyda) soliqqa tortish bazasiga kiritilmaydi va ularning aksiyadorlari ulushini oshirishda foydalaniladi.

3. Tijorat banklari:

xo'jalik sub'ektlarining muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning yuzaga kelishi;

xo'jalik sub'ektlarining bank kassalaridan olgan naqd puldan maqsadli foydalanishlari ustidan nazorat qilish kabi ularga xos bo'lmagan funktsiyalardan ozod etilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tizimli asosda quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqishni va amalga oshirishni ta'minlasin:

tijorat banklari faoliyatiga umume'tirof etilgan zamonaviy normalar, standartlar va baholash ko'rsatkichlarini joriy etish, bank-moliya tizimi

ko'rsatkichlarini xalqaro reyting baholash tashkilotlari hamda milliy mustaqil reyting baholash tizimiga muvofiq xolisona baholashni yanada takomillashtirish;

xalqaro bank nazorati tamoyillari talablari doirasida tijorat banklarining kapitallashuvi etariligi, likvidlik va barqarorligi bo'yicha talablarni bajarishni ta'minlash;

bank tavakkalchiligini boshqarish va baholash tizimini, shu jumladan, tijorat banklarida tavakkalchilik-menejmenti tizimini, xalqaro moliya institutlarining texnik ko'magi va ekspertlarini jalb etib, Bank nazorati bo'yicha bazel qo'mitasi tavsiyanomalarini hisobga olgan holda takomillashtirish;

banklarning raqobatdoshligi darajasini oshirish hamda banklarni ilg'or bank amaliyoti asosida faoliyat yuritadigan tizimga aylantirish;

bank-moliya xizmat ko'rsatish sohasida aholining moliyaviy savodxonligi hamda huquqlarini himoya qilish darajasini oshirish;

aholining mamlakatimiz bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, mijozlarning bank tizimiga bo'lgan talablarini doimiy monitoring qilib borish, bank xizmatlari ko'rsatish madaniyatini oshirish, mijozlarning ehtiyojlarini qanoatlantiradigan ilg'or bank xizmatlari ko'rsatish.

5. Quyidagilar tijorat banklariga tavsiya etilsin:

2018 yilning 1 aprelegacha banklarni ilg'or amaliyot va xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritadigan moliyaviy barqaror va raqobatdosh muassasasiga sifatli transformatsiya qilishga yo'naltirilgan uzoq muddatli rivojlantirish strategiyalarini belgilangan tartibda ishlab chiqish va tasdiqlash;

bank tavakkalchiligi va uning vujudga kelishini barvaqt aniqlash, oldini olish va bartaraf etishda bank imkoniyatlarini oshirish uchun turli stsenariylarni qo'llagan holda, har chorakda likvidlik pozitsiyalarining stress-testlarini olib borish;

banklar aktsiyadorlarining manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazaridan bank aktivlari tuzilmasi va kredit portfeli holatini yaxshilash, shuningdek, xorijiy valyutada berilgan, ishlamayotgan kreditlar ulushini kamaytirish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rish;

kreditlarni so'ndirish muddatlari va tasdiqlangan jadvallarga qat'iy rioya qilishni, kreditlar bo'yicha qarzdorlarning muddati o'tgan qarzdorliklarning hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha barcha zarur chora- tadbirlarni ko'rish, bankning to'lay olish qobiliyatidan kelib chiqib, kreditlar bo'yicha muddatlar va foizlar stavkalarini belgilash hamda zarar ko'rib ishlayotgan tashkilotlarni kreditlash amaliyotini tugatish;

bankning oqilona daromaddorligini hisobga olgan holda, bank xizmatlari jozibadorligini oshirish va yangi mijozlarni jalb etish maqsadida tarif siyosatini maqbullashtirish;

bank-moliya faoliyati sohasidagi kadrlarni, ayniqsa tavakkalchilik-menejmenti masalalari uchun javobgarlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

6. O'zbekiston banklari uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar, tijorat banklari bilan birgalikda ishlab chiqilgan 2017 — 2021 yillarda

ilg'or bank amaliyoti asosida bank-moliya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari kompleksi (keyingi o'rinlarda — Chora-tadbirlar kompleksi) 1-ilovaga\* muvofiq ma'qullansin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, vazirliklar va idoralar, tijorat banklarining rahbarlari zimmasiga Chora-tadbirlar kompleksida nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

7. Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda ikki oy muddatda 2017-2018 yillarda maqsadli va hududiy dasturlar doirasida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarida import o'rnini bosish xarajatlari qismini to'lash uchun konvertatsiyani xorijiy kredit liniyalari va mahalliy tijorat banklarining xorijiy valyutadagi kreditlariga almashtirish masalalari har bir qarzdor bilan ishlab chiqilishini ta'minlasin.

8. Belgilansinki, vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar rahbarlari — loyihalar tashabbuskorlari, mas'ul ijrochi tashkilotlar rahbarlari bilan bir qatorda — investitsiya loyihalarining sifatli va o'z vaqtida bajarilishi, shuningdek, har yili tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish manzilli dasturlariga kiritilgan loyihalarni moliyalashtirishga ajratilgan kredit resurslaridan samarali va maqsadli foydalanilishi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi.

9. Belgilansinki, vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari tomonidan quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

tijorat banklari va ularning filiallari faoliyatiga aralashish, shu jumladan, kredit portfeli va bank aktivlarini shakllantirish bilan bog'liq tadbirkorlik tavakkalchiligini boshqarish, shuningdek, tasdiqlangan biznes-rejalarda nazarda tutilmagan xayriya va badal xarajatlarini amalga oshirish;

tijorat banklarining ijobiy hulosalarisiz, ularning resurslari hisobidan amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan loyihalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat va hududiy dasturlariga kiritish.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tijorat banklarining faoliyatiga davlat organlarining ma'muriy aralashuviga yo'l qo'ymaslik qismi bo'yicha banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini ijro etish yuzasidan nazoratni kuchaytirsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yilgi O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini shakllantirishda xorijiy moliya institutlariga, chet el va mahalliy tijorat banklariga berilgan kreditlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi davlat kafolatlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlar qismida tegishli mablag'lar nazarda tutilsin.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyundagi «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat xaridi va qishloq xo'jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-3096-sonli qarori 3-ilovasining 25-bandi [ikkinchi xatboshidagi](#) «O'zbekiston

Respublikasi Markaziy banki viloyat boshqarmalari bo'lim boshliqlarining o'rinbosarlari» so'zlari chiqarib tashlansin.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlari 2-ilovaga\* muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

\* Ilovalar [rus tilidagi](#) matnda berilgan

14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda:

qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin;

idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

15. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari J.A. Qo'chqorov va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisi M.B. Nurmuratov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOEV**

Toshkent sh.,

2017 yil 12 sentyabr,

PQ-3270-son

**3-ILOVA**

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI**

### **VALYUTA SIYOSATINI LIBERALLASHTIRISH BO'YICHA BIRINCHI NAVBATDAGI CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA**

Keyingi yillarda valyuta siyosati va tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini barqaror rivojlantirishga xizmat qilgani qayd etilsin.

Maqbul miqdorda tashqi qarzlarni jalb qilish bo'yicha izchil amalga oshirilayotgan siyosat O'zbekistonning majburiyatlarini o'z vaqtida bajaradigan ishonchli, to'lovga layoqatli xalqaro sherik sifatidagi imidjini ta'minladi, keyinchalik valyuta kursini liberallashtirish uchun zarur oltin-valyuta zaxirasini shakllantirish, valyuta resurslarini real iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik qayta jihozlash va diversifikatsiya qilishning ustuvor sohalariga yo'naltirish, jahon moliyaviy inqirozining salbiy oqibatlarini yumshatish imkonini berdi.

Shu bilan birga, valyuta muomalasi sohasining haddan ziyod ma'muriy tartibga solinishi alohida tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun imtiyoz va preferentsiyalarning asossiz ravishda kam samarali bo'lgan tizimini shakllantirdi, biznes yuritishda teng bo'lmagan shart-sharoitlarning vujudga kelishi va raqobatning bozor tamoyillari buzilishiga olib keldi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda, tovarlar va xizmatlar eksportini oshirishda, umuman, mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida to'sqinlik qiluvchi omilga aylandi.



2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [Harakatlar strategiyasiga](#) muvofiq hamda valyuta sohasini tartibga solishning bozor mexanizmlarini joriy qilish, respublika eksport salohiyatini oshirishni rag'batlantirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi va ichki bozordagi raqobatdoshligini oshirish, mamlakatimizda investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash maqsadida:

1. Valyuta bozorini yanada liberallashtirish sohasida davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

birinchidan, yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasini erkin sotib olish va sotish hamda o'z mablag'larini o'zining xohishiga ko'ra erkin tasarruf etish huquqlarini ro'yobga chiqarishni to'liq ta'minlash;

ikkinchidan, milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini belgilashda faqatgina bozor mexanizmlarini qo'llash;

uchinchidan, valyuta resurslaridan foydalanishda bozor instrumentlarining rolini oshirish, valyuta bozorida barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish, valyuta siyosatining noan'anaviy tarmoqlarda eksportni rivojlantirishda, mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashda rag'batlantiruvchi rolini oshirish;

to'rtinchidan, sifatli ish o'rinlari va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni bevosita rag'batlantirish uchun iqtisodiyotning barcha sektorlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, bilim va texnologiyalar jalb etishga xizmat qiladigan ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash;

beshinchidan, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan qat'iy monetar siyosatni amalga oshirish, bu borada monetar instrumentlardan faol va moslashtirilgan holda foydalanish, davlat qimmatli qog'ozlari bozorini rivojlantirish, shuningdek, ochiq bozorda operatsiyalar hamda davlat qimmatli qog'ozlarini banklar likvidligiga garovga berish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishni amaliyotga joriy qilish;

oltinchidan, monetar va fiskal siyosatni muvofiqlashtirish hamda Davlat byudjetining mutanosibligini ta'minlash orqali pul massasi haddan ziyod o'sishining oldini olish;

ettinchidan, bank tizimining barqarorligini ta'minlash va uning tavakkalchiliklarga bardoshlilikini, shu jumladan, valyuta siyosatini liberallashtirishning vujudga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan samarali choralarni qo'llash hisobiga oshirish;

sakkizinchidan, valyuta siyosatining yangi sharoitlarida tayanch tarmoqlar korxonalari samarali faoliyat yuritishi uchun ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish;

to'qqizinchidan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari turmush darajasiga valyuta siyosatini liberallashtirishning salbiy oqibatlarini kamaytirish imkonini beradigan har tomonlama ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

2. Belgilab qo'yilsinki, 2017 yilning 5 sentyabridan:

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari joriy xalqaro operatsiyalar (tovar, ish va xizmatlar importi, foyda repatriatsiyasi, kreditlarni qaytarish, xizmat safari xarajatlarini to'lash va boshqa savdo xarakteriga ega bo'lmagan o'tkazmalar) bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish uchun tijorat banklarida chet el valyutasini cheklovsiz sotib olishlari mumkin;

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslar chet el valyutasini tijorat banklarining valyuta ayirboshlash shoxobchalariga erkin sotishi va konversion bo'limlarida sotib olingan mablag'larni xalqaro to'lov kartalariga o'tkazish bo'yicha amaldagi tartibga asosan sotib olishi va chet elda hech qanday cheklovlarsiz ishlatishi mumkin;

iste'mol tovarlari importi bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga chet el valyutasini jismoniy shaxslar uchun o'rnatilgan tartibda, banklardagi hisobvaraqlar orqali sotib olishga ruxsat beriladi;

mulchilik shaklidan qat'i nazar, barcha eksportchi korxonalarining chet el valyutasidagi tushumini majburiy sotish bo'yicha talab bekor qilinadi;

chet el valyutasida daromad oluvchi yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek, fermer xo'jaliklari o'z bank hisobvaraqlaridagi chet el valyutasini naqd ko'rinishida olishi mumkin.

### 3. Belgilansinki, O'zbekiston Respublikasi hududida:

tovar (ish va xizmat)lar uchun to'lovlarni chet el valyutasida amalga oshirish taqiqlanadi, xalqaro tajribaga muvofiq xalqaro to'lov kartalari orqali to'lovlar bundan mustasno;

tovar, ish va xizmatlar uchun narx va tariflar, shuningdek, jamiyatlarning ustav kapitaliga qo'yiladigan minimal talablar faqat milliy valyutada belgilanadi;

davlat bojlari, yig'implari va boshqa majburiy to'lovlar faqat milliy valyutada undiriladi, konsullik yig'implari bundan mustasno.

### 4. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga ko'ra:

xorijiy valyutada kreditlar berish va undirish shartlari kredit siyosatidan kelib chiqqan holda tomonlarning o'zaro kelishuviga asosan tijorat banklari tomonidan mustaqil belgilanadi;

banklarning xorijiy valyuta oldi-sotdisi bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha tavakkalchiliklari tadbirkorlik tavakkalchiligi hisoblanadi hamda ularni boshqarish tijorat bankining vakolatiga kiradi;

xorijiy valyuta oldi-sotdisi bo'yicha komission vositachilik haqi miqdori tijorat banki tomonidan mustaqil belgilanadi;

tijorat banklariga xorijiy valyutada operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha litsenziya berish amaliyoti bekor qilinadi. Tijorat banklarining xorijiy valyuta bilan operatsiyalari bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya asosida amalga oshiriladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 iyundagi PQ-3082-sonli [qarori](#) bilan tuzilgan Ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat tovarlarining asosiy turlariga narx-navoni monitoring va nazorat qilish Respublika va doimiy faoliyat yuritadigan hududiy komissiyalari narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rsin, shu jumladan, quyidagilar orqali:

huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda ijtimoiy ahamiyatga ega tovar va xizmatlar uchun narx va tariflar asossiz oshishining oldini olish va bunga chek qo'yish, ularning taqchilligi va ularga bo'lgan ajiotajli talab yuzaga kelishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni, shuningdek, ularni sotish jarayonida korrupsiyaga va suiiste'mollikka qarshi kurashish choralarini kuchaytirish;

ijtimoiy ahamiyatga ega asosiy tovarlar, shu jumladan, dori vositalari va tibbiyot buyumlarining chakana narxlarini shakllantirish bo'yicha belgilangan tartibga rioya etilishini har kuni tizimli o'rganish va nazorat qilishni ta'minlash;

mamlakatimiz hududiy bozorlarini Ichki iste'mol bozorida narx-navoni barqarorlashtirishga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan hamda oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchilar, shuningdek, fermer va dehqon xo'jaliklariga sharoitlar yaratish, shu jumladan, o'zlari ishlab chiqargan tovarlarni vositachilarsiz to'g'ridan-to'g'ri aholiga sotish uchun maxsus maydonchalar tashkil etish orqali iste'mol tovarlari bilan tezkor to'ldirish;

yirik ulgurji importchi tashkilotlar bilan birgalikda import qilinadigan iste'mol tovarlari narxlarining barqarorligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir hafta muddatda valyuta siyosatini liberallashtirish oqibatlarini yumshatishni nazarda tutuvchi hukumat qarorlari loyihalarini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun kiritsin, ularda quyidagilar:

banklarning kapitallashuv darajasi va likvidligini ta'minlash orqali ularning tavakkalchiliklarga bardoshlilikini oshirish, xalqaro amaliyotni hisobga olgan holda bank tavakkalchiliklarini baholashni takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishning zamonaviy tamoyillari va mexanizmlarini joriy qilishni ko'zda tutuvchi respublika bank tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar;

iqtisodiyot va aholini energiya resurslari bilan uzluksiz ta'minlashga, xorijiy kreditlarga o'z vaqtida xizmat ko'rsatishda davlat tomonidan moliyaviy yordam berish, soliqqa tortish mexanizmlari va tamoyillarini takomillashtirish, davlat tomonidan vaqtincha subsidiyalar ajratish, O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi va tijorat banklari kreditlarini restrukturizatsiya qilishga qaratilgan iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari;

import qilinayotgan tovarlar va xizmatlar ichki narxlarining o'sishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bojxona to'lovlari stavkalarini optimallashtirish chora-tadbirlari;

2017-2018 yillarda 14 yoshga to'lmagan farzandlari bo'lgan oilalar uchun belgilangan nafaqa oluvchilar sonini o'rtacha 1,5 barobar va kam ta'minlangan oilalar uchun belgilangan moddiy yordam oluvchilar sonini 2 barobarga oshirish, ishsiz fuqarolar uchun aholi punktlari, mahallalarni obodonlashtirish, ariqlar, irrigatsiya tarmoqlarini tozalash, uy-joy kommunal xo'jaligi ob'ektlarini ta'mirlash, infratuzilmani yaxshilash, yo'l va ko'chalarni ta'mirlash bo'yicha haq to'lanadigan jamoatchilik ishlarini tashkil etish, shuningdek, Davlat byudjeti,

O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi va «Mahalla» xayriya jamoat fondi mablag'lari hisobidan kam ta'minlangan oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish, shu jumladan, oilalarning alohida davlat ko'magiga ehtiyojmand toifalariga uy-joy ta'mirlash yoki xarid qilish, qoramol, parranda va eng zarur maishiy texnika sotib olishga ko'maklashish hisobiga aholining ijtimoiy ko'makka muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirish nazarda tutilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

soliqqa tortish bazasini kengaytirish va ichki zaxiralarni safarbar qilish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobiga byudjet daromadlarini oshirish orqali 2017 yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining profitsit bilan bajarilishini ta'minlash, shuningdek, Davlat byudjetida ko'zda tutilgan barcha tadbirlarning to'liq moliyalashtirilishini ta'minlash va tasdiqlangan xarajatlarni asossiz qisqartirish amaliyotiga barham berish;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo'yicha tasdiqlangan davlat dasturlarida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni so'zsiz amalga oshirishni nazarda tutgan holda, 2018 yilgi Davlat byudjeti loyihasini profitsit prognozi bilan ishlab chiqish;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobvaraqlaridagi chet el valyutasidagi mablag'larini qayta baholash natijasida olgan foydasi soliqqa tortish bazasiga kiritilmaydigan vaqtincha tartib (2018 yilning 1 iyuliga qadar) belgilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2018 yilning birinchi yarim yilligi yakunlari bo'yicha mazkur Farmonda belgilangan normalar ta'sirining tahlilidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi qonuni yangi tahriri loyihasini ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga kiritsin. Unda:

havola qiluvchi me'yorlarni maksimal darajada qisqartirgan holda, valyuta operatsiyalarining amaliyotda uchraydigan barcha jihatlari;

O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasining barqarorligini ta'minlash;

yuridik va jismoniy shaxslarning o'z valyuta mablag'larini erkin tasarruf etish huquqini to'liq ro'yobga chiqarish;

respublika iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda, kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalarni tartibga solish masalalari ko'zda tutilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat soliq qo'mitasi va Ichki ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi hududida naqd chet el valyutasining noqonuniy muomalasini va naqd chet el valyutasi bilan noqonuniy operatsiyalarni amalga oshirishni bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Adliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda qonunchilikka ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

Vazirlik va idoralar o'zlari qabul qilgan idoraviy me'yoriy-huquqiy hujjatlarni mazkur Farmon talablariga muvofiqlashtirsin.

11. Mazkur Farmon ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisi M.B. Nurmuratov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOEV**  
Toshkent sh.,  
2017 yil 2 sentyabr,  
PF-5177-son

**4-ILOVA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
FARMONI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKINING  
FAOLIYATINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI  
TO'G'RISIDA**

Jahon moliya tizimida yuz berayotgan jiddiy o'zgarishlar, shuningdek mamlakatda milliy iqtisodiyotni keng ko'lamli isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar pul-kredit siyosatini shakllantirish, amalga oshirishda hamda bank tizimini yanada rivojlantirishda yangicha yondashuv va printsiplar qo'llanilishini taqozo qilmoqda.

Xolis tan olish kerakki, bugungi kunda pul-kredit siyosati va banklarni tartibga solishdagi imkoniyatlardan amalda to'laqonli foydalanilmayapti, pul-kredit instrumentlarining lozim darajada ishlashi va samaradorligini ta'minlovchi transmission mexanizmlarning rivojlanmaganligi qo'yilgan maqsadlarga erishishni qiyinlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (keyingi o'rinlarda — Markaziy bank) tomonidan tijorat banklarining boshqaruv va risk-menejmenti sifatiga ta'sir qilish mexanizmlarining takomillashmaganligi, banklar faoliyatiga ma'muriy aralashuv amaliyotining davom etayotganligi, ayniqsa, banklar tomonidan o'z faoliyatiga xos bo'lmagan korxonalar tashkil etilishi, shuningdek ularning faoliyat yo'nalishiga muvofiq bo'lmagan vazifalarning yuklatilishi bank nazoratini ta'sirchan amalga oshirishni qiyinlashtirmoqda.

2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [Harakatlar strategiyasiga](#) muvofiq, shuningdek pul-kredit siyosati, umuman bank tizimining barqaror faoliyat ko'rsatishi ustidan samarali nazoratni va Markaziy bank faoliyatini yanada takomillashtirishni ta'minlash maqsadida:

1. Quyidagilarni ta'minlash Markaziy bank faoliyatining strategik maqsadli yo'nalishlari deb hisoblansin:

narxlar barqarorligi;

bank tizimi barqarorligi va rivojlanishi;

to'lov tizimi barqarorligi va rivojlanishi.

2. Amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida Markaziy bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

birinchidan, asossiz inflyatsion kutilmalarni oldini olish maqsadida inflyatsion targetlashning printsiplari va mexanizmlarini bosqichma-bosqich tatbiq

qilish bilan pul-kredit siyosati va uning instrumentlarini tubdan takomillashtirish, ushbu usulga o'rta muddatli istiqbolda to'liq o'tish va pul-kredit sohasida amalga oshirilayotgan siyosat va choralarning shaffofligini oshirish;

ikkinchidan, inflyatsiya omillarini chuqur o'rganish va to'lov balansini hisobini yuritish va tahlil qilish tizimini to'liq shakllantirish asosida pul-kredit siyosatini shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish uslublarini takomillashtirish maqsadida statistik, tahliliy va tadqiqot bazasini rivojlantirish;

uchinchidan, bank tizimini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini, shu jumladan tijorat banklar faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni dastlabki bosqichlarida aniqlash va ularni bartaraf etuvchi choralar ko'rish imkonini beruvchi tijorat banklar tavakkalchiligini boshqarish va baholash tizimini takomillashtirish;

to'rtinchidan, o'rta va uzoq muddat istiqbollarda iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlovchi muhim tarkibiy qism sifatida bank tizimini rivojlantirish, tijorat banklar va tadbirkorlik sub'ektlarining o'zaro to'liq sheriklik munosabatlarini shakllantirish, aholining bank tizimiga ishonchli institutsional sherik sifatida ishonchini mustahkamlash uchun raqobat sharoitlarni yaratish;

beshinchidan, to'lov tizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan real vaqt rejimida tezkorlik bilan hisob raqamlarni boshqarish va bank operatsiyalarini o'tkazish imkonini beruvchi masofadan bank xizmatlari ko'rsatgan holda tijorat banklarining samarali axborot almashinuvi tizimini tashkil etish;

oltinchidan, nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini kuchaytirish, shuningdek ularning faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

ettinchidan, bank xizmatlari iste'molchilari huquqi va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash, aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga moliyaviy ochiqlikni va ularning savodxonlik darajasini oshirish.

### 3. Quyidagilar:

asosiy vazifalari tegishli bank tizimining barqarorligini ta'minlash, omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish va Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalarini o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'lib hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Bank nazorati qo'mitasi va Kredit qo'mitasi;

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash departamenti negizida asosiy vazifasi bank xizmatlari iste'molchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash, aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga moliyaviy ochiqlikni va ularning savodxonlik darajasini oshirish bo'lib hisoblangan Markaziy bankning Bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish xizmati tashkil etilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasining:

Respublika bank kengashini tugatish;

Respublika pul-kredit siyosati komissiyasini tugatish;

Muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni qisqartirish va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha Respublika komissiyasini tugatish;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi «O'zbekiston Respublikasi moliya sektorini rivojlantirish bo'yicha agentligi» davlat unitar korxonasini tugatish;

Markaziy bank raisi o'rinbosariga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi Respublika inkassatsiya xizmati faoliyatiga bevosita rahbarlik qilishni yuklash amaliyotini bekor qilish;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi Qimmatbaho metallar agentligi bosh direktori lavozimini vazir o'rinbosari lavozimi maqomiga tenglashtirgan holda, Markaziy bank Raisi o'rinbosari — O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi Qimmatbaho metallar agentligi bosh direktori lavozimini tugatish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

5. Markaziy bank faoliyatining tasdiqlangan ustuvor yo'nalishlarini va boshqaruv tizimi optimallashtirishni hisobga olgan holda:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tashkiliy tuzilmasi hamda uning markaziy apparatining tuzilmasi 1- va 2-ilovalarga\* muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'yicha bosh boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi 3-ilovaga\* muvofiq ma'qullansin.

\* 1 — 3-ilovalar [rus tilidagi](#) matnda berilgan.

6. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi [Qonuniga](#) muvofiq:

Markaziy bank boshqaruvi zarur hollarda Markaziy bankning shtatlar jadvaliga, tashkiliy tuzilmasiga, uning markaziy apparati hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'yicha bosh boshqarmalari tuzilmalariga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega ekanligi;

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga hisobdorligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan mutasaddilik qiladigan davlat organlari ro'yxatidan chiqarilsin.

7. Markaziy bank 2018-2019 yillarda xodimlarning oqilona tanlovini, joy-joyiga kuyish va rotatsiyasini, kadrlar zaxirasini sifatli shakllantirishni, shuningdek xodimlarning mehnati samaradorligi va motivatsiyasini oshirishni ta'minlovchi zamonaviy kadrlar xizmatini bosqichma-bosqich joriy qilsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-son «[Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)»gi va 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3272-son «[Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)»gi qarorlariga muvofiq:

a) kuyidagilar:

2017 — 2021 yillarda ilg'or bank amaliyoti asosida bank-moliya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari kompleksi;

2017 — 2021 yillarda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish hamda inflyatsiyaviy targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish chora-tadbirlari kompleksi tasdiqlanganligi;

b) Markaziy bank, tijorat banklari, masalaga aloqador vazirlik va idoralar zimmasiga mazkur chora-tadbirlar komplekslarida ko'zda tutilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgarlik yuklatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

9. Markaziy bank:

narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadida likvidlik berish va qaytarishning zamonaviy turlari, mexanizmlari va usullarini joriy qilgan holda pul-kredit siyosati instrumentlarining ta'sirchanligini oshirish choralari ko'rilishini;

jamoatchilik va biznes muhitining pul-kredit siyosatidan xabardorligi va tushunish darajasini oshirishga yo'naltirilgan aniq axborot-kommunikatsion siyosat olib borilishini;

O'zbekiston Respublikasi to'lov balansining Xalqaro valyuta fondi metodologiyasiga muvofiq hisobi va tahlili tizimli asosda yuritilishini;

bank tizimidagi ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish tizimining samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalardan keng foydalanilishini;

banklar tomonidan iqtisodiy normativlar bajarilishi ustidan, shu jumladan kapital etarliligi, bank nazoratining xalqaro tamoyillari talablari doirasida belgilangan likvidlilik bo'yicha ta'sirchan nazorat amalga oshirilishini;

bank tavakkalchiliklarini baholashning zamonaviy tizimlari joriy qilinishini;

normativ-huquqiy hujjatlarni zamonaviy bank xizmatlarini ko'rsatish uchun to'siqlarni bartaraf etish va sharoit yaratish, shu jumladan chakana xizmatlarga ixtisoslashgan «raqamli» banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish, innovatsion bank texnologiyalaridan faol foydalangan holda masofaviy bank xizmatlari ko'rsatishni takomillashtirish maqsadida tanqidiy qayta ko'rib chiqilishini ta'minlasin.

10. Shunday tartib belgilansinki, unga muvofiq:

bankrot deb e'lon qilingan yoki kredit bo'yicha uzilmagan qarzdorligi mavjud korxonalarni tijorat banklari mulkiga o'tkazish tartibi bekor qilinadi;

boshqaruv kompaniyalari, investitsion kompaniya va fondlar, shuningdek bank faoliyatiga xos bo'lmagan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ustav fondlarida banklarning ishtiroki taqiqlanadi.

11. Markaziy bank 2018 yilning 1 sentyabriga qadar ilg'or xorijiy tajriba va umume'tirof etilgan normalar va standartlarni chuqur o'rganish, ixtisoslashgan xalqaro moliya institutlarining tegishli ekspert xulosalari asosida O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi xamda «Bank va banklar faoliyati to'g'risida»gi qonunlari loyihalarini yangi tahrirda ishlab chiqsin va Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Moliya vazirligining:

O'zbekiston Respublikasi aktsiyadorlik tijorat Xalq banki va «Mikrokreditbank» aktsiyadorlik tijorat banki ustav kapitalidagi Markaziy bank



ulushini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga operativ boshqaruv huquqi asosida bepul berish;

Markaziy bank xodimlarini tijorat banklari, xo'jalik boshqaruv organlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kuzatuv kengashlari tarkibiga kiritilishini taqiqlashni nazarda tutuvchi tartibni joriy qilish;

Markaziy bankning faoliyat yuritishini ta'minlovchi o'z idoraviy bo'ysunuvidagi korxonalar va tashkilotlarning tegishli tuzilmaviy bo'linmalarini Markaziy bank, shuningdek uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'yicha bosh boshqarmalari hududi va binolarida bepul joylashtirish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

13. Markaziy banki bir oy muddatda:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Bank nazorati qo'mitasi va Kredit qo'mitasi to'g'risidagi nizomlar hamda ularning tarkibini;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha xizmati to'g'risidagi nizomni;

Markaziy bankning faoliyat yuritishini ta'minlovchi o'z idoraviy bo'ysunuvidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyati va boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlasin.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga [4-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari [5-ilovaga](#) muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

16. Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

17. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki raisi M.B. Nurmuratov zimmasiga yuklatilsin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOEV**

Toshkent sh.,

2018 yil 9 yanvar,

PF-5296-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi PF-5296-son

[Farmoniga](#)

4-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritiladigan  
O'ZGARTIRISHLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 28 oktyabrdagi PF-1875-son «Kapital qurilishni tashkil etishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmonining [2-bandidan](#) «(Pul-kredit siyosati bo'yicha respublika komissiyasi)» degan so'zlar chiqarib tashlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 31 oktyabrdagi PF-3346-son «Qimmatbaho metallar xarid qilish, saqlash va sotish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmonining 3-bandi [to'rtinchi xatboshidagi](#)

«O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Raisining o'rinbosari hisoblanadi» degan so'zlar «maqomiga ko'ra vazir o'rinbosariga tenglashtiriladi» degan so'zlar bilan almashtirilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 iyuldagi PQ-1373-son «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Navoiy kon-metallurgiya kombinati Kuzatuv kengashini tashkil etish to'g'risida» 2008 yil 3 martdagi PQ-809-sonli qaroriga o'zgartishlar kiritish haqida»gi qarori ilovasining [o'n birinchi xatboshi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Sabirov B.B. — Qimmatbaho metallar agentligi bosh direktori».

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 noyabrdagi PQ-3388-son «2018 — 2020 yillarda O'zbekiston Respublikasi zargarlik sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [qarori](#) 5-ilovasining to'rtinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

«Sabirov B.B. — Qimmatbaho metallar agentligi bosh direktori».

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi PF-5296-son

[Farmoniga](#)

5-ILOVA

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'z kuchini yo'qotgan hujjatlari RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 8 noyabrdagi PF-985-son «Ichki bozorni dori-darmonlar va tibbiyot buyumlari bilan to'ldirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonining [3-bandi](#).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 27 iyundagi PF-1193-son «O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasining ichki erkin almashtirilishini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonining [4-bandi](#), shuningdek unga ilova.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 11 iyuldagi PF-1492-son «Respublika pul-kredit siyosati komissiyasi tarkibi to'g'risida»gi Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 18 fevraldagi PF-1710-son «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmonining [4-bandi](#).

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 1 avgustdagi PF-1827-son «Respublika pul-kredit siyosati komissiyasi tarkibini o'zgartirish to'g'risida»gi [Farmoni](#).

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 29 sentyabrdagi PF-2720-son «Ayrim komissiyalarning tarkibini tasdiqlash to'g'risida»gi [Farmoniga](#) 9-ilova.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 5 dekabrdagi PF-2772-son «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Farmoniga ilovaning 2-bandini [«b» kichik bandi](#).

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 2 oktyabrdagi PF-3143-son «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ba'zi farmonlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi [Farmoni](#).

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 15 noyabrdagi PF-3162-son «Respublika bank kengashini tuzish to'g'risida»gi [Farmoni](#).

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 1 oktyabrdagi PF-3323-son «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ba'zi farmonlariga o'zgartishlar kiritish va o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida»gi Farmonining 1-bandi [to'rtinchi xatboshi](#).

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 27 fevraldagi PF-4087-son «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Farmoniga ilovaning [1](#) va [2-bandlari](#).

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 apreldagi PF-4215-son «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ba'zi qarorlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida»gi Farmoniga 2-ilovaning [31](#) va [33-bandlari](#).

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi PQ-57-son «Naqd pul muomalasini takomillashtirish va bankdan tashqari aylanmani qisqartirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorining [4-bandi](#).

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 13 iyundagi PQ-97-son «2005 yilda Toshkent shahrida qurilish va rekonstruktsiya qilish ob'ektlarini qo'shimcha moliyalashtirish manbalari to'g'risida»gi qarorining 7-bandi.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 5 avgustdagi PQ-147-son «Banklardagi depozit hisobvaraqlardan naqd pul to'lovlarini uzluksiz ta'minlash kafolatlari to'g'risida»gi qaroriga ilovaning [7-bandi](#).

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 27 martdagi PQ-822-son «Naqd pul mablag'larini jalb qilish va unga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorining [4-bandi](#).

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 3 martdagi PQ-2137-son «Qurilish tashkilotlarini yanada rivojlantirish va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining [8-bandi](#).

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 oktyabrdagi PQ-3309-son «Avtomobil yo'llari ko'priklarini, yo'l o'tkazgichlar va boshqa sun'iy inshootlarni qurish hamda foydalanishni tashkil etish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorining [12-bandi](#).

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

№ BD

201\_\_ yil “\_\_” \_\_

201\_\_ yil “\_\_” \_\_

**BANK AUDITI**

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar  
200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

**Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika**

**230000 – Iqtisod**

**Ta'lim** 5111000 – Kasb ta'limi (5230700 – Bank ishi);  
**yo'nalishlari:** 5230700 – Bank ishi

**Toshkent – 2019**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 201\_\_yil “\_\_”.\_\_dagi “\_\_”-sonli buyrug‘ining \_\_- ilovasi bilan fan dasturi ro‘yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb – hunar ta‘limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 201\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_dagi “\_\_\_\_” - son bayonnomasi bilan ma‘qullangan.

Fan dasturi Toshkent moliya institutida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

Yadgarova M.L. -TMI, “Bank hisobi va audit” kafedrası katta o‘qituvchisi.  
Qurbonov R.B. -TMI, “Bank hisobi va audit” kafedrası katta o‘qituvchisi.

**Taqrizchilar:**

Karimov N.G. -TDIU, “Bank ishi” kafedrası mudiri, i.f.d.professor (*turdosh OTM*);  
Marpatov M.D. -O‘zRes.Markaziy banki, “Buxgalteriya hisobi va hisoboti” departamenti direktori o‘rinbosari (*kadrlar buyurtmachisi*).

Fan dasturi Toshkent moliya instituti Kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (201\_\_ yil \_\_\_\_\_ - sonli bayonnomasi).

## KIRISH

Ushbu dastur bank tizimi uchun iqtisodchi banklarni tayyorlashda o'qitiladigan maxsus fanlardan biri hisoblanadi. Ushbu fan orqali talabalar tijorat banklarida audit o'tkazish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlar to'g'risida bilimga ega bo'ladi, xususan, bank auditini o'tkazilishini tashkil qilish, uning maqsad va vazifalari, bank auditini o'tkazilishining yuridik asoslari va tartibi, banklarni audit qiladigan auditorlik tashkilotlarni va yagona auditorlarni Markaziy bank tomonidan ro'yxatdan o'tkazish tartibi, yoki banklarni tekshirish uchun vakolat beradigan sertifikatlar berish tartibi, banklarda tashqi audit o'tkazish jarayoni, banklarda ichki auditni va ichki nazoratni tashkil qilish masalalari batafsil o'rgatiladi.

### Fanning maqsad va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiyalash sharoitida respublikamizda bank tizimi uchun yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi.

Fanning asosiy vazifasi – talabalarni bank tizimini barqaror faoliyat yuritishi uchun uning samarali boshqarish qonuniyatlari, bank auditini sifatli o'tkazilishi natijasida bankning barcha pul resurslarini barqaror ko'payib borishini ta'minlashga xizmat qiladi hamda ushbu sohalarda bank auditini mutaxassislarni mustaqil ishlashga tayyorlashdan iborat.

### Fan bo'yicha talabalarning tasavvur, bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

“Bank auditini” fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:

- banklarda bank auditining vazifalari;
- bank auditini turlari;
- bank auditining professional xizmatlari;
- auditorlik kasbiga malakaviy va axloqiy talablar;
- Banklarda ichki va tashqi auditning xususiyatlari *haqida tasavvurga ega bo'lishi;*

*bo'lishi;*

- banklarda auditorlik tekshiruvini o'tkazish usullarini;
- auditorlik tanlash usullarini;
- ichki va tashqi auditni tashkil etish qoidalarini;
- auditorlik tekshiruvlarida ma'lumotlarni tahlil qilishni *bilishi va ulardan foydalana olishi;*

*foydalana olishi;*

- bank auditida risk darajalarini aniqlash;
- kreditorlar va qimmatli qog'ozlar auditini;
- valyuta operatsiyalari auditini;
- tijorat banklarida asosiy vositalar va kam baholi, tez eskiruvchi buyumlarning auditini;

•bank daromadlari va harajatlari auditini tashkil etish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*:

- banklarni auditdan o'tkazish tartibi:
- ichki va tashqi auditdan o'tish tartibi bo'yicha *malakaga ega bo'lishi kerak*.

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi**

“Bank audit” -fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanadi. Dasturni amalga oshirish uchun talaba o'quv rejasida rejalashtirilgan “Bank ishi”, “Pul kredit va banklar”, “Bank statistikasi”, “Tijorat banklari faoliyatini tahlili”, “Banklarda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari”, “Banklarda buxgalteriya hisobi” fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

### **Fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni**

Banklarda auditorlik tekshiruvi - bu banklarning moliyaviy faoliyatini tekshirib, tuzilgan yillik hisobot bo'yicha xolis va haqqoniy xulosa berishdan iboratdir.

Shu boisdan ham “Bank audit” fani respublikamizdagi auditorlik faoliyati bo'yicha banklarni nazorat qilish va tartibga solishda muhim rol o'ynaydi.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning “Bank audit” fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida aqliy hujum, klaster, amaliy ish o'yini, portfolio, keys-stadi, didaktik o'yinlar, shuningdek, kompyuter dasturlaridan (AuditXP, 1S: Prof. Buxgalteriya, Buxgalteriya (VS), Balans, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, TopS Business Integrator, Hyperion Enterprise, WebTrust, SysTrust), slaydlardan, multimedia vositalaridan, internet sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

## **ASOSIY QISM**

### **Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni**

#### **1-mavzu. “Bank audit” fanining predmeti, metodi va vazifalari.**

Audit va auditorlik faoliyatining mohiyati. Bank auditining predmeti va metodi. Moliyaviy hisobot ma'lumotidan foydalanuvchilar. Auditning maqsadi va

vazifalari. Respublikada bank auditini rivojlanish bosqichlari. Bank auditiga doir qo'shimcha vazifalar va talablar.

## **2-mavzu. Bank auditining tashkil qilinishi va turlari**

Banklarda auditni tashkil etish masalalari. Auditning turlari. Audit o'tkazishning printsiplari. Auditga hamroh bo'ladigan xizmat turlari. Auditorning etikasi. Auditorning huquq va majburiyatlari. Auditorlarning mustaqilligi.

## **3-mavzu. Naqd pul va kassa operatsiyalarining auditi**

Bank kassa operatsiyalarini normativlar bilan tartibga solinishi. Banklarda kassa va kassa operatsiyalari auditining maqsadi, vazifalari va audit tekshiruv manbalari. Boyliklarni inventarizatsiya qilish, ularni saqlash va hisobini yuritish tartibini tekshirish. Tashkilotlardan bank kassasiga naqd pulni qabul qilish operatsiyalarini tekshirish. Tashkilotlarga naqd pul birliklarini berish tartibini tekshirish. Bank operatsion kassasi xulosasini va kassa xujjatlarini saqlash tartibini tekshirish. Kassa operatsiyasini tekshirish bo'yicha bank ichki nazorati materiallarini tahlil qilish.

## **4 -mavzu. Hisob-kitob operatsiyalari auditi**

O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida kredit tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan hisob-kitob operatsiyalarini tartibga solish normativlari. Hisob-kitob operatsiyalarini maqsadi, vazifalari va auditorlik tekshiruv manbalari. Tashkilotlarni hisob raqamini ochilishi va yuritilishi tartibiga rioya etilganligini tekshirish. Mijozning hisob raqami bo'yicha naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirilishini tekshirish. Banklararo hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshirish tartibiga rioya etilganligini auditdan o'tkazish.

## **5 -mavzu. Kredit operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisobga olish auditi (muammoli kreditlarning auditi)**

Kredit tashkilotlari mablag'larini joylashtirish va ular bo'yicha foizlar hisoblash operatsiyalarini O'zbekistonda tartibga solinishi. Kreditlash operatsiyalarini maqsadi, vazifalari va auditorlik tekshiruv manbalari. Har-xil turdagi kreditlarni berilishi, qaytarilishi va hisobotlarda ularni aks ettirilishi tartibi auditi. Bir martalik ssudalarni auditi. Berilgan ssudalarni sifati va ishonchli ta'minotini baholash. Banklararo berilgan kreditlarni auditi. Joylashtirilgan pul mablag'lariga hisoblangan va chegirib olingan foizlarni va ularni hisobini to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish. Kredit riskini baholash bo'yicha bankda qo'llaniladigan tartibga rioya qilib, ssudalar bo'yicha kutilayotgan yo'qotishlar uchun rezerv shakllantirishni to'g'riligi va to'liqligini tekshirish. Bank kredit siyosatini va kredit risklarini boshqarish sifatini baholash.



## **6-mavzu. Tijorat banklari daromadlari, harajatlari va foydasi auditi**

Bankning moliyaviy natijalari auditining maqsadi, vazifalari va auditorlik tekshiruvining manbalari. Kelgusi davr daromadlari va xarajatlarini tekshirish. Hisobot davri daromadlari va xarajatlarini tekshirish. Moliyaviy natijalarni to'g'ri shakllanishini, taqsimlanishini va bank foydasini ishlatilishini tekshirish.

## **7-mavzu. Debitorlar, kreditorlar va qimmatli qog'ozlar auditi**

Banklarda debitorlar, kreditorlar auditi. Kredit tashkilotlarida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni tartibga solinishi. Qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar auditining maqsadi, vazifalari va audit tekshiruvi o'tkazilishining manbalari. Bankni qarz majburiyatlari va aktsiyalarga tikkan qo'yilmalari auditi. Dilerlik faoliyati auditi. Brokerlik faoliyati auditi. Veksel operatsiyalarini tekshirish. Qimmatli qog'ozlar ta'minoti bo'yicha rezervlarni tashkil qilish va ishlatilishi tartibini tekshirish.

## **8-mavzu. Valyuta operatsiyalari auditi**

Valyuta raqamlarini to'g'ri ochilishi va yuritilishini tekshirish. Xorijiy valyutalarda operatsiyalarni o'tkazish va hisobini to'g'ri aks ettirish tartibi. Valyuta hisob raqamlarini qayta baholash operatsiyalarini va ochiq valyuta pozitsiyalarini yuritishni tekshirish. Bank konversion operatsiyalarini tekshirish. Mijoz topshiriqnomasiga asosan xorijiy valyutalarni sotib olish va sotish operatsiyalarini tekshirish. Mijozlarni eksport va import operatsiyalarini tekshirish. Bankni valyuta nazorati agenti funksiyasini bajarishini tekshirish.

## **9-mavzu. Tijorat banklarida asosiy vositalar, kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning auditi**

Banklarda asosiy vositalar auditining maqsadi. Asosiy vositalarning hisobini yuritilishi, baholanishi va qayta baholanishini tekshirish. Kam baholi aktivlar, tez eskiruvchi buyumlarni tekshirish. Kam baholi, tez eskiruvchi buyumlarni holati, saqlanishi va bank balansidan chiqarilishini tekshirish. Bankning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlari tekshiruvi bo'yicha auditorlik xulosasi va uning muhokamasi.

## **10-mavzu. Auditorlik risklari va auditorlik xulosalari.**

Auditorlik risklari, ularning mazmuni, turlari va sug'urtalash tartibi. Auditorlik xulosalarini belgilanish maqsadi. Auditorlik xulosalarining asosiy elementlari. Auditorlik xulosalarining turlari. Auditor fikriga va auditorlik xulosasiga ta'sir qiluvchi omillar. Maxsus maqsad uchun tayyorlanadigan xulosalar. Auditorlik xulosasini taqdim etilishi.

## **Amaliy mashg'ulotlar**

### **Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra pedagog-xodimlari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar, testlar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qullanmalar bo'yicha talabalar bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, tarqatma materiallar asosida bilimlarni o'zlashtirish, ilmiy maqolalar va tezislardan foydalanish, masalalar echish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rsatmali qurollar tayyorlash, qonun, qaror, me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foylanish lozim.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Audit sifatini ta'minlovchi omillar;
2. Tashqi audit standartlari va xulosalari;
3. Banklarda ichki audit tekshiruvlari;
4. Ichki audit xizmatining tashkiliy tuzilishi va faoliyati ko'lami;
5. Tashqi audit xizmatining tashkiliy tuzilishi va faoliyati ko'lami;
6. Iqtisodiy me'yorlarga rioya qilinishini auditdan o'tkazish ;
7. Banklarda kassa va kassa operatsiyalari auditining o'ziga xos xususiyatlari;
8. Banklarda naqd pul hamda boyliklarni saqlanishi auditi
9. Bankning ma'muriy boshqaruv xarajatlarini auditdan o'tkazish;
10. Kredit portfelini audit qilish;
11. Jamg'arma ishlarini auditdan o'tkazish;
12. Bank daromadlari va xarajatlarini auditdan o'tkazish;
13. Tavakkalchiliklarni aniqlash va auditdan o'tkazish;
14. Kam baholi, tez eskiruvchi buyumlarni audit qilish tartibi;
15. Auditorlik xulosalarini rasmiylashtirilishi;

### **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim mavzulari tegishli kafedra yig'ilishida tasdiqlanadi va fanning ishchi o'quv dasturida keltirib o'tiladi. Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Auditorlik tashkilotlar va auditorlarning huquqlari hamda majburiyatlari.
2. Naqd pul va boyliklarni audit qilish tartibi.
3. Mijozlarga ko'rsatilgan hisob-kitob operatsiyalari auditdan o'tkazish tartiblari.
4. Chet el valyutasidagi operatsiyalar va hisob-kitob shakllarining auditi.
5. Kredit operatsiyalarini rasmiylashtirish tartibi, ularni hisobga olishning auditi, uning o'tkazilish tartibi.

6. Muammoli kreditlarni audit qilishning mazmuni va tartiblari.
7. Faktoring operatsiyalari auditi, lizing operatsiyalari auditi.
8. Daromadlarning hisobi va byudjet bilan bog'liq munosabatlari auditi.
9. Xarajatlar hisobi auditi.
10. Bank faoliyati, uning faoliyati va xarajatlari auditi bo'yicha auditorlik xulosalari, ularning bank faoliyatini samarali olib borishdagi ahamiyati.
11. Qimmatli qog'ozlar bilan bank operatsiyalar audit, uning maqsadi va vazifalari.
12. Davlat qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalarni tekshirish. REPO bitimlarini tekshirish.
13. Debitorlar va kreditorlar bilan audit qilish tartibi.
14. Qimmatli qog'ozlar auditi.
15. Valyuta operatsiyalari auditi.
16. Tijorat banklarida asosiy vositalar va kam baholi, tez eskiruvchi buyumlarning auditi.
17. Auditorlik risklari va auditorlik xulosalari.

## **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.
6. Каралиев Т., Файзуллаева М. «Банковский аудит». Учебное пособие.- Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2014 у.
7. Norqobilov S.X., Abdusalomova N. “Bank auditi” o'quv qo'llanma. 2004 у. Т.: “Moliya”
8. Fayziyev Sh.N., Dusmuratov R.D., Karimov A.A., Kuziyev I.N., Avlokulov A.Z. Audit: Darslik -Т.: Iqtisod Moliya, 2015у. – 430 b.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Arens A., Lobbek D. “Аудит”. Учебник. Пер. с англ. 2007г.
2. Abdullaeva Sh.Z. “Bank ishi” Darslik Т.: - 2017 у.
3. Грачева М.Е. «Международные стандарты аудита»: Учебное пособие.- М.: Издательство ПРИОР, 2005 г. - 100 с.
4. Куница Н.Н. “Банковский аудит” М-“Финанси и статистика” 2005г.
5. Суркова М.А., Лешина Е.А., Богданова Н.А., Рябова М.А. Аудит банков: учебное пособие / - Ульяновск: УЛГТУ, 2009. - 147 с.
6. Смирнова Л. “Банковский аудит” Учебное пособие. Финанси и статистика. М.: - 2006 г.
7. Шевчук Д.А. “Основы банковского аудита” В.-Феникс 2007 г.
8. Щеремет А.Д. “Аудит” Учебник. Инфра-М.: - 2006 г.
9. Щеремет А.Д. «Финансовый анализ в коммерческом банке». – М Финанси и статистика 2007 г.

### **Internet saytlari:**

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) - (Ziyonet ta'lim portali);
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi);
3. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - (O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali);

4. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) - (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb sayti).

### **Fanning annotatsiyasi**

“Bank auditi” fani o’z ichiga fanning mazmuni, predmeti va vazifalari, banklarda auditni tashkil etish asoslari, bank auditining turlari, printsiplari, naqd pul va kassa operatsiyalari auditi, valyuta operatsiyalari auditi, kredit operatsiyalari auditi, asosiy vositalar auditi, audit risklari va ularni kamaytirish, audit xulosalarini tuzish tartibini o’rganish kabilarni o’z ichiga oladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

O`quv-uslubiy bo`lim tomonidan  
ro`yxatga olingan

№ \_\_\_\_\_  
2018 yil " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_

“TASDIQLAYMAN”

O`quv ishlari bo`yicha prorektor

\_\_\_\_\_ I.Qo`ziyev  
“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 yil



## BANK AUDITI

---

## ISHCHI O`QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200000 - Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq  
**Ta`lim sohasi:** 230000 - Iqtisod.  
**Ta`lim yo`nalishlari:** 5230700 - Bank ishi

Toshkent-2019

Fanning ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2018 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-sonli buyrug'i (buyruqning - ilovasi) bilan tasdiqlangan "Bank fuditi" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fanning ishchi o'quv dasturi Toshkent moliya instituti Kengashining 201\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi "\_\_\_"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

#### **Tuzuvchilar:**

- Yadgarova M.L. – "Bank hisobi va audit" kafedrası katta o'qituvchisi.  
Qurbonov R.B. – "Bank hisobi va audit" kafedrası katta o'qituvchisi.

#### **Taqrizchilar:**

- Karimov N.G – TDIU, "Bank ishi" kafedrası professori, i.f.d.  
(*turdosh OTMdan.*)  
Qodirov E.T. . – "Bank hisobi va audit" kafedrası dosenti, i.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi kafedraning 201\_\_ "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-sonli majlisida muhokama etilib, "Kredit-iqtisod" fakultet Kengashida ko'rib chiqishga tavsiya qilingan.

**Kafedra mudiri**

**i.f.n., dots. Z.Umarov**

Fanning ishchi o'quv dasturi "Kredit-iqtisod" fakulteti Kengashining 201\_\_ "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-sonli majlisida muhokama etilib, institut Kengashida ko'rib chiqishga tavsiya qilingan.

**Fakultet dekani**

**i.f.n., dots. R.Saidov**

**Kengash kotibi:..... i.f.n., dots. T.Baymuradov**

201\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_

## KIRISH

Ushbu dasturda uzviylik va uzluksizlik nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o'z aksini topgan audit va auditorlik faoliyatining mohiyati, O'zbekiston Respublikasining moliyaviy nazorat tizimida auditning tutgan o'rnini o'rganish Respublikamiz iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida auditorlik faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. «Bank audit» fanini chuqur o'rganish moliya, soliq, bank ishi, sug'urta va boshqa sohalar muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynaydi.

### Fanning maqsad va vazifalari

“Bank audit” fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni tijorat banklarida audit o'tkazish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlar to'g'risida bilimga ega bo'lishi, xususan, bank auditini tashkil qilishning yuridik asoslari va tartibi, banklarni audit o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlarni Markaziy bank tomonidan ro'yxatdan o'tkazish tartibi kabi masalalarini o'rgatish hamda egallagan bilimlari, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – talabalarga O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida auditorlik faoliyatini tashkil qilishning huquqiy asoslari va tashkiliy asoslari; auditorlik kasbga malakaviy va axloqiy talablari; auditda muhimlik tushunchasi va auditorlik riski; auditorlik tekshirishni rejalashtirish; auditorlik tekshirish vaqtida bankda ichki nazorat tizimini o'rganish hamda baholash; auditorlik dalillar; ekspert ishlaridan va boshqa auditorlik tashkiloti ma'lumotlaridan foydalanish; auditorlik tanlash; auditorlik hisoboti va xulosasi; asosiy vositalar audit; nomoddiy aktivlar audit; moliyaviy investitsiyalar audit; tovar-moddiy zahiralar audit; mahsulot ishlab chiqarish va sotishning audit; pul mablag'lari audit; hisob-kitoblar audit; bank xususiy kapitali audit haqida nazariy-amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

### Fan bo'yicha talabalarning tasavvur, bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

- bank auditning turlari va shakllari;
- bank auditning metodlari;
- auditning professional xizmatlari;
- auditorlik kasbga malakaviy va axloqiy talablar;
- ichki audit xususiyatlari **haqida tasavvurga ega bo'lishi**;
- tijorat bankda auditorlik tekshiruvini o'tkazish usullarini;
- auditorlik tashkilotining ishchi hujjatlarini;
- auditorlik tekshiruvlarida tahliliy amallarni qo'llashni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- banklarda auditning muhimlik va risk darajalarini aniqlash;



- bankda ichki auditni o'rganish va baholash;
- kredit va valuta operatsiyalari auditini o'tkazish;
- halqaro auditorlik tashkiloti ish tajribalaridan foydalanish;
- bank daromadlari va harajatlari auditini o'tkazish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;*
- auditorlik tekshiruvini rejalashtirish;
- auditda ekspert ishi natijalaridan foydalanish;
- joriy va uzoq muddatli aktivlar auditini tashkil qilish;
- moliyaviy natijalar auditini tashkil qilish *malakalariga ega bo'lishi kerak.*

### **Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uzviyligi**

Mazkur fanni o'rganish uchun bakalavr-iqtisodchi davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan quyidagi iqtisodiy fanlar bilan bevosita aloqada bo'ladi: Iqtisodiyot nazariyasi, Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar, Moliya, Pul, kredit va banklar, Soliqlar va soliqqa tortish, Boshqaruv hisobi, Moliyaviy hisob, Moliyaviy va boshqaruv tahlili va boshqa ixtisoslik fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

### **Fanning “Ta`lim-fan-ishlab chiqarish” integratsiyasi va innovatsiyon rivojlanishdagi o'rni**

Bank auditining maqsadi bu banklar moliyaviy faoliyatini tekshirib, xolis va haqqoniy xulosa berishdan iboratdir.

Shu boisdan ham “bank audit” fani respublikamizdagi banklarni nazorat qilish va tartibga solishda muhim rol o'ynaydi.

### **Fanni o'qitishda qo'llanilishi tavsiya etilayotgan pedagogik, axborot va internet texnologiyalari**

Talaba “Bank audit” fanini o'zlashtirishda ta'limning innovatsion usullaridan foydalanishi, yangi pedagogik, axborot va internet texnologiyalarini tadbiq qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Fanni o'zlashtirishda o'quv-uslubiy ta'minot (darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, Modul topshiriqlari)dan foydalanilish tavsiya etiladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda turli metod va vositalardan, xususan, aqliy hujum, klaster, amaliy ish va didaktik o'yinlar, portfolio, keys-stadi, shuningdek, kompyuter dasturlaridan (Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, TopS Business Integrator, Hyperion Enterprise, WebTrust, SysTrust) internet tizimlaridan foydalanish mumkin.

“Bank audit” fani 4 kurs “Bank ishi” yo'nalishida VIII semestrda, o'qitilib, unda ma'ruza, amaliy, mustaqil ta'lim mashg'ulotlari semestrlar bo'yicha quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi.

**5230700- Bank ishi ta`lim yo`nalishida “Bank auditi” fanidan o`tiladigan mavzular va ular bo`yicha mashg`ulot turlariga ajratilgan soatlar hajmining taqsimoti**

t/r	Fan mavzularining nomi	Jami	Shu jumladan		
			Ma`ruza	Amaliy mashg`ulot	Mustaqil ta`lim
1.	“Bank auditi” fanining predmeti, metodi va vazifalari	6	2	2	2
2.	Bank auditining tashkil qilinishi va turlari	12	4	4	4
3.	Naqd pul va kassa operatsiyalarining auditi	12	4	4	4
4.	Hisob-kitob operatsiyalari auditi	12	4	4	4
5.	Kredit operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisobga olish auditi (muammoli kreditlarning auditi)	12	4	4	4
6.	Tijorat banklari daromadlari, harajatlari va foydasi auditi	12	4	4	4
7.	Debitorlar, kreditorar va qimmatli qog`ozlar auditi	6	2	2	2
8.	Valyuta operatsiyalari auditi	8	2	2	4
9.	Tijorat banklarida asosiy vositalar va kam baholi, tez eskiruvchi buyumlarning auditi	8	2	2	4
10.	Auditorlik risklari va auditorlik xulosalalari.	8	2	2	4
	<b>JAMI</b>	<b>96</b>	<b>30</b>	<b>30</b>	<b>36</b>

**ASOSIY QISM**

**1. Fanning nazariy mashg`ulotlari mazmuni**

**1-mavzu. “Bank auditi” fanining predmeti, metodi va vazifalari.**

Audit va auditorlik faoliyatining mohiyati. Bank auditining predmeti va metodi. Moliyaviy hisobot ma`lumotidan foydalanuvchilar. Auditning maqsadi va vazifalari. Respublikada bank auditini rivojlanish bosqichlari. Bank auditiga doir qo`shimcha vazifalar va talablar.

## **2-mavzu. Bank auditining tashkil qilinishi va turlari**

Banklarda auditni tashkil etish masalalari. Auditning turlari. Audit o'tkazishning printsiplari. Auditga hamroh bo'ladigan xizmat turlari. Auditorning etikasi. Auditorning huquq va majburiyatlari. Auditorlarning mustaqilligi.

## **3-mavzu. Naqd pul va kassa operatsiyalarining auditi**

Bank kassa operatsiyalarini normativlar bilan tartibga solinishi. Banklarda kassa va kassa operatsiyalari auditining maqsadi, vazifalari va audit tekshiruv manbalari. Boyliklarni inventarizatsiya qilish, ularni saqlash va hisobini yuritish tartibini tekshirish. Tashkilotlardan bank kassasiga naqd pulni qabul qilish operatsiyalarini tekshirish. Tashkilotlarga naqd pul birliklarini berish tartibini tekshirish. Bank operatsion kassasi xulosasini va kassa xujjatlarini saqlash tartibini tekshirish. Kassa operatsiyasini tekshirish bo'yicha bank ichki nazorati materiallarini tahlil qilish.

## **4 -mavzu. Hisob-kitob operatsiyalari auditi**

O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida kredit tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan hisob-kitob operatsiyalarini tartibga solish normativlari. Hisob-kitob operatsiyalarini maqsadi, vazifalari va auditorlik tekshiruv manbalari. Tashkilotlarni hisob raqamini ochilishi va yuritilishi tartibiga rioya etilganligini tekshirish. Mijozning hisob raqami bo'yicha naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirilishini tekshirish. Banklararo hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshirish tartibiga rioya etilganligini auditdan o'tkazish.

## **5 -mavzu. Kredit operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisobga olish auditi (muammoli kreditlarning auditi)**

Kredit tashkilotlari mablag'larini joylashtirish va ular bo'yicha foizlar hisoblash operatsiyalarini O'zbekistonda tartibga solinishi. Kreditlash operatsiyalarini maqsadi, vazifalari va auditorlik tekshiruv manbalari. Har-xil turdagi kreditlarni berilishi, qaytarilishi va hisobotlarda ularni aks ettirilishi tartibi auditi. Bir martalik ssudalarni auditi. Berilgan ssudalarni sifati va ishonchli ta'minotini baholash. Banklararo berilgan kreditlarni auditi. Joylashtirilgan pul mablag'lariga hisoblangan va chegirib olingan foizlarni va ularni hisobini to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish. Kredit riskini baholash bo'yicha bankda qo'llaniladigan tartibga rioya qilib, ssudalar bo'yicha kutilayotgan yo'qotishlar uchun rezerv shakllantirishni to'g'riligi va to'liqligini tekshirish. Bank kredit siyosatini va kredit risklarini boshqarish sifatini baholash.

## **6-mavzu. Tijorat banklari daromadlari, harajatlari va foydasi auditi**

Bankning moliyaviy natijalari auditining maqsadi, vazifalari va auditorlik

tekshiruvining manbalari. Kelgusi davr daromadlari va xarajatlarini tekshirish. Hisobot davri daromadlari va xarajatlarini tekshirish. Moliyaviy natijalarni to'g'ri shakllanishini, taqsimlanishini va bank foydasini ishlatilishini tekshirish.

### **7-mavzu. Debitorlar, kreditorlar va qimmatli qog'ozlar auditi**

Banklarda debitorlar, kreditorlar auditi. Kredit tashkilotlarida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni tartibga solinishi. Qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar auditining maqsadi, vazifalari va audit tekshiruvi o'tkazilishining manbalari. Bankni qarz majburiyatlari va aktsiyalarga tikkan qo'yilmalari auditi. Dilerlik faoliyati auditi. Brokerlik faoliyati auditi. Veksel operatsiyalarini tekshirish. Qimmatli qog'ozlar ta'minoti bo'yicha rezervlarni tashkil qilish va ishlatilishi tartibini tekshirish.

### **8-mavzu. Valyuta operatsiyalari auditi**

Valyuta raqamlarini to'g'ri ochilishi va yuritilishini tekshirish. Xorijiy valyutalarda operatsiyalarni o'tkazish va hisobini to'g'ri aks ettirish tartibi. Valyuta hisob raqamlarini qayta baholash operatsiyalarini va ochiq valyuta pozitsiyalarini yuritishni tekshirish. Bank konversion operatsiyalarini tekshirish. Mijoz topshiriqnomasiga asosan xorijiy valyutalarni sotib olish va sotish operatsiyalarini tekshirish. Mijozlarni eksport va import operatsiyalarini tekshirish. Bankni valyuta nazorati agenti funksiyasini bajarishini tekshirish.

### **9-mavzu. Tijorat banklarida asosiy vositalar, kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning auditi**

Banklarda asosiy vositalar auditining maqsadi. Asosiy vositalarning hisobini yuritilishi, baholanishi va qayta baholanishini tekshirish. Kam baholi aktivlar, tez eskiruvchi buyumlarni tekshirish. Kam baholi, tez eskiruvchi buyumlarni holati, saqlanishi va bank balansidan chiqarilishini tekshirish. Bankning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlari tekshiruvi bo'yicha auditorlik xulosasi va uning muhokamasi.

### **10-mavzu. Auditorlik risklari va auditorlik xulosalari.**

Auditorlik risklari, ularning mazmuni, turlari va sug'urtalash tartibi. Auditorlik xulosalarini belgilanish maqsadi. Auditorlik xulosalarining asosiy elementlari. Auditorlik xulosalarining turlari. Auditor fikriga va auditorlik xulosasiga ta'sir qiluvchi omillar. Maxsus maqsad uchun tayyorlanadigan xulosalar. Auditorlik xulosasini taqdim etilishi.

## **2. Fanning amaliy mashg'ulotlari mazmuni**

### **1-mavzu. "Bank auditi" fanining predmeti, metodi va vazifalari.**

Audit va auditorlik faoliyatining mohiyati. Bank auditining predmeti va metodi. Moliyaviy hisobot ma'lumotidan foydalanuvchilar. Auditning maqsadi va vazifalari. Respublikada bank auditini rivojlanishi.. Bank auditiga doir qo'shimcha vazifalar.

## **2-mavzu. Bank auditining tashkil qilinishi va turlari**

Banklarda auditni tashkil etish masalalari. Auditning turlari. Audit o'tkazishning printsiplari. Auditga hamroh bo'ladigan xizmat turlari. Auditorning etikasi. Auditorning huquq va majburiyatlari. Auditorlarning mustaqilligi.

## **3-mavzu. Naqd pul va kassa operatsiyalarining auditi**

Bank kassa operatsiyalarini normativlar bilan tartibga solinishi. Banklarda kassa va kassa operatsiyalari auditining maqsadi, vazifalari va audit tekshiruvi manbalari. Boyliklarni inventarizatsiya qilish, ularni saqlash va hisobini yuritish tartibini tekshirish. Tashkilotlardan bank kassasiga naqd pulni qabul qilish operatsiyalarini tekshirish. Tashkilotlarga naqd pul birliklarini berish tartibini tekshirish. Bank operatsion kassasi xulosasini va kassa xujjatlarini saqlash tartibini tekshirish. Kassa operatsiyasini tekshirish bo'yicha bank ichki nazorati materiallarini tahlil qilish.

## **4 -mavzu. Hisob-kitob operatsiyalari auditi**

O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida kredit tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan hisob-kitob operatsiyalarini tartibga solish normativlari. Hisob-kitob operatsiyalarini maqsadi, vazifalari va auditorlik tekshiruvi manbalari. Tashkilotlarni hisob raqamini ochilishi va yuritilishi tartibiga rioya etilganligini tekshirish. Mijozning hisob raqami bo'yicha naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirilishini tekshirish. Banklararo hisob-kitob operatsiyalarni amalga oshirish tartibiga rioya etilganligini auditdan o'tkazish.

## **5 -mavzu. Kredit operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisobga olish auditi (muammoli kreditlarning auditi)**

Kredit tashkilotlari mablag'larini joylashtirish va ular bo'yicha foizlar hisoblash operatsiyalarini O'zbekistonda tartibga solinishi. Kreditlash operatsiyalarini maqsadi, vazifalari va auditorlik tekshiruvi manbalari. Har-xil turdagi kreditlarni berilishi, qaytarilishi va hisobotlarda ularni aks ettirilishi tartibi auditi. Bir martalik ssudalarni auditi. Berilgan ssudalarni sifati va ishonchli ta'minotini baholash. Banklararo berilgan kreditlarni auditi. Joylashtirilgan pul mablag'lariga hisoblangan va chegirib olingan foizlarni va ularni hisobini to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish. Kredit riskini baholash bo'yicha bankda qo'llaniladigan tartibga rioya qilib, ssudalar bo'yicha kutilayotgan yo'qotishlar

uchun rezerv shakllantirishni to'g'riligi va to'liqligini tekshirish. Bank kredit siyosatini va kredit risklarini boshqarish sifatini baholash.

### **6-mavzu. Tijorat banklari daromadlari, harajatlari va foydasi auditi**

Bankning moliyaviy natijalari auditining maqsadi, vazifalari va auditorlik tekshiruvining manbalari. Kelgusi davr daromadlari va xarajatlarini tekshirish. Hisobot davri daromadlari va xarajatlarini tekshirish. Moliyaviy natijalarni to'g'ri shakllanishini, taqsimlanishini va bank foydasini ishlatilishini tekshirish.

### **7-mavzu. Debitorlar, kreditorlar va qimmatli qog'ozlar auditi**

Banklarda debitorlar, kreditorlar auditi. Kredit tashkilotlarida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni tartibga solinishi. Qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar auditining maqsadi, vazifalari va audit tekshiruvi o'tkazilishining manbalari. Bankni qarz majburiyatlari va aktsiyalarga tikkan qo'yilmalari auditi. Dilerlik faoliyati auditi. Brokerlik faoliyati auditi. Veksel operatsiyalarini tekshirish. Qimmatli qog'ozlar ta'minoti bo'yicha rezervlarni tashkil qilish va ishlatilishi tartibini tekshirish.

### **8-mavzu. Valyuta operatsiyalari auditi**

Valyuta raqamlarini to'g'ri ochilishi va yuritilishini tekshirish. Xorijiy valyutalarda operatsiyalarni o'tkazish va hisobini to'g'ri aks ettirish tartibi. Valyuta hisob raqamlarini qayta baholash operatsiyalarini va ochiq valyuta pozitsiyalarini yuritishni tekshirish. Bank konversion operatsiyalarini tekshirish. Mijoz topshiriqnomasiga asosan xorijiy valyutalarni sotib olish va sotish operatsiyalarini tekshirish. Mijozlarni eksport va import operatsiyalarini tekshirish. Bankni valyuta nazorati agenti funksiyasini bajarishini tekshirish.

### **9-mavzu. Tijorat banklarida asosiy vositalar, kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning auditi**

Banklarda asosiy vositalar auditining maqsadi. Asosiy vositalarning hisobini yuritilishi, baholanishi va qayta baholanishini tekshirish. Kam baholi aktivlar, tez eskiruvchi buyumlarni tekshirish. Kam baholi, tez eskiruvchi buyumlarni holati, saqlanishi va bank balansidan chiqarilishini tekshirish. Bankning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlari tekshiruvi bo'yicha auditorlik xulosasi va uning muhokamasi.

### **10-mavzu. Auditorlik risklari va auditorlik xulosalari.**

Auditorlik risklari, ularning mazmuni, turlari va sug'urtalash tartibi. Auditorlik xulosalarini belgilanish maqsadi. Auditorlik xulosalarining asosiy elementlari. Auditorlik xulosalarining turlari. Auditor fikriga va auditorlik

xulosasiga ta'sir qiluvchi omillar. Maxsus maqsad uchun tayyorlanadigan xulosalar. Auditorlik xulosasini taqdim etilishi.

### 3. Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

### 4. Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Fan bo'yicha kurs ishlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

### 5. Mustaqil ta'limning shakl va mazmuni

Mustaqil ta'lim talabning bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, auditni o'rganishda fanning biror bir mavzusini to'laroq o'zlashtiradi va mavzu belgilangan shaklda bajariladi. Mustaqil ishni bajarishdan maqsad, talabning o'qishi davomida olgan bilimni mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi. Mustaqil ta'lim uchun o'quv va ishchi o'quv rejada 24 soat ajratilgan. Ushbu soat talabning amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, oraliq nazoratlarda, yakuniy nazoratda va boshqa mustaqil shug'ulanishini o'z ichiga oladi.

### “Bank auditi” fani bo'yicha mustaqil ta'limning mazmuni

Fani bo'yicha mazmuni	Mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar
“Bank auditi” fanining predmeti, metodi va vazifalari	“Bank auditi” fanining predmeti va ob'ekti.	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar
Bank auditining tashkil qilinishi va turlari	Bank auditini tashkil qilinishi	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar
Naqd pul va kassa operatsiyalarining auditi	Kassada naqd pul operatsiyalarining auditi	Keys stadi tayyorlash
Hisob-kitob operatsiyalari auditi	Haqd pulsiz hisob-kitob operatsiyalari auditi	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar
Kredit operatsiyalarini rasmiylashtirish va hisobga olish auditi (muammoli kreditlarning auditi)	Muammoli kreditlarning auditi	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar
Tijorat banklari daromadlari, harajatlari va foydasi auditi	Tijorat banklari moliyaviy natijalari auditi	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar
Debitorlar, kreditorar va qimmatli qog'ozlar auditi	Debitorlar, kreditorar va qimmatli qog'ozlar auditi	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar
Valyuta operatsiyalari auditi	Valyuta ayirboshlanishi auditi	Keys stadi tayyorlash
Tijorat banklarida asosiy vositalar va kam baholi, tez eskiruvchi buyumlarning auditi	Tijorat banklarida kam baholi, tez eskiruvchi buyumlarning auditi	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar

Auditorlik risklari va auditorlik xulosalari.	Auditorlik xulosalari	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va Slaydlar
Auditorlik tekshirishni rejalashtirish	Auditorlik rejasi va dasturini tuzish	Keys stadi tayyorlash
Auditorlik tekshirish vaqtida buxgalteriya hisobi tizimini va ichki nazoratini o'rganish hamda baholash	Ichki nazorat tizimini baholash tartibi	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar
Auditorlik tanlash	Auditorlik tanlash usullari	Loyiha ishi tayyorlash, taqdimot va slaydlar
<b>Jamio</b>		

## 6. Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash va nazorat qilish me'zonlari

Baholash usullari	Baholash mezonlari
Testlar, yozma ishlar, og'zaki savol-javoblar.	<b>86-100 ball "a'lo"</b> : Fanga oid nazariy bilimlarni to'la o'zlashtira olish. Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Tasavvurga ega bo'lish.
	<b>71-85 ball "yaxshi"</b> : Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
	<b>55-70 ball "qoniqarli"</b> : Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Ma'lum bir tasavvurga ega bo'lish.
	<b>0-54 ball "qoniqarsiz"</b> : Fan bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni bilmaslik

### Reyting baholash turlari

Joriy nazorat	36
Oraliq nazorat	34
Yakuniy nazorat	30
Jami	100

### Joriy nazorat

Joriy nazorat		Maksimal ball	O'tkazish vaqti
Joriy nazorat (20 ball)	MT (16 ball)	36	Semestr davomida
Joriy nazorat darslarga aktiv ishtiroki va o'zlashtirish darajasi, mashg'ulot daftarlarining yuritilish holati va mavzular bo'yicha vazifalarining bajarilishini e'tiborga olish orqali amalga oshiriladi.	Mustaqil ta'limni baholash topshiriqlarining portfoliosi (prezentatsiya, testlar, yozma ish variantlari, keys stadilar) orqali amalga oshiriladi		

### Oraliq nazorat

Oraliq nazorat		Maksimal ball	O'tkazish vaqti
№	Oraliq nazorat (24 ball)	34	Semestr davomida
I	Oraliq nazorat ma'ruza darslarida aktivligi, mashg'ulot daftarlarining yuritilish holatini e'tiborga olish va oraliq nazorat nazorat ishining baholanishi orqali amalga oshiriladi. (24 ball)	34	Oraliq nazorat davomida (8-semestr uchun 23-32-haftalar)

### Yakuniy nazorat



№	Yakuniy nazorat	Maksimal ball	O'tkazish vaqti
1	Yakuniy nazorat semestr yakunida yozma ish, test yoki og'zaki shaklda o'tkaziladi.	30	Attestatsiya haftasi davomida, (8-semestr uchun 33-hafta)

## 7. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

### Asosiy adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 104 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-48 b.
6. Karaliyev T., Sattopov O., Sayfiddinov I. “Tijorat banklari faoliyati tahlili” TMI. 2012y.
7. Файзиев Ш., Каримов А. Аудит. Учебное пособие. – Т.: “ИQTISOD-MOLIYA”, 2013. – 328 стр.
8. Wally Smieliauskas, Kate Bewley. Auditing: An International Approach Hardcover. McGraw-Hill Ryerson; 6 edition. 800 pages. 2014.
9. David O'Regan. International Auditing: Practical Resource Guide 1st Edition, Wiley; 1 edition, 312 pages. 2015.
10. Fayziyev Sh.N., Dusmuratov R.D., Karimov A.A., Qo'ziyev I.N., Avlokulov A.Z. Audit. Darslik. –Т. OQTISOD-MOLIYA, 2015. -392 b.
11. Fayziyev Sh.N., Dusmuratov R.D., Karimov A.A., Qo'ziyev I.N., Avlokulov A.Z. Audit. Darslik. –Т. OQTISOD-MOLIYA, 2015. -392 b.
12. Norqobilov S., Absalomova O.”Banklarda audit” O`quv qo`llanma T: Toshkent-ma`nariyat 2005y.
13. Банковское дело. Учебник . /Под. Ред. Белоглазовой М “ФИС”. 2006-592 стр.
14. Белоглазова Г.Н. Банковское дело, 5-е изд., перераб. и доп. Учебник 2008. 320 ст. Фи.С.

15. Ermatov M.K. Bank nazorati va auditini takomillashtirish muammolari. Monografiya. / M.K. Ermatov. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. - 144 s.

16. Omonov A., Karaliyev T.M. Banklarda buxgalteriya hisobi - T.: MOLIYA – IQTISOD 2014 y.

17. Karaliev T.M., Sattorov O.B., Sayfiddinov I.F. “Tijorat banklari faoliyati tahlili” TMI. 2012y.

#### **Qo’shimcha adabiyotlar:**

19. O’zbekiston Respublikasining «O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki to’g’risida»gi Qonuni 1995 y.

20. O’zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to’g’risida»gi Qonuni 1996 y.

21. O’zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to’g’risida»gi Qonuni 2016 y.

22. O’zbekiston Respublikasi “Bank siri to’g’risida” gi Qonuni 2003 y.

23. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi “2011-2015 yillarda respublika bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko’rsatkichlariga erishish bo’yicha chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ 1438- sonli Qarori

24. Вешкин Ю.Г., Авагян Г.Л. Экономический анализ деятельности коммерческого банка. Магистр. 2010- 352б.

25. Жарковская Э. Финансовый анализ деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: “Омега-Л”, 2011 г. – 325 стр.

26. Norqobilov S., Dadaboyeva X., Juraev U. “Halqaro amaliyotda bank nazorati” Darslik T: «Iqtisod-Moliya», 2007y. - 180 б.

27. Норқобилов С., М.Файзуллаева Надзор и анализ банков. Учебное пособие. ТМИ 2007 г.

28. Рейтинговое Агентство «Ахбор-Рейтинг» Аналитический обзор банковского сектора: №22, феврал 2012-2013 г.

29. Ermatov M.K. “Bank nazorati va auditni takomillashtirish muammolari”. Monografiya. / M.K.Ermatov. - T.: «Iqtisod-Moliya», 2008. - 144 б.

#### **Internet saytlari:**

– [www.lex.uz](http://www.lex.uz) (O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi)

– [www.aicpa.org](http://www.aicpa.org) (American Institute of Certified Public Accountants)

– [www.mf.uz](http://www.mf.uz) (O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti).





















## Talaba portfoliosini yaratish bo'yicha tavsiyalar

### O'quv portfoliosi

Hozirgi kunda oliy ta'limda foydalanilayotgan talabalar bilimni baholash test reyting tizimiga asoslangan bo'lib, talaba bilimni baholashda asosiy hal qiluvchi shaxs fan o'qituvchisi hisoblanadi. **Albatta reyting tizimining o'ziga xos ijobiy tomonlari ko'p. Lekin, shu bilan bir qatorda kamchiliklardan ham xolis emas.**

**Ushbu kamchiliklarga asosan quyidagilarni keltirishimiz mumkin:**

- ✓ talaba bilimi, uquvi va malakasi bir tomonlama, ya'ni faqat fan o'qituvchisi tomonidan baholanadi;
- ✓ baholashda talabaning faqat muayyan fan bo'yicha bilimi hisobga olinadi;
- ✓ talabaning umumiy va kasbiy nutq madaniyatini shakllanishiga to'sqinlik qiladi;
- ✓ bo'lajak kadrda kasbiy kompetentlikni shakllanganlik darajasini to'liq aniqlash imkoniyati cheklangan;
- ✓ oliy o'quv yurtidagi o'quv davri yakuni bo'yicha aniqlangan umumiy ball ish beruvchilarga tayyorlangan kadrning sifati to'g'risida to'liq xulosa bermaydi;
- ✓ talabaning umumiy reyting balini aniqlashda uning boshqa sohalarda erishgan yutuqlarini hisobga olish imkoniyati kam;
- ✓ bitiruvchiga tayyor kadr sifatida o'z-o'ziga ishonch, o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari va kasbiy kompetentlikga tayyorligi to'g'risida o'zi xulosa chiqarishiga asos yaratmaydi;
- ✓ talabada refleksiya qobiliyatini hosil bo'lishiga to'liq sharoit yaratmaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, xalqaro ta'lim tizimidagi innovatsion o'zgarishlar, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimidagi ijobiy, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga tayangan holda talabalarda umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv, o'quv- uslubiy, ilmiy va o'qishdan tashqari faoliyat natijalarini to'g'ri baholashga yo'naltirilgan nazorat qilish va baholashning innovatsion shakllaridan foydalanish «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadiga muvofiq hisoblanadi.

Talabaning oliy o'quv yurtidagi barcha turdagi faoliyatlarini nazorat qilish va baholashning innovatsion texnologiyalaridan biri sifatida «Talaba portfoliosi» etakchi o'rin egallaydi. Ushbu texnologiya ayniqsa rivojlangan g'arb davlatlari oliy ta'lim tizimida keyingi yillarda keng qo'llanilmoqda. Rossiyada esa 2003 yildan e'tiboran ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, jumladan boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasbiy ta'lim va oliy ta'limda joriy etilgan.

«Portfolio» faoliyatning turli yo'nalishlari bo'yicha talabaning shaxsiy yutuqlarini tasdiqlovchi hujjatlar majmuidir. Portfolioni yaratish talabaning ijodiy faoliyati hisoblanib, unga turli xil soha (o'quv, ilmiy—izlanish, sport, ijodiy, ijtimoiy va b.) bo'yicha faoliyat natijalari oliy o'quv yurtida o'qish jarayoni davrida talaba tomonidan kiritiladi.

Portfolioni yaratishdan asosiy maqsad talabaning oliy o'quv yurtidagi o'qish jarayoni davrida erishgan yutuqlari to'g'risidagi daliliy hujjatlarni to'plash va saqlashdan iborat. Portfolio nafaqat talabaning ta'lim sohasidagi faoliyati natijalarini o'zi tomonidan baholashning samarali shakli bo'lib qolmasdan, quyidagilarga imkoniyat tug'diradi:

- ✓ ta'lim sohasidagi yutuqlarni dalillashtiradi;
- ✓ ish raqobati bo'yicha tajriba ortdiradi;
- ✓ kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun mustaqil ta'limni amalga oshiradi;
- ✓ o'zining kasbiy kompetentlik darajasini ob'ektiv baholash
- ✓ malakasini rivojlantiradi;
- ✓ bo'lajak mutaxassisning raqobatbardoshligini oshiradi.

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida ushbu texnologiyaning qo'llanilishi amaldagi talaba bilimni baholashning test reyting tizimini inkor etmaydi, aksincha uni to'ldiradi. Rivojlan- tiruvchi ta'limga, insonparvar pedagogika nuqtai nazaridan shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tishga, talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish bo'yicha refleksiya hosil qilishga sharoit yaratadi.

Portfolio talabaning turli sohalardagi faoliyati, jumladan o‘quv-tarbiyaviy, ijodiy, ijtimoiy, kommunikativ va boshqalar bo‘yicha erishgan natijalari sifatini baholash imkonini beradi.

**Portfolioning asosiy maqsadi** - talabaning ta‘lim jarayonidagi faoliyati bo‘yicha hisobot taqdim etish, uning alohida erishgan ta‘lim natijalarini yaqqol tasavvur qilish, ta‘lim tizimida o‘z-o‘zini rivojlantirishini ta‘minlash, qobiliyatlarini namoyish etish hamda bilim va malakalarini amalda qo‘llashga o‘rgatishdan iborat.

Portfolio asosida talaba erishgan yutuqlar va bilim olish jarayoni natijalarini sifat jihatidan va soniy baholash mumkin.

Portfolio nafaqat baholashning zamonaviy samarali shakli, balki quyidagi muhim pedagogik vazifalarni echishda foydalanuvchi texnologiya hamdir:

- talabaning yuqori o‘quv mazmunini qo‘llab-quvvatlash;
- talabaning faolligi va mustaqilligini rag‘batlantirish, ta‘lim olish va mustaqil ta‘lim olishni kengaytirish;
- reflektiv bilim va o‘z-o‘zini ob‘ektiv baholash faoliyatini rivojlantirish;
- mustaqil o‘qish malakasini, shaxsiy o‘quv faoliyati maqsadini belgilash, rejalashtirish va tashkil etish qobiliyatini shakllantirish;
- talabaning individual ta‘limiga ko‘mak berish;
- bilimlarni ijobiy umumlashtirish uchun qo‘shimcha
- sharoitlar va imkoniyatlar yaratish.

Portfolioni yuritilishi talabaning bilim olish faolligini, o‘zining maqsad va imkoniyatlarini bilish darajasini oshiradi. Talabada o‘z bilim va imkoniyatlarini, iqtidorini baholash va u asosida maqsadni to‘g‘ri va aniq belgilash, kelajakni o‘ziga ishonib rejalashtirish, olgan bilimlarini hayotda amalda qo‘llashga ishonish hissi paydo bo‘ladi.

**Talaba portfoliosini yaratishdan maqsad** portfolio talabaning ma‘lum fan bo‘yicha barcha ishlarini to‘liq yoritishi kerak. U o‘z ichiga fan bo‘yicha barcha turdagi topshiriqlar, loyihalar, ma‘ruzalar, yozma ishlarni qamrab olishi, talabaning ushbu fan bo‘yicha muvaffaqiyatlarini, fanga munosabatini, fanni o‘zlashtirishi va

tushunishini, muammoli topshiriqlarni bajarish va kommunikativ qobiliyatini, uning kelajakda ushbu fan bo'yicha intilishlari va o'zlashtirishini, o'zlashtirish usullarini ko'rsatib berishi zarur. Aniqlilik va nutq, fikrni bayon qilish madaniyati «portfolio» sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Portfolioni yaratishda asosan quyidagilarga ahamiyat berish talab etiladi:

-talabning mustaqil fikrlashi;

-«portfolio» yaratishning vaqt oralig'ini belgilash ( semestr, o'quv yili yoki butun o'quv jarayoni bo'yicha);

-fan bo'yicha erishilgan bilimlarning o'zaro bog'liqligi va asoslanganligi;

-taklif etilgan ishlar (loyihalar, mustaqil ishlar, referatlar va b.) bo'yicha talabning o'z bahosi;

-muammollarni hal etish jarayoni, yo'llari.

«**Talaba portfoliosi**» - talabning bilish jarayonidagi ijodiy mehnati natijalarini o'zi tomonidan ob'ektiv baholash instrumenti, shaxsiy faoliyati refleksiyasidir. U hujjatlar to'plami sifatida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

❖ talabaga «portfolio»ga joylashtirish uchun materiallar tanlash bo'yicha topshiriqlar, ko'rsatmalar;

❖ talabning ijodiy faoliyatlari bilan jiddiy tanishib borish, portfelga joylashtirilgan faoliyat turlarini baholash omillari va mezonlari;

❖ portfolioni ob'ektiv baholash uchun ekspertlar guruhi anketasi.

Bunday «portfolio»ni an'anaviy usulda yoki elektron shaklda ta'lim muassasi saytida, oddiy Word formatida yaratish mumkin.

Talaba o'z xohishiga ko'ra yoki o'qituvchi topshirig'i asosida o'zining turli ijodiy sohalardagi mustaqil ishlarini ma'lum ketma-ketlik asosida o'z portfoliosiga joylashtiradi. Materiallar bir semestr bo'yicha, o'quv yili bo'yicha yoki butun o'quv yillari bo'yicha olinishi mumkin. «Portfolio» yoki undagi alohida ishlar talaba tomonidan oldindan izohlanadi, ya'ni nima uchun u aynan ushbu faoliyat turini tanladi, bu faoliyat turi bo'yicha u qanday natijalarga erishdi yoki erisha olmadi, o'qituvchining ushbu ish bo'yicha bergan bahosidan rozimi, ushbu ish natijalari bo'yicha qanday xulosalarga ega. Albatta har qanday bunday ish yo'l

qo'yilgan xatolarni asosli ravishda tahlil qilishni talab etadi. Uqituvchi alohida talabaga yoki talabalar guruhiga o'z fani bo'yicha shunday «portfolio» yaratishni taklif qilishi va uning tarkibini ko'rsatib berishi mumkin. Bunday «portfolio»ning asosiy maqsadi talabaning o'z faoliyatini fikrlab, asoslab va aniq dalillar asosida baholash qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. Belgilangan vaqt o'tgach (semestr yoki o'quv yili) yoki aniq hajmdagi ishlar tugagach, talabaning xohishi bilan ushbu dastur yoki loyiha bo'yicha talaba o'z portfoliosini taqdimot qilishi mumkin. Dastlab taqdimotni kichik guruhda, keyin esa katta auditoriyada tashkil etish lozim. Agar «portfolio» elektron shaklda yaratilgan bo'lsa, talaba o'z hamkorlariga (talabalarga) yoki o'qituvchiga o'z parolini oshkor qilib, ushbu «portfolio» sahifalariga kirishiga ruxsat beradi va taqdimot tugagach parolni o'zgartiradi. Talaba faoliyatini, ya'ni «portfolio» mazmunini baholash uchun o'qituvchi maxsus ekspertlar belgilaydi. Materiallarni mashg'ulot davrida muhokama qilish mumkin bo'ladi. Agar buning uchun alohida vaqt, o'quv soati ajratilmagan bo'lsa off-line telekonferensiya rejimida yoki darsdan tashqari vaqtda ta'lim muassasi sayti forumida amalga oshirish mumkin. Bunday forumda talaba o'zi tanlagan yoki o'qituvchi tomonidan taklif etilgan bilim sohasi bo'yicha butun kuchini berganligini, uning o'z faoliyatiga bergan bahosi o'qituvchi va ekspertlar guruhi tomonidan berilgan bahoga mos yoki mos emasligini isbotlashi zarur. U baholarni qaysi jihatdan to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini ko'rsatishi va o'zining kelajakdagi ushbu bilim sohasidagi ijodiy faoliyati rejalari bilan xulosalashi lozim.

Agar talabalar o'qituvchining o'ziga nisbatan yaxshi, ochiq va samimiy munosabatda ekanliklarini his qilishsa, albatta o'z fikrlari, tajribalari va kuzatish natijalari bilan o'rtoqlashadilar. Chunki, har qanday talaba yoki shaxs o'z ijodiy mehnati natijalari bo'yicha boshqalar fikriga bee'tibor bo'lishmaydi. Faqat shu yo'l bilangina shaxsni kamol toptirish, o'stirish mumkin. Agar talabada bunday ishonch bo'lmasa, ochiq muloqat yuzaga kelmaydi. Talaba yuqorida ko'rsatilgan «portfolio»ni yuritganda ham odatdagidek sukut saqlaydi.



Talabalarni bunday texnologiya asosida tarbiyalash va ularga ta'lim berish rivojlangan davlatlarda allaqachon o'z o'rnini topgan, chunki Internet bu texnologiyani joriy etish uchun bir qancha qulayliklarni yarata oladi.

«Talaba portfoliosi» nafaqat akademik o'zlashtirish, balki talabaning kommunikativ muvaffaqiyatlari, muomula madaniyati, sport va jamoat ishlaridagi faolligi bo'yicha ham yuritilishi mumkin. Bunday «portfolio» muhokamasida (taqdimotida) ota-onalarni ham faol ishtirok etishlarini ta'minlash yanada yaxshi natijalarga olib keladi. Ota-onalar o'z farzandlari faoliyati natijalarini baholashlari uchun o'qituvchi tomonidan yoki ekspert guruh tomonidan taklif etilgan baholash mezonlari va parametrlaridan foydalanishlari mumkin.

Bunday «portfolio» muallifining o'z fikrlari va o'z-o'zini baholash natijalari muhokamasida ushbu texnologiya prinsiplari va baholash mezonlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Aniq bilim sohasidagi faoliyat bo'yicha o'z-o'zini baholash natijalari quyidagi omillar bilan asoslanadi:

- ❖ ma'lum fan sohasi bo'yicha bilimlarni o'quv dasturiga mos kelishi;
- ❖ bilish jarayonida talabaning mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyati, o'z qarorlarining oqibatlarini bilish darajasi;
- ❖ talabaning kommunikativ qobiliyatlarini xususiyatlari (bahslarda qatnashish, o'z qarorlarini asoslay olishi, materiallarni ravon va sodda tilda tushuntirib bera olishi).

2. Tizimli va muntazam o'z monitoringini olib borishi. Talaba biror fan bo'yicha o'z yutuqlarini nazorat qilib borishni maqsad qilib olsa, u ushbu fan bo'yicha muhim deb hisoblagan bilimlarini tizimiy ravishda «portfolio»ga joylashtirib boradi. Uning vazifasi- ushbu ishlarni diqqat bilan tahlil qilib borish, kerakli o'zgartirishlar kiritish, unga tushuntirishlar berish, o'z-o'zini baholash bo'yicha qisqa hisobot tayyorlash, ya'ni ushbu bilim sohasi bo'yicha u nimalarni o'zlashtirdi, nimalarni o'zlashtira olmadi yoki tushunmadi, kelajakda nimalarga e'tibor qaratishi lozim. Shuningdek u bu erda o'z bilimlariga o'qituvchi, ekspertlar va ota-onasi tomonidan qo'ygan baholarga ham fikrini bildirishi mumkin.

3. «Portfolio» materiallari tarkibi, barcha yozma tushuntirishlarning mantiqiyliigi va aniqliigi.

4. «Portfolio»da keltirilgan materiallarni to'liqligi va mazmunan tugallanganligi.

5. «Portfolio»ni tartib bilan va estetik jihatdan did bilan yaratilganligi.

6. «Talaba portfoliosi» taqdimotini ko'rgazmali, yaqqol va asoslangan holda bo'lishi.

### **Talaba portfoliosining komponentlari**

Portfolio tarkibi talabaning semestr yoki o'quv yili davomidagi mustaqil ishlaridan iborat bo'lmog'i lozim. Talaba ushbu «portfolio» orqali anjumanlarda chiqish qilib, o'zining mustaqil fikrlashga, fan bo'yicha olgan bilimlarini ijodiy amalda tadbiq etishga qodirligini namoyish etgan holda, o'z-o'ziga ushbu bilim doirasi bo'yicha shaxsan bahosini beradi. Bu talabaga o'z yutuqlari, olgan bilimlari va ijodiy ishlarini mustaqil tahlil qilish va unga o'z bahosini berish, uni o'qituvchi yoki hamkorlari bilan baham ko'rish imkonini yaratadi.

Bunday «portfolio» tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- ❖ tituli;
- ❖ mazmuni;
- ❖ har bir materialning qisqacha mazmuni va talaba uchun tushunchalar;
- ❖ nima uchun ushbu material yoki bilim sohasi olinganlik sababi;
- ❖ portfolio o'qituvchi va talabaning o'zi tomonidan qanday baholanganligi;
- ❖ fan bo'yicha yutuqlari tarixi;
- ❖ «portfolio»ni yaratish muddati va taqdimot vaqti.

Muallifga «portfolio»ni yaratishda to'liq erkinlik beriladi.

Talabaning dunyoqarashlari, fikrlarining mantiqiyliigi, nutq va bayon etish madaniyati, o'z fikrini isbotlay olishi kabi omillar uning faoliyatini baholashda

asosiy mezonlardan biri sifatida foydalaniladi. Ayrim hollarda o'qituvchi «portfolio» tarkibiga o'z talablarini qo'yishi ham mumkin.

Portfolio tarkibi quyidagi materiallardan iborat bo'lishi mumkin:

**Titul varaqa** - «portfolio»ni nomi, talaba f.i.sh., fanning nomi, «portfolio»ni yuritish davri (semestr yoki o'quv yili), boshlanish va tugash sanasi, o'qituvchi f.i.sh.

### **«Portfolio» tarkibi:**

✓ fan bo'yicha talabanning erishgan yutuqlari (shaxsiy faoliyat natijalari tahlili, nimani o'zlashtirish oson, nima qiyin kechyapdi, ushbu qiyinchiliklar mohiyati nimada va b);

✓ yozuvlar, ma'ruzalar, uy vazifalari (fanning turli bo'limlari bo'yicha kamida 8 ta topshiriq beriladi, albatta bunda mustaqil fikrlash qobiliyati, fikrlarning originalligi hisobga olinadi, talaba bitta muammo yoki topshiriq echimining turli xil yo'llarini ko'rsatishi zarur;

✓ nazorat va mustaqil ishlar (kamida 3 ta mavzu bo'yicha 5-6 ta mustaqil ish);

✓ testlar;

✓ axborot texnologiyalaridan foydalanish (axborot texnologiyalari foydalanilgan kamida 2 ta misol, dasturiy material);

✓ guruhli loyihalar (talaba ishtirok etgan har bir loyiha batafsil yoziladi);

✓ sizning sevimli ishingiz;

✓ talaba faoliyati bo'yicha baholar (o'qituvchi va ekspertlar bahosi).

**Portfolio bo'yicha izohlar.** Taqdimotga tavsiya etilayotgan «Portfolio» materiallari puxta o'ylangan, «portfolio»da keltirilgan barcha materiallar bo'yicha muallifning shaxsiy fikrlari yoritilgan bo'lishi zarur. U talabanning ushbu fan bo'yicha olgan bilimlari, bo'sh tomonlari, kelajakdagi rejalarining to'liq mazmunini ko'rsatishi lozim.

### **Talaba portfoliosining turlari**

**1. Hujjatlar portfoliosi** - ta'lim sohasidagi shaxsiy yutuqlar uchun berilgan sertifikatlangan hujjatlar to'plami (sinov daftarchasi, diplomlar, sertifikatlar,

guvohnomalar va b.) Bu ma'lumotlar portfolioni sifat va soniy jihatdan ob'ektiv baholash imkonini beradi. Materiallar jadval ko'rinishida bosqichlarga bo'linib, ball hisobida baholangan holda beriladi. Hujjatlar yoki ularning nusxalari ilova sifatida keltirilishi mumkin.

**Ushbu variantning afzalliklari:** YAkuniy ball tizimi portfolioni talabanning ta'lim faoliyati bo'yicha reytingini aniqlashning asosiy mexanizmi, talaba umumiy reytingining asosiy tashkil etuvchisiga aylantiradi.

**Cheklanishlari, kamchiliklari:** bunday tipdagi portfolio faqat talaba faoliyati natijalari to'g'risida ma'lumot beradi. U talabanning shaxsiy rivojlanish jarayonini, uning turli sohalar bo'yicha ijodiy faolligini, o'qish uslubini va qiziqishlarini aniqlash imkonini bermaydi.

**«Hujjatlar portfoliosi»ning namunaviy tarkibi sxemasi va undagi materiallarni baholash mezonlari**

Faoliyat sohalari	Komponentlar	Natijalar (ballar)
Blok A Olimpiadalar	Viloyat: g'olib, shahar: g'olib, tuman: g'olib, OO'Yu: g'olib	5 4 3 2 1
Blok B Boshqa sertifikatlar	Qo'shimcha ta'lim tizimi muassasalari, OO'YU, jamoat fondlari, madaniy-ta'lim fondlarining tadbirlari va tanlovlari g'olibi. Fanlar bo'yicha kurslar ishtirokchisi, OO'YU yoki oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy	5 4 3 2 1

**2.«Ishlar portfoliosi»** - talabanning turli, jumladan ijodiy, loyihaviy, ilmiy-izlanish va boshqa sohalaridagi ishlari, uning o'quv va ijodiy faoliyatining asosiy shakl va yo'nalishlari, ilmiy anjumanlar, tanlovlar, o'quv oromgohlari, turli kurslardagi ishtiroki, turli amaliyotlar, sport va badiiy sohalaridagi muvaffaqiyatlari aks etadi. Bunday portfolio talabanning ijodiy kitobi sifatida yuritiladi va talabanning

turli sohalardagi ishlarining namunalari matn ko‘rinishida, elektron versiyalar, rasmlar, video yozuvlar shaklida ilova qilinadi.

**Afzalliklari:** Bunday tipdagi portfolio talabaning o‘quv va ijodiy faolligi dinamikasi, uning qiziqish yo‘nalishi, kasbga tayyorgarlik xarakteri to‘g‘risida keng tasavvur beradi.

**Cheklanishlari, kamchiliklari:** Portfolioning sifat jihatidan baholanishi yakuniy attestatsiya natijalarini to‘ldiradi, lekin talabaning umumiy ta‘lim reytingida asosiy tashkil etuvchi bo‘lib hisoblanmaydi.

### «Ishlar portfoliosi»ni to‘ldirishning namunaviy varianti

❖ **Loyiha ishlari.** Loyihaning mavzusi, qisqa mazmuni hamda ilova sifatida rasmlar, ishning bosma yoki elektron variantlardagi matnlari keltiriladi.

❖ **Tadqiqot ishlari va referatlar.** Referat mavzusi, hajmi (necha bet), illyustratsiyalar va b.

❖ **Texnik ijod.** Model, maket, asboblar. Aniq ishlar va ularning mazmuni (tuzilishi, ish prinsipi, texnik tavsifi) bayon etiladi.

❖ Ijodiy faollikning boshqa shakllari.

❖ **Elektiv kurs va fakultetlardagi ishtiroki.** Kurs nomi, muddati va o‘qish shakli ko‘rsatiladi.

❖ **Turli xil amaliyotlar.** Mehnat, ijtimoiy, til o‘rganish, pedagogik, malakaviy va b. Amaliyot nomi, joyi va davri yoziladi.

❖ **Qo‘shimcha ta‘lim muassasalari va turli xil o‘quv kurslaridagi mashg‘ulotlar.** Ta‘lim muassasasi yoki tashkilot nomi, o‘qish muddati va natijalari keltiriladi.

❖ **Olimpiada va tanlovdagi ishtiroki.** Tadbir nomi, o‘tkazilgan vaqti va talabaning natijasi qayd etiladi.

❖ **Ilmiy anjuman, seminarlardagi ishtiroki.** Tadbir mavzusi, tadbirni o‘tkazgan tashkilot, o‘quv muassasasi nomi va talaba ishtiroki shakli.

❖ **Sport bo‘yicha natijalari.** Sport musabaqalaridagi ishtiroki, sport razryadining mavjudligi.

❖ Boshqa faoliyat turlari.

**3. Taqrizlar portfoliosi.** Talabaning turli sohadagi faoliyati bo'yicha o'qituvchi, ota-onasi, kursdoshlari, qo'shimcha ta'lim tizimi xodimlari va boshqa shaxslarning xulosalari, taqrizlari hamda talabaning faoliyati va uning natijalari bo'yicha o'z tahlillaridan iborat bo'ladi.

**Afzalliklari:** Bu portfoliyo talabani o'quv-tarbiyaviy va kelajakdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni anglash darajasini kuchaytiradi hamda o'z-o'zini baholash mexanizmini yaratib beradi.

**Cheklanishlari, kamchiliklari:** To'plangan materiallarni bir shaklga keltirish va hisobga olishning murakkabligi.

**Taqrizlar portfoliosining namunaviy tarkibi:**

- bajarilgan ishlar sifati bo'yicha taqrizlar;
- qo'shimcha ta'lim muassasasining ijodiy guruhlaridagi ishlari, ilmiy-amaliy anjumanlardagi chiqishlari bo'yicha taqrizlar.
- talabaning o'z faoliyati bo'yicha xulosalari, baholari;
- keyingi faoliyati yoki keyingi bosqichdagi o'qishni qanday tashkil etish bo'yicha talabaning o'z xulosalari;
- amaliyotlar bo'yicha tavsiya xatlar;
- boshqa sohalar bo'yicha taqriz va xulosalar.

Yuqorida taklif etilgan portfoliyo modellarini tahlil qilgan va chuqur o'rgangan holda murakkab portfoliyo, ya'ni barcha modellarni birgalikdagi shaklida yoki oddiy, ushbu portfolioning bittasini yuritish mumkin.

Amalda portfolioning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

**4.«Portfoliyo-kollektor».** Bu portfoliyo talaba muallif bo'lmagan materiallardan iborat bo'ladi. Bunga o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan adabiyotlar, qo'llanma va ko'rsatmalar, elektron o'quv adabiyotlari, o'quv-vizual materiallar, maqolalar, lug'atlar yoki talabaning o'zi mustaqil topgan adabiyotlar hamda boshqa o'quv materiallari kiradi.

**5.«Jarayon portfoliosi»** talaba tomonidan o'quv, uslubiy, ilmiy-izlanish, ijodiy, axborot va ijtimoiy loyihalarni bajarish jarayonida erishgan bilimi va malakalarini mustaqil qo'llash malakasini namoyish qiladi. Portfoliyo talabaning

loyihalash jarayonidagi barcha bosqichlarni: muammoni aniqlash, loyihani ishlab chiqish, loyiha bo'yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etish, texnologik bosqich (loyihani amalga oshirish), yakuniy bosqich, taqdimot va loyihani baholashni o'z ichiga olishi kerak.

**6.«Ko'rsatkichlar portfoliosi»** talabaning biror bir soha bo'yicha mahoratini va ko'rsatkichlarini jamlash hamda ko'rsatish maqsadida yaratiladi. Unga talabaning o'zi yoki ustozlari tomonidan tanlagan eng yaxshi ijodiy ishlaridan namunalar qo'yiladi.

**7.«Baholash portfoliosi»** talabaning olgan bilimlari va malakasini nazorat qilish maqsadida tuziladi va u turli xil nazorat materiallaridan: nazorat ishlari, testlar, sxemalar, krossvordlar va boshqa topshiriqlardan iborat bo'ladi. Baholash portfoliosi o'qituvchi tomonidan mustaqil tuziladi va uni rejalashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan natijaga erishish uchun o'z vaqtida talabalarga taqdim etishi talab etiladi.

**8. «Yutuqlar portfoliosi»** talabaning o'quv-tarbiyaviy jarayondagi eng yaxshi ishlari va yutuqlarini ko'rsatuvchi hujjatlardan tashkil topadi. Bu portfolioga talaba o'z xohishi bilan o'zining eng yaxshi loyihalarini, olgan tashakkurnomalari, maqtov yorliqlari, diplomlari, taqrizlar va o'z faoliyatini namoyish qiluvchi rasmlarni kiritishi mumkin.

**9. «Talabaning elektron portfoliosi» - e-Portfolio.** Keyinga vaqtlarda rivojlangan davlatlarida **e-Portfolio** deb nomlanuvchi «Talabaning elektron portfoliosi» keng qo'llanilmoqda. Bu oddiy Word formatidagi papka bo'lmasdan, maxsus multimedia tizimida yaratilgan «portfolio» hisoblanadi. Talaba uni osonlik bilan to'ldirishi, tahlil qilishi, yangi materiallarni joylashtirishi, o'zi tanlagan axborotlarni boshqarishi mumkin.

**e-Portfolioning** uch xil shakli tavsiya etiladi:

- **Rivojlantirish portfoliosi- developmental** (rivojlanishning xususiy kompetensiyasi).
- Erishgan yutuqlar portfoliosi - **assessment**.
- Namoyish portfoliosi – **showcase**.

**Rivojlantirish portfolisi (*developmental*)** - shaxsiy yutuqlar va kamchiliklar refleksiyasi uchun qo'llaniladi. Bu bosqichda talaba va o'qituvchi o'rtasida o'zaro aloqa, munosabat, ta'sir asosiy rol o'ynaydi.

**Erishgan yutuqlar portfolisi (*assessment*)** - talabaning fan bo'yicha erishgan yutuqlari va bilimini aniq va to'g'ri baholash uchun xizmat qiladi.

**Namoyish portfolisi (*showcase*)** - o'quv kursini yakunida yaratiladi va talabaning olgan bilimlarini (tayyor kadr sifatida) potensial ish beruvchiga taqdim qilish yoki o'qishni davom ettirishga tavsiya etish maqsadida tashkil etiladi. Bu turli ko'rinishdagi *Curriculum Vitae* hisoblanadi.

**e-Portfolio** yuqorida keltirilgan uch variantning birgalikdagi ko'rinishida ham bo'lishi mumkin. Bunda multimedia axborotlardan ham foydalaniladi.

**e-Portfolio** talabaning o'zlashtirishi va turli sohalardagi erishgan yutuqlari monitoringini yuritishning prinsipial yangi, refleksiyaga asoslangan vositasi bo'lib, talaba bilimi natijalarini ball tizimida emas, balki sifat jihatdan baholash imkonini beradi. **e-Portfolioni** yaratish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan, masalan *Angel* qobig'i.

«**On-line-portfolio**» turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan:

- kursning umumiy saytida buning uchun maxsus ajratilgan bir qancha hujjatlar va materiallarni yuklash orqali talaba tomonidan tuzilishi mumkin;
- talabaning shaxsiy veb-varag'ini yaratish orqali tuzilishi va unga o'quv kursi bo'yicha o'z tushunchalari asosidagi hisobotlar kiritilishi mumkin.

### **Talaba portfoliosini baholash mezonlari**

Talaba o'z-o'zini baholashda o'z faoliyatiga tanqid nuqtai nazaridan qarashi, nima uchun aynan ushbu bo'lim yoki mavzularni tanlaganligini o'zi mantiqan bilishi, bu uning ushbu fan bo'yicha umumiy bilimida qanday rol o'ynashi mumkinligini ifoda etishi kerak. «Portfolio» yaratishdagi eng murakkab masala - taqdimotga loyiq materiallarni tanlash, ushbu materiallarga tushunarli tilda, ravon, mantiqan mazmunga boy va qisqa izoh yozish hisoblanadi. Materiallarni to'g'ri tanlash, ularga izoh yozish hamda uni ob'ektiv baholashda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:



### **Talaba faoliyati bo'yicha savollar:**

- Portfolioga material tanlashda siz qanday ishlarni amalga oshirdingiz?
- Nimaga erishdingiz, nimalarda qiynaldingiz?
- Portfolioda siz qiynalgan biror material bormi?
- Sizda portfolio yaratish bo'yicha mos namuna bormi?
- Axborotlarni qanday tashkil qildingiz?
- Muammolarni qaytadan yorita olasizmi (topshiriqni yanada oddiyroq so'zlar bilan)?
  - Qaysi so'zlar, iboralar bu erda ahamiyatliroq bo'ldi, nima uchun?
  - Muammoni qayta yoritish qanchalik ratsional bo'ldi?
  - Bu masala, muammo qanday savollarni keltirib chiqarishi mumkin?
  - Siz ushbu savollarga yaqinroq savollar tuza olasizmi?
  - Ushbu masalani yoki muammoni hal etishda siz uchun nimalar eng qiyin kechdi?

Ushbu masalani, muammoni echish bilan siz qanday yangi bilimlarga erishdingiz?

- Hayotda ushbu masala, muammogo o'xshash holatlar bo'lishi mumkinmi?
- Siz tavsiya etgan javob ushbu muammo echimining yagona yo'limi?
- Guruhiy ishlashga qanday munosabat bildirasiz?
- Mashg'ulotda sizga nimalar yoqadi, nimalar yoqmaydi?
- Ushbu masala sizning fan bo'yicha bilimlaringizni yanada ortdirishda foydali bo'ladimi?
  - Ota-onalar yoki taqrizchilarga savollar bera olasizmi?
  - «Portfolio»dan sizning birinchi taasurotingiz qanday?

### **O'qituvchi faoliyati bo'yicha savollar:**

Talabaning «portfolio» materiallarini taqdimot qilishida sizni nimalar hayron qoldirdi, siz kutmagan holatlar bormi?

- O'z ishingizdan faxrlanish hissi bormi?
- O'z talabangizga kelajakda yordam berish uchun nimalar qilmoqchisiz?

- «Portfolio» materiali qanchalik aniq va mantiqan to‘g‘ri tashkil etilgan?
- «Talaba» o‘z portfoliosini qanchalik mustaqil yaratdi?
- «Portfolio»ni tuzishda sizdan tez-tez maslahat oldimi?
- «Portfolio»ni tuzishda o‘zi mustaqil qanday materiallar va texnologiyalardan foydalangan?

Talaba portfoliosini taqrizchi tomonidan baholashda yuqorida keltirilgan savollardan asos sifatida foydalanish mumkin.

Yuqorida ta’kidlanganidek, talaba portfoliosini yaratishning turli xil yo‘llari va usullari mavjud. U albatta ta’lim yo‘nalishi yoki fanning xususiyatiga hamda portfolioning davomiyligiga (boshlanish va tugash vaqtiga) bog‘liq bo‘ladi.

Eng muhim va asosiy maqsad, talabani o‘zining shaxsiy ishlarini, yutuq va kamchiliklarini o‘zi ob’ektiv tahlil qila olishga, imkoniyat va qobiliyatlarini ko‘ra olishga, qiyinchiliklarni engish va yanada yuqoriroq yutuqlarga erishish yo‘llarini mustaqil aniqlay olishga o‘rgatishdan iborat. Bunday holda talabaning o‘quv jarayondagi o‘z faoliyatiga mas’uliyati yanada ongli ravishda kechadi. Bu erda otanalar va xolis taqrizchilarning faol ishtirok etishlari juda muhim hisoblanadi. Natijada talabaning ma’lum soha bo‘yicha ta’lim olishdagi ob’ektiv rivojlanishi o‘qituvchiga ham, talabaning o‘ziga ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Talabaning fan bo‘yicha bilimini, qobiliyatini, intilishlarini va kelajakdagi rejalarini xolisona va to‘g‘ri baholash sharoiti yaratiladi. Talabada o‘ziga ishonch yuzaga keladi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLII VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI  
FAKULTET**

**KURS, GURUH**

**TALABASINING O‘QUV**

**P O R T F O L I O S I**  
**(namuna)**

**Boshlanish sanasi 201\_\_ yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_**

**Tamom bo‘lish sanasi 201\_\_ yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_**

**Toshkent - 201\_\_ yil**

## 1.PORTFOLIO EGASI TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR

Familiyasi \_\_\_\_\_

Ismi \_\_\_\_\_

RASM

Sharifi \_\_\_\_\_

Tug'ilgan yili \_\_\_\_\_

Tug'ilgan joyi \_\_\_\_\_

Yashash manzili \_\_\_\_\_

Aloqa telefoni \_\_\_\_\_

Elektron pochtasi \_\_\_\_\_

Fakultet nomi \_\_\_\_\_

Kurs \_\_\_\_\_ guruh \_\_\_\_\_

M.O' Fakultet dekani \_\_\_\_\_

imzo

f.i.sh.



## FAN BO'YICHA TALABANING ERISHGAN YUTUQLARI

Shaxsiy faoliyat natijalari tahlili: \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

Nimani o'zlashtirish oson kechyapti: \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

Nimani o'zlashtirish qiyin kechyapti: \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

Qiyinchiliklar mohiyati nimada: \_\_\_\_\_

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---



## Bank auditi Fanidan test variantlari

Fan bobi	Fan	Qiyinlik darajasi	Test topshirig'i	To'g'ri javob	Mukobil javob	Mukobil javob	Mukobil javob
1	1	1	Audit so'zining kelib chiqishi va ma'nosi qanday?	*Audit «eshitaman» degan ma'noni bildiradi	audit - bu iqtisodiy tahlil yakunidir	audit - bu moliyaviy tahlil yakunidir	audit bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning barqarorligini bildiradigan foyda
1	1	1	<b>Tijorat banklarini audit qilishning xuquqiy asoslari nimalardan iborat?</b>	*«Markaziy bank tugrisida»gi, «Banklar va bank faoliyati tugrisida»gi, «Auditorlik faoliyati tugrisida»gi, «Buxgalteriya xisobi tugrisida»gi Konunlarga, bank va auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi konun va me'yoriy xujjatlar	Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Markaziy bank tugrisidagi konun, «Banklar va bank faoliyati tugrisida»gi konun, «Auditorlik faoliyati tugrisida»gi konun	Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Auditorlik faoliyati tugrisida»gi Konunga	Uzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Buxgalteriya tugrisida»gi Konunga
1	1	2	Auditor tekshiruvlariga zarurat qachon paydo bo'ldi?	*Bozor iqtisodiyotiga o'tish, mulkchilik shaklining o'zgarishi bilan o'z moliyaviy xolati to'g'risidagi ishonchli auditorlik xulosasiga zarurat tug'ildi.	Mustaqillik tufayli xususiy tadbirkorlarning rivojlanishi va raqobatni oshirish uchun	Xususiy banklarni rivojlantirish maqsadida bank risklarini shakllantirish uchun	1999 yil 2 oktyabr PF-2010 sonli Prezident farmoniga muvofiq
1	1	1	Аудитор» ким?	*Ташкилотларда текширув ишларини олиб борувчи ва камчиликларни бартараф қилувчи шахс	Аудитор малака сертификатиغا эга бўлган жисмоний шахс	жисмоний шахс	Тафтишчи
1	1	1	Auditorlik tashkilotiga qaysi javobda to'g'ri ta'rif berilgan?	*Auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.	auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir.	auditorlik faoliyatini amalga oshirish malaka sertifikatiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.	auditorlik faoliyatini amalga oshirish patentiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.
1	1	2	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining	*1996 yil 24 iyul	1994 yil 20 iyul	1992 yil 24 avgust	1996 yil 20 iyul



			«Bank auditini rivojlantirish to'g'risida» gi farmoni kachon qabul qilingan?				
1	1	1	Bank auditini tashkil qilish metodlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	*Tanlab tekshirish, yoppasiga tekshirish, Kombinatsiyalashgan, xujjatli	Tashqi va ichki audit	Savol- javob usuli	Tanlanma usuli
1	1	1	Auditorlik teshiruvini o'tkazish uchun shartnoma tuzishdan oldin Auditorlik tashkiloti tijorat bankiga ko'rsatishi lozim bo'lgan xujjat bu:	*Markaziy bank tomonidan berilgan sertifikat	Adliya vazirligining auditorlik ruxsatnomasi	Audit o'tkazish to'g'risidagi buyruq	Xisobot
1	1	2	Banklarda auditorlik tekshiruvlari	*Xar yili yillik xisobot buyicha o'tkaziladi	Xar 2 yilda bir marta o'tkaziladi	Xar 3 yilda bir marta o'tkaziladi	Xar 6 oyda bir marta o'tkaziladi
1	1	1	Audit guruxi va uning raxbari kim tomonidan tayinlanadi?	*Ichki audit departamenti ustidan raxbarlik qiluvchi Markaziy bank raisining o'rinbosari tomonidan	Kuzatuv kengashi tomonidan	Ta'sisichilar tomonidan	Moliya Vazirligi tomonidan
1	1	1	Bank auditini o'tkazish xuquqini beruvchi sertifikatni bekor qilinishi haqidagi qaror...	*Markaziy bank auditni o'tkazish xuquqi uchun sertifikat beruvchi va auditorlar malakasini attestatsiyadan o'tkazish komissiyasi tomonidan qabul qilinadi	Markaziy bank boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi	Tijorat bank auditini o'tkazish xuquqi uchun sertifikat beruvchi va auditorlar malakasini attestatsiyadan o'tkazish komissiyasi tomonidan qabul qilinadi	Vazirlar Maxkamasi tomonidan qabul qilinadi
1	1	2	Quyidagilardan qaysi biri har yili majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishi shart emas?	*ma'suliyati cheklangan jamiyatlar	aktsionerlik jamiyatlari	banklar va boshqa kredit tashkilotlari	sug'urta tashkilotlari
1	1	1	Majburiy auditorlik tekshiruvining o'tkazish muddati qanday?	*hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayigacha	hisobot yilidan keyingi yilning 1 fevraligacha	hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelogacha	hisobot yilidan keyingi yilning 1 martigacha

1	2	2	Tekshiruvni amalga oshirish davriga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?	*Dastlabki va kelishilgan	Majburiy va ixtiyoriy	Tashqi va ichki audit	Dastlabki va birinchi
1	2	1	Rivojlanish evolyutsiyasiga ko'ra auditning qanday turlari mavjud?	*Ichki va tashqi audit	Majburiy va ixtiyoriy	Ichki va dastlabki audit	Birinchi va dastlabki
1	2	1	Maqsadli sistemali auditning asosiy mohiyati nimada namoyon bo'ladi?	*muomala (operatsiya)larni nazorat qilish sistemasini kuzatish imkoniyati yaratiladi	hisob registrlari va hujjatlar tekshiriladi	sistemani nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga baho beriladi	yuqoridagilarning barchasi
1	2	2	Tavakkalchilikka asoslangan auditda asosiy e'tibor nimaga qaratiladi?	*sistemani nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga baho beriladi	hisob registrlari va hujjatlar tekshiriladi	muomala (operatsiya)larni nazorat qilish sistemasini kuzatish imkoniyati yaratiladi	yuqoridagilarning barchasi
1	2	2	Quyida keltirilgan javoblardan kaysi biri audit raxbari xuquqlariga kirmaydi	*Audit qilinayotgan tashkilotdan ayrim shaxslarning xizmat vazifalarini bajarishdan chetlashtirish	Audit qilinayotgan tashkilotdan ayrim shaxslarning xizmat vazifalariga tayinlash	Tartib buzarliklar aniqlangan xollarda bu xujjatlarni belgilangan tartibda olib qo'yish	Tekshirilayotgan muassasalarning mas'ul xodimlaridan tushuntirish xati talab kilish
1	2	1	Qonunga muvofiq auditorlik tashkiloti kapitalining qancha qismi bir yoki bir necha auditorlarga tegishli bo'lishi lozim?	*51 % dan ko'p qismi	25 % dan ko'p qismi	50 % dan ko'p qismi	67 % dan ko'p qismi
1	2	2	Auditorlik tekshiruvni rejalashtirish qaysi jarayondan boshlanadi?	*tekshiriladigan korxonada faoliyatini batafsil o'rganishdan	moddiylik darajasini aniqlashdan	korxonada hisob siyosatini o'rganishdan	tavakkalchilik darajasini aniqlashdan
1	2	2	Banklarni audit qilish xuquqi qanday auditorlik tashkilotlariga yuklatilgan?	*Markaziy bank tomonidan banklarda audit tekshiruvini o'tkazish xuquqini beruvchi sertifikatga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari	Moliya vazirligidan berilgan auditorlik sertifikatiga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari	Xalqaro auditorlik tashkilotlari	Milliy auditorlik tashkilotlari

1	4	2	Kassa 15 yanvarda audit qilinayotgan bo'lsa inkasso qilingan tushum qanchalik to'liq ko'rsatilgani qaysi kunga buxgalteriya xisobotiga qarab tekshiriladi?	*16 yanvardagi buxgalteriya sibobotiga qarab tekshiriladi	15 yanvardagi inkasso qilingan tushum 14 yanvardagi buxgalteriya xisobotiga qarab tekshiriadi	Oy oxiridagi buxgalteriya xisobotiga qarab tekshiriladi	14 yanvardagi buxgalteriya sibobotiga qarab tekshiriladi
1	5	2	Bakning qaysi bo'limi ishlarini tekshirishda odatda tanlanma usulidan foydalaniladi	*Kassa bo'limi operatsiyalari	Kredit bo'limi operatsiyalari	Valyuta bo'limi	Buxgalteriya bo'limi operatsiyalari
1	4	1	Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, ikassatsiya va qimmatliklarni tashishga doir yo'riqnoma qachon tasdiqlangan?	*2008 yil 17 may	2002 yil 14 iyunda	2005 yil 6 aprel	2008 yil 10 may
1	4	2	"Ko'zda tutilmagan xolatlar" xisobvrag'i bo'yicha kirim-chiqim operatsiyalari asosiligi qaysi xujjat asosida tekshiriladi?	*Balansdan tashqari orderlar, ishonchnomalar, pochta kvitantsiyalari	Balans xisobvrag'i va boyliklar ro'yxati bo'yicha	Balansdan tashqari orderlar, kvitantsiyalari	Balans xisobvrag'i bo'yicha
1	4	2	Kassa va kassa operatsiyalarini audit qilishda kimlar ishtirok etishi kerak?	*Bank boshqaruvchisi, bosh buxgalter va kassa bo'limi mudiri	Kassa bo'limi mudiri va bosh buxgalter	Kassa bo'limi mudiri va auditor	Kassa bo'limi mudiri
1	9	1	Tijorat banklari qaysi soliqlarni to'lamaydi?	*Aksiz solig'i	Daromad solig'i	Ekologiya solig'i	Er solig'i
1	6	1	Bank bergan kreditlarni tekshirganda auditor nimalarga e'tibor beradi?	*kredit siyosatiga, kredit portfeliga, kredit hujjatlar yig'majildiga	Bank jalb kilgan kreditlarga	Bank resurslariga	Bank kapitaliga
1	6	2	Bank olgan kreditlarni tekshirganda auditor nimalarga e'tibor beradi?	*Olgan kreditlar bo'yicha shartnoma shartlari bajarilishini	Bank tomonidan berilayotgan kredit	Kaytmayotgan kreditlar	Boshqa banklarga berilgan kreditlar
1	6	2	Muammoli kreditlarni audit	*standart, substandart,	Bank aktivlarini tekshirish	Qaytmagan kreditlarni	Kredit paketini rasmiylashtirish

			qilish qaysi javobda to'liq berilgan?	shubxali va umidsiz kreditlarni tekshirish		tekshirib, ularni oldini olish	ni tekshirish
1	5	1	To'lov topshiriqnomasi bo'yicha operatsiyalar necha kungacha xaqiqiy hisoblanadi?	*o'sha kunning o'zida	3 kungacha	10 kungacha	5 kungacha
1	1	2	Tijorat banklarida audit tekshiruvlari o'tkazish uchun ishlab chikilgan texnik vazifalar MB boshqaruvida qachon tasdiqlangan?	*1997 yil 10 mayda	1997 yil 15 dekabrda	1998 yil 12 avgustda	1998 yil 10 may
1	2	1	Quyida keltirilgan javoblardan qaysi biri audit raxbari huquqlariga kirmaydi?	*Audit qilinayotgan tashkilotdan ayrim shaxslarning xizmat vazifalarini bajarishdan chetlashtirish	Tekshirilayotgan muassasalarning mas'ul xodimlaridan tushintirish xati talab qilish	Ish soxalarini audit etish to'g'risida qaror qabul qilish	Tartib buzarlklar aniqlangan xollarda bu hujjatlarni belgilangan tartibda olib kuyish
1	2	2	Banklarda ichki audit xizmati bevosita kimga bo'ysunadi?	*Bank boshqaruvchisiga	Aksionerlar umumiy yig'ilishiga	Bank Kengashi yoki uning Auditorlik qo'mitasiga	Markaziy bankga
1	2	1	Tashqi bank audit o'tkazishning aniq muddatlari ko'rsatilgan ish rejaları kim tomonidan tasdiqlanadi?	*Belgilangan tartibda Markaziy bank Boshqaruvi majlisida tasdiqlanadi	Markaziy bankning viloyatdagi xududiy bo'limlari boshqaruvchilari tomonidan	Adliya Vazirligi tomonidan	Moliya Vazirligi tomonidan
1	2	1	Bank ichki audit guruxi va uning raxbari kim tomonidan tayinlanadi?	*Bank kengashi tomonidan	Ta'sischilar tomonidan	Ichki audit departamenti ustidan raxbarlik qiluvchi Markaziy bank raisining o'rinbosari tomonidan	Moliya Vazirligi tomonidan
1	9	2	Bank xarajatlarini auditdan o'tkazishda ular qanday turlarga ajratiladi?	*Foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarga ajratiladi	Foizli va foizsiz xarajatlarga ajratiladi	Foizsiz va operatsion xarajatlarga ajratiladi	Foizli va operatsion xarajatlarga ajratiladi
1	1	2	"Auditorlik	*29	35	2	21

			faoliyati to'g'risida”gi Qonun nechta moddadan iborat?				
1	2	2	Bank Kengashida ichki audit xizmati raxbarining hisobotini tinglash amaliyotga qachon qabul qilindi?	*1998 yil 2 oktyabr PF-2084 sonli Prezident farmoniga muvofiq	1998 yil 10 dekabr PF-2084 sonli Prezident farmoniga muvofiq	1998 yil 10 dekabr PF-2014 sonli Prezident farmoniga muvofiq	1999 yil 2 oktyabr PF-2010 sonli Prezident farmoniga muvofiq
1	1	2	O'zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?	*2000 y. 26-may	1992 y. 9-dekabr	2000 y. 10-dekabr	2002 y. 10-dekabr
1	2	1	Auditorlik dasturini ishlab chiqish va bajarish uchun kim javobgar?	*Bosh auditor	Auditorlik qo'mitasi	bank raisi	bank Kengashi
1	1	2	Auditorlik faoliyati deganda nimani tushunasiz ?	*Auditorlik faoliyati auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati	Auditorlik faoliyati – bankda reviziya o'tkazib uning balansiga tegishli xulosa berishdir	Auditorlik faoliyati – bankda buxgalteriya hisobi yuritilishini tekshiruv unga moliyaviy xulosa berishdir	Auditorlik faoliyati – bankni buyurtmasiga ko'ra uni xo'jalik faoliyatini o'rganib unga yuridik xulosa berishdir.
1	2	1	Auditorlik tekshiruvi rejasini ishlab chiqish uchun kim javobgar?	*Bosh auditor	Auditorlik qo'mitasi	bank raisi	bank Kengashi
1	1	1	Auditor – bu:	*auditor malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir	O'ta malakali rezizordir	Tajribali iqtisodchidir	Markaziy bankning ishonchli vakilidir.
1	2	2	Bir auditorlik tashkiloti tomonidan bank faoliyati ketma-ket necha marta audit qilinishi mumkin?	*3 marta	1 marta	2 marta	4 marta
1	2	2	“Tijorat banklarining ichki auditiga	*20. 04. 2004 y.	25. 03. 2003 y.	20. 03. 2005 y.	20. 04. 2006 y.

			Markaziy bank tomonidan ko'yiladigan talablar to'grisida" gi 992-1 sonli NIZOM (Yangi taxriri) qachon qabul qilingan ?				
1	2	1	Auditorlik tekshiruv shakllari ?	*majburiy va tashabbus	extiyoriy va rejali	erkin va tizimli	tanlash va guruxli.
1	10	2	Auditorlik dalillari deganda nimani tushinasiz ?	*Auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik tekshiruv vaqtida yig'ilgan va auditorlik xulosasini asoslovchi ma'lumot (axborot) lardir	Auditorlik tashkilotiga bildirilgan e'tiroz	Auditorlik tashkilotini aniqlamagan faktlari	Sud jarayonida aniqlangan dalillar.
1	10	1	Audit xizmati xodimlarinin javobgarligiga qaysi xolat kirmaydi?	*Audit natijalarini prokuraturaga taqdim qilish	Tekshirish natijalarini to'g'ri ko'rsatish	Qonun hujjatlariga muvofiq bank sirini tashkil etuvchi xar qanday ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashlik	Bankning tegishli bo'limlaridan olingan hujjatlar butunligini ta'minlamaslik va kaytarmaslik
1	10	1	Audit xizmati xodimlari (auditorlar) qaysi quyidagi talabga javob berishi shart emas:	*majburiy xarbiy xizmatda bo'lgan bo'lishi	bankning pul muomalasi, kredit, valyuta, depozit operatsiyalari yoki buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limlarida kamida bir yil ish stajiga ega bo'lishlari kerak.	bank Qonunchiligi soxasida bilimlarga ega bo'lishlari, shu jumladan Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarini bilishlari	Respublikada belgilangan buxgalteriya hisobi xamda umum qabul qilingan buxgalteriya hisobi va audit xalqaro standartlari koidalarini ko'llash bo'yicha bilimlarga ega bo'lishlari, shuningdek xalqaro standartlardagi o'zgarishlarga muvofiq maxsus kurslarda muntazam o'kishni o'tkazishlari.
1	6	1	Kredit operatsiyalari auditining maqsadi?	*Bank kreditlash faoliyatini va ichki nazorat tizimini ishonchliligini	Muammoli kreditlar bilan ishlashni tekshirish	Kreditlar bo'yicha daromadlarni tekshirish	Kredit foizlarni tekshirish

				to'g'ri va xolis baxolash			
1	6	2	Kredit operatsiyalari auditining vazifalari	*Kredit operatsiyalari bo'limi va kredit qo'mitasi faoliyatini tekshirish Kredit papkalari va Kredit portfelini tekshirish va kredit faoliyati tekshiruvlari bo'yicha auditorlik xulosaarini shakllantirish	Daromadlarni umumiy taxlilini amalga oshirish	Kredit foizlarini xisoblash va ular bo'yicha qaydnomalarni tekshirish	Kredit monitoringini tekshirish
1	6	2	Kredit operatsiyalari auditi uchun zarur axborot manbalarini ko'rsating	*Bank balansi va kredit portfeli	Kredit papkalari va ssuda xisobvaraqlari	Kredit foizlarini xisoblash va ular bo'yicha qaydnomalar	Kredit papkalari
1	6	2	Kredit portfeli buyicha kuyidagilar audit qilinadi:	*Kredit olish uchun berilgan buyurtmalarning maxsus kitodba ruyxatdan o'tkazilishi	Kredit turlari buyicha analitik xisoblarning yuritilish tartibi, arxivga topshirilishi	Muddati o'tgan kreditlarning uz vaktida buxg. Xisobvaraklarida aks ettirilishi tartibi	Muddati o'tgan kreditlarni tekshirish
1	6	2	Kredit operatsiyalari auditi uchun zarur axborot manbalarini ko'rsating	*Bank balansi va kredit portfeli Kredit papkalari foizlarini xisoblash bo'yicha qaydnomalar	Bank balansi va kredit portfeli	Kredit papkalari va ssuda xisobvaraqlari	Kredit foizlarini xisoblash va ular bo'yicha qaydnomalar
1	6	2	Kredit portfeli buyicha kuyidagilar audit qilinadi:	*Kredit turlari buyicha analitik xisoblarning yuritilish tartibi, arxivga topshirilishi Muddati o'tgan kreditlarning uz vaktida buxg. Xisobvaraklarida aks ettirilishi tartibi	Kredit turlari buyicha analitik xisoblarning yuritilish tartibi, arxivga topshirilishi	Muddati o'tgan kreditlarning uz vaktida buxg. Xisobvaraklarida aks ettirilishi tartibi	Kredit monitoringi
1	6	2	Kredit operatsiyalarini auditida qanday metodlardan foydalaniladi?	*Tanlanma metod	Analitik sinchiklab o'rganish So'rovnoma va og'zaki ma'lumot yig'ish	So'rovnoma	So'rovnoma, anketa
1	6	2	Tijorat banklarining kredit portfelini auditdan o'tkazish borasidagi	*Ichki audit tashkil etishdagi muammolar Tijorat banklari kredit faoliyatini	Tijorat banklarida kredit paketini to'g'ri rasmiylashtirilganligini	Bank faoliyatini tekshirishdagi muammolar	Bank balansi

			muammolarni to'g'risini belgilang	auditdan o'tkazishdagi muammolar			
1	6	2	Passiv kredit operatsiyalari mazmuni?	*Bank olayotgan kredit operatsiyalari tushiniladi	Bank tomonidan berilayotgan kredit	Kaytmayotgan kreditlar	Boshqa banklarga berilgan kreditlar
1	8	1	Valyuta xisob operatsiyalari buyicha audit quyidagilar qilinadi:	*Valyuta xisobvaraqlarning tugri ochilganligi, Operatsiyalarning uz vaktida to'liq rasmiylashtirilganligi Ekport va import operatsiyalari buyicha xisoblarning tugri olib borilishi	Valyuta xisobvaraqlarning tugri ochilganligi, Operatsiyalarning uz vaktida to'liq rasmiylashtirilganligi	Pul o'tkazmalari o'tkazish tartibiga rioya qilinishi	Ekport va import operatsiyalari buyicha xisoblarning tugri olib borilishi
1	8	1	Valyuta ayirboshlash shaxobchasini audit qanday meyoriy xujjatdan foydalaniladi:	*O'z.R.M.Bning 2002 yil 14 mart 1114 sonli "Ayirboshlash shaxobchalari to'g'risida"gi nizom	Mbning "Uzbekiston respublikasi banklarida arxiv ishlarini yuritish tartibi" yuriknomasi	Markaziy bankning tijorat banklarida valyuta shaxobchalari ochish rivojlantirish tug'risidagi nizomi	MBning "Uzbekiston respublikasi banklarida valyuta ishlarini yuritish tartibi" yo'riqnomasi
1	8	2	F'yuchers operatsiyalarining mazmuni	*Bugungi kelishilgan kurs bo'yicha kelajakda xisob-kitob qilish	Valyuta saqlanishi qoidalariga rioya etilishi.	Kelajakdagi valyuta kursi bilan maxsulot xaqini to'lash	Markaziy bankning valyuta operatsiyalari
1	8	2	Naqd chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalar tekshirilganda quyidagilarga e'tibor qaratiladi	*Valyuta saqlanishi qoidalariga rioya etilishi. Valyutaviy imtiyoziga amal qilinishi va daromad va xarajatlarning xisobini to'g'ri olib borilishi	Muddatli valyuta bitimlariga	Valyuta bo'yicha daromadlariga	Muddatli valyuta bitimlariga
1	1	2	Tijorat banklarini audit qilishning xuquqiy asoslari nimalardan iborat?	*«Markaziy bank to'g'risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi, «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi, «Buxgalteriya xisobi to'g'risida»gi Qonunlarga va Markaziy bankning audit haqidagi nizomi,	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunga	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Markaziy bank to'g'risidagi qonun, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonun, «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Buxgalteriya to'g'risida»gi Qonunga



				bank va auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun va me'yoriy xujjatlar		qonun	
1	1	1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank auditi tizimini rivojlantirish to'g'risida» gi farmoni qachon chikkan?	*1996 yil 24 iyul	1992 yil 24 iyul	1994 yil 26 iyul	1994 yil 20 iyul
1	1	1	Bank auditi turlarini ko'rsating	*Tashqi va ichki audit	Tashqi, ichki va xalkaro audit	Faqat ichki audit mavjud	Bank va tashkilotlar auditi
1	2	1	Tijorat banklarida ichki auditni tashkil etish...	*O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari ichki auditiga qo'yiladigan talablariga javob berishi shart	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidagi qonunga javob berishi shart	Bank va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonun talablariga javob berishi lozim	«Markaziy bank to'g'risida»gi Qonun talablariga javob berishi lozim
1	2	2	Banklarda auditorlik tekshiruvlari...	*Xar yili yillik xisobot bo'yicha o'tkaziladi	Xar 2 yilda bir marta o'tkaziladi	Xar besh yilda o'tkaziladi	Xar 6 oyda bir marta o'tkaziladi
1	10	1	Auditorlik tekshiruvlari yakunlanganda n sung qancha muddat ichida auditorlik xisoboti Markaziy bankga takdim etiladi?	*30 kun	10 kun	15 kun	25 kun
1	1	1	Bank auditini o'tkazish xuquqini baruvchi sertifikatni bekor qilinishi haqidagi qaror...	*Markaziy bank auditini o'tkazish xuquqi uchun sertifikat beruvchi va auditorlar malakasini attestatsiyadan o'tkazish komissiyasi tomonidan qabul qilinadi	Markaziy bank boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi	Vazirlar Maxkamasi tomonidan qabul qilinadi	Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi
1	2	2	Dastlabki nazorat qachon amalga oshiriladi?	*Operatsiya boshlanishidan avval	Litsenziya berishdan avval	Xafta boshida amalga oshiriladi	Oy boshida amalga oshiriladi
1	9	1	Tijorat banklari xarakatdan qonunlarga ko'ra nechta xisobot topshiriladi?	*12	10	15	7
1	5	2	Banklarda xisobvaraqlar	*6	3	2	5

			rejasi nechta bo'limdan iborat?				
1	9	1	Tijorat banklariga beriladigan litsenziya nechta asosiy operatsiyalarga beriladi?	*13	15	18	21
1	2	1	Bank auditini tashkil qilish metodlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	*kombinatsiyalangan, xujjatli	yoppasiga tekshirish, tashqi audit	tanlab-tanlab tekshirish, ichki audit	yoppasiga tekshirish
1	10	1	Auditorlik xulosasi nechta qismdan iborat?	*3	4	5	6
1	10	2	Auditoridan beriladigan xulosalar turlari nechta?	*3	4	5	6
1	9	2	Tijorat banklari uchun o'rnatilgan joriy likvidlik koeffitsienti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	*30 %	35 %	15 %	20 %
1	5	2	Bank xisobvaraqlar rejasida «Kapital» bandi qaysi bo'lim bo'lib xisoblanadi?	*3	4	2	5
1	4	2	Tijorat banklarida kassa va pul muomalasi ishlari qaysi yo'riqnomaga asosan yuritiladi?	*№1831 yo'riqnomaga	№ 60 yo'riqnomaga	№ 61 yo'riqnomaga	№ 23 yo'riqnomaga
1	9	2	Tijorat banklari Markaziy bank talablariga javob bermaganligi uchun jarima miqdori qanchaligini aniqlang?	*ustav kapitalining 0,1 % miqdorida	ustav kapitalining 0,01 % miqdorida	ustav kapitalining 0,3 % miqdorida	ustav kapitalining 0,05 % miqdorida
1	2	2	Banklarda o'tkaziladigan ichki auditning moxiyati qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?	*Bank filiallari faoliyatini tekshirish, bank faoliyatida risklarni kamaytirish va	Bank faoliyatida risklarni kamaytirish va daromadni oshirish	Bank bo'limlari faoliyatini tekshirish	Risklarni kamaytirish

				<b>daromadni oshirish</b>			
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>1</b>	Qaysi operatsiyalarning xujjatlari amaliyotida odatda tanlama yo'l bilan tekshiriladi?	*Kassa	Ssuda	Kredit	Valyuta
<b>1</b>	<b>9</b>	<b>2</b>	Tijorat banklari qaysi soliqlarni tulamaydi?	*Ekologiya soligi	Er soligi	Umuman to'lamaydi	Daromad soligi
<b>1</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	Aktiv kredit operatsiyalarini tekshirayotgan auditor nimalarga e'tibor beradi?	*Bank berayotgan kreditlarga	Bank jalb kilgan kreditlarga	Bank resurslariga	Boshqa banklardan olingan kreditlarga
<b>1</b>	<b>6</b>	<b>1</b>	Passiv kredit operatsiyalari mazmuni?	*Bank olayotgan kredit operatsiyalari tushiniladi	Bank tomonidan berilayotgan kredit	Boshqa banklarga berilgan kreditlar	Boshqa banklardan olingan kreditlar
<b>1</b>	<b>6</b>	<b>2</b>	Muammoli kreditlarni audit qilishning mazmuni qaysi javobda berilgan?	* muddatida qaytmagan kreditlarni tekshirib, ularni oldini olish	Bank passivlarini tekshirish	Bank aktivlarini tekshirish	Standart kreditlarni
<b>1</b>	<b>5</b>	<b>2</b>	To'lov topshiriqnomasi bo'yicha operatsiyalar necha kungacha xaqiqiy xisoblanadi?	*usha kunning uzida	10 kungacha	5 kungacha	7 kungacha
<b>1</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	Tijorat banklarida audit tekshiruvlari o'tkazish uchun jaxon banki mutaxassislari bilan birgalikda texnik topshiriqlar ishlab chikilgan edi, bu texnik vazifalar Markaziy Bank boshqaruvida qachon tasdiklangan?	*1997 yil 10 mayda	1997 yil 15 dekabrda	1998 yil 12 avgustda	1998 yil 10 may
<b>1</b>	<b>10</b>	<b>1</b>	Quyida keltirilgan javoblardan qaysi biri audit raxbari xuquqlariga kirmaydi?	*Audit qilinayotgan tashkilotdan ayrim shaxslarning xizmat vazifalarini bajarishdan chetlashtirish	Ish soxalarini audit etish to'g'risida qaror qabul qilish	Tekshirilayotgan muassasalarning mas'ul xodimlaridan tushintirish xati talab qilish	Tartib buzarlklar aniqlangan xollarda bu xujjatlarni belgilangan tartibda olib kuyish
<b>1</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	O'zbekiston	*25 noyabr, 2000	18 aprel, 2000 yil	22 dekabr,	30 yanvar, 2001

			Respublikasining «Markaziy Bankning tijorat banklarining ichki auditiga kuyadigan talablari to'g'risida» gi Nizomi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan qachon tasdiqlangan va nechanchi son bilan ruyxatga olingan?	yil		2000 yil	yil
1	2	1	Audit o'tkazishni aniq muddatlari ko'rsatilgan ish rejalari kim tomonidan tasdiqlanadi?	*Belgilangan tartibda Markaziy bank Boshqaruvi majlisida tasdiqlanadi	Markaziy bankning viloyatdagi xududiy bo'limlari boshqaruvchilari tomonidan	Adliya Vazirligi tomonidan	Moliya Vazirligi tomonidan
1	10	1	Audit guruxi va uning raxbari kim tomonidan tayinlanadi?	*Ichki audit departamenti ustidan raxbarlik qiluvchi Markaziy bank raisining o'rinbosari tomonidan	Moliya Vazirligi tomonidan	Adliya Vazirligi tomonidan	Ta'sischi tomonidan
1	2	1	Auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun shartnoma tuzishdan oldin auditorlik tashkiloti tijorat bankiga nimani kursatishi shart?	*Markaziy bank tomonidan berilgan sertifikat	Audit o'tkazish to'g'risidagi buyruk	Adliya Vazirligining auditorlik ruxsatnomasi	Moliya vazirligi tomonidan berilgan sertifikat
1	9	2	Bank xarajatlarini auditdan o'tkazishda ular qanday turlarga ajratiladi?	*Foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarga ajratiladi	Foizli va foizsiz xarajatlarga ajratiladi	Foizsiz va operatsion xarajatlarga ajratiladi	Foizli va operatsion xarajatlarga ajratiladi
1	1	1	Tijorat banklarida audit tekshiruvlari o'tkazish uchun jaxon banki mutaxassislari bilan birgalikda texnik topshiriqlar ishlab chikilgan edi, bu texnik vazifalar Markaziy Bank	*1997 yil 10 mayda	1997 yil 15 dekabrda	1998 yil 12 avgustda	1998 yil 10 may

			boshqaruvida qachon tasdiqlangan?				
1	2	2	Bank Kengashida ichki audit xizmati raxbarining xisobotini tinglash amaliyotga qachon qabul kilindi?	*1998 yil 2 oktyabr PF-2084 sonli Prezident farmoniga muvofiq	1998 yil 10 dekabr PF-2084 sonli Prezident farmoniga muvofiq	1998 yil 10 dekabr PF-2014 sonli Prezident farmoniga muvofiq	1999 yil 2 oktyabr PF-2010 sonli Prezident farmoniga muvofiq
1	10	2	Qanday xollarda auditorlik tashkilotlari va auditorlarning bank faoliyati tekshiruvi to'g'risidagi xisoboti xaqiqiy xisoblanadi?	*Auditorlik tashkiloti yoki auditor bank bilan aloqador shaxs bo'lsa, auditorlik tashkiloti yoki auditorning bankdan pul qarzi bo'lsa, auditorlik xisoboti auditor yoki auditorlik tashkilotining xisobotini shu auditorlik tekshiruvini o'tkazgan xamda bank faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun sertifikatini bor auditor imzolamagan bo'lsa	Auditorlik xisoboti auditor yoki auditorlik tashkilotining xisobotini shu auditorlik tekshiruvini o'tkazgan xamda bank faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun sertifikatini bor auditor imzolamagan bo'lsa	Auditorlik tashkiloti yoki auditor bank bilan aloqador shaxs bo'lsa	Auditorlik tashkiloti yoki auditorning bankdan pul qarzi bo'lsa
		1	Audit suzi qaysi tildan olingan bo'lib, qanday ma'noni anglatadi?	*Audit lotin suzidan olinan bo'lib, «eshitaman» degan ma'noni anglatadi	Audit inglizcha suz bo'lib, «eshitaman» degan ma'noni anglatadi	Audit lotincha suz bo'lib, tekshirish, taftish degan ma'noni anglatadi	Audit lotincha suzdan olingan bo'lib, uz-uzini boshqarish degan ma'noni anglatadi
		1	Bank xarajatlarini auditdan o'tkazishda qanday turlariga ajratiladi?	*Foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarga ajratiladi	Foizli va foizsiz xarajatlarga ajratiladi	Foizsiz va operatsion xarajatlarga ajratiladi	Foizli va operatsion xarajatlarga ajratiladi
1	1	2	O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 405-sonli «tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablari to'g'risida»gi Nizom qachon	*2000 y. 25 noyabr	1998 yil 10 iyul	1999 yil 10 may	1999 yil 6 dekabr

			qabul kilindi?				
1	2	2	Bank Kengashida ichki audit xizmati raxbarining xisobotini tinglash amaliyotga qachon qabul kilindi?	*1998 yil 2 oktyabr PF-2084 sonli Prezident farmoniga muvofiq	1998 yil 10 dekabr PF-2084 sonli Prezident farmoniga muvofiq	1998 yil 10 dekabr PF-2014 sonli Prezident farmoniga muvofiq	1999 yil 2 oktyabr PF-2010 sonli Prezident farmoniga muvofiq
1	2	1	Bank Kengashida ichki audit xizmati raxbarining xisoboti qanday muddatlarda tinglanadi?	*Xar oyda bir marta tinglanadi	Xar oyda bir marta tinglanadi	Xar yilda bir marta tinglanadi	Xar 6 oyda bir marta tinglanadi
1	2	2	Qanday xollarda auditorlik tashkilotlari va auditorlarning bank faoliyati tekshiruvi to'g'risidagi xisoboti xaqiqiy xisoblanmaydi?	*Auditorlik tashkiloti yoki auditor bank bilan aloqador shaxs bo'lsa, auditorlik tashkiloti yoki auditorning bankdan pul qarzi bo'lsa, auditorlik sertifikatini bor auditor imzolamagan bo'lsa	Auditorlik tashkiloti yoki auditor bank bilan aloqador shaxs bo'lsa	Auditorlik tashkiloti yoki auditorning bankdan pul qarzi bo'lsa	Auditorlik xisoboti auditor yoki auditorlik tashkilotining xisobotini shu auditorlik tekshiruvini o'tkazgan xamda bank faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun sertifikatini bor auditor imzolamagan bo'lsa
1	2	1	Auditorlik tashkilotlari va auditorlar qanday xollarda bankda audit o'tkazish xuquqiga ega emaslar?	*Auditorlik tashkilotlari va auditorlardan uzlari bank faoliyat, buxgalteriya xisobotlarini rasmiylashtirish, shuningdek, ichki auditini tashkil etish va amalga oshirish yuzasidan konsalting xizmatlari kursatsalar	Auditorlik tashkiloti raxbari bank raxbari bilan aloqador bulganda	Auditorlik tashkiloti va bank binosi bir-biriga aniq joylashgan bo'lsa	Auditorlik tashkiloti va bank binosi bir-biriga aniq joylashgan bulmasa
1	5	1	Kassa 15 yanvarda audit qilinayotgan bo'lsa, inkasso qilingan tushum qanchalik to'liq ko'rsatilgani qaysi kunga buxgalterik xisobotga qarab tekshiriladi?	*15 yanvarda audit qilinayotgan bo'lsa, inkasso qilingan tushum qanchalik to'liq ko'rsatilgani 14 yanvardagi buxgalterik xisobotga qarab tekshiriladi	15 yanvarda audit qilinayotgan bo'lsa, 13-14 yanvardagi buxgalterik xisobotga qarab tekshiriladi	15 yanvarda audit qilinayotgan bo'lsa, 5 yanvardagi buxgalterik xisobotga qarab tekshiriladi	5 yanvarda audit qilinayotgan bo'lsa, 16 yanvardagi buxgalterik xisobotga qarab tekshiriladi

1	2	2	Yalpi audit o'tkazish muddati odatda necha kundan oshmasligi kerak?	*30 kun	5 kun	45 kun	60 kun
1	10	1	Quyida keltirilgan javoblardan qaysi biri audit raxbari xukuklariga kirmaydi?	*Audit qilinayotgan tashkilotdan ayrim shaxslarning xizmat vazifalarini bajarishdan chetlashtirish	Ish soxalarini audit etish to'g'risida qaror qabul qilish	Tekshirilayotgan muassasalarning mas'ul xodimlaridan tushintirish xati talab qilish	Tartib buzarlklar aniqlangan hollarda bu xujjatlarni belgilangan tartibda olib kuyish
1	2	2	Bank auditi turlarini ko'rsating	*Tashqi va ichki audit	Tashqi, ichki va xalkaro audit	Fakat ichki audit mavjud	Bank va tashkilotlar auditi
1	2	2	Audit o'tkazishnin aniq muddatlari ko'rsatilgan ish rejalari kim tomonidan tasdiqlanadi?	*Belgilangan tartibda Markaziy bank Boshqaruvi majlisida tasdiqlanadi	Markaziy bankning viloyatdagi xududiy bo'limlari boshqaruvchilari tomonidan	Adliya Vazirligi tomonidan	Moliya Vazirligi tomonidan
1	2	1	Audit guruxi va uning raxbari kim tomonidan tayinlinida?	*Ichki audit departamenti ustidan raxbarlik qiluvchi Markaziy bank raisining o'rinbosari tomonidan	Kuzatuv kengashi tomonidan	Ta'sisichilar tomonidan	Moliya Vazirligi tomonidan
1	2	1	Auditorlik tekshiruvi o'tkazish uchun	*Markaziy bank tomonidan berilgan	Adliya Vazirligining	Audit o'tkazish to'g'risidagi	Xisobot
1	10	2	shartnoma tuzishdan oldin auditorlik tashkiloti tijorat bankiga nimani kursatishi shart?	*sertifikat	auditorlik ruxsatnomasi	buyruk	
1	1	2	Markaziy bank bank auditi o'tkazilayotganda ishtirok etadimi?	*Xa, ishtirok etadi, me'yoriy xujjatlarga, tartib va metodologiyaga rioya etilishini nazorat qiladi	Yo'q, ishtirok etmaydi	Xa, ishtirok etadi ba'zi xollarda	Xa, auditorlar Mbga o'tkazilgan auditorlik tekshiruvdan xisobotni takdim etadilar
1	1	1	Qachon auditorlik tashkilotlari va auditorlarning bank faoliyati tekshiruvi to'g'risidagi xisoboti xaqiqiy xisoblanmaydi? noto'g'ri javobni toping)	*Auditor yordamchilariga topshirganda yoki boshqa auditorlar tayyorlagan materiallardan foydalanganda	Auditorlik tashkiloti va auditor banki bilan aloqador shaxs bo'lsa	Auditorlik tashkiloti yoki auditorning bankdan pul qarzi bo'lsa	Auditorlik xisoboti auditor yoki auditorlik tashkilotining xisobotini shu auditorlik tekshiruvini o'tkazgan xamda bank faoliyatini auditorlik tekshiruvdan

							o'tkazish xuquqi uchun sertifikatini bor auditor imzolamagan
1	2	2	Bank kengashi tijorat banki auditorlik xisobotini olgan vaqtdan boshlab qancha muddatda Markaziy bankka xisobot berilishi lozim?	*30 kun	60 kun	45 kun	10 kun
1	2	2	Auditorlik tekshiruvlari yakunlanganda nunga necha kun muddat ichida auditorlik xisobotini Markaziy bankka takdim etish tijorat banklarining majburiyatiga kiradi?	*10 kun	30 kun	60 kun	15 kun
1	1	1	Markaziy Bank tomonidan auditorlarga sertifikat berish, auditorlarni malaka attestatsiyasidan o'tkazish komissiyasi a'zolari necha kishidan iborat buladi?	*7 kishi	3 kishi	5 kishi	10 kishi
1	10	2	Komissiya ko'rib chiqishi uchun tayyorlangan xujjatlar majlisga kamida necha kun kolganda komissiya raisiga topshirilishi kerak?	*3 kun	2 kun	5 kun	7 kun
1	2	2	Bank auditi xuquqini o'tkazish uchun malaka sertifikatini auditorga qanday muddatga beriladi?	*3 yil	1 yil	5 yil	2 yil
1	2	2	Markaziy Bankning bank	*O'zbekiston Respublikasi	O'zbekiston Respublikasi	Markaziy Bank raisiga	Moliya vazirligi



			auditi o'tkazish xuquqi uchun sertifikat bermaslik yoki uni bekor qilish to'g'risidagi qarorlari xususida qaerga shikoyat qilishlari mumkin?	sudlariga	Vazirlar Maxkamasiga		
1	2	1	Bank auditi o'tkazish xuquqini beruvchi sertifikat Markaziy Bank tomonidan tarkibida bank auditi o'tkazish xuquqini beruvchi malaka sertifikatiga ega qancha auditor bulgan auditorlik tashkilotiga beriladi?	*2 ta	1 ta	3 ta	bermaydi
1	2	2	AT «Turon» banki «Ichki audit» xizmatining Ichki audit tekshiruvlarini o'tkazish tartibi va jarayonlari dasturida quyidagilardan qaysi biri keltirilgan?	*Emissiya-kassa ishlarini tekshirish, bank kredit portfeli va operatsiyalarini tekshirish, ijro intizomiga va ichki ish tartibiga rioya qilinishi axvolini tekshirish	Emissiya-kassa ishlarini tekshirish	Bank kredit portfeli va operatsiyalarini tekshirish	Ijro intizomiga va ichki ish tartibiga rioya qilinishi axvolini tekshirish
1	2	1	Dastur bo'yicha buxgalteriya ishlarini tekshirishda Markaziy Bankning qaysi yo'riqnomalaridan foydalaniladi?	*1,27,60,61	1,8,24,61	14,21,38,60	9,22,51,62
1	2	1	AT «Turon» banki Boshqaruvi tomonidan 2001 yil 17 oktyabrda tasdiqlangan «Aktivlar, passivlar, daromadlar va xarajatlar xamda kuzda tutilmagan	*Buxgalteriya xisobi va xisoboti operatsiyalarini tekshirishda	Balansdan tashkari aktivlar xolatini tekshirishda	Balansning boshqa aktivlarini tekshirishda	Bank kredit portfeli va operatsiyalarini tekshirishda

			xolatlar xisobvaraglari xisobi bo'yicha Buxgalteriya xisobi va xisoboti boshqarmasining tavsianomasi»dan qanday tekshiruvlar o'tkazishda foydalaniladi?				
1	2	1	Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari amaliyotlarining to'g'riligi, xarajatlarning tegishli xisob rakamlarida to'g'ri aks ettirilganligi Markaziy Bankning qaysi xujjatlari asosida tekshiriladi?	*61-yo'riqnoma 290-sonli xisobvaraqlar rejasi	52-yo'riqnoma 290-sonli xisobvaraqlar rejasi	67-yo'riqnoma 275-sonli xisobvaraqlar rejasi	63-yo'riqnoma 275-sonli xisobvaraqlar rejasi
1	2	2	O'zbekiston Respublikasining «Markaziy Bankning tijorat banklarining ichki auditiga kuyadigan talablari to'g'risida» gi Nizomi O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan qachon tasdiklanganva nechanchi son bilan ruyxatga olingan?	*20 aprel 2004y., №992-1 MB -№571	18 aprel, 2000 yil	22 dekabr, 2000 yil	30 yanvar, 2001 yil